

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDUVALI BERDIALIYEV  
IXTIYOR ERMATOV**

**HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI**

**LEKSIKOLOGIYA, FRAZEOLOGIYA,  
LEKSIKOGRAFIYA**

*Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va  
adabiyoti bakalavri talabalari uchun darslik*

Toshkent  
«TURON-IQBOL»  
2021

UO‘K 801.83

KBK 81,21

B 32

Berdialiiev Abduvali, Ermatov Ixtiyor. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Darslik.  
– T.: «TURON-IQBOL» nashriyoti, 2021. – 204 b.

Darslik – 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavri yo‘nalishida tahsil olayotgan universitet va pedagogika oliv o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti talabalari uchun tayyorlangan. Darslikda o‘zbek tilining lug‘at tarkibi (leksikasi), frazeologik tizimi jahon va o‘zbek tilshunosligining so‘nggi yillarda erishgan yutuqlari asosida yoritildi. Darslikning uchinchi – oxirgi qismi ilmiy lug‘atchilik (leksikografiya) masalalariga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek leksikografik tizimidagi filologik, ensiklopedik va ideografik lug‘atlar va ularning konkret turlari haqida ma’lumot beriladi. Kitob universitet va pedagogika oliv o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavrлaridan tashqari, akademik litsey, shuningdek, umumta’lim maktablarining o‘zbek tili o‘qituvchilariga mo‘ljallangan. Undan tilshunoslik masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy xodimlar, magistrлar va aspirantlar ham foydalanishi mumkin.

**Mas’ul muharrir:**

filologiya fanlari doktori,  
professor *Y.Tojiyev*

**Taqrizchilar:**

filologiya fanlari doktori,  
professor *T.Mirzaqulov*  
filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent *J.Abdullayev*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug‘iga asosan 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi bakalavri talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.(Guvoхnom raqami – 237-320).*

**ISBN 978-9943-14-813-0**

© Ermatov Ixtiyor, 2021  
© «TURON-IQBOL», 2021

## **SO‘ZBOSHI**

Bu kitobda universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari o‘quv rejasidagi eng yirik va asosiy predmet hisoblanuvchi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” sikliga daxldor eng murakkab hodisalar tizimi haqida ma’lumot beriladi. Shu bois kitob filolog-talabalarga mo‘ljallangan darslik vazifasida xizmat qiladi.

Darslikda o‘zbek tili qurilishida muhim va asosiy sanaluvchi lug‘at boyligi o‘rganiladi. Ma’lumki, har qanday tilni shu til egasi bo‘lmish xalqning milliy va ma’naviy boyligi sanaluvchi so‘zlarsiz tasavvur etish qiyin. Zero, so‘z boyligi til boyligini belgilovchi mezondir. Til boyligi esa xalqning ma’naviy boyligini belgilashga xizmat qiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida, eng keyingi leksikografik manbalarning guvohlik berishicha, 80 mingdan ortiq so‘z va so‘zga muqobil lisoniy birliklar mavjud. O‘zbek tili leksikologiyasi tilshunoslik fanining bir sohasi sifatida ana shu boylikni o‘rganadi.

Mazkur darslikda o‘zbek tili lug‘at tarkibi va uning birliklari an’anaviy tilshunoslik moyalari asosida o‘rganilgan. Shu bois u til lug‘at tarkibini sistem-struktur tadbillar asosida o‘rganuvchi sistem leksikologiyadan farq qiladi. Ko‘p yillik tajribalardan shu narsa aniq seziladiki, talabalar til hodisalarining an’anaviy tahlil usullarini yaxshi va mukammal tushunmasdan turib, ularning sistem-struktur tilshunoslik talabidagi talqinini oson o‘zlashtira olmaydi. Ana shu holatni hisobga olib, mazkur darslikni “O‘zbek tilining an’anaviy leksikologiyasi va frazeologiyasi” deb atash mumkin.

Darslik, garchand o‘zbek tilining an’anaviy leksikologiyasi va frazeologiyasi xarakterini kasb etgan bo‘lsa-da, unda tilshunoslik

fanining shu sohalarda qo‘lga kiritgan so‘nggi yillar yutuqlari uning mundarijasidan munosib o‘rin olgan. Chunki “an’anaviy” atamasi ostida til hodisalarining bundan bir-ikki asr oldingi talqini va tavsifi tushunilmaydi. “An’anaviy”lik til hodisalarining tahlil moyalariga nisbatangina ishlatiladi va ana shu jarayonlardagina ko‘zga tashlanadi. Darslikka o‘zbek tilshunosligida shu soha bo‘yicha hozirgi davrgacha yaratilgan darslik va qo‘llanmalardagi mazmun va mundarija asos qilib olindi. Biroq bu narsa mazkur darslikning o‘zbek tili leksikasini an’anaviy tarzda o‘rgangan oldingi darsliklardan farq qilmaydi degan xulosaga olib bormasligi kerak.

Mazkur darslik, mavzularning berilishi va joylashtirilishi nuqtai nazaridan, oldingi darsliklardan farq qilmasa-da, har bir mavzuning yoritilishida, mavzu taqozosidagi lisoniy hodisalar talqini va tahlilida jiddiy farqlar mavjud. Bu darslikda lug‘aviy hodisalar tabiatiga an’anaviy tilshunoslikning so‘nggi yillarda qo‘lga kiritgan barcha yutuqlari asosida yondoshilgan. Shuning uchun qo‘lingizdagi mazkur darslikning an’anaviy tilshunoslik bilan zamonaviy, ya’ni sistem tilshunoslik oralig‘idagi, ularni o‘zaro uzviy bog‘lashga xizmat qiluvchi ta’limiy rahnama vazifasini o‘tashi shubhasiz. Bu darslik materiallarini puxta o‘zlashtirgan talaba o‘zbek sistem leksikologiyasi mundarijasidagi barcha lug‘aviy, mazmuniy hodisa va kategoriyalarning yangicha, zamonaviy talqinini oson tushuna oladi va ularni yengil o‘zlashtira oladi.

Darslikning “Leksikologiya” va “Frazeologiya” deb nomlanuvchi ikki yirik qismi professor A.Berdialihev tomonidan yozilgan. “Leksikografiya” (“Lug‘atshunoslik”) deb nomlangan uchinchi qismi dotsent I.Ermatov qalamiga mansub.

Bu kitob o‘zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi va lug‘atshunosligi bo‘yicha darslik bo‘lganligi uchun, unda ayrim kamchilik va nuqsonlarning bo‘lishi tabiiy.

Mualliflar ana shu kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishni ko‘zda tutgan qimmatli hamda o‘rinli taklif va e’tirozlarni samimiyat hamda mammuniyat bilan qabul qilishadi.

## **KIRISH**

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” – bu fan, ijtimoiy fanlarning bir turi. Bu fan eng yirik va e’tiborli turkiy xalqlardan biri – o‘zbek millatining aloqa-aratashuv qurolini – o‘zbek tilini o‘rganadi. O‘zbek millatiga mansub aholining asosiy qismi O‘zbekistonda bo‘lganligi uchun, o‘zbek tili mamlakatimizda davlat tili maqomida faoliyat yuritadi. Shuningdek, o‘zbek tili O‘zbekistonga qo‘sni Afg‘oniston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Turkmaniston Respublikalarida ikkinchi yerli aholi hisoblanuvchi o‘zbeklarning ham tilidir.

O‘zbek millatiga mansub aholi dunyoning deyarli barcha yirik mamlakatlarida, masalan, Amerika Qo‘sma Shtatlarida, Saudiya Arabistonida, Afg‘onistonda, Germaniya, Ukraina, Rossiyaning Sibir o‘lkasida va b. istiqomat qiladi. O‘zbek tili Dunyoning 50 millionga yaqin aholisining ona tilisi hisoblanadi. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fan sifatida ana shuncha aholining muloqot vositasini ilmiy o‘rganuvchi ta’limiy vositadir.

O‘zbek tili o‘ziga xos fonetik, lug‘aviy va grammatik qurilishga ega. Til qurilishining o‘ziga xosligi tufayli, u o‘ttizga yaqin turkiy tillarning har biridan farq qiladi. Hozirgi o‘zbek tili o‘zbek millatining urug‘, qabila, elat, xalq va millat tili kabi taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan yagona tilidir.

Bu fan o‘rganadigan obyekt hozirgi o‘zbek adabiy tilidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘zbek millatiga mansub barcha shaxslar uchun, ularning hududiy va ijtimoiy farqlaridan qat’iy nazar, mushtarak bo‘lgan tildir. Badiiy, davlat va ijtimoiy tashkilotlar, ilmiy-uslubiy adabiyot, ommaviy axborot, ta’lim-tarbiya muassasalari, rasmiy idora ish qog‘ozlari – bularning barcha-barchasi o‘zbek adabiy

tilida olib boriladi. Shu bois o‘zbek adabiy tili ayrim hududlar, ijtimoiy guruh va tabaqalar so‘zlashadigan o‘zbek tilidan farq qiladi. **O‘zbek adabiy tili** o‘zbek tili qurilishining hamma jabhalari me’yorlashtirilgan, qayta ishlangan va standartlashtirilgan tildir.

O‘zbek millatining muloqot vositasi bo‘lgan **hozirgi o‘zbek tili** shu davrning o‘zida shakllanib, bu holatga kelgan emas. Uning mustaqil lison sifatida shakllanishi uzoq va uzoq tarixga ega. O‘zbek tilining mustaqil va rasmiy lisonga aylanishi shu til jamoasining mustaqil etnik jamoalik, ya’ni xalqlilik maqomini qo‘lga kiritgan uzoq tarixiga borib taqaladi.

O‘zbek tili juda qadim yozma an’analarga ega bo‘lgan tillardan biridir. O‘zbek tilining asosini tashkil qilgan qadimgi turkiy qabilalar arablar istilosidan avval Urxun – Yenisey yodgorliklari yozuviga asos bo‘lgan runik alifbesi va uyg‘ur yozuvi alifbesida yozilgan boy adabiyotga ega edilar. Arablar istilosidan so‘ng arab alifbosini qabul etganlar. Turkiy qabilalar birlashib, xalqqa aylangandan keyin ham, turkiy – turkiy (o‘zbek) adabiy tilida badiiy, adabiy-didaktik, tarixiy asarlar ijod etish to‘xtamay davom etgan. O‘sha qadimiy adabiy tilimiz namunalarini gavdalantiruvchi yozma yodgorliklarning tarixiy fojialarda yonmay, kuymay bizgacha yetib kelganlari “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit turk” (XI asr), “Hibatul haqoyiq” (XII asr), Qur’on “Tafsiri” (XII–XIII asrlar) kabilardir.

O‘zbek tilining o‘tmishi shundan dalolat beradiki, uning umumxalqlik asosi, ilmiy manbalarning guvohlik berishicha, XV – XVII asrlarga borib taqaladi. U Zarafshon va Farg‘ona vodiylarida keng tarqalgan dialektlar zaminida tarkib topgan. O‘zbek xalqi XX asr boshlariga qadar “turk” nomi bilan atalgan. Hozirgi turkiy xalqlarning boshqalari ham ana shu nom bilan yuritilgan.

Hozirgi zamon o‘zbek tilining tarkibi murakkab. Bu murakkablik shu bilan xarakterlanadiki, u Samarqand – Buxoro, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm kabi to‘rt sheva guruhidan tarkib topgan. Bu shevalar asosan qarluq-uyg‘ur, o‘g‘uz, qipchoq til xususiyatlarini o‘zida ifodalaydi.

O‘zbek adabiy tilining lahjalari orasida, odatda, qarluq-chigil lahjasi hamda unga qarashli ayrim shevalar o‘zbek adabiy tilining tayanch lahjasi va shevalari hisoblanadi. Bu lahjaga Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Qo‘qon, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qarshi, O‘sh, Marg‘ilon, Jalolobod va boshqa shaharlarning shevalari kiradi. Biroq, garchand o‘zbek adabiy tilidan bir oz chetroqda ko‘rinsa-da, qipchoq shevalarining ham o‘zbek adabiy tiliga qo‘shgan hissasi salmoqli. Qaratqich kelishigining to‘liq shakli (-ning), hozirgi zamon fe’lining -yotir affiksli shakli adabiy tilga qipchoq lahjasidan olingan. Aytilganlardan ma’lum bo‘ladiki, hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishida o‘zbek tilining barcha hududiy ko‘rinishlari ham o‘ziga xos va munosib hissa qo‘shgan.

Demak, hozirgi zamon o‘zbek tilining shakllanishi muayyan tarixiy boqichlarni boshdan kechirgan. Bular *qadimgi turkiy adabiy til* (VIII–XI asrlar), *eski turkiy adabiy til* (XI–XIII asrlar), *eski o‘zbek adabiy til* (XIV–XIX asrlar) va *yangi o‘zbek adabiy til* (XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan) singari bosqichlardan iborat (bu haqda “O‘zbek tili tarixi” kursi atroflicha ma’lumot beradi).

O‘zbek tilining rivojlanib, hozirgi holatiga kelishida, Markaziy Osiyoning turkiy xalqlari tillaridan tashqari, turkiy bo‘lmagan xalqlar tillarining ham ta’siri va munosib hissasi bo‘lgan. Bu masalada tojik tilining o‘zbek tiliga bo‘lgan ta’siri alohida ahamiyatga ega. Bu ta’sirning o‘ziga xos nolisoniy asoslari ham yo‘q emas, albatta. Bu asos shundan iboratki, tojik xalqi bilan o‘zbek xalqi O‘rta Osiyoning eng qadimgi mahalliy (tub) aholilaridan hisoblanadi. Bu ikki xalq bir umumiyy hududda asrlar osha yashab keladi, ularning turmush tarzida ham aytarli farq yo‘q va bo‘lmagan.

Tojik va o‘zbek xalqlarining san’ati, madaniyati, ruhiy olami, ma’naviyati va diniy e’tiqodi ham bir xil. Bu ikki xalq shu darajada aralashib va chatishib ketganki, o‘zbek xalqining etnik tarkibiga tojik urug‘lari, tojik xalqining etnik tarkibiga o‘zbek urug‘lari singishib ketgan. Ana shu nolisoniy shart-sharoitlar asosida tojik tili ta’sirida o‘zbek tili, o‘zbek tili ta’sirida tojik tili baravar rivojlangan. Bu

rivojlanish, eng avvalo, har ikki tilning lug‘at tarkibidagi o‘zbekcha (tojik tilida) va tojikcha (o‘zbek tilida) so‘zlarning ko‘p miqdorda mavjudligi bilan belgilanadi.

Hozirgi o‘zbek tilining shakllanib, rivojlanishida shu til jamoasiga hududiy yaqin bo‘lмаган boshqa xalqlar tillarining ham ta’siri sezilarli darajada bo‘lgan.

O‘zbek tili jamoasiga hududiy yaqin bo‘lмаган xalqlardan biri arablardir. O‘zbek tili va uning lug‘at tarkibining shakllanishi va rivojlanishida arab tilining ham samarali o‘rni va ta’siri bor. Lotin va grek tillari yevropa xalqlari tillariga qanday ta’sir qilgan bo‘lsa, arab tili ham musulmon mamlakatlari xalqlari tiliga o‘shanday ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun ham arab lug‘aviy o‘zlashmalari musulmon mamlakatlari xalqlari tili leksikasida baynalmilal qatlamni tashkil qiladi. Bu ham, albatta, o‘ziga xos nolisoniy asosga ega.

O‘zbek tili leksikasida arab lug‘aviy o‘zlashmalarining paydo bo‘lishi va amali O‘rta Osiyoning VII–VIII asrlarda arablar tomonidan zabit etilishi davridan boshlanadi. Islom dinining keng ko‘lamda tarqalishi va hukmronligi tufayli, o‘zbek tili lug‘at tarkibida arab leksik birliklarining miqdori tobora ko‘paya boshladи. O‘rta Osiyo xalqlari hayotining madaniy va ma’rifiy jabhalarida arab tili ishlatila boshladи. O‘sha davr mutafakkirlari – Beruniy, Farobiy, Ibn Sino va boshqalar o‘z ilmiy va badiiy ijodlarini arab tilida amalga oshirdilar. Bu til o‘zbek mumtoz adabiyotining asosiy tiliga aylandi.

Arab tilining ta’siri yaqin vaqtargacha saqlanib keldi. Arab tilidan xabari bo‘lмаган kishilar A.Navoiy, Furqat va Muqimiy asarlarini, o‘sha davr vaqtli matbuoti materiallarini qiyinchilik bilan tushunishi buning dalilidir. Chunki badiiy va publitsistik asarlar tilining imtiyozli foizini arab lug‘aviy birliklari tashkil qildi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibida *adabiyot*, *odam*, *aholi*, *arava*, *arbob*, *asos*, *asbob*, *atrof*, *ovqat*, *axborot*, *jamiyat*, *jazo*, *jumla*, *doim*, *doir*, *daraja*, *davom*, *davlat*, *diqqat*, *ahl*, *faoliyat*, *fan*, *g‘ayrat*, *hujum*, *hodisa*, *hayot*, *hol*, *haq*, *haqiqat*, *harakat*, *hosil*, *hovuz*, *hisobot*, *hurmat*, *iborat*, *ijro*, *idora*, *ehtiyoj*, *ehtiyot*, *ilhom*, *imorat*, *imkoniyat*,

*intizom, inshoot, iqlim, iroda, istiqbol, ixtisos, kashf, majlis, madaniyat, maxsus, mashhur, mashq, mehnat, millat, muddat, mas’uliyat, musobaqa, qalam, daftar, qonun, qaror* va boshqa yuzlab so‘zlar mavjudki, ular arab tiliga mansub bo‘lsa-da, hozirgi vaqtida o‘zbek tilining o‘z so‘zлari kabi singishib ketgan. Bu so‘zlar asosida hozirgi o‘zbek tilida derivatsiya (so‘z yasash) yo‘li bilan bir necha o‘nlab yangi so‘zlar hosil qilinganki, ular endilikda o‘zbek tilining o‘z so‘zлari maqomida keng ko‘lamda ish ko‘rayotir.

Arab lug‘aviy o‘zlashmalari o‘zbek badiiy nutqining ham tengsiz ko‘rkidir. Ayniqsa, nazm tilini, nazm matnini arab lug‘aviy birliklarisiz tasavvur etish qiyin. Masalan, iste’dodli shoir Odil Ikromning “Uzlat” she’riy to‘plami (Xujand: Rahim Jalil davlat nashriyoti, 2012-y.)dan olingan quyidagi parchaga e’tibor beraylik:

*Oniy umr bag‘rini o‘rtagan mangu*

*Omonat umidlar baqoga qoldi.*

Atigi ikki misradan iborat bu nazmiy matnda to‘qqizta lug‘aviy birlik ishtirok etgan. Shulardan oltitasi (*oniy, umr, mangu, omonat, umid, baqo*) arab tilidan o‘tgan leksik birliklardir. Agar shu leksik birliklar ularning o‘zbekcha lug‘aviy muqobillari bilan almashtirilsa, matnda poetik shira, poetik ifoda barham topadi. Bu, albatta, arab lug‘aviy o‘zlashmalarining o‘zbek tilida kasb etgan va mustahkamlagan mavqeい hamda ahamiyatidan dalolatdir.

Arab lug‘aviy o‘zlashmalari, nafaqat nazmiy matnlarda, balki nasriy matnlarda ham, hatto so‘zlashuv nutqida ham faol qo‘llanadi. Shuningdek, arab lug‘aviy o‘zlashmalari bir necha yuzlab o‘zbek frazem birliklarining hosil bo‘lishida ham muhim lisoniy vosita vazifasini bajargan.

O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida rus tilining ham samarali ta’siri bo‘ldi. Ayniqsa, o‘zbek terminologiyasi tizimini rus tilidan va rus tili orqali boshqa yevropa xalqlari tilidan o‘zlashgan lug‘aviy birliklarsiz tasavvur etish qiyin. Ularning ko‘pi umumxalq mulki sifatida o‘zbek tiliga singishib ketgan.

Rus tili va rus tili orqali boshqa Yevropa xalqlari tillaridan o‘zlashgan lug‘aviy birliklar xalq xo‘jaligining barcha soha va tarmoqlariga oid lisoniy birliklar qatlamini tashkil qiladi. Jumladan, *byuro, ekonomika, reforma, industriya, prokat, neft, elektr, energetika, sement, nikel, ruda, flot, transport, samolyot, tramvay, avtomobil, avtobus, agronom, kombayn, traktor, irrigatsiya, melioratsiya, konsert, shaxmat, shashka, klub, jurnal, gazeta, kurort, kino, poema, drama, muzika, pianino, akademiya, alfavit, botanika, geologiya, gradus, kafedra, pedagogika, fizika, ximiya, televizor, nasos, radio, general, polkovnik, kapitan, sport, voleybol, basketbol, bufet, yarmarka, bank, park, palto, kostyum, konfet, mebel, stol, stul, parta, fonema, morfema, semantika* va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Xullas, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘zbek tilini ilmiy jihatdan tekshiruvchi fan sifatida o‘zbek tilining fonetik, lug‘aviy va grammatik qurilishini o‘rganadi.

Siz tanishayotgan bu kitobda esa, o‘zbek tilining lug‘aviy va frazem qurilishi haqida ilmiy ma’lumot beriladi. Lug‘atlar va lug‘atchilik ko‘proq tilning lug‘aviy va frazem tizimlariga asoslangani uchun, unda o‘zbek ilmiy lug‘atchiligi (leksikografiyasi) masalalariga ham keng o‘rin berilgan.

Demak, ma’lum bo‘ladiki, mazkur darslik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” umumiyligi kursi tarkibiga kiruvchi va uning o‘zbek tili lug‘aviy hamda frazem tizimini o‘rganuvchi asosiy qismlaridan biridir.

## **Birinchi qism**

### **LEKSIKOLOGIYA**

#### **Leksikologiyaning obyekti va predmeti haqida**

Har qanday til qurilishida so‘z va so‘zlar majmuasi muhim rol o‘ynaydi. Zero tilni so‘zlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Shu sababli bo‘lsa kerak, Kopengagen tilshunoslik mактабining asoschilaridan biri L.Yelmslyev tilni bir butun organizmga, so‘zlar majmuasini, ya’ni lug‘at tarkibini esa tilning tanasiga o‘xshatgan edi.

Leksikologiya – tilshunoslikning yirik va asosiy sohalaridan biri. Bu atama grek tilidan olingan: “lexikos” so‘z, “logos” ta’limot, ya’ni “so‘z haqida so‘z”, “so‘z haqida ta’limot” ma’nolarini bildiradi. Shuning uchun leksikologiyada tilning so‘z boyligi o‘rganiladi. Uni *lug‘at tarkibi* yoki *leksika* ham deyiladi.

Leksika atamasi ikki ma’noda ishlataladi: 1) tildagi barcha so‘zlar yig‘indisi, majmuasi, ya’ni tilning lug‘at tarkibi; 2) tilshunoslikning ana shu lisoniy boylikni o‘rganuvchi sohasi, ya’ni fan tarmog‘i (bu o‘rinda leksika – *leksikologiya* atamasining dublet muqobili).

Tilning boyligi uning lug‘at tarkibidagi (leksikasidagi) so‘zlar miqdori bilan belgilanadi. Unda so‘zlar miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, til ham shuncha boy bo‘ladi. Lug‘at tarkibi (leksika) davrlar osha o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarish undagi so‘zlar miqdorining o‘zgarishi bilan belgilanadi. Masalan, 1981-yili Moskvada ikki jildda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘zbek adabiy tilida mavjud 60 ming so‘z sharhlangan bo‘lsa, 2006–2008-yillarda Toshkentda

besh jildda nashr etilgan “Izohli lug‘at”da 80 mingdan ortiq so‘z va so‘zga tenglashuvchi lisoniy birliklar sharhlangan. Demak, hozirgi o‘zbek leksikologiyasi 80 mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan lug‘at tarkibi (leksikasi)ni o‘rganadi.

Leksikologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida bir qancha ichki bo‘lim va tarmoqlardan tarkib topadi. Semasiologiya, onomastika, etimologiya uning asosiy bo‘limlaridir. Shuningdek, leksikologiyaning hozirgi (tasviriy) leksikologiya, tarixiy leksikologiya, dialektal leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, sistem-struktur leksikologiya kabi turlari mavjud.

Bu bo‘lim va turlarning har biri o‘zining alohida-alohida o‘rganish obyektiga ega. Chunonchi, semasiologiyada lug‘aviy birliklarning mazmun jabhasi bilan aloqador masalalari o‘rganiladi. Shakl va ma’no nomutanosibligi (asimetriyasi) bilan bog‘liq ma’nodoshlik, ohangdoshlik, shakldoshlik leksikologiyaning ana shu bo‘limi mundarijasiga kiradi.

Nomlash, atash jarayonlari va ularning natijasi bilan aloqador barcha masalalar, xususan, atoqli otlar va ularning vujudga kelishi kabilar onomastikaning o‘rganish obyektidir.

Leksikologiyaning turlari ham biri boshqasidan o‘z mundarijasi va uning tavsifi bilan farq qiladi. Chunonchi, tasviriy (hozirgi) leksikologiyada tilning muayyan davrga xos lug‘aviy birliklari tizimi o‘rganiladi. Leksikologiyaning bu turi sinxron leksikologiya deb ham ataladi. Tarixiy leksikologiya – tasviriy (sinxron) leksikologiyaning aksi. Til tarixiy taraqqiyotining o‘tmish bilan bog‘liq lug‘at tarkibi leksikologiyaning shu turida o‘rganiladi. Uni diaxron leksikologiya deb ham ataladi.

Qiyosiy leksikologiya o‘zaro qardosh yoxud qardosh bo‘lmagan tillarning lug‘at tarkibini, uning muayyan bir qatlmini qiyosan o‘rganuvchi sohadir. Qiyosiy leksikologiyaning ham tasviriy (sinxron) va tarixiy (diaxron) jabhalari mavjud. Sistem-struktur leksikologiya lug‘aviy hodisalarning bevosita kuzatishda bo‘lmagan mavhum va sof ilmiy bosqichga xos tomonlarini o‘rganadi.

Shunday qilib, leksikologiya tilning o‘ziga xos tizim xarakterini kasb etuvchi lug‘at tarkibini o‘rganadi. Sistem, ya’ni tizim xarakterini kasb etuvchi lug‘at tarkibining markazida so‘z turadi. Zero, so‘z leksikologiya o‘rganadigan asosiy birlik hamdir.

So‘zlar majmuasidan iborat tizim, sistema, biri boshqasi bilan organik bog‘liqlikdagi uch ichki “qatlam”dan tarkib topadi. Bu “qatlam”lar *mikroqurilma*, *medioqurilma* va *makroqurilma* atamalari bilan nomlanadi.

Mikroqurilma – bu ayrim so‘zlar anglatgan har xil ma’nolarning o‘zaro munosabatlaridir. Tildagi polisemantik so‘zlar va ular anglatgan ma’nolar bir butunlikda lug‘at tarkibining mikroqurilmalari hisoblanadi.

Medioqurilma tilning shakl va mazmun nomutanosibligini ro‘yobga chiqaruvchi omonimiya, paronimiya, omografiya, omofoniya, sinonimiya va antonimiya singari hodisalar munosabatini o‘z ichiga oladi.

Makroqurilma – bu lug‘at tarkibidagi mazmuniy (sinonimiya) va mavzuiy guruhlardan tarkib topadi. So‘zlarning muayyan bir ma’no atrofida guruhlanishi, masalan, *sekund*, *minut*, *soat*, *ertalab*, *tush payti* va b. vaqt ma’nosи doirasida tutashuvchi mikroguruhdир. Bunday mikroguruhlar mazmuniy maydon deb ham ataladi. So‘zlarning muayyan mavzu doirasida birlashuvi, tutashuvi ham makroqurilmaning alohida ko‘rinishi sanaladi. Masalan, *ot*, *ho‘kiz*, *echki*, *qo‘y* va sh.k. uy hayvonlari mavzuiy (tematik) guruhiga mansub so‘zlardir.

Xullas, leksikologiya tildagi so‘zlarni, ularning majmuasini turli tomonlardan o‘rganuvchi sohadir. U tilshunoslikning boshqa barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Xususan, fonetika, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, stilistika va uning hodisalarini so‘zlarsiz tasavvur etish qiyin: fonetikada so‘zlarning tovush tarkibi o‘rganilsa, so‘z yasalishida yangi lug‘aviy birliklarning hosil bo‘lishi o‘rganiladi. Morfologiyada lug‘aviy birliklar muayyan shaklga kiradi va boshqa so‘zlar bilan munosabatga kirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

So‘zlar sintaksis ixtiyoriga o‘tgach, kommunikatsiya jarayonida ishtirok etadi, nutqning muayyan mantiqiy-grammatik qiymat kasb etuvchi birligiga aylanadi. Stilistikani so‘zlarning ma’nodosh guruhlari (sinonimik uyalar)siz tasavvur etish qiyin. Ma’nodoshlik uyasidagi muqobil lug‘aviy birliklar nutqning turli uslublariga ko‘ra xoslangan bo‘ladi: bir uslub uchun xoslangan so‘zlarni nutqning boshqa uslubida qo‘llab bo‘lmaydi. Bularning bari leksikologiyaning tilshunoslikning boshqa barcha sohalari bilan aloqasi va munosabatini belgilaydi.

## **SO‘Z – TILNING ASOSIY, LEKSIKANING MARKAZIY BIRLIGI SIFATIDA**

Darhaqiqat, tilni so‘zlarsiz tasavvur etish qiyin. U tilning asosiy birligi sanaladi, leksikada, ya’ni lug‘at tarkibida esa, u markaziy hodisadir.

So‘z nutq tovushlarning ma’lum bir izchillikda qo‘shilishidan tarkib topadi. Bu izchillik til jamoasi va uning har bir a’zosi uchun mutlaq va mushtarakdir. Masalan, *ota*, *ishlamoq* so‘zlari o‘zbek millatiga mansub barcha shaxslar uchun, ularning dunyoning qaysi burchagida yashashlaridan qat’iy nazar, *o-t-a*, *i-sh-l-a-m-o-q* tarzida eshitiladi, shu tarzda aytildi. Shuningdek, *ota*, *ishlamoq* so‘zlarining ma’nosи ham shu millat vakillarining barchasi uchun mushtarak uqiladi.

So‘zlar orqali bizni qurshab turgan obyektiv borliq narsa-hodisalari lisoniy in’ikos etiladi. Bu jarayonda obyektiv borliq narsa-hodisalari va ulararo har xil tabiiy va notabiyy munosabatlar ham, ularning har biriga xos xususiyatlar ham lisoniy shaklga ega bo‘ladi. Masalan, “*Bu yil g‘alladan mo‘l hosil olindi*” gapida *g‘alla* so‘zi real borliq hodisasini anglatishi jihatidan shu gap tarkibidagi boshqa so‘zlardan (bu yil, mo‘l, hosil, olindi) farq qiladi. Biroq bu so‘zlarning har biri “*g‘alla*” so‘zi anglatgan tushuncha bilan turli jihatlardan munosabatdosh.

Qanday tavsifda bo‘lishidan qat’iy nazar, so‘zlar orqali borliq narsa-hodisalari va ularning tabiiy belgi-xususiyatlari ataladi, nomga ega bo‘ladi. So‘z borliq narsa-hodisalarini umumlashtirgan holda ataydi. Masalan, *kitob* so‘zi orqali badiiy, ilmiy, texnikaviy, xullas, barcha tur va janrdagi asarlar nomlanaveradi.

*Daraxt* so‘zi orqali ham shunday. Mevalimi, mevasizmi, xonakilashganmi, xonakilashmaganmi – bari bir, ko‘p yillik “o‘simlik”larning barchasiga tegishli nom *daraxt* bo‘laveradi. Yoki “*yurmoq*” so‘zini olaylik. Bu so‘z orqali insonga xosmi, hayvonga xosmi yoki biror-bir naqliyot vositasi (masalan, avtomobil, poyezd, arava va b.) – predmetga xosmi, “*oldga qarab siljish*” ma’nosidagi harakat atalaveradi (*Bola yurdi. Avtomobil yurdi. Poyezd yurdi. Arava yurdi* va b.). Bu narsa, ya’ni borliq narsa-hodisalari va ularning o‘zaro munosabatlarini atash, nomlash so‘z zimmasidagi asosiy lisoniy vazifa sanaladi va u atamalilik deyiladi. Atamalilik ***nominativlik*** deb ham yuritiladi. Demak, so‘z tilda atamalilik vazifasini bajaruvchi lisoniy birlikdir.

Atamalilik so‘z ma’nosi bilan uyg‘un tushunchadir. Atash orqali nimanidir anglaymiz, tasavvur etamiz. Tasavvur etilgan va anglashilgan ana shu “narsa” so‘z ma’nosidir. Masalan, *kitob*, *qalam* deyilganda, shu nomlar zamiriga “*mutolaa (o‘qish) jarayonida xizmat qiluvchi vosita (predmet)*”, “*yozish, chizish quroli*” singari tasavvurlar singishgan bo‘ladi. Bu tasavvurlar *kitob* va *qalam* so‘zlarining ma’nosidir.

Obyektiv borliq narsa-hodisalari nomlanganda, shu narsa-hodisalarning ayrim jihatlari nom (so‘z) va uning ma’nosi uchun asos vazifasini o‘taydi. So‘z ma’nosi uchun asos bo‘lgan bu jihat “ichki forma” deb yuritiladi. Masalan, *qizilishton* nomi bilan yuritiluvchi qush bor. Uning qornidan pastki qismi qizil rangda bo‘lganligi uchun, bu rang shu qushning nomi va uning ma’nosi uchun asos vazifasini bajargan. Shuningdek, qumursqlardan biri “*qirqoyoq*” deb ataladi. Bu nom bilan ataluvchi mayda jonivorning oyoqlari, garchand qirqa-

bo‘lmasa-da, ko‘p. Oyoqlari miqdorining ko‘pligi shu qumursqaning nomi va ma’nosiga asos bo‘lgan.

“Ichki forma” so‘z ma’no qurilishida mutlaq emas. U nomlash jarayonining dastlabki etapidagina mavjud va aniq anglashiladi. Vaqtlar o‘tishi bilan, so‘zlarning “ichki forma”si unutiladi. Masalan, *qush*, *suv*, *yemoq*, *ichmoq*, *ish*, *uy*, *o‘t*, *osh* va h.k. so‘zlarning nomlanishida shu so‘zlar nomlagan narsa va jarayonlarning qaysi jihatlari asosga olinganligi ma’lum emas, ular unutilgan. “Ichki forma” yasama so‘zlardagina aniq tasavvur etiladi. Masalan, *temir yo‘l* so‘zining shu so‘z atalgan narsa – predmetning material jihatni asosida vujudga kelganligini sezish qiyin emas. Yoki *qalamdon* so‘zining paydo bo‘lishi va anglatgan ma’nosida “*qalam saqlanadigan idish*” uning “ichki forma”si vazifasini bajarganligi aniq va ravshan.

Demak, “ichki forma” so‘zning atash jarayonidagi doimiy, mutlaq tushuncha emas. Bu tushuncha real ma’no tushunchasi bilan almashinib turadi. Real ma’no deganda, so‘zning til jamoasining har bir a’zosi tomonidan bir xil tasavvur etiladigan mushtarak ma’nosini tushuniladi. Real ma’no sinxron xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, *og‘och* so‘zi o‘tgan asrlarda *daraxt* so‘zi anglatgan ma’noda ishlatilgan. Hozirgi vaqtda bu so‘z *yog‘och* shaklida daraxtlarning qurilish uchun ishlatiladigan quruq shakli ma’nosida qo‘llanadi va barcha tomonidan ayni shu ma’noda idrok qilinadi. Tilda “ichki formasi” xiralashib, tub (asl, tarixiy) ma’nosini unutilgan so‘zlar nihoyatda ko‘p. Ular etimologik tahlil yo‘li bilan tiklanadi (bu haqda darslikning “Etimologiya” bahsida alohida ma’lumot beriladi).

So‘z – tilning asosiy birligi. Buning boisi shundaki, yuqorida ham aytilganidek, tilni nutq tovushlarisiz, grammatik shakllarsiz va kommunikatsiya jarayonidan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Nutq tovushlari tizimi, morfologik shakllar majmuasi va kommunikatsiya uchun xizmat qiluvchi sintaktik qurilmalar – hammasi birgalikda tilni, uning bir butun organizmini tashkil etadi. Shu bois so‘z tilning asosiy birligi sanaladi.

So‘zning funksional-semantik ko‘rinishlaridan biri *atamadir*, ya’ni termindir. Termin (atama)ning material tomoni so‘z yoki so‘zlar birikmasidan tarkib topgan iboraga teng keladi. Biroq so‘z va atama o‘zaro farq qiladi. Bu farq shundaki, so‘z umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa umumxalq mulki sifatida emas, balki til jamoasining ayrim-ayrim ijtimoiy qatlamlari uchun xoslangan bo‘ladi. Bundan tashqari, atama yordamida xalq xo‘jaligi, fan va texnikaning muayyan tushunchalari nomlanadi.

Atamaning ma’no hajmi so‘znikiga nisbatan tor va uning iste’mol doirasi ham cheklangan bo‘ladi (bu haqda keyinroq batafsil ma’lumot beriladi). Shuningdek, so‘zning shakliy ifoda tomoni atamaning shakliy ifoda tomoni bilan hamma vaqt ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, qishloq xo‘jaligi texnikasiga qarashli *paxta terish mashinasи*, *ariq qazish mashinasи*, *quvvat olish vali*, *moylash sistemasi* singari bir qator atamalar mavjud. Ular, birinchidan, rus tilidan kalkalash (tarjima qilish) yo‘li bilan o‘zlashtirilgan, ikkinchidan, birdan ortiq so‘z (*paxta*, *terish*, *mashina*; *quvvat*, *olish*, *vali*; *moylash*, *sistema*) so‘zlardan tarkib topgan, uchinchidan, qishloq xo‘jaligi texnikasining aniq bir turi va uning muayyan qismlarini nomlagan; to‘rtinchidan, ularning iste’moli umumxalq uchun, uning barcha ijtimoiy tabaqalari uchun mo‘ljallanmagan. Shunga o‘xshash xususiyatlarni turli xil fanlar sohasida ham uchratish mumkin. Chunonchi, o‘zbek tilshunosligida *otlarning kelishik shakllari*, *otlarning egalik shakllari*; *fe’l zamonlari*, *uzoq o’tgan zamon fe’li*; *bog’langan qo’shma gap*, *ergash gapli qo’shma gap*, *natija ergash gapli qo’shma gap*, *bog’lovchili qo’shma gaplarni eslatuvchi bog’lovchisiz qo’shma gap* singari bir necha o‘nlab atamalar ishlatiladi. Ular ma’nosiga, ya’ni til mazmun jabhasiga ko‘ra, so‘zlardan farq qilmaydi. Biroq ularni shu holda, shu shaklda so‘zlarga tenglashtirish ham mumkin bo‘lmaydi.

Atama va so‘zlar tilning mazmun jabhasiga ko‘ra o‘xshash bo‘ladi, xolos. Atamalarning so‘zlar bilan til mazmun jabhasiga

o‘xshashligining yana bir tomoni bor: atamalarda ham, so‘zlarda bo‘lgani kabi, dubletlilik, ko‘p ma’nolilik, antonimlik, sinonimlik va giponimlik xususiyatlari bo‘ladi.

Fikrimizni tilshunoslikka oid atamalar misolida dalillamoqchi bo‘lsak, bu fan mundarijasida *kategoriya*, *guruh*, *guruhash*, *tasnif*, *tasniflash*, *tahlil* singari ko‘p ma’noli va ko‘p vazifali lug‘aviy birliklar; *qo’shimcha* va *affiks*, *prefiks* va *oldqo’shimcha*, *suffiks* va *ort qo’shimcha*, *nisbat* va *daraja*, *gap* va *jumla*, *so’z* va *leksema*, *unlilar* va *vokalizmlar*, *undoshlar* va *konsonontizmlar* singari dublet va sinonim (ma’nodosh) lug‘aviy birliklar; *jarangli* va *jarangsiz* (*undoshlar* – **giperonimlarga** nisbatan); *til oldi* va *til orqa* (*umuman unli* va *undoshlarga* – **giperonimlarga** nisbatan); *ot*, *sifat*, *son*, *olmosh*, *fe'l*, *ravish* (*mustaqil* *so’z* *turkumlari* – **giperonimga** nisbatan) singari giponim lug‘aviy birliklar; *ochiq* va *yopiq* (*bo‘g‘in*), *qattiq* va *yumshoq* (*undosh*), *bir bosh bo‘lakli* va *ikki bosh bo‘lakli* (*gap*), *to‘liq* va *to‘liqsiz* (*gap*) singari antonim lug‘aviy birliklar mavjud.

Terminologik tizimda atamalarning shakldoshligi, ya’ni omonimiysi alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Atamalar omonimiyasining bir ko‘rinishida umumxalq tiliga mansub oddiy so‘zlar bilan biror-bir fan va uning muayyan tarmog‘iga xos ayrim tushunchalarning nomi bir shaklga ega bo‘ladi: *tugun*, *band* (*adabiyotshunoslik*); *oy*, *quyosh*, *yulduz* (*astronomiya*); *o‘pka*, *jigar*, *yurak* (*fiziologiya* va *tibbiyat*); *qo‘ltiq*, *tekislik* (*geografiya*) va b. Ularning boshqa bir ko‘rinishida bir lug‘aviy shakl orqali bir necha fanlarga xos tushunchalar nomlanadi.

Masalan, *reaksiya* shaklidagi lug‘aviy birliklar ximiya, fiziologiya, tarix, siyosiy iqtisod; *assimilyatsiya* shaklidagi lug‘aviy birliklar tilshunoslik, botanika, etnografiya; *yadro* shaklidagi lug‘aviy birliklar fizika, botanika, matematika, tilshunoslik fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi.

Bu lug‘aviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning ma’nolari munosabatida hech bir aloqadorlik yo‘q. Shularni hisobga

olgan holda, leksikologiyada atama va ular tizimini o‘rganuvchi maxsus tarmoq shakllangan. Bu tarmoq atamashunoslik deyiladi.

Shu narsa muhimki, so‘z va atama oralig‘idagi farq jiddiy emas: atama ham – so‘zning vazifaviy ko‘rinishlaridan biri. So‘z ham, atama ham – tilning nominativ vazifaga xoslangan birligi.

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa shuki, leksikaning qaysi jabhasida bo‘lmisin, so‘z o‘rganiladi. Shuning uchun so‘z leksikaning eng muhim va markaziy lisoniy birligidir.

## **LEKSIKANING SISTEMALILIK XARAKTERI HAQIDA**

Til ham, uning har bir sathi ham o‘ziga xos tizimdir, sistemadir. Sistema tabiiy va ijtimoiy hodisalarining barchasida mavjud.

Masalan, siz tahsil olayotgan oliygohni olaylik. U o‘ziga xos murakkab sistemadir. Bu sistemaning asosiy birligi – talaba va o‘qituvchilar. Talabalar ham, o‘qituvchilar ham bittadan yoki o‘ntadan emas. Ularning, ayniqsa, talabalarning soni bir necha minglab bo‘lishi mumkin. Qolaversa, ular “ta’lim oluvchilar” nomi bilan bir umumiy xususiyatga ega. O‘qituvchilar ham shunday: millati, ilmiy darajasi, unvoni, yoshi va jinsidagi farqlardan qat’iy nazar, bir umumiy “belgi” – umumiy vazifaga ega: yoshlarga ta’lim berish va ularni tarbiyalash.

“Oliygoh”ga xos sistemalilikning yana bir tomoni shundaki, u “guruh – kurs – kafedra – fakultet – rektorat” tartibidagi bosqichlardan iborat. Shulardan birisiz “oliygoh”ning bir butunligi tasavvur etilmaydi. Bu o‘quv maskanining ishchi jamoasiga kelsak, ularning sistemasiga xos “*talaba – guruh – guruh boshlig‘i – guruh rahbari – laborant – bosh laborant – assistent – o‘qituvchi – katta o‘qituvchi – dotsent – professor – kafedra mudiri – dekan o‘rinbosarlari – dekan – rektor o‘rinbosarlari (prorektorlar) – rektor*” tartibidagi bosqichlarga duch kelamiz. “Oliygoh” misolidagi sistemadan shu narsani sezish mumkinki, “oliygoh” bir necha pog‘onali ichki sistemalardan tarkib topuvchi yaxlit, bir butun sistema ekan, sistemalar sistemasi ekan.

Chunki har bir kurs, har bir bo‘lim, har bir fakultet shu bir butun “oliygoh” sistemasi ichidagi, uni tashkil etuvchi tobe tagsistemalardir.

Til ham ana shunday sistemadir. Til sistemasida lug‘aviy qatlam o‘ziga xos mavqe va ahamiyatga ega. U tilning boshqa sistemalari bilan chambarchas bog‘liq holatda mustaqil faoliyat ko‘rsatadi.

Leksika boshqa lisoniy hodisalar sistemasidan farq qiladi. U ochiq sistemadir. Chunki lug‘at tarkibi hamma vaqt o‘zgarishda bo‘ladi. Iste’moli so‘nib xiralashgan lug‘aviy birliklar undan chetlashib, uning o‘rni boshqa lug‘aviy birliklar hisobiga evaz qilina boradi.

Masalan, yaqin vaqlarda o‘zbek tili lug‘at tarkibida *kommunistik partiya*, *kommunist*, *komsomol*, *partiya byurosi*, *qayta qurish*, *kommunizm*, *raykom*, *obkom*, *kolxoz*, *sovxozi*, *pioner* singari so‘zlar bo‘lib, tilimizda faol ishlatalar va ular o‘zbek tili leksikasining zamonaviy qatlamida o‘rganilar edi.

Endilikda ularning iste’moli so‘nib, ularning o‘rni lug‘at tarkibimizga kirib kelayotgan *uzluksiz ta’lim*, *auditor*, *lizing*, *raqobatbardosh*, *qo’shma korxona*, *ishbilarmon*, *sarmoya*, *provayder*, *internet*, *internet tarmog‘i*, *diler*, *dizayner*, *tadbirkorlik*, *masofaviy o‘qitish*, *kollej*, *akademik litsey*, *bakalavr*, *magistr* kabi yangi lug‘aviy birliklar hisobiga to‘ldirilib bormoqda.

Leksik (lug‘aviy) sistema til birliklarining har xil munosabatlaridan tashkil topadi. Bu munosabatlarning asosiyalariga paradigmatic, sintagmatik va iyerarxiyalı (silsilali) munosabatlar kiradi.

Ana shu munosabatlarning amali va majmuasi tilning, uning har bir sathining bir butunligini, yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi.

## **Paradigmatika (paradigmatik munosabatlar)**

Paradigmatik munosabatlar paradigmatika qamrovida bo‘ladi. Paradigmatika deyilganda, tilning u yoki bu sathiga xos birliklarining muayyan umumiy, o‘xshash lisoniy belgi-xususiyatlar asosida

guruhanishi tushuniladi. Masalan, p, ch, sh, k, t va h.k. nutq tovushlarining hosil bo‘lishida shovqinning yetakchi va hal qiluvchilik asosida jarangsiz undoshlar; b, m, n, g, d va h.k. tovushlarning hosil bo‘lishida ovoz (un)ning yetakchi va hal qiluvchilik belgisi asosida jarangli undoshlar sifatida guruhanishi tilning fonetik sathiga xos paradigmatica ko‘rinishlaridandir.

Morfologik sath ham o‘ziga xos paradigmatic guruhlardan tashkil topadi. Masalan, o‘qituvchi, quruvchi, haydovchi, tabib, qassob, me’mor va h.k.lar otlarning shaxs ma’nosini bildiruvchi; temir, qum, tosh, daraxt, shox va b.lar narsa-predmet ma’nosini bildiruvchi guruhanini hosil qiladi. Yoki *qalam* so‘zi – leksemasining *qalam*, *qalamning*, *qalamni*, *qalamga*, *qalamda*, *qalamdan kabi* ko‘rinishlari har xil shaklga ega bo‘lsa-da, ular shu so‘z – leksema (*qalam*)ning kelishik kategoriyasiga xos paradigmatisidir. Bular tilning morfologik sathga xos paradigmatic to‘dalari (uyalari) sanaladi.

Sintaktik sathga xos paradigmaticaga kelsak, ular ham sintaksisning har bir sathida mavjud va ularning majmuasidan tilning sintaktik qurilishi tarkib topadi. Masalan, egani hosil qiluvchi paradigmatic guruha, ma’nosidagi farqlardan qat’iy nazar, bosh kelishigi shaklidagi ot, olmosh va otlashgan so‘zlarning barchasi kiradi. Yoki otli gap paradigmatic guruhi (paradigmatikasi)ga kesimi fe’ldan boshqa so‘zlar orqali ifodalangan hamma gaplar tegishli bo‘ladi.

Lug‘aviy sath paradigmatic tizimini tilning ham ifoda, ham mazmun jabhalarida bir xil va faol ko‘rish mumkin. So‘zlardagi birdan ortiq ma’nolar (polisemiya) va ularning tizimi; birdan ortiq har xil ma’nolarning mushtarak, o‘zaro o‘xhash (paronimiya) yoki bir xil shakllarda ifodalaniishi (omonimiya) lug‘aviy sathning ma’no jabhasiga xos paradigmatic guruhlarni hosil qiladi. Masalan, *etak* so‘zi “*kiyimning tugash qismi*”, “*biror tepalik yoxud tog‘ning yer – tekislik bilan tutash qism*”i, “*biror-bir marosim yoki tadbirning yakunlanish*

*lahzasi*” va h.k. bir qator har xil tushunchalar bilan aloqador ma’nolarni bildiradi.

*Etak* so‘zining har bir ma’nosи shu so‘zning alohida-alohida lug‘aviy-mazmuniy varianti (LMV) orqali ifodalanadi. Ana shu lug‘aviy-mazmuniy variantlar *etak* so‘zining til mazmun jabhasiga xos paradigmatisasi, paradigmatisik uyasi, guruhi sanaladi.

Lug‘aviy omonimiyada ham paradigmaticaning til mazmun sathiga xos turini ko‘ramiz. Masalan, “*ko ‘k*” so‘zi alohida-alohida uch mustaqil shakl – leksemani o‘z ichiga oladi: 1 – *ko ‘k*: “*osmon*”, 2 – *ko ‘k*: “*rang*”, 3 – *ko ‘k*: “*ovqatga xushbo‘y ta’m beradigan o’simliklar, ko ‘kat*”. Fonetik tarkibi bir xil bu uch shakl – uch leksemada biri boshqasi bilan aloqasi bo‘lmagan uch ma’no ifodalangan. Ana shu uchta ma’nuning majmuasi “*ko ‘k*” lug‘aviy omonimining paradigmatisasi hisoblanadi.

Lug‘aviy tizim birliklarining til ifoda jabhasiga xos paradigmatisasi sinonimiya, antonimiya hodisalari amalida ko‘zga tashlanadi. Bir-biriga o‘xshash yoki bir xil ma’nolar fonetik qurilishda farq qiluvchi har xil lug‘aviy birliklar vositasida ro‘yobga chiqadi.

*Aft, bashara, yuz, bet, chehra, turq, visol* so‘zlari inson organizmi bosh qismining old tomoni ma’nosini anglatishi nuqtai nazaridan, umumiylukka ega. Bir umumiy ma’noda tutashuvchi *aft, bashara, yuz, bet, chehra, turq* va *visol* so‘zlari lug‘aviy sath birliklarining ifoda jabhasiga xos paradigmatisik guruhidir, paradigmatisasidir.

O‘zaro zid ma’nolarda tutashuvchi *katta* va *kichik*, *yaxshi* va *yomon*, *uzoq* va *yaqin*, *issiq* va *sovuoq*, *qattiq* va *yumshoq* tipidagi bir qator lug‘aviy birliklar ham tilning ifoda jabhasiga xos paradigmatisik qator (uya)larni hosil qilgan.

Lug‘aviy sathga xos paradigmaticaning yuqoridagilardan boshqa yana bir qator ko‘rinishlari mavjud. Ular giperonim (giponimlar paradigmasi), partonim, graduonim, funksionim va sh.k. hodisalar doirasida, shu hodisalarning o‘ziga xos lug‘aviy-mazmuniy sistemalilik xususiyatini belgilash uchun xizmat qiladi.

## Sintagmatika (sintagmatik munosabatlar)

Sintagmatika – bu nutq oqimida bir lisoniy maqomdagi ikki unsurning o‘zaro munosabatidir. Morfema va so‘zlar tarkibida tovush va bo‘g‘inlarning, o‘zak va affikslarning; yasalma – derivatlar tarkibida yasovchi asos va yasovchi vositalarning; matn (kontekst) tarkibida takt, gap bo‘laklari (sodda gaplar sathida) va predikativ qismlarning (qo‘shma gaplar sathida) o‘zaro munosabati sintagmatika va sintagmatik munosabatlardir.

Leksikada, ya’ni lug‘aviy sathda ham sintagmatikaning o‘ziga xos ko‘rinishi amal qiladi. Ma’lumki, har qanday sintaktik butunlik, u so‘z birikmasimi yoki gapmi, bundan qat’iy nazar, so‘zlardan, ularning o‘zaro birikuvidan tashkil topadi. Sintaktik butunliklarning hosil bo‘lishida tovushlar kompleksidan iborat shakliy birliklardan tashqari, shu shakliy birliklar tufayli anglashiluvchi ma’nolar ham o‘zaro munosabatga kirishadi. Bu jarayonda so‘zlarning, shakliy birliklarning, ma’no mosligi, mazmuniy bog‘lanishi ham muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Matn tarkibidagi lug‘aviy birliklar ma’no jihatdan moslashmasa, bog‘lanmasa, muayyan kommunikativ maqsadni ko‘zda tutgan matn hosil bo‘lmaydi. So‘zlarning matn tarkibida ma’no jihatdan bog‘lanishi mazmuniy (semantik) valentlik deb ataladi. Semantik (mazmuniy) valentlik zaminida tilning lug‘aviy sath hodisalariga xos sintagmatikasi (sintagmatik munosabatlari) ta’milanadi. Belgi-xususiyat ma’nolariga ega bo‘lgan so‘zlarning ot (bunda sifatga xos ma’nolar nazarda tutiladi) va fe’l (bunda ravish va unga vazifadosh so‘zlar ma’nosini nazarda tutiladi) kabi so‘zlarga tobelanib bog‘lanishida o‘zaro bog‘lanayotgan so‘zlararo mazmuniy moslik mavjud va shu asosda matn vujudga keladi. Leksikadagi **sintagmatika** deyilganda, turli lug‘aviy-grammatik kategoriyalarga mansub so‘zlar ma’nosidagi ana shunday mantiqiy-lisoniy muvofiqlik tushuniladi. Masalan, “*Oppoq orzularga burkanib, to ‘lib, Ezguliklar olib kelar Yangi yil*” (Davlat Yor) matnida *Yangi yil* va *olib kelmoq*,

*oppoq va orzular, ezguliklar va olib kelmoq, burkanib va olib kelmoq, to‘lib va olib kelmoq* so‘zlari shakliy jihatdan ham, mantiqiy-lisoniy jihatdan ham o‘zaro bog‘langan. Bu so‘zlarning ma’no jihatdan mantiqan muvofiqlashuvi va birikuvi til lug‘aviy sathiga xos sintagmatikaga misol bo‘ladi.

### Iyerarxiyalı munosabat

Iyerarxiyalı munosabat til birliklari hosil bo‘lishining bosqichma-bosqichli bog‘lanishiga asoslanadi. Buni pog‘onali, o‘zaro shartlangan munosabat deb ham ataladi. Iyerarxiyalı munosabatlarning mantiqiy asosi ham tashqi olam va uning narsa-hodisalariaro bog‘lanishlardir. Masalan, “zamon” bilan bog‘liq tushunchalarni olaylik: har bir asr 100 yilni o‘z ichiga oladi. Har bir yil to‘rt fasldan, o‘n ikki oydan iborat. Har bir oy 30–31 sutka bo‘ladi. Sutka tun va kunga, kun va tun soatlarga, soatlar minutlarga, minutlar esa sekundlarga taqsimланади. Ko‘rinadiki, “asr” deb atalgan tushuncha bir necha bosqich qismlardan tashkil topdi.

Tilning sistemaliligi ham ana shunga o‘xshaydi. Bunda lisoniy sathning quyi bosqich birliklari uning yuqori bosqich birliklarini shakllantirish vazifasini bajaradi. Masalan, fonetika sathini oladigan bo‘lsak, tovushlardan bo‘g‘inlarning, bo‘g‘inlardan so‘z va taktlarning, taktlardan frazalarning hosil bo‘lishi iyerarxiyalı munosabatga kiradi.

Lug‘aviy sathda iyerarxiyalı munosabatning yana o‘ziga xos ko‘rinishi amal qiladi. Oddiy so‘zlardan ularning muayyan mazmunga ega maydonlari vujudga keladi. Mazmuniy maydon zaminida lug‘aviy birliklarning mavzuiy guruhlari, mavzuiy guruhlar yig‘indisidan esa, yirik lug‘aviy-mazmuniy guruhlar paydo bo‘ladi. Yirik mavzuiy guruhlarning majmuasi, yig‘indisi asosida tilning lug‘at tarkibi, leksikasi shakllanadi. Zero, til leksikasi son-sanoqsiz lug‘aviy-mazmuniy guruhlar uyushmasi va ulardan tarkib topgan bir butunlikdir. Masalan, *quyon* so‘zi xonakilashgan yovvoyi hayvon

ma’nosi bilan (arxisema) *qo'y* yoki *echki* so‘zlari bilan kichik bir lug‘aviy-mazmuniy maydonda birlashadi. Bu guruh “*go'shti iste'mol qilinadigan*” semasi bilan *qoramol*, *tuya*, *yilqi (ot)* so‘zlari bilan o‘zidan yirikroq boshqa bir lug‘aviy-mazmuniy maydonga tobelanadi. Bora-bora bunday guruhlar “*hayvon*” semasiga ega bo‘lgan boshqa hayvon nomlari bilan qo‘shilib, birlashtiruvchi, mushtarak ma’nosi “*hayvon*” (*arxisema*) bo‘lgan katta bir guruhni tashkil qiladi. Lug‘aviy birliklarning silsilali tarzda kichik guruhdan yirik guruhlarni hosil qilish jarayonlari va ularning hosila natijalari til leksikasiga xos iyerarxiyalı munosabat deyiladi.

## LUG‘AVIY SEMASIOLOGIYA

Ma’lumki, tilning mazmun jabhasi ham, uning ifoda jabhasi kabi, har bir sathda shu sathga xoslangan ma’noviy birliklardan tashkil topadi. Tilning barcha sathlariga xos ma’noviy birliklar majmuasini, sistemasini semasiologiya o‘rganadi. Shu bois semasiologiyaning fonetik, morfem, so‘z yasalishi, morfologik va sintaktik sathlarga taalluqli tarmoqlari, shoxobchalari mavjud: *fonetik semasiologiya*, *morfem semasiologiya*, *so‘z yasalish semasiologiyasi*, *morfologik semasiologiya* va *sintaktik semasiologiya* kabi.

Tilning lug‘aviy sathga xos mazmun jabhasi lug‘aviy semasiologiyada o‘rganiladi. Lug‘aviy semasiologiyaning asosiy birligi va obyekti – bu so‘zlar ma’nosidir. Ular so‘zning mazmun jabhasiga qarashli asosiy birliklardir. Bu ma’noviy birliklar sememalar deb ataladi. Lug‘aviy semasiologiya lug‘aviy sememalarni o‘rganadi.

## SO‘Z VA UNING MA’NOSI

### So‘z ma’nosining semiotikaga aloqasi

Til va uning birliklari semiotik xarakterdagи ijtimoiy hodisalardir. Semiotik hodisalar ishora, ramzlar xarakterida bo‘ladi.

Ularni *semiotika* fani o‘rganadi. Tilshunoslik ham semiotikaga daxldor va unga yaqin fandir. Uning fonemadan yirik barcha birliklari (morfema, so‘z, frazema, so‘z birikmasi va gap) ramzlik (ishoralik) xarakteriga ega bo‘ladi. Shu bois tilshunoslik fanining bosh predmeti sanaluvchi tilga ishoralar (ramzlar) tizimi sifatida qaraladi. Bu tizimda ham so‘z markaziy hodisa hisoblanadi. So‘zning ishora (ramz)lik xususiyati shundaki, uning o‘zaro munosabatdosh va taqozadosh ikki tomoni – ikki jabhasi mavjud: ularning biri ifoda jabhasi bo‘lsa, ikkinchisi – mazmun jabhasidir.

So‘z ifoda jabhasi bilan tasavvur etiladi, eshitiladi. Shu tomoni bilan so‘zlar pertseptiv vazifa bajaradi. So‘zning tovush va tovushlar birikmasidan tarkib topishi uning ana shu, ya’ni ifoda jabhasidir. So‘z ifoda jabhasiga nisbatan *leksema* deb, mazmun jabhasiga nisbatan esa, *semema* deb ataladi. Masalan, *uy*, *inson*, *ona*, *daraxt* so‘zlarining ifoda jabhasini shu so‘zlar tarkib topgan tovushlar tashkil qilgan: ular *uy*, *inson*, *ona*, *daraxt* **leksemalaridir**. Anglatgan ma’nolariga ko‘ra, ular *uy*, *inson*, *ona*, *daraxt* **sememalaridir**.

Leksemalarning nutqda voqelangan real ko‘rinishiga nisbatan *leks* atamasi ishlataladi. Masalan, *qalam*, *qalamning*, *qalamni qalam* leksemasining nutqda matn talabiga ko‘ra voqelana oladigan uch **leksidir**.

Ayni o‘rinda *semema* hodisasi ham til mazmun jabhasining eng kichik, elementar birligi sifatida o‘ziga xos qurilmadir. Bu qurilmaning birliklari *semalar* deb ataladi, ya’ni **semema** semalar **yig‘indisidir**. Masalan, “*ota*” leksemasining invariant LMVsining sememasi “*inson*, *kishi*”, “*bevosita qarindosh*”, “*erlik jinsida*”, “*tug‘diruvchi*”, “*oila boshlig‘i*”, “*so‘zlovchidan katta*” va h.k. semalardan tarkib topgan.

So‘zning ifoda va mazmun jabhalari (*leksema* va *sememalari majmuasi*, *yig‘indisi*) birgalikda ular (so‘zlar)ning *ishoralik*, *ramzlik* maqomini belgilaydi.

Demak, so‘z ma’no tomoni bilan tilning mazmun jabhasiga qarashli bo‘ladi.

So‘z shakl tomoni bilan tilning ifoda jabhasida qanday ahamiyat kasb etsa (so‘zlar faqat tovushlar yordamida eshitiladi, ya’ni tasavvur etiladi), u ma’no tomoni bilan tilning mazmun jabhasida ham ana shunday muhim ahamiyat va mavqega ega bo‘ladi: *til uchun leksema qanday muhim va zarur sanalsa, semema ham shunday muhim va zarurdir*. Zero, til amalini so‘zlarsiz, ularning odatiy (*uzual*) va nutqda kasb etuvchi noodatiy (*konnotativ, okkozional*) ma’nolarisiz tasavvur etish mumkin emas.

Lug‘aviy birliklar *uzual* va *konnotativ (okkozional)* ma’nolariga ko‘ra, til yoki nutq hodisalari sifatida farqlanadi. Uzual ma’nolar lug‘aviy birliklarning umumtilda rasmiylashgan semantik qiymati bo‘lib, shu ma’no asosida so‘zlar til birliklari sanaladi. So‘zlarning konnotativ (okkozional) ma’nolari esa, nutqda individual tarzda vujudga keladi, umumxalq tilida ommaviy tarzda rasmiylashmaydi. Bunday ma’nolarga ko‘ra, so‘z, ya’ni lug‘aviy birliklar nutq hodisasi sifatida tavsiflanadi.

So‘zning ifoda (shakliy) jabhasi har xil tovushlardan tarkib topib murakkab bo‘lganidek, uning ifoda jabhasi ham murakkab: har xil ma’nolar summasidan iborat bo‘ladi.

Til birliklari ramziy, ishoraviy xarakter kasb etar ekan, ularning mazmun jabhasi tilshunoslikning semantika (yoki semasiologiya) bo‘limida o‘rganiladi. Semantika (semasiologiya), til sathlariga ko‘ra, *frazem semantika, morfem semantika, so‘z yasalish semantikasi, lug‘aviy (leksik) semantika, morfologik semantika, sintaktik semantika, uslubiy semantika* kabi guruhlarga ajraladi.

So‘z ma’nolari lug‘aviy semantika (semasiologiya)da o‘rganiladi. U o‘ziga xos serqirra va murakkab mazmuniy qurilmadir.

### **Lug‘aviy ma’no va uning xususiyatlari**

So‘z ma’nosining o‘ziga xos murakkab va serqirra mazmuniy qurilma ekanligi shundaki, u bir qator ichki unsurlardan tarkib topadi. So‘zning grammatik, uslubiy va pragmatik ma’nolari ham shu qurilma

tarkibida bo‘ladi. Bu qurilma so‘zning semantik strukturasini deyiladi. So‘z semantik strukturasining markazida lug‘aviy ma’no turadi.

Lug‘aviy ma’no vositasida obyektiv borliqning muayyan real yoxud noreal narsa-hodisalari, shu narsa-hodisalarining belgi-xususiyatlari, ularning o‘zaro munosabatlari va boshqalar anglashiladi. Lug‘aviy ma’no, yuqorida ham aytilganidek, biror-bir denotatsiyaga asoslanadi. Denotatsiyaning asosini denotat tashkil qiladi.

Denotat deyilganda, so‘z ma’nosining nolisoniy (ekstralengvistik) asosi tushuniladi. Bu asos bizni qurshab turgan borliq narsa-hodisalari va ularning belgi-xususiyatlaridir. Masalan, *chiroq* so‘zining denotati ma’lum bir kichik hududni yorituvchi predmetdir. Ana shu predmetning ongda *ch, i, r, o, q* fonemalari yordamida tasavvur etilishi “*chiroq*” so‘zi-leksemasining lug‘aviy ma’nosidir. Bu ma’no, bizni qurshab turgan borliqning aniq bir narsa-predmeti (denotati) bilan aloqador bo‘lganligi uchun, denotativ ma’no deb ataladi. *Denotativ ma’noni referent ma’no* deb ham yuritiladi. Chunki *denotat* va *referent* o‘zaro dublet atamalardir. Lug‘aviy ma’nolar yordamida obyektiv borliqning narsa-hodisalari va ularning belgi-xususiyatlari atalgani, nomlangani uchun, ular fanda *nominativ ma’nolar* sifatida ham rasmiylashgan.

Nominativ ma’noga ko‘ra, so‘zning tildagi asosiy vazifasi belgilanadi. Bu vazifa – nominativlik, ya’ni atamalilikdir.

So‘zning nominativ ma’nolari negizida uning signifikativ ma’nolari shakllanadi. *Signifikativ ma’no* nominativ ma’nolarning yuqori (bosqich)da mavhumlashgan hosilasidir. Signifikativ ma’noga ko‘ra bizni qurshab turgan obyektiv borliq narsa-hodisalari umumlashgan va mavhumlashgan holda tasavvur etiladi. Signifikativ ma’no tufayli nominativ ma’no (to‘g‘rirog‘i, *denotativ ma’no*) *tushuncha* bilan bog‘lanadi.

So‘zning mazmun strukturasida denotativ ma’nodan tashqari, *konnotativ ma’no* ham mavjud bo‘ladi. Konnotativ ma’no nominativ ma’noga “eshdosh” ustama ma’nodir. Konnotativ ma’no tufayli so‘z emotsiyal-ekspressiv qiymatga ega bo‘ladi. U emotsiyal-ekspressiv

bo‘yoqdorlik ham deyiladi. Konnotativ ma’noga ko‘ra so‘zlarning pragmatik-uslubiy vazifasi belgilanadi.

Konnotativ ma’nolar tufayli vujudga keluvchi emotsiyal-ekspressivlikning ijobiy va salbiy turlari mavjud. Ularni ijobiy bo‘yoqdorlik yoxud salbiy bo‘yoqdorlik deb ham ataladi.

Konnotativ ma’nolarning ifodalanish usul va vositalari ham har xil. Lug‘at tarkibining ayrim qatlam so‘zlari yo salbiy, yo ijobiy xarakterdagi bo‘yoqdorlikka ega bo‘ladi.

### **Lug‘aviy ma’no va tushuncha munosabati**

Tushuncha tafakkur shakli sifatida logik kategoriyalardan biridir. Tushuncha tufayli, uning vositasida, ongda obyektiv borliq narsa-hodisalari va ular munosabatining o‘ta umumlashgan va mavhumlashgan tasavvuri shakllanadi. Ongda shakllangan ana shu tasavvurlar so‘zlar vositasida lisoniy maqomga ega bo‘ladi. Muhimi shundaki, obyektiv borliqda real uchramaydigan, o‘z shakliy dennotatlariga ega bo‘lmagan hodisalar ham ongda tushuncha sifatida shakllanaveradi. Ayni o‘rinda obyektiv borliqda real mavjud bo‘lmagan bunday hodisalar ham tilda so‘z orqali lisoniy tusga kiradi. Masalan, *sevgi*, *muhabbat*, *yaxshilik*, *ruhiyat*, *omad*, *jin*, *alvasti*, *shayton*, *mehr* singari bir guruh so‘zlar ana shunday tavsifdadir.

Shunisi ham borki, so‘z va tushuncha munosabatida muvofiqlik, mutanosiblik yo‘q. Bir so‘z birdan ortiq tushunchalarni ifodalashi mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlar va ularning amali buning yorqin misolidir. Shuningdek, tilda tushuncha ifodalamaydigan so‘zlar ham kam emas. Olmoshlar, yordamchi so‘zlar tushuncha ifodalash vazifasidan chetda. Shu dalillarning o‘ziyoq so‘z va tushunchaning teng kelmasligi va ularning har xil fanlarga – so‘zning tilshunoslik, tushunchaning mantiqqa mansubligini ko‘rsatadi. Demak, so‘zning signifikativ ma’nolari va ular bilan bog‘liq vazifalaridagina so‘z va tushuncha munosabatida (mutlaq darajada bo‘lmasa-da) muvofiqlik bo‘lishi mumkin. So‘z ma’nolari ham tushuncha kabi mavhum va

umumiyyidir. Lekin so‘z hamda tushunchaga xos umumiyylik va mavhumlik munosabatida ham sezilarli farq mavjud. So‘z ma’nosidagi mavhumlik va umumiyylik bir til va uning jamoasi ongida bo‘ladi, milliy xarakter kasb etadi. Tushunchaga xos umumiyylik va mavhumlik – nomilliy, baynalmilal, ya’ni umumbashariydir.

Xullas, signifikativ ma’nolar tufayli so‘z va tushuncha munosabatida ma’lum bir muvofiqlik bo‘lsa-da, u doimiy va mutlaq emas.

Signifikativ ma’no vositasida so‘z ifodasidagi nominativ ma’nolar umumlashadi. Ayni o‘rinda signifikativ ma’no so‘zlarning yana boshqa nominativ ma’nolar kasb etishiga turtki bo‘ladi, ko‘p ma’nolilik uchun zamin hozirlaydi. Masalan, “*talaba*” so‘zi dastlab “*oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida tahsil oluvchi shaxs*” ma’nosini bilan rasmiylashgan bo‘lsa, endilikda bu so‘z kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, umumta’lim maktablari va muayyan maqsadlarni ko‘zda tutgan ayrim qisqa kurslarda ta’lim oluvchilarga nisbatan ham ishlataladi. Demak, “*talaba*” signifikatining doirasida “*tahsil oluvchi shaxs*” semasiga ega yana boshqa lug‘aviy (nominativ, denotativ) ma’nolar ham vujudga keladi. **Talaba** so‘zi kasb etgan har bir ma’no shu so‘zning alohida-alohida lug‘aviy-mazmuniy variantlari (LMV) sifatida ish ko‘radi.

### **Lug‘aviy ma’no va lug‘aviy vazifa munosabati**

Signifikativ ma’nolar asosida so‘zning nominativ vazifasiga hamrohlik qiluvchi ustama vazifasi vujudga keladi. Uni so‘zning *signifikativ vazifasi* deyiladi. Zero tilda ba’zan vazifa va ma’no uyg‘unlashadi. Bu hol til hodisalari taalluqli bo‘lgan lisoniy kategoriylar iyerarxiyasi (silsilasi)ning yuqori bosqichida ko‘zga tashlanadi: signifikativ ma’no lug‘aviy ma’nolar iyerarxiyasida denotativ ma’nolarga nisbatan yuqori bosqichda turadi.

Biroq shunisi ham borki, lug‘aviy sathda ma’no va vazifa tushunchalari hamma vaqt ham teng kelavermaydi. Ko‘p hollarda ular

farqlanadi. Lug‘aviy birliklarning ko‘p vazifaligi ularning ko‘p ma’noliligi bilan mutanosib emas. Ko‘p vazifalilik so‘zning boshqa kategorial guruhlar (so‘z tarkumlari) ixtiyoriga o‘ta olishi imkoniyatlari bilan bog‘lanadi. Masalan, yaxshi, ozoda, tetik va h.k. so‘zlar sifat tarkumiga mansubdir. Ularning sintagmatik ko‘lami keng bo‘lib, hech bir shakl o‘zgarishisiz ravish o‘rnida ham kela oladi: *yaxshi kitob* – *yaxshi yashamoq, ozoda kiyim* – *ozoda kiyinmoq, tetik odam* – *tetik yurmoq* va b. Bunday jarayonlarda so‘z (lug‘aviy birlik)larga xos ko‘p vazifalilik namoyon bo‘ladi. Lug‘aviy ko‘p vazifalilik ot tarkumiga xos so‘zlarning sifatlarga xos sintagmatik xarakter kasb etishida ham mavjud. Masalan, *tilla oltin, kumush, g‘isht, temir, yog‘och* kabi so‘zlarning *tilla tish, oltin davr, kumush qoshiq, g‘isht devor, temir darvoza, yog‘och ko‘prik* singari sintagmatik qurshovlarda kelishi lug‘aviy sathdagi ko‘p vazifalilikka kiradi.

Har bir so‘z tarkumiga xos kategorial ma’nolar (masalan, ot tarkumiga xos so‘zlarning kategorial ma’nosи – predmetlik; fe’lniki – harakat, holat jarayoni; sifatniki – predmetlarning belgi-xususiyati; ravishniki – harakat-holatga xos belgi-xususiyat va b.) til mazmun jabhasining mavhumlashgan yuqori bosqichini tashkil qiladi. Shu jihatdan so‘zlarning o‘z tarkumidan boshqa tarkum so‘zлari o‘rnida kelishi lug‘aviy sathga xos ma’no va vazifada o‘zaro muvofiqlik va tenglikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

### **Lug‘aviy ma’noning ikki jabhasi**

So‘z ma’nolari o‘zaro qarama-qarshi ikki yo‘nalishda o‘rganiladi. Bu yo‘nalishlar asosida lug‘aviy semantikaning biri boshqasi bilan munosabatdosh ikki aspekti, ikki jabhasi belgilanadi: 1) semasiologik jabha (aspekt); 2) onomasiologik jabha (yoki aspekt).

So‘z ma’nosи semasiologik jabha nuqtai nazaridan o‘rganilganda, o‘rganish (tahlil) asosi sifatida so‘z-ramz (ishora)ning shakli xizmat qiladi: tahlil shakldan uning mazmuni tomon

yo‘naltiriladi, ya’ni shakl (fonetik qobiq) orqali ma’no qidiriladi. So‘z ma’nosini onomasiologik nuqtai nazardan o‘rganilganda, o‘rganish asosi vazifasini, aksincha, ramziy shakl (fonetik qobiq) emas, balki ma’no, mazmun o‘taydi: tahlil ma’nodan shaklga qarab yo‘naladi, ma’nodan shu ma’noga muvofiq shakl qidiriladi. Masalan, *o‘qituvchi* so‘zi va uning lug‘aviy ma’nosini semantikaning keltirilgan ana shu ikki jabhasi asosida o‘rganadigan bo‘lsak, quyidagicha natijaga ega bo‘lamiz: 1) *o‘qituvchi* – “*o‘quv-tarbiya maskanlarida ta’lim beruvchi shaxs*” (semasiologik jabha); 2) “*keng ma’nodagi murabbiy*”, “*ustoz*”, “*foydali maslahat beruvchi*”, “*ibratli ishlarda namuna bo‘luvchi shaxs*”, “*ota-on*”, “*maktab*” va b. – *o‘qituvchi* (onomasiologik jabha). Boshqacha aytganda, semasiologik jabhada lug‘aviy tahlil **leksemadan** sememalar tomon yo‘nalgan bo‘ladi; onomasiologik jabhada esa, u **sememadan** leksemalar tomon yo‘naladi.

Bulardan tashqari, so‘zning mazmun jabhasida uch xil ma’no – uch xil sema bo‘ladi. Bular so‘z ma’nosining: a) atash semasi; b) ifoda semasi; d) vazifa semasi. So‘z ma’nosining atash semasi yetakchi semadir. U so‘zning nominativ ma’nosini bilan bog‘lanadi; ifoda semasi esa, so‘z ma’nosining uslubiy bo‘yoq bilan aloqador unsurdir. So‘zning vazifa semasi lug‘aviy birlikning sintagmatik qurshovda ishg‘ol etgan mavqeiy bilan aloqador bo‘ladi (masalan, *erkin* so‘zi sintagmatik qurshovda ot yoki fe’l oldidan kelsa, uning yo‘predmetga, yo harakat-holatga xos vazifa semasi faollashgan, voqelangan bo‘ladi). Lug‘aviy birliklar ma’nosini bilan bog‘liq bu xususiyatlarning barchasi semantikaning semasiologiya jabhasiga qarashli hodisalardir.

Xullas, lug‘aviy semantikaning semasiologik jabhasida muayyan fonetik shakldan unga muvofiq va munosib ma’nolar qidirilsa, onomasiologik jabhasida, aksincha, ma’lum bir ma’no (mazmun)dan unga muvofiq va munosib fonetik shakl (so‘z)lar qidiriladi. Semasiologik jabhada shakl kam, ma’no ko‘p bo‘ladi; onomasiologik jabhada ma’no kam, uni ifodalovchi shakl ko‘p bo‘ladi.

Lug‘aviy semantikaning bu ikki jabhasi leksikografik tipologiyada ham farqlovchi muhim ahamiyat kasb etadi. Semasiologik jabha va uning moyalari izohli lug‘atlar tuzishda, onomasiologik jabha va uning moyalari esa ideografik va sinonimik lug‘atlar tuzishda qo‘l keladi. Ideografik lug‘atlar odatda so‘zlarning lug‘aviy-mazmuniy maydonlari asosida tuziladi. Shu bois ham onomasiologik jahbada so‘zlarning lug‘aviy-semantik guruhlanishi bilan aloqador lisoniy imkoniyatlar o‘rganiladi.

## ONOMASTIKA

Onomastika grekcha so‘zidan olingan, “atash, nomlash san’ati” ma’nosini bildirgan.

Onomastika leksikologiyaning semasiologiyaga o‘xshash bo‘limlaridan biridir. Bu bo‘lim onomasiologiya deb ham yuritiladi. Onomastika (onomasiologiya)da leksikaning atoqli otlar tizimi o‘rganiladi. Ma’lumki, atoqli otlar bir necha turlarga bo‘linadi. Masalan, kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslari; joy nomlari; jilg‘a, ko‘l, daryo, dengiz va okean nomlari; samoviy planetalar va ularning nomlari; har xil tashkilot va idora nomlari va boshqalar atoqli otlar tizimini tashkil qiladi. Shunga ko‘ra, onomastika ham bir qator ichki guruhlarga ajraladi. Onomastikaning eng yirik bo‘limlari *antroponimika, toponimika* va *etnonimikadir*.

**Antroponimika** – onomastikaning bir bo‘limi. U kishilarga qo‘yiladigan ismlar, ularning familiyalari, laqab va taxalluslarini lisoniy aspektda o‘rganadi.

Antroponimika ism va ularning tizimidan tashqari, ism va ism qo‘yish odatlarini ham o‘rganadi. Ism va ism qo‘yish odati – biror yakka shaxsni o‘zgalardan farqlash, ajratish ehtiyoji tufayli paydo bo‘lgan. Ism va ism qo‘yishning qadimiy va zamonaviy odatlari bor. Shaxslarni nomlashning eng qadimiysi ismlarga qo‘yilgan urug‘ va qabilalar nomlaridir. Laqab va taxalluslar esa ma’lum shaxsning

nomini yanada oydinlashtirish uchun xizmat qilgan. Ular keyinchalik, kishilarga qo‘yiladigan ismlardan keyin paydo bo‘lgan.

Ism qo‘yish ehtiyoji va ismlarning paydo bo‘lishi bilan birga, har bir xalqda ularning moddiy hamda ma’naviy sharoitlariga mos ravishda ism qo‘yish odatlari, rasm-rusumlari, udumlari ham tug‘ilgan. Ismlar qadimgi davrlardan boshlaboq, urug‘ va qabilalarning, keyinchalik elatlar va xalqlarning turli-tuman udumlari, urf-odatlarini, orzu va istaklarini, ma’naviy hamda falsafiy, diniy-axloqiy qarashlarini o‘zida ifoda qiladigan omilga aylana borgan. Shunga ko‘ra, har bir tarixiy davrning o‘ziga xos nom berish odatlari, o‘sanga mos ravishda yuzaga kelgan ismlar tizimi bo‘lgan. Chunonchi, ibridoiy jamoa va urug‘chilik davrlarida berilgan o‘zbek ismlarida mardlik, qahramonlik, abjirlik tushunchalari, ilohiylashtirilgan turli tasavvurlar o‘z ifodasini topgan. *Oyarig‘ (nurli oy), Oyqanot (oy Qanotli), Quchbars, Azak, Ayas, Ali Aya, Elp Er, Chag‘ribek, Chug‘lan, Tangriqul, Bo‘ri, Bo‘riboy* va b. Keyinchalik, masalan, sobiq Sho‘rolar davrining boshlanishida o‘zbek ismlari tizimida *Kommuna, Ernst, Telman, Tamara, Venera, Soyuz* singari yangi davr ruhi bilan bog‘liq nomlar qo‘yila boshladи.

Kishi ismlarining asosini umumxalq lug‘aviy birliklari tashkil qiladi. Ular asosan turdosh otlar, qisman sifat, son va fe'l so‘z turkumlariga oid bo‘ladi: Temir(boy), Po‘lat(jon), Tosh(bek), Qilich(boy), Guljon, Otabek, Onaxon, Bobojon, Bekmurod, Boyjon, To‘rajon, Xonbibi, Bibixon, Nozikbibi, O‘tkirbek, Turg‘unali, Ulug‘bek, Suqsuroy, Oltmishboy, Yetmishboy, Mingboy, Sevara, Keldibek, Berdiboy, Tursunboy, Quvonbek, To‘xtajon, O‘lmas va b. Kishi ismiga aylangan bunday so‘zlar umumtilga xos nominativ (denotativ) ma’nolaridan xoli bo‘ladi. Ularda “odam”, “inson” semasi ustuvor bo‘lib, yakka shaxslarni atash vazifasi rasmiy va ommaviy tusga kiradi. Masalan, “Yig‘ilishda *Guljon* va *O‘tkir* ham qatnashdi” gapida *Guljon* va *O‘tkir* antroponimlari orqali tinglovchida ikki jinsga xos ikki shaxs haqida tasavvur paydo bo‘ladi.

Demak, ism, familiya, laqab, taxallus – bularning barchasi *antroponimlar* deb ataladi. Antroponimlar ikki xil bo‘ladi: a) real antroponimlar; b) noreal antroponimlar. Real antroponimlarga hayot va turmushda real mavjud bo‘lgan shaxslar, muassasalar va narsa-hodisalar bilan bog‘liq nomlar kiradi: *Anvar, Sohibov, Mashhura; Uyg‘un (Rahmatulla Otaqo‘ziyev), Oybek (Muso Toshmuhammad o‘g‘li), Bekmuhammad (Abduvali Begmatov), Ahli Rasul (Abdurasul Mamadaliyev), Avliyoxon Eshon (Avliyoxon Shukrullayev); Guliston davlat universiteti, Ibn Sino mahallasi, Somoni bozori, Beruniy ko‘chasi; “Sirdaryo haqiqati” (gazeta nomi), “Sharqnomma”(jurnal nomi)* va b.

Noreal antroponimlarga hayot va turmushda real mavjud bo‘lmagan tushunchalarning nomlari kiradi: *Olloh, Parvardigor, Alvasti, Dev, Farishta, Pari* va b.

Antroponimlar individual va guruhiy bo‘lishi mumkin. Alovida shaxslarning ismi, laqabi, taxallusi individual antroponimlar sanalsa, bir oila a’zolari, qarindosh-urug‘larning umumiyligi familiyalari; bir guruh yoki tabaqaga qarashli shaxslarga xos atoqli otlar guruhiy antroponimlarga kiradi.

Antroponimlarning bir turi badiiy-uslubiy xarakter kasb etadi. Bunday antroponimlar badiiy asarlarda atayin ishlataladi, uslubiy-lisoniy vosita sifatida emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Ular yordamida asar qahramoniga ijobiy yoki salbiy xislat yuklanadi. Masalan, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” (Toshkent, 1994) asarida bunday antroponimlarni ko‘p uchratamiz. Asarda muallimlar bola tilidan ular ta’lim beradigan fan nomlari bilan ataladi: *Fizika (fizika fani o‘qituvchisi), Kimyo (ximiya fani o‘qituvchisi), Adabiyot (adabiyot fani o‘qituvchisi), Jug‘rofiya (geografiya fani o‘qituvchisi)* kabi. Asardan keltirilgan “Ovozlaridan tanib olaman: birovi *Jug‘rofiya* bo‘ladi, birovi *Adabiyot* bo‘ladi” matnida bu holatni sezish mumkin.

**Toponimika** ham onomastikaning yirik bo‘limlaridan biridir. Toponimika geografik nomlarni o‘rganadi. Geografik nomlar

deganda, joy nomlari anglashiladi. Demak, toponimika onomastikaning joy nomlari bilan bog‘liq atoqli otlar tizimini o‘rganuvchi tarmog‘idir.

Joylar so‘z va so‘z shakllari yordamida nomga ega bo‘ladi. Shuning uchun toponimlar, ya’ni joy nomlari tilshunoslik fanining o‘rganish obyektiga kiradi. Antoroponimikada bo‘lganidek, toponimikada ham u o‘rganadigan obyekt, xarakteriga ko‘ra, turli xildir. Negaki, “joy” atamasi ko‘p ma’noli lug‘aviy birlik, u aholi yashaydigan obyektlarga nisbatan ham, aholi yashamaydigan obyektlarga nisbatan ham qo‘llanaveradi.

Leksikologiyaning joy nomlari tizimini o‘rganuvchi tarmog‘i toponimika deb atalar ekan, bu tarmoq lug‘aviy birliklari (toponimlar, joy nomlari) bir necha xususiyatlari asosida tasnif qilinadi. Tasnif asosi sifatida ularning lug‘aviy-mazmuniy, struktur-tipologik va xronologik jihatlari tanlanadi.

Toponimlar lug‘aviy-mazmuniy (leksik-semantik) jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi: urug‘, xalq yoki millat nomi bilan ataluvchi *etnotponimlar* (*Mang‘it*, *Qipchoq*, *Arab*, *Tojik*, *O‘zbek* va b.); kishi ismi, nasabi, taxallusi yoki laqabi bilan ataluvchi *antrotoponimlar* (*Jabbor Rasulov*, *G‘afurov*, *Oxunboboyev*, *Sharof Rashidov*); hayvon, qush, parranda yoki biror-bir jonivor nomi bilan ataluvchi *zootponimlar* (*Qulonli*, *Cho‘rtonli*, *Tuyatepa*, *Sichqon*, *Baliqchi* va b.); o‘simliklar nomi bilan ataluvchi *biotponimlar* (*Qamishli*, *Ko‘kquroq*, *Terak*, *Tol*, *Yakkatut*, *Jiydali*, *O‘rikzor*, *Yantoq* va b.).

Struktur-tipologik jihatdan toponimlar uch xil bo‘ladi: 1) tub so‘z modelidagi toponimlar (*Bo‘z*, *Jiyda*, *Nov*, *Yantoq*, *Terak* va b.); 2) yasama so‘z modelidagi toponimlar (*Tuyachi*, *Xaltaqishloq*, *Yangiobod*, *Cho‘yanchi*, *Bolg‘ali*, *Uyali*, *Takali*, *Jarbuloq* va b.); 3) so‘z birikmasi modelidagi toponimlar (*Yangi qishloq*, *O‘zbek qishloq*, *O‘tgan soy*, *Qirq quduq*, *Qator buloq* va b.).

Toponimlar, yirik geografik obyektlardan tortib, mayda obyektlargacha bo‘lgan joy nomlari tizimini o‘z ichiga oladi. Shu

xususiyat asosida, ya’ni nom qo‘yilgan obyektning hajmi va mavqeiga ko‘ra, toponimlar yana ikki guruhga bo‘linadi: 1) *makrotoponimlar*; 2) *mikrotoponimlar*.

**Makrotoponimlar** (makro grekcha, “katta” ma’nosini bildiradi) o‘lka, mamlakat, yirik shahar va qishloqlar; okean, dengiz, daryo va ko‘llar; baland tog‘ va qirlar nomini o‘z ichiga oladi: *Ovrupo, Osiyo, Amerika; O‘zbekiston, Tojikiston, Rossiya, Turkiya; Farg‘ona vodiysi, Uzoq Sharq, Kavkaz, Boltiqbo‘yi; Hind okeani, Boltiq dengizi, Azov dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Balxash ko‘li, Zarafshon daryosi; Toshkent, Dushanbe, Boku, Dehli, Karachi, Xujand, Konibodom, Isfara; Dehmoy, Taboshar, Qistako‘z, Mahram, Isfisor* va boshqalar.

**Mikrotoponimlar** (*mikro* grekcha “*kichik*” degani) makrotoponimlar doirasida qaraluvchi kichik obyektlar nomini, masalan, guzar, mahalla, kvartal, ko‘cha; jar, tepalik, qir, buloq, quduq, jilg‘a, ariq singarilarning nomlari tizimini o‘z ichiga oladi va shularni o‘rganadi. Masalan, *Panjshanbe, Chorshanbe (mahalla nomlari); Juma, Somon, Ko‘nchi (bozor nomlari); 1-mikrorayon, 3-mikrorayon, Chumchuqorol (kvartal nomlari); Eshak jar (ariq nomi), Farg‘ona kanali (kanal nomi)* va b.

Bulardan tashqari, nomlangan obyektning geografik turiga ko‘ra, toponimlar **oykonimlar** (*oykos* grekcha “uy, turar-joy” ma’nosida: *posyolka, qishloq, guzar, ko‘chalarining nomi* kiradi; **polisonimlar** (grekcha *polis* “shahar” ma’nosida: *Dushanbe, Andijon, Xiva, Qo‘rg‘ontepa, Istarvshan* va b.); **gidronimlar** (gidro grekcha “suv” ma’nosida: *Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq* va b.); **oronimlar** (oronim grekcha *oros*, ya’ni “tug” demakdir: *Hisor tog‘i, Mo‘g‘ul tog‘i, Qurama tizma tog‘lari* va b.); **agrotonimlarga** (agros grekcha “dala” ma’nosida: *Quroqzor, Sariqamish, Qo‘shtol, Yakkaterak, Yakkatut* va b.).

Har bir davrda, o‘sha davrning iqtisodiy va siyosiy tuzumi taqozasiga ko‘ra, joy nomlari o‘zgarib, yangilanib turadi. Masalan, sobiq Sho‘rolar davrida Tojikiston va O‘zbekiston hududida “Sotsializm”, “Kommunizm”, “Partsyezd”, “Lenin”, “Frunze”,

“Voroshilov”, “22 yillik”, “Komsomolobod”, “Leninobod”, “Stalinobod”, “Kalininobod” singari bir qancha o’sha davr uchun yangi toponimlar paydo qilingan edi. Mustaqillik davriga kelib, shu nomlar bilan atalgan hudud yo ularning qadimiy nomlari bilan almashtirildi (masalan, Leninobod o’rniga Xujand; Stalinobod o’rniga Dushanbe; O’ratepa o’rniga Istaravshan; Kirov o’rniga Beshariq va b.), yoki ular mutlaqo boshqa yangi nom bilan ataldi (masalan, Proletarsk emas, Jabbor Rasulov; “Moskva” kolxozi emas, Bobo Turdiboyev; Komsomol emas, Dehqonobod va b.).

Toponimika bilan bog’liq yana bir qiziq jarayon mavjud: dunyo xaritasida shunday nomlar zikr etilganki, ularning lug‘aviy ma’nolari ajablanarli. Masalan, Angliyada o’zbekcha tarjimasi “Rahming kelsin”, “So‘qir kuyovlar”, “Qurbaqalar”, “Zo‘r muhabbat”, “Ko‘rinmay qoldi”, “Ichuvchining tavbasi” so‘z birikmalariga tenglashuvchi toponimlar mavjud. Italiyadagi “It g’ori”, Amerikadagi “Ajal vodiysi”, Erondagi “Dashti noumid”, O’rta Osiyodagi “Borsa kelmas”, “Ho darvesh”, “Labbay, tog‘a” (Namanganda), “Charchamang” (Shahrisabzda), “Jonchiqar” (Zarafshonda), “Cho‘ntakqishloq” (Andijonda), “Ishtonsoldi” (Farg‘onada), “Bo‘g‘ozterak”, “Qor ko‘mdi” shular jumlasidan. Bu nomlar o‘ziga xos ekstralivingistik asoslarga ega bo‘lishi kerak, albatta.

**Etnonimika.** Leksikologiyaning bu tarmog‘ida til jamoasining katta-yu kichik etnik tabaqalari nomlari o’rganiladi. Bunday guruhlarga to‘p, tira, shox, avlod, qavm, jamoa, toifa, urug‘, qabila, elat, xalq, millatlar kiradi. Zero etnonim(ika) grekcha “etnos” so‘zidan olingan bo‘lib, “xalq” degan ma’noni bildiradi. Til jamoasining katta-yu kichik bu guruhlarining nomi *etnonim*, ularning majmuasi, ya’ni tizimi esa, *etnonimiya* deyiladi. Leksikologiyaning etnonimlar va ular tizimini o’rganuvchi tarmog‘iga nisbatan **etnonimika** atamasi ishlatalidi.

Etnonimlar tarix taqozasi bilan vujudga kelgan bo‘lib, informatsiya tashiydi, ma’lum bir “ichki forma”ga asoslangan ma’noga ega bo‘ladi. Shuning uchun etnonimlarni o’rganishning

ahamiyati katta. Masalan, *ar* (*er*), *man* (*men*) etnonimlari dastlab “*odam*”, “*inson*”, “*o’zimizning kishi*” ma’nolarini bildirgan. Bu lisoniy unsur *tatar*, *arlat*, *ag’ar*, *majar*, *mishar*, *avar*, *bulg’or* kabi xalq va qabila nomlari tarkibida saqlangan.

Ma’lum bo‘lishicha, “*er//ar*” unsuri *ariy* (*oriy*)*lar*, eron, osetinlarning bir qabilasi nomi bo‘lmish *iron* so‘zlarining tarkibida ham mavjud. “*Odam*”, “*inson*” ma’nosidagi *man* unsuri (hind-yevropa tillarida “*odam*” ma’nosini bildirgan) *turkman*, *qaraman*, *arman*, *aqman*, *sarman*, *kuman* so‘zleri tarkibida ham uchraydiki, bular millat va xalq nomlaridir.

Etnonimlar eng qadim davrlar mahsuli bo‘lganligi uchun, ularning kelib chiqishini, etimologiyasini aniqlash nihoyatda qiyin. Masalan, “*o’zbek*” so‘zining kelib chiqishi haqidagi fikrlar bir xil emas. Ko‘pchilik olimlar bu so‘zni Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312 – 1340) nomi bilan bog‘laydilar. Uni “*o’zi o’ziga bek*” iborasidan kelib chiqqan degan fikrlar ham yo‘q emas.

Xullas, bu ikki fikrda ham “*o’zbek*” etnonimining kelib chiqishi uchun mushtarak va to‘g‘ri ilmiy asos yo‘q. Shuningdek, barcha o‘zbek urug‘larining nomlari (*Avshar*, *Arg‘in*, *Asaka*, *Axtachi*, *Bag‘analı*, *Barlos*, *Boyovut*, *Dug‘lat // Duvlat*, *Irg‘anoqli*, *Ko‘rpa // Ko‘rpali // Ko‘rpasoy*, *Kereyt*, *Marqa*, *Nayman*, *Ochamayli*, *Solin*, *So‘loqli*, *Tobin*, *Tortuvli*, *Uyaz*, *Chinoz*, *O’tarchi*, *Qalmoq*, *Qarapchi*, *Qiyot*, *Qovchin*, *Qurqozon* va b.) ham jiddiy ilmiy etimologik tahlilga muhtoj.

Etnonimika o‘zbek leksikologiyasining mustaqil tarmog‘i sifatida ilmiy jihatdan hali to‘liq shakllanmagan.

Xulosa shuki, ***onomastikaning*** ichki turlari, ya’ni tarmoqlari ***antroponimika***, ***toponimika*** va ***etnonimika*** bilan cheklanmaydi. Bu murakkab sohaning yetarli darajada o‘rganilmay, rasmiylashmagan tarmoqlari yana ko‘p.

## **LUG‘AVIY SATHNI TIZIM (SISTEMA) TARZIDA XARAKTERLOVCHI LUG‘AVIY-MAZMUNIY QURILMALAR**

Til lug‘at tarkibi, ya’ni leksikasining o‘ziga xos murakkab sistema ekanligi yuqorida ham eslatilgan edi. Sistema tushunchasining tavsifi shundayki, u o‘zaro ma’lum bir jihatlari bilan umumiylitka ega bo‘lgan, biri boshqasini taqoza etuvchi tarkibiy unsurlardan tashkil topadi.

Bunday tarkibiy unsurlar, hosil qilgan guruhining hajmi keng yoxud tor bo‘lishi mumkin. Ana shu xususiyat asosida lug‘at tarkibi (leksika)ni tashkil qiluvchi lug‘aviy-mazmuniy qurilmalarning uch turi ajratiladi: a) lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilmalar; b) lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar; d) lug‘aviy-mazmuniy makroqurilmalar.

Medioqurilma lug‘aviy-mazmuniy tizimda oraliq zonani tashkil etuvchi vazifaviy-mazmuniy (funksional-semantik) guruhdir. Medioqurilmaning unga zamin hozirlovchi manbai – bu lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilmalardir. Lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilmani leksik (lug‘aviy) ko‘p ma’nolilik va uning paradigmatic qatorlari tashkil qiladi.

Lug‘aviy-mazmuniy makroqurilma va ularning tizimi lug‘aviy birliklarning mavzuiy guruhlari, lug‘aviy-mazmuniy maydonlar va ularning paradigmatic qatorlari majmuasidan tarkib topadi.

Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilma esa, so‘zlarning shakldoshlik, ohangdoshlik va ma’nodoshligi munosabatlari asosida hosil bo‘luvchi leksik birliklar va ularning tizimidan yuqori pog‘onada turadi. Bu guruhlar, o‘z navbatida, lug‘aviy-mazmuniy makroqurilmalarga nisbatan quyi bosqichdir.

Lug‘aviy-mazmuniy mikro-, medio- va makroqurilmalarning jami, ularning bir butun uyushmasi til lug‘at tarkibining, leksikaning, o‘ziga xos yaxlit tizimini hosil qiladi. Shu tizim tufayli bizni qurshab turgan borliq ham bir butun va yaxlit tarzda in’ikos etiladi.

## **Lug‘aviy ko‘p ma’nolilik va uning o‘ziga xos mikroqurilma ekanligi**

So‘zni, lug‘aviy birlikni, lug‘aviy ma’nolarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Lug‘aviy ma’noga ega ekanligi bilan so‘z lisoniy qadrga ega. Lug‘aviy ma’nolar bo‘lmasa, so‘z haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Darsligingizning oldingi sahifalarida ham aytiganidek, lug‘aviy ma’no – so‘zning mazmun jabhasiga xos tushuncha. So‘z vositasida nomlangan narsa-hodisalar va ularning belgi-xususiyatlari lug‘aviy ma’no tufayli anglashiladi. Demak, lug‘aviy ma’no so‘zning nimanidir anglatishidir. Masalan, “*kitob*” so‘zi orqali “*nima haqdadir ma’lumot bitilgan va shu ma’lumotni o‘qish orqali xabardor qilishga xizmat qiluvchi predmet*” anglashiladi. Anglashilgan ana shu *predmet* (*narsa*) “*kitob*” so‘zining lug‘aviy ma’nosidir.

So‘zlar, ya’ni lug‘aviy birliklarning semantik (mazmuniy) jabhasi bir va birdan ortiq lug‘aviy ma’nolardan tashkil topishi mumkin. So‘z mazmun qurilishida lug‘aviy ma’no bitta bo‘lsa, u bir ma’noli yoki monosemantik, bittadan ko‘p bo‘lsa, ko‘p ma’noli yoki polisemantik lug‘aviy birlik (so‘z) deb ataladi. Lug‘aviy ma’nolar o‘zaro munosabatdosh bo‘ladi. So‘z anglatgan ma’nolar, ularning boshqa so‘z va ularning ma’nolari munosabati asosida leksikaning ifoda va mazmun jahhalarida turlicha “qurilma”lar vujudga keladi. Bulardan biri lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilma (leksik-semantik mikroqurilma) deb ataladi.

Lug‘aviy sath birliklarining ifoda va mazmun jabhasiga xos mikroqurilmasi lug‘aviy ko‘p ma’nolilik (leksik polisemiya) orqali vujudga keladi. Mikroqurilma atamasi ham ikki tushunchaga nisbatan ishlatiladi: a) ko‘p ma’nolilikning o‘zi; b) ko‘p ma’nolilikning voqelanish jarayonlari. Shuning uchun ham mikroqurilma deyilganda, polisemantik leksema nominativ ma’nolarining o‘zaro munosabati, ularning avtonom tarzda alohida-alohida va birgalikda qo‘llanishi tushuniladi.

Lug‘aviy ko‘p ma’nolilik so‘z hayotining dinamik xarakteri tufayli sodir bo‘ladi. So‘z hayotining dinamik xarakteri deyilganda, uning (so‘zning) turli xil sotsial sharoitlarda, turlicha maqsadlarda qo‘llanilishi va ularning nolisoniy imkoniyatlari tushuniladi. Bunday lisoniy vaziyat so‘zlardagi bosh va nominativ ma’nolarning ko‘chma ma’nolar ham kasb etishi imkoniyati (jarayoni) bilan bog‘lanadi. So‘zlearning o‘z (nominativ) ma’nolaridan tashqari, ko‘chma ma’nolarda ham qo‘llana olish imkoniyati ko‘p ma’nolilikka yo‘l ochadi: ko‘p ma’nolilik zaminida ko‘chma ma’nolar turadi.

Ko‘p ma’nolilik tufayli lug‘aviy sathga xos shakl va mazmun nomutanosibligi (asimmetriyasi)ning paradigmatic jabhasi vujudga keladi. Ko‘p ma’nolilik paradigmatisasi va uning tizimi (paradigmatik qator, paradigmatic uya) so‘z semantik qamrovidagi bir necha mustaqil ma’nolar (sememalar)dan tarkib topadi. Paradigmatik qatorni tashkil etgan ma’nolarning har biri shu so‘zning nominativ ma’nolari xarakterini kasb etadi va ular leksemaning alohida-alohida lug‘aviy-mazmuniy varianti (LMV) sifatida amal qiladi. Leksemaning bu lug‘aviy-mazmuniy variantlari o‘zaro muayyan bir umumlashtiruvchi sema (integral)ga ko‘ra yaqinlikka, mushtaraklikka ega bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, polisemantik leksemaning har bir lug‘aviy-mazmuniy varianti boshqasidan ularning o‘zigagina tegishli bo‘lgan differensial (farqlovchi) semasiga ko‘ra ajralib turadi. Masalan, polisemantik “bosh” leksemasining muayyan denotatsiyaga asoslangan nominativ ma’nosi – bu “*inson yoki hayvon organizmining gavdadan yuqori qismi*”dir. Bosh leksemasining ana shu ma’nosi zamirida uning bir qator lug‘aviy-mazmuniy variantlari vujudga kelgan: 1) yo‘lning *boshi*; 2) tog‘ning *boshi*; 3) tashvishning *boshi*; 4) g‘alabaning *boshi*; 5) janjalning *boshi*; 6) ariqning *boshi*; 7) ma’ruzaning *boshi*; 8) *mashg‘ulotning boshi*; 9) *bosh* mutaxassis; 10) *bosh* muharrir; 11) to‘y *boshi*; 12) yurt *boshi* va h.k. **Bosh** leksemasining nolisoniy nisbati asosiga ko‘ra, bu miqdor yana davom etishi mumkin. Shu miqdorning o‘ziyoq “*bosh*” polisemantik leksemasining o‘n ikki lug‘aviy-mazmuniy variantda

voqelanganligiga ishoradir. Bu lug‘aviy-mazmuniy variantlarning har biri “*bosh*” polisemantik leksemasining alohida-alohida lisoniy qiymat kasb etuvchi sememalaridir: *o‘n ikki lug‘aviy-mazmuniy variant – o‘n ikki semema*.

Demak, lug‘aviy ko‘p ma’nolilikda polisemantik leksema (so‘z)ning mazmun qurilishida birdan ortiq lug‘aviy-mazmuniy variant (LMV) bo‘ladi. LMVlar biri boshqasidan so‘z ma’nosining nimagadir nisbatlanishi, nimanidir bildirishi jihatidan farq qiladi, biroq ular shakl jihatdan ham, talaffuz jihatdan ham farq qilmaydi. Lug‘aviy-mazmuniy variantlarga xos bu xususiyat ularning lug‘aviy omonimiyadan farqlanishiga monelik qilmaydi, albatta. Chunki lug‘aviy-mazmuniy variantlar, miqdori qancha bo‘lishidan qat’iy nazar, bir so‘zdir va shu so‘zning mazmun qurilishi bilan bog‘liq xususiyatidir (shuning uchun ko‘p ma’nolilikka nisbatan *mikroqurilma* atamasi ishlatiladi). Omonimlarda esa, ma’no va so‘z (leksema) miqdoran teng keladi. Omonimiya uyasini tashkil etgan har bir lug‘aviy birlik (so‘z, leksema) o‘z doirasida bir qancha LMVlardan tarkib topgan bo‘lishi mumkin (bu haqda darslikning “Lug‘aviy omonimiya” bahsida so‘z yuritiladi).

LMVlarning ko‘pligi, birdan ortiqligi, faqat polisemantik (ko‘p ma’noli) leksemalardagina bo‘ladi. Bir ma’noli leksemalar bir LMVga teng keladi – ularda shakl va mazmun muvofiqligi (mutanosibligi) mavjud. Bunday xususiyat termin (atama)larga xosdir. Termin (atama)larda odatda va ko‘pincha bir leksema (so‘z) bir LMVga teng keladi. Masalan, *radio*, *televizor*, *samolyot*; *fonema*, *bo‘g‘in*; *janr*, *ballada*, *kino*, *telefon*, *matn*, *ocherk*, *sintaksis* va b.

LMVlar ham ifoda va mazmun jabhalariga ega bo‘lgan ishora, ramzlardir. Bundan seziladiki, lug‘aviy ko‘p ma’nolilikda bir polisemantik leksema doirasida umumlashtiruvchi (integral), ya’ni mushtarak semaga ega bo‘lgan birdan ortiq ishora, ramzlar tutashadi. Demak, *polisemantik leksema* semantik jihatdan o‘zaro bog‘liqlikdagi lug‘aviy-mazmuniy variantlar (**LMVlar**) *guruhidir*. Ayni ana shu xususiyat lug‘aviy ko‘p ma’nolilikning – polisemantik leksemalarning

– til lug‘aviy tizimi (sistemasi)ga xos mikroqurilma ekanligini belgilovchi bosh omildir.

Polisemantik leksemalar mustaqil so‘z turkumlaridan ot, sifat va fe’l doirasida ko‘p uchraydi. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “yo ‘qotmoq” fe’lining quyidagi ma’nolari qayd etilgan:

1. *Yo ‘q qilmoq*.
2. *Muayyan narsaga monelik qiladigan to ‘sinqi olib tashlash, barham berish (turmushimizda bir qadar isloh yuzaga chiqsin, bema’ni ishlarni yo ‘qotaylik. Oybek)*.
3. *Ixtiyorsiz holda tegishli narsasini yo ‘q qilmoq, nazar-e’tibordan qochirmoq (Ko ‘r hassasini bir marta yo ‘qotadi. Maqol)*.
4. *Ajralmoq, mahrum bo ‘lmoq, ayrilmoq, judo bo ‘lmoq*.
5. *Kuchdan qolmoq, yo ‘qqa chiqmoq* va b.

Demak, bu o‘rinda “yo‘qotmoq” polisemantik lesemasining olti lug‘aviy-mazmuniy varianti (LMV) va ularning ma’nolari qayd etilgan.

Bulardan tashqari, “yo‘qolmoq” so‘zi ishtirokida *aqlini yo ‘qotmoq, esini yo ‘qotmoq, hushini yo ‘qotmoq, gapini yo ‘qotmoq, o ‘zini yo ‘qotmoq* singari frazeologik iboralar ham hosil bo‘lganki, ular bu so‘zning ko‘chma ma’nolariga asoslangan.

Lug‘aviy ko‘p ma’nolilik lug‘aviy ko‘p vazifalilikka ham o‘xshaydi. Biroq ular o‘zaro farqli ikki xil tushuncha, ikki xil boshqa-boshqa hodisalardir. Ko‘p ma’nolilik – so‘zning obyektiv olamdagি rang-barang narsalarni anglatish boyligi, imkoniyati. Masalan, “*bet*” so‘zi kishi yuzini, qog‘oz sahifasini, ko‘cha chetini, oqar suv yuza sathini, inson izzatini va hokazolarni o‘rni bilan anglatadi. Bu, albatta, u tarkibida kelgan gap bilan bog‘liq. Shu so‘z imkoniyatlariga ko‘ra turli gaplar uchun saylanadi va u turli so‘zlar bilan aloqaga kirishadi.

So‘zning, lug‘aviy birlikning, ko‘p vazifaliligi esa, tamoman boshqa narsa. Bunda lug‘aviy birlik (so‘z) ma’lum turkumga xos bo‘lib, qo‘llanishida boshqa turkum vazifasini ham hech qanday tashqi (tovush) o‘zgarishisiz bajaraverishidir. Bu hodisa turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida ko‘p tarqalgan. Masalan, *oltin* so‘zi o‘zbek tilida ot turkumiga mansub: *Hamid ...bir qo ‘lidan ikkinchi qo ‘liga oltinlarni sanab tushira berdi* (A.Qodiriy). Bu so‘z “*Oltin*

*piyolada bollar ichilar*” (“Yodgor” dostonidan) gapida otga (piyolada) bog‘lanib, sifat vazifasida kelgan. Keyingi gapda ishlatilgan “oltin” so‘zi, oldingi misoldagidek narsa-buyumning o‘zini emas, balki boshqa narsa-buyumning materialiga aloqador belgi-xususiyatini bildirgan.

O‘zbek tilida otlarning sifat vazifasida kelishi faol lisoniy jarayondir. Aslida ot turkumiga kiruvchi *nilufar*, *kumush*, *yov*, *gunoh*, *loy*, *temir*, *tosh*, *g‘isht*, *taxta*, *yog‘och*, *uy*, *o‘g‘il*, *qiz*, *xotin*, *kampir*, *hokim* va hokazo lug‘aviy birliklar sifat vazifasida kelib, ko‘p vazifalilik xususiyatiga ega bo‘ladi.

Demak, misollar tabiatidan ma’lum bo‘ladiki, lug‘aviy birliklarning ko‘p vazifaliligi ularning ko‘p ma’noliligidan farq qiladi: ko‘p ma’nolilik so‘zlarning atash semalari va ularning sintagmatik qurshovda turlicha voqelanishi bilan bog‘lansa, ko‘p vazifalilik ularning vazifa semalari va ularning sintagmatik qurshovda voqelanishi bilan aloqador bo‘ladi.

Lug‘aviy birliklarning ko‘p vazifaliligi faqat ot turkumiga qarashli lug‘aviy birliklar bilan cheklanmaydi. Sifat, son, olmosh turkumlariga qarashli lug‘aviy birliklarda ham bu xususiyat mavjud. Masalan, “*To‘yning qizig‘i shunda-da, – jahl bilan qichqirdi Yo‘lchi*” (Oybek) gapida asli sifat turkumiga mansub “*qiziq*” so‘zi ot vazifasida qo‘llangan.

“*Talabalardan beshtagina keldi*” gapida esa, son turkumiga qarashli “*besh*” so‘zi ravish vazifasida kelgan. “*Mashinaga undan besh qop ortildi*” gapida ot turkumiga xos “*qop*” so‘zi ravish vazifasini bajargan.

Xullas, lug‘aviy ko‘p ma’nolilik – leksika sathining eng kichik sistemasi, sistemalar ichidagi sistemasi – tagtizimidir. U lug‘aviy-mazmuniy ierarxiyaning eng quyisi pog‘onasidagi boshlovchi mikrotizimdir.

## **Lug‘aviy ko‘p ma’nolilikka yo‘l ochuvchi lisoniy va nolisoniy omillar**

Lug‘aviy ko‘p ma’nolilik eng avvalo so‘zning nominativ ma’nolaridagi siljish tufayli vujudga keladi. So‘zning mazmun qurilishida, dastlabki nominativ ma’nodan tashqari, yana boshqa unga muqobil nominativ ma’nolar uchun ham o‘rin paydo bo‘ladi: bir fonetik qurilishdagi lug‘aviy shakl birdan ortiq nominativ ma’nolar anglatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. So‘zning shakli va ma’nosи munosabatidagi muvofiqlik barham topadi. Bu jarayonda lug‘aviy sathga xos nomutanosiblik (asimmetriya) vujudga keladi. Bir nominativ ma’no ifodasi uchun rasmiylashgan lug‘aviy birlik (so‘z, leksema) zimmasiga birdan ortiq nominativ ma’no ifodalash vazifasi yuklanadi. Shunday qilib, ko‘p ma’nolilik, ya’ni polisemiya va ko‘p ma’noli so‘z, polisemantik leksema vujudga keladi.

So‘z (leksema)ning dastlabki (asosiy, bosh) nominativ ma’nosining vujudga kelishida turli xil nolisoniy imkoniyatlar asos bo‘lgani kabi, uning yangidan paydo bo‘luvchi nominativ ma’nolari uchun ham turli xil nolisoniy imkoniyatlar turtki bo‘ladi. Bunday nolisoniy omil va imkoniyatlarga quyidagilar kiradi:

1. Har xil narsa-predmetlararo yoki ularning ayrim jihatlarida ko‘zga tashlanuvchi mushtarak va o‘xhash xususiyatlar.
2. Har xil narsa va predmetlarning makon va zamonga ko‘ra umumiyligi, o‘zaro bog‘liqligi.
3. Har xil narsa va predmetlar, voqeа va hodisalar bajaradigan vazifadagi mushtaraklik.

1. Har xil narsa-predmetlar yoki ularning ayrim xususiyatlarida ko‘zga tashlanuvchi o‘xhashlik asosida vujudga kelgan ko‘p ma’nolilikni *metafora* yo‘li bilan vujudga kelgan ko‘p ma’nolilik (yoki polisemiya) deyiladi. Boshqacha aytganda, bir narsa-predmet yoki uning ayrim jihatlari ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan boshqa bir narsa-predmet yoki uning ayrim jihatlari nomi bilan ataladi. Masalan, “bosh” so‘zining dastlabki nominativ ma’nosи

“tananing yuqori qismi, inson yoki hayvon organizmining boshlanish a’zosi”dir. Nimadagi boshlanish qismi bo’lsa, o’sha qism, u konkret yoki mavhum tushunchalar anglatishidan qat’iy nazar, “*bosh*” so‘zi bilan atalaveradi: dalaning boshi, yo‘lning boshi, tadbirning boshi, dehqonchilikning boshi, hosilning boshi va b. Ma’lum bo‘ladiki, tana a’zolarini nomlagan so‘zlar ko‘p ma’nolidir va ular metafora yo‘li bilan vujudga keladi. Metafora yo‘li bilan vujudga kelgan ko‘p ma’nolilik sifat va fe’llarda ham ancha faol. Chunonchi, bo‘sh (o‘rin) – bo‘sh (odam), jonli (jonli tabiat – jonli suhbat) kabilarda sifat turkumiga mansub bo‘sh va jonli so‘zlari metafora yo‘li bilan vujudga kelgan ko‘p ma’nolilik bo‘lsa, taxlamoq (o‘tinni taxlamoq – gapni taxlamoq), cho‘kmoq (yerning, imoratning cho‘kishi – odamning keksayganda cho‘kishi) kabilar fe’l turkumiga mansub so‘zlarning metafora yo‘li bilan paydo bo‘lgan ko‘p ma’noliligidir. **Metafora** yo‘li bilan paydo bo‘lgan ko‘p ma’nolilikda lug‘aviy-mazmuniy variantlarning ma’no qurilishida ham narsa-predmetlar, ularning belgi-xususiyatlariaro o‘xshashlik semasi ustuvor bo‘ladi.

Demak, so‘zlarda metafora yo‘li bilan ko‘chma ma’no hosil bo‘lishi ikki obyekt orasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Bunda inson hodisa yoki biror obyektga subyektiv belgi, xususiyat ilova qilish, taqish uchun shunday belgi va xususiyatga ega obyektga qiyoslanib, unda ko‘chma ma’no hosil qilinadi.

Metafora yo‘li bilan so‘z polisemantik xususiyat kasb etar ekan, shu bilan bir qatorda, so‘z mazmun strukturasida ekspressiv-uslubiy jilo (ottenka), ekspressiv-emotsional bo‘yoq deb ataluvchi semantik unsur ham paydo bo‘ladi. Xalqimizda yosh bolalarni *qo‘zichog‘im*, *toychog‘im*, *bo‘talog‘im* deb atash odati bor. Masalan, S.Zunnunova hikoyalarining biridan olingan “*Bormisan, qo‘zichog‘im*, – Yunusjon ko‘ziga bobosi har qachongiday quvnoq, har doimgiday mayin ko‘rinib ketdi” jumlasida *qo‘zichoq* so‘zi orqali bola (aniqrog‘i, “*yosh bola*”) nomlanib, uning ma’nosи ifoda etilgan. Bunda *qo‘zichoqning go‘zalligi*, *jajjiligi* yosh bolaga qiyos qilingan. Keltirilgan bu misolda metaforaning ma’no ko‘chishiga sabab bo‘luvchi dastlabki bosqichi

mavjud. Bunday bosqich jonli nutqqa va badiiy asarlar tiliga xosdir. Metaforaning bunday ko‘rinishi ko‘pincha nutqiy xarakterga ega bo‘ladi. Takror-takror ishlatilib, sayqal topgach, ular til sathiga ham ko‘chadi va bunday ma’nolar lug‘atlarda ham beriladigan bo‘ladi. Masalan, til sathiga o‘tish bosqichidagi va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham qayd etilgan “kuz” so‘zining metafora yo‘li bilan hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nosiga nazar tashlaylik: 1. Yoz bilan qish o‘rtasidagi fasl: kech kuz, kuzga yaqin.“Shu orada yasharkan Bir badavlat – boy xo‘roz, Rohat umr ko‘rarkan Kuzu qishu bahor.” (Z.Diyor). Deraza oldidagi tol novdasidagi yaproqlar kuz shamoliga bardosh berolmay, uzilib yerga tushardi (S.Karomatov). 2. Davrning, masalan, kishi hayotining, umrining oxirgi damlari. “Axir, yoshimiz ketayapti, umr bahorimiz o‘tib, kuzimiz yaqinlashib kelyapti, Hayotxon!” (M.Ismoiliy). Bu o‘rinlarda *qo‘zichoq* va *kuz* polisemantik leksemalari ma’no qurilishida mushtarak umumiy sema asosida tutashuvchi ikkitadan LMV (lug‘aviy-mazmuniy variant)larni o‘z ichiga olgan.

Ma’noning metafora yo‘li bilan ko‘chishi o‘zlashma so‘zlarda ham bo‘ladi. Masalan, rus tilidan o‘zlashgan “piston”, “garmoshka”, “artist” so‘zлari va ular anglatgan dastlabki va so‘nggi ma’nolar misolida bu hol ko‘zga tashlanadi. E’tibor beraylik. “Piston” so‘zi “miltiq o‘qi” ma’nosini bilan o‘zbek tiliga o‘zlashgan. U miltiq o‘qining zaryadini yondirish uchun xizmat qiladi. Uning shakli chaqiladigan modda to‘ldirilgan metall tangacha holatida bo‘ladi. Xuddi shunga o‘xhash metall tangacha ham bo‘lib, u “tugmacha” vazifasini o‘taydi. Ular shaklda o‘xhash bo‘lgani uchun, keyingi metall tangacha ham piston deb ataladi. Bu o‘rinda “*tangacha shaklidagi tugmacha*” **piston** so‘zi kasb etgan yangi nominativ ma’nodir.

“Garmoshka” musiqa asbobi ma’nosida rus tilidan o‘zlashgan so‘zdir. Uning korpusi burma-burma holda taxlangan matodan tuzilgan bo‘ladi. Xuddi shunga o‘xhash ayrim mato va narsalarga taxlov tushib qolsa, shu ko‘rinish ham “garmoshka” so‘zi bilan ataladigan bo‘ldi: “garmoshka” so‘zida metafora yo‘li bilan yangi

ma’no vujudga keldi. Endi “artist” so‘zi va unda paydo bo‘lgan yangi ma’noga e’tibor beraylik. Bu so‘z rus tilidan o‘zbek tiliga “badiiy asarni omma uchun ijro etib berish kasbiga ega shaxs” ma’nosи bilan o‘zlashgan. Bu kasb egasining asosiy “hunari” taqlid qilish yo‘li bilan obrazga kirish va obraz yaratishdir. Firibgar va lo‘ttivozlarda ham shu xarakter mavjud bo‘ladi. Jamiyatdagi salbiy kayfiyat uyg‘otuvchi bunday shaxslar ham, xarakter o‘xhashligi asosida, “artist” deb ataladi: ha, “artist” so‘zida ham metafora yo‘li bilan yangi nominativ ma’no paydo bo‘ldi.

2. Har xil narsa-predmet va hodisalarning makon va zamonga ko‘ra umumiyligi, o‘zaro bog‘liqligi asosida vujudga keluvchi ko‘p ma’nolilik ma’no ko‘chishining **metonimiya** deb ataluvchi ko‘rinishiga asoslanadi. Ma’no ko‘chishining bu jarayonida yangi ma’no uchun qiyoslanayotgan narsa va hodisalarning makon va zamon umumiyligi, mushtarakligi sabab bo‘ladi. Masalan, “ko‘knor” ko‘p ma’noli so‘z (leksema) sifatida ikki LMVga ajraladi. Uning birinchi LMVsi “*ko ‘saksimon, hosili ichida mayda ko ‘kish urug‘i bor, tanasida sut shira yetishadigan bir yillik va ko ‘p yillik o‘simlik*” ma’nosи bilan dastlabki, bosh nominativ ma’noda bo‘lsa, shu ma’no zaminida uning “*shu o‘simlikning hosilidan ivitilib tayyorlanadigan, kayf beradigan ichkilik*” tarzidagi ikkinchi hosila ma’nosи paydo bo‘lgan. “Ko‘knor” so‘zining bu ma’nosini anglatish uning ikkinchi LMVsi zimmasiga tushgan. Yana muhimi shundaki, jonli nutqda, xalq tilida, “ko‘knor” so‘zining so‘nggi – ikkinchi ma’nosи zaminida uning “*ko ‘knor iste’mol qilishga odatlangan shaxs*” (“*ko ‘knori*”) ma’nosidagi uchinchi LMVsi ham vujudga kelgan. Shunga o‘xhash xususiyat polisemantik “choy” leksemasi va uning “ekib o‘stiriladigan “o‘simlik” (1–LMV), “*shu o‘simlikdan tayyorlanadigan ichimlik*” (2–LMV); polisemantik “g‘o‘za” leksemasing “*ekib o‘stiriladigan madaniy o‘simlik*” (1–LMV) va “*shu o‘simlikning pishmagan ko‘ragi*” (2–LMV) singari misollarda ham mavjud.

“**Kishan**” so‘zi ma’no ko‘chishi yo‘li bilan kasb etgan ko‘p ma’nolilik ham metonimiya yo‘li bilan hosil bo‘lgan. Bu polisemantik

leksema uch LMVdan iborat. Uning birinchisida bu leksemaning dastlabki nominativ ma’nosи ifodalанади va u “*otning ikki oyog‘iga solinadigan bo‘g‘ov, zanjir*” ma’nosini bildirган. Keyingi ikkinchi LMVsining ma’nosи – *oyoq, qo‘l, bo‘yinga solib, qulflab qo‘yiladigan, temir halqalardan ishlangan maxsus moslama*” (Boyagi erkak mahbuslarning qo‘llarидаги kishanлarni yechdi (M.Ismoiliy) ma’nosini ifodalash uchun xizmat qilsa, keyingi, uchinchi LMVsining ma’nosи – “*umuman, erkin harakatga yo‘l qo‘ymaydigan narsa, to‘sinq, g‘ov*” (U vaqtda tushunmaslik oyog‘imga kishan bo‘lgan ekan (S.Ahmad) ma’nosи uchun rasmiylashgan.

Metonimiya yo‘li bilan vujudga keluvchi ko‘p ma’nolilikning nolisoniy asosi turli xil bo‘ladi. Chunonchi, muayyan makon, o‘rin, joyning nomi shu makon, o‘rin, joyda mavjud bo‘lgan biror-bir narsa, predmetning ma’nosini ifodalashi mumkin. Masalan, “*Tomosha zo‘r bo‘lganidan, zal oyoqqa turdi*”, “*U safar jomodonini taxladi*”, “*Bu voqeа sodir bo‘lganda, shahar qattiq uyquda edi*” gaplarida “*zal*” nomi bilan undagi son-sanoqsiz “kishilar”, “jomadon” nomi bilan uning ichiga joylangan kiyim-kechak va boshqa narsalar, “*shahar*” nomi bilan shu shaharda istiqomat qiluvchi aholi anglashilayotir. “*Fakultetga kirib ulgurmasimdan ortimdan Zamira yetib keldi*” gapida *fakultet* so‘zi o‘zining dastlabki nominativ ma’nosida emas, balki shu fakultet joylashgan bino ma’nosida qo‘llanganligini sezish qiyin emas. Yoki talabalarning sinov va imtihonlarda o‘qigan fanlari bo‘yicha olgan bilimlari “uch”, “to‘rt”, “besh” kabi baholanadi. Ular nutqida ishlatilgan bunday sonlar raqam ma’nosini emas, balki olgan bilimlarining o‘lchovi, bahosi ma’nolarini anglatadi. Bu o‘rinda ham metonimiya orqali ma’no ko‘chishi sodir bo‘lgan. Bunday misollar son-sanoqsiz. Bundan seziladiki, metonimiya usuli ham ko‘chma ma’nolilik zamirida lug‘aviy ko‘p ma’nolilikning paydo bo‘lishida ancha faol imkoniyatlardan biridir.

3. Ko‘chma ma’no va ko‘p ma’nolilik *sinekdoxa* usuli yordamida ham vujudga keladi. Sinekdoxa usuli vositasida vujudga keluvchi ko‘p ma’nolilik asosida butun va uning qismi nomlari

munosabati amal qiladi: ba'zan butunning nomi shu butunlikka daxldor qismning ma'nosini anglatish uchun xizmat qilsa, ba'zan qismning nomi yordamida butunning ma'nosи anglashiladi. Masalan, barmoq yoki panja semantik jihatdan "qo'l" leksemasiga tobe bo'ladi. Ba'zi hollarda "qo'l" nomi bilan "barmoq" yoki "panja" ma'nolari ham anglashilaveradi. Bu o'rinda butunning nomi orqali shu butunlikka daxldor qismning ma'nosи ifodalanadi ("qo'l" – barmoq yoki panja). "Bosh" polisemantik leksemasining denotatsiyaga asoslangan nominativ ma'nosи, yuqorida ham aytiganidek, "gavdaning yuqori, boshlanish qismi"dir. Shu nuqtai nazardan, bu nomda qism ma'nosи ifodalanishi lozim edi. Biroq "*Xo'jaligimizda mayda mollar o'n bosh*" deyilganda, bu leksema (bosh) – qism nomi, lekin u butunning ma'nosini bildirayotir: bu o'rinda qism nomi bilan shu qism mavjud bo'lgan butun ma'nosи anglashilgan. "Bosh" polisemantik leksemasining boshqa ko'chma ma'nolari ham bor. U tafakkur, shuur ma'nolarida ham qo'llanadi. Ma'lumki, ong, tafakkur, shuur miyaning vazifaviy mahsuli. U miyaning qismi. "Bu bolaning boshi yaxshi ishlaydi" gapida "bosh" leksemasi ana shu ma'noni anglatadi. "Bosh" so'zi ong, tafakkur, shuur ma'nolarida qo'llanganda, ko'p ma'nolilikni vujudga keltiruvchi metonimiya va sinekdoxa usullari biri boshqasi bilan sinxron tarzda qo'shilib ketadi: "bosh" va uning mahsuli (ong, aql) makon umumiyligiga ega bo'lishi nuqtai nazaridan, bu ko'chish metonimiyaga daxldor bo'ladi. "Bosh" so'zi organizmning a'zosi, aql, ong, shuur uning vazifa mahsuli sifatidagi qismi bo'lishi nuqtai nazaridan, "bosh"ning aql, tafakkur ma'nosida ishlatilishida sinekdoxaning amali bordek.

Sinekdoxa usuli bilan yangi ma'nolarning hosil bo'lishida bo'lak nomi bilan butun ma'nosini ifodalash faolroqdir. Masalan, mevali daraxtlar ko'p bo'ladi. Eng avvalo ularning hosili – mevalari nomga ega bo'lgan. Keyin esa mevaning nomi bilan shu mevani yetishtiruvchi daraxt ma'nosи ham anglashiladigan bo'lgan. Jiyda mevasi va uning daraxtini oladigan bo'lsak, nom avvalo mevaga

(jiyda) berilgan. Keyin shu nom ostida shu mevani yetishtiruvchi daraxti ham atalgan.

Sinekdoxa usuli yordamida yangi ma’no hosil bo‘lishi o‘zbek tiliga chetdan o‘zlashgan so‘zlar hayotida ham uchraydi. Masalan, o‘zbek tiliga rus tilidan “limon” nomi bilan avval meva o‘zlashgan. Keyinchalik shu mevani yetishtiradigan daraxti ham bu nom bilan ataladigan bo‘ldi. Chunki o‘zbeklar dastlab limon mevasini ko‘rismagan va bilishmagan. Limon yetishtiradigan daraxt – buta Markaziy Osiyoda oldin o‘stirilmagan. Uning daraxti keltirilib, o‘stirilib, mahalliylashtirilgach, u ham “*limon*” deyila boshlangan. Bunga o‘xhash holatlar “*pomidor*”, “*bodring*”, “*qulupnay*”, “*mandarin*” va h.k. so‘zlar va ular anglatgan dastlabki va so‘nggi ma’nolar uchun ham xosdir.

Ko‘p ma’nolilikni vujudga keltiruvchi sinekdoxa usulining ham bir qator ko‘rinishlari mavjud. Ular alohida o‘rganishga muhtoj.

4. Ustama, yangi nominativ ma’nolar narsa-predmetlar bajaradigan vazifa o‘xhashligi asosida ham hosil bo‘ladi. Yangi ma’no hosil bo‘lishining bu usulini **vazifadoshlik** (yoki **funksiyadoshlik**) deb yuritiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *ilgak*, *tugma*, *o‘q*, *qalam*, *qanot*, *ulov*, *chiroq* singari bir qator so‘zlar vazifadoshlik yo‘li bilan yangi nominativ ma’nolar kasb etgan. Ularning ayrimlariga alohida to‘xtalamiz.

*Ilgak* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da besh lug‘aviy-mazmuniy variantni o‘z ichiga olgan polisemantik leksema tarzida berilgan. Bu so‘zning dastlabki nominativ (denotativ) ma’nosи “*ilib*, *osib qo‘yish*, *ilib berkitib qo‘yish uchun xizmat qiladigan*, *bir uchi qayrilgan metall moslama*, *ilmoq*” (1 – LMV) bo‘lgan (U eshikning *ilgagini* soldi). Keyinchalik bu so‘z “*ilib olish*, *ilib ko‘tarish*, *ilib tortish* va *boshqalar uchun xizmat qiladigan narsa*, *moslama*” (Ko‘tarma kranning to‘rtala *ilgagini* qotib qolgan alebastrning to‘rt chekkasiga *ilib qo‘yishdi*. S.Ahmad) – 2 – LMV; “*biror narsani, masalan, kiyimni ilib, osib qo‘yish uchun xizmat qiladigan narsa*” – 3

– *LMV* (Xosiyat xola burchakdagi ilgakdan oppoq xalatini oldi. S.Ahmad) kabi ma'nolar ham kasb etganki, shu ma'nolar anglatgan narsa-predmetlar vazifasi jihatdan o'xshashdir. Bulardan tashqari, “ilgak” so‘zi majoziy ma'nolarda ham ishlatiladi. Chunonchi, “*biror narsaga shama, ishora tarzidagi so‘z, ilmoq*” – 4 – *LMV* (Bola ... tergovchi *ilgak* tashlayapti, deb ishonmadi. S.Yunusov); “*g‘arazli maqsaddagi gap, so‘z, hatto harakat va b.*” (Abdubilol *ilgak* topib majlisni buzishni o‘yladi. S.Yunusov).

*Tugma* leksemasining vazifadoshlik asosida hosil bo‘lgan ma'nosi xususida shuni aytish mumkinki, bu so‘z dastlab “*ko ‘ylakning yelka va ikki qismini bir-biriga tutashtirish uchun tikilgan ip*” ma'nosida paydo bo‘lgan. Keyinchalik shu vazifani metall, qimmatbaho tosh, suyak va plastmassadan yasalgan maxsus qismlar bajargan. Tikuvchilik kasbi sohasiga tegishli ana shu “predmet” ham “tugma” nomi bilan ataladigan bo‘ldi. Natijada bu so‘zning yana boshqa tushuncha ifodasi uchun xoslangan yangi nominativ ma'nosi vujudga keldi.

“Chiroq” so‘zi hosil qilgan yangi ma'nolar ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu so‘z dastlab “tagdoniga yonilg‘i quyib, maxsus yasalgan shisha yordamida yorug‘lik taratadigan predmet, narsa” ma'nosи bilan paydo bo‘lgan. Keyinchalik “*elektr quvvati vositasida yorug‘lik taratadigan moslama*”ga nisbatan ham chiroq so‘zi ishlatiladigan bo‘ldi. “*Chiroq*” so‘zining nominativ xarakterdagi ma'nosi ko‘paydi, u polisemantik leksemaga aylandi.

“*Ulov*” so‘zi va unda paydo bo‘lgan yangi ma'nolar masalasi yana ham xarakterli. Bu so‘z dastlab *ot, eshak, tuya, ho‘kiz* singari ish hayvonlari va ularning naqliyot vositasi sifatida ishlatilishiga nisbatan qo‘llangan. “*Ulov*” deganda o‘shalar tushunilgan. Keyinchalik fan va texnikaning rivojlanishi tufayli, ularning vazifasi *velosiped, mototsikl, avtobus* va har xil yengil mashinalar, hatto poyezd va samolyotlar zimmasiga yuklandi. Endilikda “*ulov*” so‘zining ma'nosi kengayib, polisemantiklikdan *lug‘aviy-mazmuniy maydon* darajasiga yetgan.

Ayni ana shu lisoniy xususiyatlar *qanot*, *in*, *o'q*, *qalam* va h.k. so'zlar hosil qilgan keyingi ma'nolar uchun ham xosdir.

5. Ko'p ma'nolilikning vujudga kelishida so'z ma'no doirasining kengayishi va torayishi ham muhim rol o'ynaydi. So'z ma'nosining kengayishi deganda, uning semantik strukturasida oldin mavjud bo'limgan ayrim semalarning paydo bo'lishi tushuniladi. Masalan, "*o'q*", "*ishchi*", "*saroy*", "*talaba*", "*rais*" va bir qator so'zlarning ma'nosida ana shunday jarayon, ya'ni kengayish paydo bo'lgan. Shulardan "*o'q*" so'zi ma'nosidagi kengayish va uning xususiyatiga e'tibor beraylik. "*O'q*" so'zi dastlab "*kamondan otiladigan, jarohatlash uchun uchqurlangan predmet*" ma'nosida paydo bo'lgan. Keyinchalik miltiq, avtomat, zambarak va b. urush qurollaridan otilib, dushmanni jarohatlash va yo'q qilish vazifasini bajarish uchun mo'ljallangan "*patron*", "*snaryad*" kabi ma'nolarni ham anglata boshladi, shu tarzda "*o'q*" so'zining ma'no doirasi kengaydi.

So'z ma'nolarining kengayishi konkret ma'noli so'zlarning mavhum ma'noli lug'aviy birlklarga aylanishi yo'li bilan ham vujudga keladi. Masalan, "*otlanmoq*" so'zi dastlab, "*otga minib, jo'nash*" ma'nosida paydo bo'lgan. Bu uning konkret harakat bilan bog'liq ma'nosidir. Hozirgi vaqtda bu so'z "*biror joyga borish uchun hozirlanish*" ma'nosini ham kasb etib, uning ma'no qamrovi kengaygan. "*Otlanmoq*" so'zining keyingi bu ma'nosini dastlabki konkret ma'nosini zaminida vujudga kelgan mavhum ma'nodir.

Masalan, "*quroq*" dastlab "*jangda dushmanga zarba berish, uni yo'q qilish*" ma'nosida ishlatilgan, keyinchalik bu so'zning ma'no hajmi kengayib, *qalam*, *daftar*, *kitob*, *chizg'ich*, *sumka* singari alohida-alohida predmetlar va ularning jagini bildiruvchi ma'noga ham ega bo'ldi. Bunday xususiyatni "*o'choq*" so'zi ma'nosini hajmining kengayishida ham ko'rish mumkin. Bu so'z dastlab "*qozon osiladigan moslama*" ma'nosini bilan paydo bo'lgan, uy-ro'zg'or ishlariga tegishli konkret tushunchani atagan.

"*O'choq*" turkiy tillardan rus tiliga o'zlashib, mavhum tushunchalar ma'nosini anglatish xususiyatini ham kasb etgan. Bu

so‘zning mavhum tushunchalarga nisbatlangan ma’nosini o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tgan. Endilikda “*o‘choq*” so‘zi “*ilm o‘chog‘i*”, “*madaniyat o‘chog‘i*”, “*tarbiya o‘choqlari*” kabi birikmalar tarkibida mavhum ma’nolarga ham ega bo‘lib, ma’no hajmi kengaygan. Yoki “*kurash*” so‘zini va uning ma’nosini olaylik. Bu so‘zning ma’nosini dastlab milliy sportning bir turini anglatgan, ikki polvonning maydonda bellashuvi ma’nosida paydo bo‘lgan va ana shu ma’no bilan u rasmiy lashgan. Endilikda bu so‘z ma’nosining hajmi kengaygan. U mavhum ma’nolar ham kasb etgan: *mafkuraviy kurash*, *haqiqat uchun kurash*, *tinchlik uchun kurash*, *adolat uchun kurash* va h.k.

So‘z ma’no hajmining kengayishi o‘zlashgan so‘zlar hayotida ham uchraydi. Masalan, *mavj* so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan. U aslida “*to ‘lqin*” ma’nosida paydo bo‘lgan. Keyinchalik u “*suv yuzida shabadadan hosil bo‘ladigan jimir-jimir harakat, ko‘rinish*”, “*umuman tovlanish, jilva*” ma’nolarini ham kasb etgan.

Bunday lisoniy xususiyat, ya’ni so‘z ma’no hajmining kengayishi, rus tilidan o‘zlashgan so‘zlarda ham uchraydi. Chunonchi, “*Jiguli*” rus tilidan joy nomi bilan o‘zlashgan toponimdir. Yengil avtomashinalar ishlab chiqaradigan zavod Rossiyaning shu hududida joylashganligi uchun, uning mahsuloti ham “*Jiguli*” deya ataladi. Yoki “*Moskvich*” deyilganda, Moskva shahrida yashovchi fuqaro ma’nosini anglashilgan. Bu yerda joylashgan zavoddan chiqadigan avtomobillar ham “*Moskvich*” nomi bilan atalib, mazkur so‘zning ma’no doirasida kengayish vujudga kelgan. Bu xil misollar tilda anchagina.

Konkret narsa-hodisalarini bildiruvchi so‘zlar ma’no qamrovida mavhum tushunchalar ma’nosini bildiruvchi uzvlarning paydo bo‘lishi sababli ham so‘z semantik hajmida kengayish sodir bo‘ladi. Masalan, arab tilidan o‘zlashgan *ayyom*, *mavj*, *barq*, *bob* singari so‘zlar ma’nosidagi kengayish ana shunday xarakterda.

Atoqli otlarning boshqa atoqli otlarga yoki turdosh otlarga aylanishi jarayoni ham so‘z ma’no hajmining kengayishiga daxldor imkoniyat sanaladi.

6. Ko‘p ma’nolilik lug‘aviy ma’no hajmining ***torayishi*** hisobiga ham vujudga keladi. Masalan, “*osh*” so‘zi dastlab taomning barcha turlariga nisbatan ishlatilgan: uning ma’no hajmi keng bo‘lgan. Bora-bora bu so‘z taom turlaridan biriga, ya’ni “*palov*”ga nisbatan qo‘llana boshlagan va keyinchalik shu ma’no uning odatdagi ma’nosiga aylangan: “*osh*” so‘zining ma’no hajmida torayish vujudga kelgan.

Ma’no hajmining torayishi “*qurol*”, “*yarog*” so‘zlarida ham mavjud.

Ma’no hajmining torayishi arab tilidan o‘zlashib, tilimizga singishib ketgan “*manzil*” so‘zida ham mavjud. Bu so‘z dastlab “*umuman maskan, turar-joy*”, “*safarda, yo‘lda to‘xtab o‘tadigan, qo‘nib turiladigan yoki yetib borish mo‘ljallangan joy*”, “*istiqomat maskani*” singari bir qator ma’nolarda ishlatilgan. Endilikda u rus tilidan o‘zlashgan “*adres*” so‘zi ma’nosida rasmiylashib borayotir, natijada “*manzil*” so‘zining ma’no hajmi ham toraygan.

So‘z ma’nolarining hajm jihatidan torayishi rus tilidan o‘zlashgan ayrim so‘zlarda ham uchraydi. Masalan, “*mashina*” naqliyot vositasi sifatida harakatlanuvchi ko‘plab predmetlarga nisbatan qo‘llanuvchi ma’no doirasi (hajmi) keng bo‘lgan. O‘zbek tilida bu so‘z odatda *avtomobil* ma’nosida, ya’ni tor ma’noda qo‘llanadi. Ma’no hajmining bu xil torayishi *truba*, *trubka* so‘zlarining ishlatilishida ham ko‘zga tashlanadi.

So‘z ma’no hajmining torayishi turdosh otlarning atoqli otlarga aylanishi jarayonlarida ham sodir bo‘ladi. Masalan, ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘lgan *gul*, *po‘lat*, *go‘zal*, *botir*, *o‘lmas* singari bir qator so‘zlar kishilarga nom sifatida ham qo‘yiladi: *Gul*(ijon), *Po‘lat*, *Go‘zal*, *Botir*(bek), *O‘lmas*(xon) va b. Turdosh otlar atoqli otlarga aylanganda, ularning ma’no hajmi torayishidan tashqari, ularga xos nominativ (denotativ) ma’nolar ham barham topadi.

Metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, ma’no hajmining kengayishi va torayishi usullari ko‘p ma’nolilikning nolisoniy yo‘llar bilan hosil bo‘lishiga kiradi. Ko‘p ma’nolilik lisoniy imkoniyatlar vositasida ham vujudga keladi. Bunday imkoniyat konversiya va mazmuniy (semantik) kalka zaminida vujudga keladi.

7. Konversiya so‘zlarning bir turkumdan boshqa turkumga o‘tish jarayoni bo‘lib, unda so‘z mazmun qamrovida ikki lug‘aviy-grammatik kategoriya (so‘z turkumlari)ga xos ma’nolar paydo bo‘ladi. Bunday lisoniy imkoniyatning asosida ellipsis hodisasi turadi. Ellipsis hodisasiga ko‘ra, nutqda, uning biror-bir matniy parchasida, “aniqlovchi / aniqlanmish” mikroqurilmasidan aniqlovchi mavqeidagi so‘z tushib qoladi. Uning ma’nosi shu aniqlovchi tobelangan aniqlanmishga ustama tarzda qo‘shiladi. Natijada aniqlanmish vazifasidagi so‘zning ma’no jabhasida ham aniqlovchining, ham aniqlanmishning ma’nosi sintezlashadi, qorishadi. Masalan, *chol*, *ayol*, *o‘g‘il*, *qiz* va h.k. so‘zlar semantikasidan sifat va otga xos ma’nolarning anglashilishida ana shu xususiyat mavjud. Ularda “yosh” va “jins” ma’nolari “shaxs” ma’nosini bilan qo‘shilgan: *chol odam*, *ayol kishi*, *o‘g‘il farzand*, *qiz farzand* va b. Bunday xususiyat taom mazmuniy maydoniga tegishli *ugra*, *mastava*, *qovurma*, *qatlama* va h.k. so‘zlar ma’nosida ham kuzatiladi: *ugra (osh)*, *mastava (ovqat)*, *qovurma (sho‘rva)*, *qatlama (non)* va b.

Mazmuniy (ma’noviy, semantik) kalka – lug‘aviy kalkaning aksi. Lug‘aviy kalkada boshqa tildan leksema (shakl) o‘zlashadi. Mazmuniy kalkada esa, aksincha, shakl (leksema) emas, balki ma’no (semema) o‘zlashadi. O‘zlashgan ma’no o‘z tildagi lug‘aviy shakl vositasida ifodalanadi. Masalan, o‘zbek tilida “*yurmoq*” so‘zi “*konkret harakat*”, “*oldga qarab siljish*” ma’nolarini anglatgan. Bular shu so‘zning rasmiylashib ommalashgan real ma’nolari hisoblangan. Keyinchalik rus tilining ta’sirida o‘zbekcha “*yurmoq*” so‘zi ruscha “*xodit*” so‘zi anglatgan “*sevishmoq*”, qiz va yigitning “*oila qurishdan oldin bir-birini intim yo‘llar bilan sinamoq*” singari ma’nolar ham kasb etdi. “*Yurmoq*” so‘zi kasb etgan keyingi ma’no rus tilidan

o‘zlashdi. O‘zlashgan ma’no o‘zbek tilining o‘z lug‘aviy birligi orqali ifodalandi. Bu semantik kalka uchun xarakterli misol bo‘ladi. Masalan, *Bizning o‘g‘il qo‘sнимизнинг qizi bilan yurarmish*.

So‘z mazmun qurilishi bilan bog‘liq bunday imkoniyatlarning barchasi so‘z semantik strukturasida yangi ma’nolarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘luvchi muhim omillardir.

So‘z ma’no qurilishidan ayrim unsur va qismlarning barham topishi holatlari ham mavjudki, bular ham so‘z mazmun qurilishidagi o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Masalan, hozirgi davrda faol iste’molda bo‘lgan *domla*, *arbob*, *vazir*, *bayroq*, *saroy* so‘zlarining mazmun doirasidan uzoq o‘tmishga daxldor ma’nolar barham topgan va unutilgan.

So‘zlar, nominativ (denotativ) ma’nolardan tashqari, ***konnotativ*** ma’nolarga ham ega bo‘ladi. Bunday ma’nolar nutqda hosil bo‘ladi. Leksik qo‘llash orqali vujudga keladi. Masalan, E.Vohidov ijodidan olingan quyidagi parchada “*qalam*” so‘zi leksik so‘z qo‘llash natijasida konnotativ ma’noga ega bo‘lgan:

*Temur tig‘i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.*

Bu matnda “*qalam*” ijod ma’nosida qo‘llangan, “*ijod*” orqali esa “*tinchlik*” mazmuni ifodalangan. *Qalam* so‘zining bu she’riy parchada hosil qilgan “*tinchlik*, *xotirjamlik* va *osoyishtalik* *mahsuli bo‘lmish ijod*” ma’nosи konnotativ ma’nodir. Konnotativ ma’nolar so‘z *ma’nosining bo‘yog‘i* tushunchasi bilan aloqador bo‘lib, so‘zning keyingi bosqich ustama nominativ ma’nolaridir.

### **So‘z ma’nosining bo‘yog‘i**

So‘z ma’nosining *bo‘yog‘i* ham so‘zning ma’nosи jabhasiga qarashli lisoniy xususiyatlardan biridir. So‘z ma’nosи vositasida hosil bo‘luvchi bu “*hissa*” subyektiv xarakterga ega bo‘ladi. Subyektiv deganda, shaxsning so‘z orqali shu so‘z ifoda etgan narsa, predmet va uning biror-bir jihatiga bildirilgan ijobiy yoki salbiy munosabati

tushuniladi. Bu “munosabat” so‘zning lug‘aviy ma’nosi zaminida vujudga keladi va u ham, lug‘aviy ma’nodan tashqari, boshqa signifikativ, grammatik va uslubiy ma’nolar kabi shu so‘zning semantik qurilmasiga daxldor bo‘ladi. So‘zlovchi so‘z orqali shu so‘z anglatgan narsa-predmet yoki uning biror jihatni iliq, ijobiy munosabatda bo‘lsa, hosil qilingan ma’no jilosini (ottenkasini) ijobiy baho deb ataladi. Aksincha, so‘zlovchining unga munosabati “sovuq” yoki “yoqimsiz” bo‘lsa, hosil bo‘lgan ma’no jilosi (ottenkasi) salbiy bo‘ladi. Shunga ko‘ra, so‘z ma’nolari tufayli hosil bo‘luvchi bunday “jilo” va “hissa”larni ijobiy bo‘yoq va salbiy bo‘yoq sifatida farqlanadi. Bu ma’nolar so‘zlovchi shaxsning, subyektning, muayyan bir maqsadini ko‘zda tutganligi uchun, ularni “subyektiv ma’no” ham deyiladi. Masalan, yangi turmush qurib, boshqa oilaning a’zosiga aylangan xotin-qizlar “kelin” nomini oladilar. “Kelin” so‘zida (nomida) so‘zlovchining shu so‘z atagan shaxsga nisbatan munosabati “mo‘tadil”. Bu so‘zni shu shaklda qo‘llashda so‘zlovchining odatdagi, rasmiy munosabati ifodalanadi, xolos. Bordi-yu, shu so‘z “kelinchak”, “kelinpushsho” shakllarida muomalaga kirsa, unda “kelin” so‘zining nominativ lug‘aviy ma’nosiga “nimadir” tirkalgan bo‘ladi. Bu “nimadir” esa, shu so‘z ma’nosida unga ustama tarzda vujudga kelgan subyektiv ma’nodir. “Kelinchak”, “kelinpushsho” shakllari orqali “kelin” ma’nosiga “kichraytish”, “erkalash”, “o‘ta hurmat”, “yuqori baholash” singari qo‘srimcha ma’noviy jilolar yuklangan.

Subyektiv ma’no, xarakteriga ko‘ra, ikki xil bo‘ladi: ijobiy va salbiy. Subyektiv baho ijobiy bo‘lganda, shaxsning (subyektning) so‘z anglatgan obyektga munosabati “iliq”, “yoqimli”, ya’ni ijobiy bo‘ladi. *Chehra, jilmaymoq, azamat, sanam, go‘zal, do‘ndiq, o‘ktam, lobar* va h.k.

Subyektiv baho salbiy bo‘lganda, shaxsning (subyektning) so‘z anglatgan obyektga munosabati “sovuq”, “yoqimsiz”, ya’ni manfiy bo‘ladi. *Bashara, badburush, badqovoq, lapashang, battol, jahannam, ivirsimoq, g‘imirlamoq, g‘ajishmoq* singari so‘zlarda ana shunday xususiyat mavjuddir. Bundan tashqari, tinglovchi-shaxsga hayvon

nomlari vositasida (*it, eshak, mol, to'ng'iz, cho'chqa, chayon, ilon* va h.k.) murojaat qilinganda ham, salbiy subyektiv baho ifodalanadi.

Subyektiv baho bo'yog'i (ma'nosi) tilning mazmun jabhasiga xos *semantik unsurdir*. Demak, shunday bo'lar ekan, uning til ifoda jabhasiga xos material, ya'ni ifoda tomoni ham bo'lishi kerak. Subyektiv baho, garchand so'zning lug'aviy (nominativ) ma'nosiga singishgan bo'lsa-da, o'ziga xos ifodalanish usullariga ega. Ular har xildir. Bu usullar markerli va markersiz xarakter kasb etadi. Bordi-yu, subyektiv ma'no so'zning odatiy shakllari orqali ifodalansa, u markersiz bo'ladi. Bunday xususiyat subyektiv ma'noning lug'aviy usulda ifodalanishi deb ham yuritiladi. Masalan, *tamanno, chehra, dudoq, do'ndiq, daho, alomat, lobar, azamat, o'ktam, dilbar; badburush, latta, battol; kemirmoq, g'ajimoq* va h.k. so'zlar ma'nosiga xos subyektiv baho lug'aviy yo'l bilan, markersiz, ifodalangan. Tildagi ma'lum guruh so'zlar subyektiv ma'no ifodalash uchun xoslangan bo'ladi.

Ayrim hollarda *so'z* biror-bir matn tarkibida ko'chma ma'nolarda qo'llanadi va subyektiv baho ifodalaydi. Bu ham mazkur ma'noning markersiz ko'rinishi sanaladi. Masalan, "*Bilmaysizmi, pul ham bolalaydi?*" (Oybek) gapida "*bolalamoq*" so'zi "*ko'paymoq*" ma'nosida qo'llangan. So'z tarkibida shu ustama ma'noga xoslangan biror-bir shakliy unsur yo'q. "*Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, keksa tovuq*" (Oybek) gapida *tovuq* so'zi, o'zining odatdag'i tovush tarkibi bilan, boshqa hech qanday *shakliy unsursiz* salbiy xarakterdagi subyektiv bo'yoqqa ega bo'lgan.

Subyektiv baho ko'p hollarda so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali hosil qilinadi. Bunday hollarda ham subyektiv baho zimmasidagi emotsional-ekspressivlik markersiz, ya'ni shakliy ko'rsatkichlarsiz ifodalanadi (bu haqda so'ngroq so'z yuritiladi).

Subyektiv bahoning markerli usulda ifodalanishi ham o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Unda so'z tarkibida shu ma'noni ro'yobga chiqaruvchi biror-bir shakliy unsur (vosita) bo'ladi. Ularning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

1. So‘zning ma’lum bir qismi takrorlanadi, qo‘shaloq so‘zga aylanadi: moda-poda, patir-satir, qora-qura, ola-kula, yapaloq-sapaloq, sariq-suriq, qip-qizil, kap-katta, oppoq va b.

2. So‘z tarkibiga erkalash, kuchaytirish, kichraytish va h.k. ma’nolarini ro‘yobga chiqaruvchi qo‘shimchalar qo‘shiladi: *bolagina, asalgina, kattacha, qizlarxon, xotinvoy, xotincha, kelinchak* va b. Masalan, Sh.Rashidov asaridan olingan “*Yo‘q, yo‘q, qadrdon xotincham, bu fikringdan hech narsa chiqmaydi*” gapida xotin so‘ziga -cha affiksini qo‘shish orqali shaxsni mensimaslik, kamsitish subyektiv baho yuzaga chiqqan. “*Ro‘paramda bir yigitcha kulib turardi*” gapida esa, -cha qo‘shimchasi yigit so‘ziga qo‘shilib, kichraytish ma’nosidagi ijobiy subyektiv bo‘yoqni hosil qilgan.

3. So‘z tarkibidagi tovushlardan birini takrorlash orqali: *uchiga emas, uChChiga, juda emas, jUUda, katta emas, kAAAtta* va b.

4. Ayrim yordamchi so‘zlarni mustaqil ma’noli so‘zlarning oldi yoki ketidan keltirish yo‘li bilan: qadar – *bo‘yra qadar* (*Bir chetda devor tagida bir bo‘yra qadar joyda gul o‘sib yotadi*); *juda, eng, o‘ta, g‘oyat, bag‘oyat, qadar – nihoyat, nihoyatda* va b. (*Olimjon qadrdon yerlarni ancha oylar ko‘rmay, o‘ta sog‘ingan edi*. Shuhrat) va sh.k. Birinchi gapda *qadar* yordamchi so‘zi mustaqil ma’nodagi bo‘yra so‘zi ketidan kelib, subyektiv bo‘yoq ifodalagan bo‘lsa, keyingi gapda *o‘ta* yordamchisi mustaqil ma’noli *sog‘inmoq* so‘zi oldidan kelib o‘shanday ma’noni ro‘yobga chiqargan.

5. So‘zlarning to‘liq shaklda takrorlanishi ham subyektiv bo‘yoq ifodalashda faol usullardan biri. Masalan, “*U seni juda-juda sevar edi*” gapida *juda* so‘zining takrorlanishi orqali “*sevish*” jarayoni bilan bog‘liq hissiyot, ichki tuyg‘u kuchaytirilgan. Shu gap “*U seni juda va juda sevar edi*” shaklida berilganda, emotsional-ekspressivlik yanada yuqori darajada ifodalananib, sevish hissiyotining me’yordan ortiq darajasi anglashiladi. Keyingi gapda shu hissiy tuyg‘uning yuqori darajasini ifodalash “*va*” bog‘lovchisi zimmasiga tushgan. Demak, so‘zlarning bog‘lovchisiz va bog‘lovchilar yordamida takrorlanishi ham subyektiv baho ifodalashda muhim rol o‘ynar ekan.

Keltirilgan misollar xarakteridan shu narsa ma'lum bo'layotirki, so'z ma'nosining subyektiv bo'yog'i ko'chma ma'nolar hosil bo'lishining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi usullari yordamida vujudga keladi. Shu bois ko'p ma'nolilikni va so'zning subyektiv baho bo'yog'ini o'zaro munosabatdosh hodisalar sifatida qarashga to'g'ri keladi.

So'zlarda metafora yo'li bilan ko'chma ma'no hosil bo'lishi ikki obyekt orasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Masalan, "Suyunchi, opoq dada,— Yunusjonning ko'zlar charaqladi. Y.Sulaymon)" gapidagi *charaqlamoq* so'zidagi ko'chma ma'no metafora yo'li bilan hosil bo'lgan.

Chunki *charaqlamoq* aslida konkret narsa-predmetlarning yorug'lik ta'siriga uchrashi natijasida hosil bo'luvchi jarayondir. Keltirilgan gapda shu jarayon ko'z orqali ta'sirlanish holatiga o'xshatilgan.

Metonimiya (narsa va hodisalarning makon va zamon umumiyligi asosida ko'chma ma'nolarning paydo bo'lishi) yo'li bilan ko'chma ma'no va subyektiv bo'yoqning hosil bo'lishi *maraz* so'zi misolida quyidagi gapda o'z ifodasini topgan. "*Bu maraz to'rt yildan beri meni ...qulog'imga shivillaydi...* A.Qahhor)".

Bu gapda odam organizmida paydo bo'luvchi nuqs – yara nomi bilan shaxs atalgan, salbiy subyektiv ma'no ifodalangan. "*Burunboy* mening o'rribosarim" (S.Ahmad) gapidagi *burun* so'zi orqali ham shaxs nomlangan. Subyektiv bo'yoq ma'no ko'chishining sinekdoxa (*butunning nomi bilan qism, qismning nomi bilan butun ma'nosining ifodalanishi*) usuli vositasida hosil qilingan.

Subyektiv bo'yoq "erga bermoq" ma'nosida "uzatmoq", "tug'moq" ma'nosida "bo'shanmoq" so'zlarining ishlatalishi kabi evfimistik qo'llashlar orqali ham hosil qilinadi: Gulnorani, yosh bo'lishiga qaramay, mahallasidagi xonadonlardan biriga *uzatishdi* (V.Qodiriy). Qizlarining sog'-salomat *bo'shangani* yosh ota-onani cheksiz quvontirdi (V.Qodiriy).

Subyektiv bahoga ega bo‘lish, uni ifodalash orqali lug‘aviy birliklar pragmatik-uslubiy vazifa bajaradi. Emotsional-ekspressivlik, ya’ni so‘z bo‘yog‘i, lug‘aviy ma’nolarga tirkaluvchi ustama ma’no bo‘lgani kabi, pragmatik-uslubiy vazifa ham so‘zlarning asosiy (nominativ) vazifasiga yuklanuvchi ustama vazifadir.

## **LUG‘AVIY-MAZMUNIY MEDIOQURILMALAR**

Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilma va unga qarashli hodisalarning lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilma va ularga qarashli hodisalardan farqi shundaki, lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilmada lisoniy munosabatlar so‘zlararo emas, balki bir so‘zning ma’nolariaro ish ko‘radi: bir lug‘aviy shakl o‘zaro lisoniy bog‘lanishdagi birdan ortiq mustaqil ma’noga ega bo‘ladi. Shu bois qurilma lug‘aviy birliklarning mazmun jabhasiga taalluqli eng kichik, eng mayda tizim xarakterini kasb etadi.

Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar uch guruhga ajraladi:  
a) shakldosh so‘zlar guruhi; b) ohangdosh so‘zlar guruhi;  
d) ma’nodosh so‘zlar guruhi. Bu guruhlarning har biri o‘z doirasida yana boshqa ichki tagguruhlardan tarkib topadi.

### **Shakldosh so‘zlar guruhi (Lug‘aviy ononimiya)**

Lug‘aviy ononimiya shakldoshlikning til leksikasiga xos alohida ko‘rinishidir. Shu sababli ham lug‘aviy sathda shakldoshlik munosabatiga kirishuvchi va shu munosabatni hosil qiluvchi lug‘aviy birliklar (so‘z, leksema)ni *lug‘aviy yoki leksik ononimlar* deyiladi.

Lug‘aviy ononimiyyada mustaqil nominativ ma’noli birdan ortiq so‘zlarning tovush tarkibi, talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘ladi. Bunday lug‘aviy birliklarning denotativ asosini ham har xil narsa-predmetlar va ularning turlichay munosabatlari tashkil qiladi. Boshqacha ta’bir bilan aytganda, lug‘aviy ononimiyyada ma’nolar (sememalar) miqdori bilan so‘zlar (leksemalar) miqdori teng bo‘ladi:

lug‘aviy birliklarning ifoda jabhasi bilan ularning mazmun jabhasi o‘zaro muvofiq va mutanosib bo‘ladi. Bu holatni shakliy va mazmuniy mutanosiblik (simmetriya) deb ataladi. Birdan ortiq nominativ ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan bir xil shakldagi so‘zlarni *omoleksemalar* deyiladi. Masalan, “ko‘k” omoleksemasi tovush tarkibi, talaffuzi va yozilishi ayni bir xil uch lug‘aviy birlikni bildiradi: 1 – ko‘k: “osmon” ma’nosida; 2 – ko‘k: “rang” ma’nosida; 3 – ko‘k: “zelen”, “ko‘kat” ma’nosida.

Omoleksemalar turli yo‘llar bilan vujudga keladi. Ular quyidagicha:

1. Talaffuzda qisman farq qiluvchi har xil so‘zlar tovush qurilishi va talaffuzi jihatdan o‘xhash, bir xil shaklga kelib qoladi. Masalan, “ichki organlardan biri” ma’nosidagi *o’t* so‘zi bilan “o‘simlik ma’nosи”dagi *o’t* so‘zining omonimligi ana shu yo‘l bilan hosil bo‘lgan.

2. Polisemantik leksemalar ma’nolari orasidagi yaqinlik, o‘xshashlikning barham topishi natijasida vujudga keladi. Bunga “barmoqlarning uchinchisi”ni ko‘rsatuvchi “uch” va “narsa-predmetning o‘tkirlangan qismi” ma’nosidagi “uch” so‘zlarining omonimligi misol bo‘ladi.

3. Boshqa tillardan tovush qurilishi o‘xhash, bir xil so‘zlarning o‘zlashishi natijasida. Masalan, tojik-fors tillaridan o‘zlashgan bog‘ (“maydon” ma’nosida) so‘zi bilan o‘zbek tilida “o‘ram” ma’nosini bildiruvchi bog‘ so‘zleri omonimligi ana shu asosda hosil bo‘lgan.

Omograflar ham lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning shakldosh so‘zlar guruhiga mansub hodisalardir. Omograf so‘zlarga tovush tarkibi va talaffuzi o‘zaro farq qilib, faqat yozilishi bir xil bo‘lgan so‘zlar guruhi kiradi: tom (“*binoning ustki qismi*”) – tom (“*asarning jildi*”: to‘m), tol (“*mevasiz mahalliy daraxt turi*”) – tol (“qurilish materiallaridan *birining nomi*: to‘l) va b. *Tom – tom, tol – tol* omograflari paradigmasing keyingi, ikkinchi, a’zolari o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashgan.

## Ohangdosh so‘zlar guruhi

Ohangdosh so‘zlardan tashkil topuvchi lug‘aviy-mazmuniy medioqurilma ham ikki guruhga ajraladi: 1) omofonlar; 2) paronimlar.

**Omofonlar.** Ohangdosh so‘zlarning bir turi omofonlar deb ataladi. Omofonlar tovush tarkibi, yozilishi har xil lug‘aviy birliklardan tashkil topadi. Yozma shakli va tovush tuzilishi jihatidan farq bo‘lsa-da, ularning talaffuzi bir xil bo‘ladi. *Yod – yot, sud – sut, mard – mart, bob – bop* tipidagi juftliklarni tashkil etuvchi lug‘aviy birliklar ana shunday xarakterga ega bo‘lganligi uchun, ular omofonlar deyiladi.

**Paronimlar.** Paronimlar tovush tuzilishida, tovushlarining joylashish tartibida qisman o‘xshashlikka ega bo‘lgan har xil lug‘aviy birliklardir. Paronimlar talaffuzda qisman farq qiladi. Ularga *teri – tire, shtab – shitob, sog’lik – sovliq, tanbur – tambur, rux – ruh, sanoat – san’at, urush – urish, qurchoq – quchoq, oxir – axir – oxur, diplomat – diplomant, asr – asir, she’r – sher* tipidagi qatorlarni hosil qiluvchi lug‘aviy birliklar kiradi. Talaffuzi o‘xshash lug‘aviy birliklar guruhi paronimik uya yoki paronimik qator deyiladi.

O‘zbek tilida paronimik qatorlar asosan ikki (*azm – azim, darz – dars, aliment – element* va b.), kam hollarda esa, uch lug‘aviy birlikdan iborat bo‘ladi (*kuvrak – ko’rak – kurak, o’tkazmoq – o’tqazmoq – o’tqizmoq, etmak – etmoq – yetmak, devon – divan – devon* va b.).

Paronimlar tarixiy-etimologik jihatdan turli xil bo‘ladi: 1) o‘zbekcha va o‘zbekcha so‘zlar paronimiyasi: *yonilg‘i – yoqilg‘i, egarlamoq – egallamoq, burish – burush, qo‘y – quy, uy – o‘y, urish – urush, tuzum – to‘zim, ellik – enli* va b.); 2) o‘zbekcha so‘z va o‘zlashgan so‘z paronimiyasi: *dala – dalla, moy – may, soliq – solih* va b.; 3) o‘zlashgan so‘z va o‘zlashgan so‘z paronimiyasi: *surat – sur’at, tafsil – tafsir, ta’rif – taraf, tip – tif, ferma – firma* va b.

Paronimlar jonli va badiiy nutqda uslubiy bo‘yoq kasb etib, emotsiyal-ekspressiv vositaga aylanadi. Bunday uslubiy vaziyat

paronim ma’nosini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Quyida berilgan gapda Shopur (asar qahramoni) va shofyor (haydovchi) so‘zлari ma’nosini tushunmaslik natijasida vujudga kelgan uslubiy vaziyat mavjud: *Afandi yaqin bir oshnasi bilan “Farhod va Shirin”ga tushishgan ekan. Bir vaqt Farhod o’z do’stiga “Ey, Shopur!” deya murojaat qiladi. Shunda Afandining do’sti: – Mulla Nasriddin, Farhodning shofyori ham bormi? – deb so‘rab qolibdi.* (“Mushtum”dan).

Paronimlar, yuzaki qaraganda, dubletlarga o‘xshaydi (shuvoq – suvoq, arava – aroba, kaptar – kabutar va b.). Ularning o‘zaro farqi shundaki, paronimlar har xil denotativ (nominativ) ma’noli lug‘aviy birliklardir; dubletlar esa, denotativ (nominativ) ma’noda farq qilmaydigan ayni bir lug‘aviy birlikning tovush tarkibida farq qiluvchi ikki xil shaklidir.

### **Ma’nodosh so‘zlar guruhi**

Ma’nodosh so‘zlar guruhidan tashkil topuvchi lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar va ularni hosil qiluvchi vazifaviy-mazmuniy birliklar lisoniy jihatdan lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning yuqorida keltirilgan oldingi tur va ko‘rinishlaridan bir muncha murakkabdir.

Bu guruh dastlab *zid ma’noli* va *zid bo‘lmagan ma’noli* lug‘aviy birliklar kabi ikki guruhga ajraladi. *Zid ma’noli* guruhni an’anaviy talqin va nomlanishdagi *antonimlar* tashkil qiladi. Keyinchalik uning yoniga *konversiya* (lug‘aviy konversiya) hodisasi ham qo‘shildi.

Fan tilida ularning har ikkisi birgalikda *oppozitivlar* deb ham atalmoqda.

Oppozitivlarning konversiya turiga *olmoq – bermoq*, *sotuvchi – oluvchi* (*xaridor*), *o‘quvchi* – *o‘qituvchi* tipidagi juftliklar kiritilmoqda.

## ZID MA’NOLI SO‘ZLAR GURUHI

### Antonimlar

Antonimlar ma’nolari o‘zaro zid lug‘aviy birliklardir. Nominativ (lug‘aviy) ma’nolari o‘zaro zid leksemalardan tashkil topgan lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar ham til lug‘at tarkibida faol uchrovchi guruhlardan biri hisoblanadi. Antonim lug‘aviy birliklar munosabatidan tarkib topgan paradigmalarda fonetik qurilishi, yozilishi, talaffuzi har xil, bir-biriga hech ham o‘xshamagan lisoniy birliklar ishtirok etadi: *katta – kichik, issiq – sovuq, keng – tor, achchiq – shirin, qattiq – yumshoq; turdi – yotdi, ketdi – keldi, chiqdi – tushdi* va h.k.

Antonim lug‘aviy birliklar munosabati *antonimiya* deb yuritiladi. Antonimiya munosabati ikki lug‘aviy birlik orasida bo‘ladi. Ularning biri boshqasiga nisbatan antonim sanaladi. Ularning juftidan hosil bo‘lgan uyani, qatorni *antonimiya paradigmasi* deyiladi. Masalan, yaxshi va yomon; och va to‘q; keldi va ketdi; oldi va berdi so‘zlari o‘zaro zid ma’noga ega. Zid ma’noli shu so‘zlardan tashkil topgan qatorlar (och-to‘q, yaxshi-yomon, keldi-ketdi, oldi-berdi va h.k.) antonimiya paradigmalari sanaladi.

Antonimlik va antonimiya munosabati asosan bir lug‘aviy-grammatik turkumga xos so‘zlar munosabatidan vujudga keladi. Belgi-xususiyat ma’nosiga ega so‘zlarda bu xususiyat ancha faoldir. Shu bois antonimlik sifat va ravish turkumiga xos lug‘aviy birliklar munosabatida ko‘proq uchraydi. Bu hol sifat va ravishlardan boshqa turkum so‘zlari antonimiya munosabatidan uzoq degan xulosaga olib bormaydi. Antonimlik va antonimiya munosabati ot, fe’l, olmosh turkumiga qarashli so‘zlar munosabatida ham mavjud. Biroq ular sifat va ravishlardagiga nisbatan nofaolroq.

Ot turkumiga xos antonimlik odatda uning belgi ma’nosini bildiruvchi guruhlarida ko‘zga tashlanadi: tinchlik va urush, mehr va nafrat, dag‘allik (to‘nglik) va muloyimlik va sh.k.

Lug‘aviy birliklariaro antonimiya munosabati mavjud bo‘lmaydigan so‘z turkumlari ham yo‘q emas. Masalan, son, olmosh, modal so‘zlar so‘z turkumlarining ana shunday guruhlaridir. Ularda antonimlik munosabati bo‘lmaydi. *Orqa va old, ost va ust, ich(kari) va tash(qari)* singari zid ma’noli ko‘makchilarga kelsak, ular aslida ot turkumiga xos lug‘aviy birliklar sanaladi.

Lug‘aviy birliklarning antonimiya munosabati ular anglatgan zid ma’nolar asosida belgilanadi. Shu bois aka va uka, opa va singil, amaki va tog‘a, amma va xola singari so‘zlarni, ular anglatgan ma’noga ko‘ra, antonimlar deyish qiyin. Kuchsiz ziddiyat asosida hosil bo‘luvchi bunday paradigmatic qatorlarda ularni hosil qiluvchi muqobil birliklarning semantik strukturasidagi ayrim semalarda, jins va qarindoshlikning xarakteriga ko‘ra, ayrim farqlar ko‘zga tashlanadi, xolos. Ular lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning boshqa alohida turiga qarashli vazifaviy-mazmuniy hodisalardir (bu haqda “ekvonimlar” bahsida fikr yuritamiz). Antonimiya va uning munosabati lug‘aviy birliklar ma’nosining mantiqiy-lisoniy inkoriga asoslanishi kerak. Yuqorida keltirilgan juftliklarni hosil qilgan lug‘aviy birliklar ma’nosida bunday inkor yo‘q.

Tilning grammatik jabhasiga xos inkor asosida tutashuvchi lug‘aviy birliklarni ham antonimlar deb, ularning munosabatini esa antonimiya deb bo‘lmaydi. Masalan, *aytdi va aytmadı, keldi va kelmadi, o‘qidi va o‘qimadi, yozdi va yozgani* yo‘q singari juftliklarni tashkil etuvchi lug‘aviy birliklar ana shunday xarakterda. Ular bir so‘z (leksema)ning fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz kategoriyasiga qarashli ikki formasidir, xolos. Fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz kategoriyasiga xos lug‘aviy shakllari ma’nosida mantiqiy-mazmuniy inkor mavjud bo‘lmaydi.

Demak, leksik antonimiya muayyan mantiqiy va lisoniy shart-sharoitlar asosida vujudga keluvchi lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmadir. Bu shart-sharoitlar quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) ikkita har xil mustaqil so‘z bo‘lishi kerak;

2) ularning lug‘aviy – nominativ ma’nolari biri boshqasini inkor etishi shart;

3) inkor mantiqiy-mazmuniy va yangi denotativ asosni atash xususiyatiga ega bo‘lishi lozim;

4) antonimik muqobillarning lug‘aviy ma’nolari muayyan assotsiatsiyaga asoslanishi va biri boshqasini mantiqan zidlash orqali taqozo etishi shart va b.

Masalan, *dono* va *ahmoq*, *ming* va *bir*, *yiqilmoq* va *turmoq* so‘zlarini o‘zaro antonimlar deyish to‘g‘ri emas. *Dono* so‘zi uchun *nodon*, *ahmoq* so‘zi uchun *aqli* antonim bo‘lishi mumkin. *Turmoq* so‘ziga kelsak, bu so‘z *yotmoq* so‘zi bilan antonim bo‘lishi mumkin. Xuddi shu kabi antonim bo‘la olmaslik *ana* va *mana*, *shu* va *o‘sha*, *u* va *bu* so‘zlari munosabatiga ham xos.

Antonimlarni lisoniy guruhlashda, tasnif etishda ularning bir necha jihatlari hisobga olinadi. Xususan: 1) tub yoki yasamalilik xususiyati; 2) qaysi turkumga mansubligi va b.

Tub yoxud yasamaligiga ko‘ra antonimlar ikki xil bo‘ladi: a) tub antonimlar (bunda antonimik juftlikni hosil qilgan muqobil lug‘aviy birliklar tub so‘zlar xarakterida bo‘ladi: keng – tor, kun – tun, botir – qo‘rkoq, azob – rohat va b.; b) yasama antonimlar (bular o‘zakdosh antonimlar deb ham ataladi, chunki ular bir o‘zak morfemaga zid ma’noli har xil yasovchi affikslar qo‘shish orqali hosil qilinadi): *aqli* – *aqlsiz*, *ishli* – *beish/ishsiz*, *pulsiz* – *puldor*, *suvli* – *suvsiz* va b.

So‘z turkumlariga munosabatiga ko‘ra, lug‘aviy antonimlar quyidagicha bo‘ladi: a) sifat antonimlar: *yosh* – *qari*, *ahil* – *noahil*, *katta* – *kichik*, *sodda* – *ayyor*, *chiroyli* – *xunuk* va b.; b) ravish antonimlar: *tez* – *sekin*, *avval* – *keyin*, *arang* – *bemalol*, *ko‘p* – *oz*, *atayin* – *bilmasdan* va h.k.; d) ot antonimlar: *qarindosh* – *begona*, *hayot* – *o‘lim*, *nur* – *zulmat*, *zulm* – *erk*, *mo‘lchilik* – *yo‘qchilik* va b.; e) fe’l antonimlar: *bormoq* – *qaytmoq*, *og‘irlashmoq* – *yengillashmoq*, *tug‘ilmoq* – *o‘lmoq*, *yo‘qotmoq* – *topmoq* va b.

So‘zlar ma’nosining zidligiga asoslangan antonimiya lug‘aviy birliklarning *graduonomiya* (*darajalanish*) deb ataluvchi lug‘aviy-

mazmuniy medioqurilmalari uchun zamin hozirlaydi. Antonimik xarakterda o‘zaro vazifaviy-ma’noviy munosabatlarga kirishuvchi lug‘aviy birliklar ko‘p ma’nolilik va sinonimiya xarakteridagi lug‘aviy-mazmuniy paradigmalari tizimida ham ularning muqobil a’zolari sifatida ishtirok etaveradi. Masalan, *chiroyli* va *xunuk* lug‘aviy birliklari ishtirokida hosil bo‘lgan antonimiya paradigmasing har bir a’zosi (*chiroyli* ham, *xunuk* ham) o‘ziga ma’nodosh boshqa lug‘aviy birliklar bilan sinonimik munosabatlarga kirishadi: *chiroyli* – *go‘zal* – *zebo* – *ko‘rkam* – *suluv* – *xunuk* – *ko‘rimsiz* – *yulduzsiz* va b.

Ba’zan zid ma’noli ikki so‘z o‘zaro birikib, nutqning ifoda vositalaridan birini hosil qiladi. Bu hodisa *oksyumoron* deb ataladi. Tilimizda, kam bo‘lsa-da, uchrab turadigan *tirik murda*, *ozod qullar*, *xom pishgan* tipidagi so‘z birikmalari, *o‘tkir-o‘tmas*, *katta-kichik*, *uzoq-yaqin* tipidagi juft so‘zlar nutqda oksyumoron hodisasini yuzaga chiqaruvchi tasviri vosita vazifasini bajaradi.

## Enantiosemya

Antonimiyaga yondosh hodisalardan yana biri *enantiosemya* deb ataladi. Enantiosemiyada zid ma’noli ayni bir lug‘aviy birlikning semantik qurilishida bir-biriga qarama-qarshi ikki ma’no vujudga keladi. Masalan, “*yomon*” so‘zi “*yaxshi*” so‘zining zid ma’noli muqobili, ya’ni antonimidir. Lekin jonli nutqda shu so‘z “*yaxshi*” so‘zining ma’nosini kuchaytirish, uni ko‘tarinki urg‘u bilan bo‘rttirish kabi ijobiy bo‘yoq kasb etadi, enantiosemik birlik maqomini qo‘lga kiritadi: *Qo‘lingizdagi kitobni o‘qiganman. U yomon qiziqarli yozilgan, ha, yomonam o‘qimishli-da.*

“Bebaho” so‘zining ichki ma’nosida ham o‘zaro qarama-qarshi semalar mavjud: ularning biri “*baho*” ma’nosи anglatgan belgi-xususiyatni inkor etsa, ikkinchisi bu undan anglashilgan belgi-xususiyatning ortiq darajada mavjudligini bildiradi. Masalan,

*“Boshlig ‘imiz bebah odam-da”* gapida ajratib ko‘rsatilgan so‘z enantiosemik xarakter kasb etgan.

Enantiosemiya hodisasi fe’l turkumiga qarashli ayrim lug‘aviy birliklarda ham mavjud. Masalan, “*qaramoq*” fe’lini olaylik. Bu fe’l leksema “*ko ‘zdan biror-bir obyektga yo ‘naltirilgan harakat, holat*” ma’nolarini bildiradi. Biroq “*ko ‘zingga qarab yur*” iborasi tarkibida esa, aksincha, uning rasmiylashgan lug‘aviy ma’nosiga zid mazmunga ega bo‘lgan. Xuddi shunga o‘xshash lisoniy xususiyat “*chiqmoq*”, “*yonmoq*” fe’llariga ham xos. “*Yonmoq*” fe’li “*yorug ‘lik tarqatish holati*” ma’nosiga ega. Ayrim holatlarda u “*yorug ‘likning so ‘nishi*” ma’nosini ham ifodalab, zid ma’noli sememaga ham aylanadi – enantiosemik lug‘aviy birlik xarakterini kasb etadi. Masalan, “*To ‘dalangan qog ‘ozlarning barchasi yonib ketdi*” va “*Qo ‘li vklyuchatelga tegar-tegmas, lampochka yonib ketdi*” gaplarida bu so‘z zid ma’nolari bilan ishtirok etgan. Endi “*chiqmoq*” fe’lidagi bu xususiyatga e’tibor beraylik. Bu so‘z “*boshlamoq*” va “*tugatmoq*” ma’nolarini o‘zida mujassam etganligi bilan enantiosemik xususiyatga ega: *Ukam kecha ishga chiqdi* – *Ukam kecha ishdan chiqdi*.

Enantiosemik xususiyat “*oyog ‘ingni qo ‘lingga ol*” iborasi tarkibida ham mavjud. Bu oyoq so‘zining aks ma’nosи orqali hosil bo‘lgan. Inson, shaxs odatda oyoqlar va ularning “vazifasi” tufayli “harakat”da bo‘ladi. O‘ylab ko‘ring: oyoqlar “*qo ‘lga olingach*”, qanday harakat bo‘lishi mumkin? Aksincha, “*oyoqlar qo ‘lga olinsa*” iborasi orqali “*inson, shaxs harakatining intensiv tarzda tezlashishi*” ma’nosи anglashiladi.

Enantiosemik lug‘aviy birliklarning paradigmatic qatorini ularning ma’no qamrovidagi o‘zaro zid munosabatdagi ikki birlik tashkil qiladi. Ularning har ikkisi ham enantiosemik lug‘aviy birlikning mazmun jabhasiga xos bo‘ladi.

Enantiosemiya hodisasi va uning amali lug‘aviy birliklarning sof nutqiy-pragmatik jabhasiga xos lisoniy imkoniyatdir. Enantiosemiya hodisasi va unga tegishli jarayonlar, yuqorida ham aytilganidek, “leksik (so‘z) qo‘llash” deb ataluvchi lisoniy tushunchaga qarashli

bo‘ladi. Shu bois enantiosemiya jarayoni bilan bog‘liq lug‘aviy-nominativ ma’nolar lug‘atlarda qayd etilmaydi. Ashyoviy dalillardan ma’lum bo‘ladiki, bu jarayon va uning amali tufayli til frazeologik tizimi yangi lisoniy birliklar evaziga boyiydi. Ya’ni frazeologik birliklarning ayrim qismi so‘zlarning enantiosemik xususiyatlar kasb etishi natijasida shakllanadi.

## **ZID MA’NOLI BO‘LMAGAN LEKSIK BIRLIKLER VA ULARNING LUG‘AVIY-MAZMUNIY MEDIOQURILMALARI**

So‘zlararo lisoniy munosabatlarning zid ma’noli bo‘lmagan guruhi shakl va ma’no nomutanosibligiga asoslanadi. Ularda shakliy birliklar ma’noviy birliklarga nisbatan ko‘p bo‘ladi. Mazkur guruh ham, lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarni hosil qiluvchi leksemalarning denotatsiyasi munosabatiga ko‘ra, ikki ichki tagguruuhga bo‘linadi: a) denotativ asosi umumiyl bo‘lgan lug‘aviy birliklar va ularning guruhi; b) denotativ asosi har xil, ya’ni farq qiluvchi lug‘aviy birliklar va ularning guruhi.

Denotativ asosi umumiyl bo‘lgan lug‘aviy birliklar guruhi ham uch ichki tagguruuhga ajraladi: 1) sinonimlar; 2) dubletlar; 3) graduonimlar. Sinonimlar ham, dubletlar ham, graduonimlar ham zid ma’noli bo‘lmagan leksik birliklarning denotativ asosi bir xil yoki o‘zaro yaqin turiga kiradi.

### **Sinonimlar**

Sinonim va sinonimiya lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning shunday ko‘rinishiki, ularda tovush qurilishida tubdan farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq lug‘aviy birliklar (leksemalar) bir umumiyl ma’no doirasida birlashadi. Shu bois ham an’anaviy tilshunoslikda sinonimlarga “shakli har xil, ma’nosи bir xil so‘zlar” degan ta’rif beriladi va bu ta’rif umumta’lim maktablari darsliklarida ham hech o‘zgarishsiz uchraydi.

Darhaqiqat, bir sinonimiya paradigmaida (qatorida, uyasida) tutashuvchi lug‘aviy birliklar bir umumiy denotatsiyaga ega bo‘ladi. Masalan, *uy – bino – kulba, ko ‘cha – yo ‘l, ko ‘k – osmon – fazo, bosh – kalla* paradigmatic qatorlariga e’tibor bersak, birinchi sinonimik qatorni tashkil qilgan lug‘aviy birliklar “yashash makoni” ma’nosidagi bir umumiy denotatsiyaga asoslangan. Keyingi sinonimik qatorni hosil qilgan lug‘aviy birliklar esa, “yer yuzini tepadan qoplovchi planeta” ma’nosini va shu ma’noning nolisoniy obyektini (denotatsiyasini) atagan. Ko‘cha va yo‘l, bosh va kalla lug‘aviy birliklari munosabatidan tashkil topgan sinonimiya qatorida ham shularga o‘xshash xususiyat mavjud: sinonimik muqobillar “kishilar va har xil naqliyat vositalari harakat qiladigan obyekt” ma’nosini bilan bir umumiy denotatsiya atamasi sifatida xizmat qiladi. Bosh va kalla so‘zlarining “inson va hayvon tanasining yuqori qismi” ma’nosini anglatishi va shu ma’noning nolisoniy asosini hamma bir xil tushunadi.

Sinonimiya paradigmaida tutashuvchi lug‘aviy birliklar odatda bir so‘z turkumiga qarashli bo‘ladi.

Sinonimik muqobillar bir umumiy ma’no qamrovida mushtarak semantik qiymatga ega bo‘lsa-da, ular lug‘aviy ma’noning darajasi, uslubiy bo‘yog‘i, nutq uslublariga munosabati kabi xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Leksik sinonimiyaga asoslangan lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarda ma’nodosh muqobillarning iste’molida asosan uch jihat nazarda tutiladi: 1) ma’no jihat; 2) uslubiy bo‘yog‘i; 3) nutqda ishlatilishi.

1. Ma’no jihatidan farqlanganda, sinonimik lug‘aviy birliklarning mazmun qurilishida, ayrim semalar va ularning amaliga ko‘ra, farq bo‘ladi. Bunday sinonimlarni ideografik (*idea* grekcha bo‘lib, tushuncha, tasavvur degan ma’noda) sinonimlar deyiladi. Ideografik sinonimiyada sinonimiya paradigmasi (qatori, uyasi)ni hosil qiluvchi ma’nodosh muqobillar bir tushunchani anglatadi: *yanglish va xato, noto ‘g ‘ri; kerak va lozim* kabi. Keltirilgan bu so‘zlar

bir umumiyl tushuncha doirasida ma’no jihatdan qisman farq qiladi. Masalan, o‘qish kerak va o‘qish lozim birikmalarining keyingisida “harakatning bajarilishiga bo‘lgan talab” oldingisidagiga nisbatan ancha qat’iy. Bu “qat’iylik”ni “O‘z vaqtida o‘qish kerakkina emas, balki lozim ham” gapida qo‘llangan shu so‘zlar anglatayotgan ma’no farqidan sezish qiyin emas.

2. Ma’nodosh muqobillar ma’no jiiosi, ma’no bo‘yog‘iga ko‘ra ham farq qiladi. Bunday xarakterdagi sinonimlarni uslubiy (stalistik) sinonimlar deyiladi. Uslubiy sinonimlardan tashkil topuvchi paradigmatic qatorlarda uslubiy bo‘yog‘i jihatidan betaraf (neytral) va betaraf bo‘lmagan leksik birliklar ishtirok etadi. Ma’nodosh muqobillar uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘lganda, bu bo‘yoq yo ijobi, yo salbiy xarakterda bo‘lishi mumkin. Masalan, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *chehra* medioqurilmasida *yuz* so‘zi betaraf (neytral) bo‘yoqli muqobil sanaladi, qolganlari esa, betaraf bo‘lmagan muqobillardir. Betaraf bo‘yoqqa ega bo‘lgan (betaraf bo‘yoqli) ma’nodosh muqobillarni quyidagi tagguruhlarga ajratish mumkin: a) ijobi bo‘yoqli: *chehra* (*jilmaymoq*, *tabassum qilmoq* so‘zlaridagi kabi); b) salbiy bo‘yoqli: *aft*, *bashara*, *turq* (*irjaymoq*, *tirjaymoq*, *ishshaymoq* so‘zlaridagi kabi). Nutqiy jarayonda so‘zlar tanlanganda, ular ma’nosidagi betaraf va betaraf bo‘lmagan bo‘yoqqa alohida e’tibor beriladi. Aks holda, nutqiy g‘alizlik paydo bo‘ladi.

Ayrim hollarda bir sinonimik qatordagi muqobil lug‘aviy birliklar, ba’zi farqlar bilan, nutqning bir uslubiga tegishli bo‘lib chiqishi ham mumkin. Masalan, *nur*, *shu’la*, *ziyo*, *yog’du* lug‘aviy birliklaridan tashkil topgan sinonimik qatorda *shu’la* va *yog’du* adabiy nutqning kitobiy uslubiga xos, *ziyo* esa eskirgan so‘z bo‘lib, u ham kitobiy uslubda ishlatiladi; *nur* so‘zining iste’moli ularning hammasinikiga nisbatan faoldir. Bu so‘z ham odatda adabiy-kitobiy uslubga qarashli.

3. Ma’nodosh muqobillar nutq uslubiga ko‘ra, u nutqning qaysi vazifaviy uslubiga qarashliligiga ko‘ra ham farqlanadi. Bunday farqlanish asosida lug‘aviy sinonimlarning nutqiy sinonimlar deb

nomlanuvchi guruhi ajratiladi. Masalan, *chiroylı*, *go'zal*, *ko'hlik*, *suluv*, *zebo* so'zlarning nutqda ishlatilishi bir xil emas. Bunda *chiroylı* so'zi nutqning barcha vazifaviy uslublarida bir xil lisoniy qiymat bilan ishlatilaveradi, u nutqiy betaraf ma'nodosh muqobildir. *Ko'hlik* ma'nodosh muqobili so'zlashuv nutqi uchun rasmiy lashgan bo'lsa, *go'zal*, *zebo*, *barno* singari ma'nodosh muqobillar badiiy nutq uchun xoslanganligi bilan xarakterlidir.

Har qanday ma'nodosh qatorda (paradigmada) shu qatorni tashkil qilgan muqobil birliklar uchun ularning barcha lisoniy xususiyat va imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtirgan muqobil birlik bo'ladi. Uni dominanta deyiladi. Sinonimik qatorning bunday vazifa va imkoniyatga ega bo'lgan muqobil birligi: a) lug'aviy ma'noda boshqa muqobillar uchun umumiyo bo'ladi; b) uslubiy bo'yog'i betaraf bo'ladi; d) nutqning barcha vazifaviy ko'rinishlari uchun mushtarak bo'ladi. Masalan, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *chehra* sinonimik qatorida "yuz" so'zi ana shu uch xususiyatni o'zida mujassamlashtirgan dominantadir.

Bir sinonimik qatorni tashkil etgan lug'aviy birliklar so'z qo'llash jihatidan ham farqlanishi zarur. *Qariya*, *keksa*, *mo'ysafid*, *oqsoqol* so'zları bir sinonimik qatorni tashkil qiladi. Ulardan *mo'ysafid*, *oqsoqol*, *keksa* muqobil birliklar insonlarga nisbatan ishlatiladi (*oqsoqol kishi*, *mo'ysafid odam*, *keksa kishi*), *qari* so'zi esa salbiy bo'yoqqa ega, u hayvonlarga nisbatan ham qo'llanadi (*qari sigir*, *qari ot*, *qari mushuk* va b.).

## Dubletlar

Leksik birliklar lug'aviy ma'noning darajasi, uslubiy bo'yog'i, nutqning barcha vazifaviy uslublarida bir xil qiymat kasb etsa, ular mutlaq ma'nodoshlar sifatida alohida ajraladi. Masalan, *shakl* va *forma*, *g'oya* va *ideya*, *talaba* va *student*, *mavzu* va *tema*, *universitet* va *dorilfunun*, *jumhuriyat* va *respublika*, *tuman* (*nohiya*) va *rayon*, *viloyat* va *oblast*, *injener* va *muhandis* va h.k. Sinonimlarning bu turi

*dubletlar* ham deb ataladi. Mutlaq ma'nodosh muqobillarni birlashtiruvchi bunday sinonimik qator odatda ikki a'zodan tashkil topadi.

Til taraqqiyoti uchun ma'nodoshlikning bu turi muhim emas. Demak, mutlaq ma'nodoshlik semantik va vazifaviy ko'lamda farq qilmaydigan bir xil, mushtarak lug'aviy birliklardan iborat bo'ladi. Mutlaq ma'nodoshlik paradigmaside birlashuvchi muqobil a'zolardan biri nutqda faol ishlatilib, boshqasining iste'moliga monelik qiladi, uni cheklaydi. Iste'moli cheklanib, inkor etilgan lug'aviy birlik til leksikasining nofaol qatlamidan joy oladi. Natijada, davrlar o'tishi bilan, bunday lug'aviy birliklardan tarkib topgan paradigmatic qator unutilib, barham topadi. Hozirgi vaqtida *rayon*, *oblast*, *injener*, *vrach*, *territoriya*, *adres* va b. bir qator lug'aviy birliklar *tuman* (*nohiya*), *viloyat*, *muhandis*, *tabib*, *hudud*, *manzil* va h.k. lug'aviy birliklar iste'molining faollashuvi tazyiqida til lug'at tarkibidan chetlashgan. Shuningdek, bu lug'aviy birliklar ishtirokida hosil bo'lgan *rayon* – *tuman*, *oblast* – *viloyat*, *injener* – *muhandis*, *vrach* – *tabib*, *territoriya* – *hudud*, *adres* – *manzil* singari vazifaviy-mazmuniy mikroguruhlar (ya'ni paradigmalar) ham lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalar tizimidan uzoqlashgan.

Mutlaq sinonimiya qatoridagi qaysi a'zoning iste'moli ommaviy tus olib, rasmiylashishi va boshqasining passivlashib, unutilishi til egasi qarashli bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzumi va uning mafkurasi bilan bog'lanadi. Masalan, sho'rolar davrida o'zbek tilida *oblast*, *rayon*, *student*, *ideya*, *tema*, *injener*, *territoriya*, *adres* va sh.k. boshqa lug'aviy birliklar faol ishlatilgan, ularning *viloyat*, *tuman*, *talaba*, *g'oya*, *mavzu*, *muhandis*, *hudud*, *manzil* singari muqobillari iste'moli cheklangan edi. Endilikda esa, aksincha, *viloyat*, *tuman*, *talaba*, *g'oya*, *mavzu*, *muhandis*, *hudud*, *manzil* singari muqobillar iste'moli faollashib va ommalashib, ularning sho'rolar davrida faol bo'lgan muqobillari iste'moliga chek qo'yilayotir. Demak, mutlaq ma'nodoshlik va uning paradigmasi tilning o'tkinchi hodisalariga kiradi.

Yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, sinonim va dublet xarakteridagi leksik birliklar lug'aviy tizimning lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalari tavsifidagi ko'rinishlardan biri sanaladi. Bunday xususiyatga ega bo'lgan leksik birliklarniing ifoda va mazmun jabhalarida muvofiqlik, mutanosiblik bo'lmaydi. Ular shakl va mazmun nomutanosibligining (asimetriyasining) paradigmatic deb ataluvchi turiga tegishli bo'ladi. Bunday hodisalarda shakl va mazmun nomutanosibligi shakliy birliklar miqdorining ma'noviy birliklar miqdoriga nisbatan ko'pligiga asoslanadi.

## Tabu

Tabu Polinezianing tongo tilidan olingan, man etmoq, taqiqlamoq ma'nolarini bildirgan. Bu atama aslida etnografik xarakterda paydo bo'lgan. Uning nolisoniy ildizlari nihoyatda qadimi. Ibtidoiy ongning shakllanishi, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining paydo bo'lishi, borliqning ilohiylashtirilishi, ruh tushunchasining paydo bo'lishi va ko'chib yurishi, hayvonlarga sig'inish kabi urf-odatlarga borib taqaladi. Ibtidoiy davrda odamxo'rlik, odamni qurbanlik qilish, yurak qonini ichish, qizlarni tiriklay ko'mish, keksalarni kimsasiz cho'lga eltib tashlash, o'lgach, etini quzg'unlarga yedirish, odam sotish va sotib olish kabi bo'limg'ur odatlar urf sanalgan. Ana shu noinsoniy holatlar bilan bog'liq bo'lgan va ularni ifodalovchi lisoniy vositalar, asosan, so'zlar bo'lib, ularni nutqda qo'llash noqulay va vahimali vaziyat paydo qilgan. Bu noqulay va vahimali vaziyatni ro'yobga chiqaruvchi lug'aviy birliklarni ishlatish man etilgan. Tabu deb ishlatilishi man etilgan ana shu so'z va iboralarga nisbatan aytildi.

Tabu, obyekti xarakteriga ko'ra, ikki guruhga ajraladi: 1) etnografik tabu; 2) lingvistik tabu. Etnografik tabu ijtimoiy (sotsial) tabu ham deyiladi. Bunda ma'lum sabablarga ko'ra man etilgan ijtimoiy harakat, voqelik yoki odat tushuniladi. Lingvistik tabuda man etilgan ijtimoiy harakat, voqelik yoki predmet emas, balki uning nomi

man etiladi. Biroq etnografik va lingvistik tabular biri boshqasini taqozo etuvchi, biri boshqasiga asos bo‘luvchi o‘zaro bog‘liq ijtimoiylisoniy hodisalardir. Masalan, islomda cho‘chqa go‘shti yeish, spirtli ichimliklar ichish odatlarining man etilishi etnografik tabu hisoblansa, shu jarayonlar nomlari ishlatilishining man etilishi lingvistik tabu sanaladi. Shu sababli *cho‘chqa, aroq* so‘zlarini ishlatish noqulay bo‘lgan. Ular o‘rnida *kiyik, oq qo‘y; ichimlik, shisha, dori, mo‘ysafid* (bular endi tabu emas, balki evfemizmlardir, bular haqida navbatdagi mavzuga qarang) so‘z va iboralari ishlatiladi.

Lingvistik tabu zaminida xalqlar tarixi, urf-odati, rasm-rusumi, axloq-odobi, xulq-atvori, ruhiy-psixologik, ma’naviy-ma’rifiy e’tiqodi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi mujassamlashgan. Lingvistik tabu va u bilan bog‘liq jarayonlar tilshunoslikning etnolingvistika tarmog‘ida o‘rganiladi. Tabu evfemizmga yo‘l ochadigan, tilda so‘zlearning ko‘chma, okkozional ma’nolar kasb etishiga sabab bo‘ladigan lisoniy imkoniyat, lisoniy bosqichdir.

## Evfemizmlar

Evfemizmlar sinonimiyyaga yaqin vazifaviy-mazmuniy hodisalardir. Evfemizmlar so‘z qo‘llash orqali amalga oshiriladi. So‘z qo‘llash va uning jarayoniga nisbatan leksik qo‘llash atamasi ham ishlatiladi.

Leksik qo‘llash umumtil hodisasi emas. U tilning rasmiy birliklari kabi ommalashmagan. Shu bois so‘z qo‘llash individual xarakter kasb etadi. So‘z qo‘llashning turlari ko‘p. Shulardan biri evfemistik qo‘llashdir. Ayrim ishlatilishi noqulay yoki tinglovchiga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan so‘z yoxud iboralar nutqda ularning ma’nosini beruvchi, lekin tinglovchiga “og‘ir botmaydigan” boshqa leksik muqobillar evaziga almashtiriladi. Masalan, umri tugagan insonga nisbatan “o‘ldi” deyish tinglovchiga yoqimli eshitilmaydi. Shu so‘z ma’nosini tinglovchiga “muloyim” yetkazish uchun, “u dunyoga ketdi”, “Olloh marhamatiga oldi”, “narigi dunyo

safariga jo‘nadi” va h.k. iboralar vositasida yetkaziladi. Eshitilishi noqulay va yoqimsiz so‘zlar o‘rnida qo‘llanuvchi ijobiy bo‘yoqli bunday muqobillar ***evfemizmlar*** deb ataladi.

Noqulayligi va yoqimsizligi uchun ishlatilishi man etilgan (taqiqlangan) so‘z yoki iboralarga nisbatan ***tabu*** atamasi qo‘llaniladi. Demak, evfemizm va evfemistik qo‘llash tabu hodisasi tufayli vujudga keladi. Inson organizmi a’zolaridan ayrimlarini, u qanday nomlangan bo‘lsa, shu shakl va maqomda ishlatish odob etikasi nuqtai nazaridan man etilgan. Masalan, ayollar tanasining farzandlarini sut bilan oziqlantiruvchi a’zosiga nisbatan “ko‘krak” (tabu etilgani: *emchak*) so‘zi ishlatiladi. Ularning belidan past va oyoq qismi uchun xoslangan kiyimiga nisbatan shu kiyimning tilda rasmiy tus olib ommalashgan nomi (ishton)ni ishlatish noqulay, shuning uchun ayollar kiyimining bu nomi “lozim” deb nomlangan. Shuningdek, tana organizmi a’zolaridan ayrimlarining o‘z nomi bilan ishlatilishi nihoyatda noqulay. Ular nutqda tilda butunlay boshqa ma’nolar anglatuvchi “old”i, “orqa”si singari so‘zlar yordamida nomlanadi. Nutqiy jarayonda bu so‘zlarning nima va qanday ma’noda ishlatilganligi tinglovchi tomonidan oson va tushunarli anglashilaveradi.

Demak, mutlaqo boshqa ma’nodagi so‘zlarning evfemistik maqsadda yana boshqa ko‘chma ma’nolarda ishlatilishi leksik qo‘llash bilan bog‘liq lisoniy imkoniyat va jarayondir. Evfemistik qo‘llash tufayli ham tilda lug‘aviy-mazmuniy tagtizimlar hosil bo‘ladi va bunday tagtizimlar leksik birliklarning lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalariga qarashli bo‘ladi.

Evfemistik medioqurilmalarning paradigmasini tabu etilgan so‘z bilan evfemizm tashkil qiladi. Masalan, *emchak* – *ko‘krak*, *o‘ldi* – *vafot etdi* // *narigi dunyoga ketdi* // *ko‘zi yumildi* // *borsa kelmas yo‘lga otlandi*, *chayon* – *eshak*, *it* – *vafodor*, *xotin* // *er* – *umr yo‘ldoshi* // *yostiqdosh*, *qari* // *keksa* – *yoshi ulug‘* va b. Misollarimizning ayrimlaridan ma’lum bo‘ladiki, evfemizmlarda ham ma’nodoshlik faol lug‘aviy-mazmuniy imkoniyatlardan biridir.

## Graduonimlar

Graduonimlar ***darajalanish*** deb ham ataladi. Masalan, *chiroyli – suluv – ko ‘rkam – zebo, qizg‘ish – qizil – qirmizi* qatorlarida shu qatorlarni hosil qilgan so‘zlar ma’nosida belgi-xususiyatning “ortiq – mu’tadil – kamligi” darajasi mavjud. Shu xususiyatga ko‘ra mazkur paradigmatic qatorlarda birlashuvchi lug‘aviy birliklar graduonimlar, ularning munosabati esa, graduonimik munosabat deb yuritiladi. Masalan, *chaqaloq – bola – o ‘spirin – yigit – chol; mudramoq – mizg‘imoq – uxlamoq – dong qotmoq* va b.

Graduonimlar ma’nodoshlikka, xususan, sinonimiya o‘xshash hodisalardir. Biroq sinonimiya va graduonimiya biri boshqasidan farqlanadi. Bu farqlar asosan ularning quyidagi belgilariga ko‘ra vujudga keladi. Birinchidan, sinonimiyada ular qatorini tashkil etgan lug‘aviy birliklar atash (nomlash) semalariga nisbatan bir xil bo‘ladi; ular ma’nosidan bir turdagи narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holat anglashiladi. Darajalanish (graduonimiya) qatorini tashkil etuvchi lug‘aviy birliklar orqali ular ma’nosining ma’lum bir semalari turli darajadagi farqni bildiradi. Masalan, *ninni – buvak – chaqaloq – go ‘dak* qatorida “yoshning miqdori” semasi darajalangan. Ma’nodoshlik (sinonimiya) qatorini hosil qiluvchi lug‘aviy birliklar biri boshqasidan, darajalanish qatori uchun xos bo‘lmagan, atash semasiga ko‘ra farqlanadi (masalan, *odam – inson – kishi; ketmoq – jo ‘namoq; osmon – ko ‘k – fazo – samo – falak; hamma – barcha – bari* kabi). **Darajalanish** (graduonomiya) tilning barcha sath hodisalarida mavjud. Lug‘aviy sath birliklariga xos darajalanishning denotativ va konnotativ ma’nolarga xos ikki turi mavjud. Masalan, *yelvizak – shabada – shamol – bo ‘ron – dovul – to ‘fon; yomg‘ir – qor – do ‘l; pastlik – yuza – do ‘nglik – do ‘mba – tepalik – dovon – adir – tog‘* va h.k. darajalanish qatorida graduonomiyaning denotativ ma’nolarga xos ko‘rinishi mavjud. *Inson – shaxs – odam – kimsa; bor – jo ‘na – yo ‘qol – daf bo ‘l – gum bo ‘l – qorangni o ‘chir; ayyor – mug‘ambir – quv – dog‘uli – makkor – nobop—bo ‘lmag ‘ur – yomon –*

*yaramas* – *rasvo* va sh.k. darajalanish qatorida graduonomiyaning konnotativ ma'nolarga xos turi mavjud. Graduonomiya va uning munosabati lug'aviy sathda ancha faol. Uni barcha so'z turkumlariga xos lug'aviy birliklar amalida ko'rish mumkin. Yuqorida keltirilgan qatorlarda graduonomiyaning ot, sifat va fe'l turkumiga xos lug'aviy birliklari qatnashgan. *Shu* – *bu* – *u*; *endi* – *hozir* – *boya*; *taq-taq* – *tiq-tiq* – *to'q-to'q*; *eh* – *uh* – *ah* – *vah* kabi qatorlar graduonomiyaning olmosh, ravish, taqlid so'z va undovlar tizimidagi amaliga misol bo'ladi.

## **LEKSIK BIRLIKLARNING DENOTATIV ASOSDA FARQ QILUVCHI LUG'AVIY-MAZMUNIY MEDIOQURILMALARI**

Ma'lum bo'ldiki, leksik birliklar lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalarining muayyan bir guruhida vazifaviy-mazmuniy mikroguruahlarni tashkil etuvchi lug'aviy birliklar zid (antonimlar, konversivlar) va zid bo'limgan ma'nolarga ega bo'lar ekan. A'zolari zid bo'limgan ma'nolarda tutashuvchi lug'aviy-mazmuniy qurilmalarning bir tagguruuhini denotativ asosda farq qilmovchi sinonim va dublet xarakteridagi hodisalar va ularning tizimi tashkil qilishi ham yuqoridagi ma'lumotlardan bizga aniq bo'ldi. Lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalarning boshqa bir tagguruuhida ularni tashkil etuvchi muqobil leksik birliklarning denotativ asosi har xil bo'ladi.

Lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalarning bu tagguruhiga quyidagilar kiradi: a) giponimlar; b) ekvonimlar; d) partonimlar; e) graduonimlar va b. Giponim, ekvonim, partonim va graduonimlardan tashkil topuvchi lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalar sinonim va dublet, antonim va konversivlardan tashkil topuvchi lug'aviy-mazmuniy medioqurilmalar bilan o'xshash.

Bu o'xshashlik sinonim va dubletlardan tarkib topgan tagguruhning ham, giponim, ekvonim, partonim va graduonimlardan tarkib topgan tagguruhning ham o'ziga xos vazifaviy-mazmuniy medioqurilmalar ekanligi bilan belgilanadi. Bu xususiyatni aniqroq

bilish va to‘g‘ri tasavvur etish uchun ularning har biriga alohida-alohida to‘xtab o‘tish lozim bo‘ladi.

## Giponimlar

Giponimlar ma’no jihatdan boshqa lug‘aviy birliklarga tobe so‘zlardir. Ular ma’lum jinsga qarashli turlarning nomlarini bildiradi. Giponimlarni ma’no jihatdan tobelantirgan lug‘aviy birlik *giperonim* deyiladi. Demak, giperonim jins tushunchasi bilan aloqador, jins tushunchasini bildirgan predmetning nomini ifodalaydi. Shuning uchun giperonimning ma’no doirasi keng bo‘lib, uning ko‘lamiga giponim anglatgan ma’no ham kiradi. Ma’no ko‘لامi keng so‘z bilan ma’nosи unga tobe so‘z o‘rtasidagi munosabatni (lisoniy aloqani) *gipero-giponimiya munosabati* yoki aloqasi deyiladi. Masalan, o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashgan “*mebel*” lug‘aviy birligi “*uy jihozи anjomlari*” umumiylar ma’nosiga ega. *Stol, stul, shkaf, divan, krovat* va h.k. lug‘aviy birliklarining har biri “*uy jihozи anjomlari*”ga tegishli predmet, narsalar ma’nosini anglatadi. Bu so‘zlarning har biri o‘z denotatsiyasiga ega.

Ular biri boshqasidan shakli va bajargan vazifasiga ko‘ra farq qiladi: stulni ko‘rgan kishi uni hech vaqt “*stol*” deb atamaydi. Lekin “Mebel qani?” degan so‘roqqa tinglovchi uy-ro‘zg‘or buyumlaridan ko‘ziga ko‘ringanini aytib, unga to‘g‘ri javob qaytara oladi. Ko‘zga ko‘ringan narsa *shkaf yoki divan, krovat yoki stol* bo‘lishi mumkin. Seziladiki, “*mebel*” so‘zi ma’nosining ko‘lam keng bo‘lib, *stol, stul, shkaf, divan, krovat* va h.k. so‘zlarning har biri ma’no jihatdan shu – ***mebel*** so‘zining ma’nosiga qarashli, ya’ni unga tobedir. Ana shu lisoniy munosabatdoshlikda “*mebel*” – ***giperonim, stol, stul, shkaf, divan, krovat*** – ***giponimlardir***. Yoki *ot, eshak, qoramol, qo‘y, echki, tuya* va h.k. lug‘aviy birliklarning har biri uy hayvonlarining alohida-alohida turlarini bildiradi, bu shu lug‘aviy birliklarning ma’nosidir. Mana shu lug‘aviy birliklarning har biri ma’no jihatdan “*hayvon*” (aniqrog‘i, “*uy hayvoni*”) leksemasi anglatgan ma’no doirasida unga

tobe semantik birliklardir. Bu ma’noviy bog‘lanishga ko‘ra “hayvon” giperonim hisoblansa, *ot, eshak, qoramol, qo‘y, echki, tuya* so‘zlari “hayvon” so‘zining (giperonimining) giponimlaridir. Yuqorida keltirilgan misolimizda *stol, stul, shkaf, divan, krovat*; keyin keltirilgan misolimizda *ot, eshak, qoramol, qo‘y, echki, tuya* so‘zlari munosabatidan giponimiya paradigmasi hosil bo‘ladi. Bu so‘zlarning biri boshqasiga nisbatan giponimdosh lug‘aviy birliklar deb yuritiladi.

Giperonim va giponim xarakteridagi lug‘aviy birliklar aloqasidan jins va tur munosabati ifodalanadi. Jins ma’nosini giperonim xarakteridagi lug‘aviy birliklar tufayli, tur ma’nosini giponimlar xarakteridagi lug‘aviy birliklar tufayli anglashiladi. Demak, giponimni giperonimsiz, o‘z navbatida, giperonimni giponimsiz tasavvur etish mumkin emas: tur ma’nosini tashuvchi giponim lug‘aviy birliklar bo‘lmash ekan, jins ma’nosini tashuvchi giperonim lug‘aviy birligi ham bo‘lmaydi.

Giperonim – bu lug‘aviy birliklarning gipo-giperonimik qatoridagi jins ma’nosini ifodalovchi dominantadir. Yana shunisi ham borki, giponimlar muayyan narsa-predmetning denotatsiyasi sifatida konkret ma’nolarga ega bo‘ladi.

Giperonimlar ma’nosini esa, umumiy va mavhum xarakter kasb etadi. Masalan, *sigir, buqa, ho‘kiz, buzoq* so‘zlari ma’nosini orqali “qoramol”ning jins va yoshga ko‘ra farqlanuvchi muayyan turlari ko‘z oldimizga keladi; “*mol*” yoki “*qoramol*” deyilganda esa, *sigir, buqa, ho‘kiz, buzoq* kabi aniq turlarni umumlashtiruvchi umuman yirik uy hayvoni ma’nosini tasavvur etiladi.

## **Ekvonimlar**

Ekvonimlar til lug‘aviy sathida giponimlar bilan munosabatdosh, ularga o‘xshash ma’noviy-vazifaviy birliklardir. Ekvonim hukmidagi har bir lug‘aviy birlik shu maqomdagi boshqa lug‘aviy birlikdan in’ikos etgan denotatiga ko‘ra farq qiladi. Masalan, “*qo‘y*” leksemasining ma’no doirasi *qo‘chqor, sovliq, qo‘zi, chori*, kabi

so‘zlar ma’nosini ham o‘z ichiga oladi. Yoki “qoramol” so‘zining ma’no doirasida *sigir*, *novvos*, *ho‘kiz*, *buqa*, *tana*, *g‘unojin*, *buzoq* so‘zlari anglatgan ma’nolar ham mavjud. *Qo‘chqor*, *sovliq*, *qo‘zi*, *chori*; *sigir*, *novvos*, *ho‘kiz*, *buqa*, *tana*, *g‘unojin* va *buzoq* so‘zlari ***ekvonimlardir***. Ekvonimlar muayyan sharoitlarda giponimlar bilan bir lisoniy bosqichda o‘zaro birlashadi: giponim ayni o‘rinda ekvonim vazifasini ham bajaradi. Masalan, keltirilgan misollarimizning *qo‘chqor*, *sovliq*, *qo‘zi*, *chori* kabi guruhi “*qo‘y*” so‘zi (gireronimi)ning giponimlaridan; *sigir*, *novvos*, *ho‘kiz*, *buqa*, *tana*, *g‘unojin*, *buzoq* kabi guruhi “*qoramol*” so‘zi (giperonimi)ning giponimlaridan hosil bo‘lgan. “*Qo‘y*” va “*qoramol*” giperonimlariga ma’no jihatdan tobelangan ana shu barcha lug‘aviy birliklar ayni o‘rinda ekvonimlar hamdir. Ekvonimlarning giponimlarga o‘xshashligi, ularning ayrim ma’no bosqichlarida giponimlar bilan to‘qnashuvi bu ikki lug‘aviy-mazmuniy hodisa orasidagi farq yo‘q degan hukmga olib bormasligi kerak, albatta: giponim va ekvonim o‘zaro farqlanuvchi lug‘aviy-mazmuniy kategoriyalardir. Ularning o‘zaro farqi shundaki, giponim vazifasidagi so‘zning ma’nosini ekvonim vazifasidagi so‘znikiga nisbatan keng bo‘ladi. Giponim vazifasidagi so‘z ayrim ma’no bosqichida giperonim ham bo‘lib kela oladi. Bunday xususiyat ekvonim xarakteridagi lug‘aviy birliklarda mavjud emas. Masalan, *echki*, *qoramol* leksemalari hayvon (*uy hayvoni*) lug‘aviy birligiga nisbatan giponimlardir. Ular ma’no jihatdan hayvon leksemasiga tobelanadi. Bu bosqichda ularni ekvonimlar deb bo‘lmaydi. Biroq ularning har birining ma’nosini boshqa bir necha lug‘aviy birliklar vositasida to‘ldiriladi. Bu bosqichda *echki*, *qoramol* leksemalari giperonim xarakterini kasb etadi. *Echki* leksemasining ma’nosini *sovliq*, *taka*, *uloq* so‘zlarining; *qoramol* leksemasining ma’nosini *sigir*, *ho‘kiz*, *novvos*, *buqa*, *tana*, *g‘unojin*, *buzoq* so‘zlarining ma’nolari bilan to‘ldiriladi: *sovliq*, *taka*, *uloq* *echki* leksemasiga; *sigir*, *ho‘kiz*, *novvos*, *buqa*, *tana*, *g‘unojin*, *buzoq* ***qoramol*** leksemasiga qarashli ***ekvonimlardir***. Bundan shu narsa seziladiki, ekvonimlar lug‘aviy birliklar ma’no qamrovi

iyerarxiyasining so‘nggi bosqich lug‘aviy-mazmuniy birliklaridir. Giponimlar esa bu iyerarxiyaning oraliq bosqichida amal qila oluvchi lug‘aviy-mazmuniy birliklar sanaladi.

## Partonimlar

Partonimlar ham lug‘aviy mazmuniy medioqurilmalar tizimida o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi ko‘rinishlardan biridir. Partonimik munosabatlar lug‘aviy birliklarning butun va qism ma’nosini anglatishi zaminida vujudga keladi. Partonimik munosabatlar tufayli obyektiv borliqdagi butun va uning qismlari munosabati in’ikos etiladi va lisoniy jabhaga ko‘chiriladi. Masalan, *odam* tabiatning jonli tavsifdagi bir butun mavjudoti. Uning bir butunligini shu “mavjudot”ni tashkil qilgan uzviy qismlar munosabati belgilaydi. “*Odam*” butunligini tashkil qilgan qismlar hammamizga ma’lum. Ularga *bosh*, *tana*, *qo‘l*, *oyoq* so‘z (leksema)lari atagan qismlar kiradi. Demak, “*odam*” butunligini tashkil etgan ana shu qismlar nomi (*bosh*, *tana*, *qo‘l*, *oyoq*) **partonimlardir**. Butun ichiga kirgan bo‘lak nomi *meronim* deb ham ataladi. Butun nomi esa, *butunnom* (yoki *xolonim*) deyiladi. Masalan, “*uy*” so‘zi (leksemasi) butunnom (xolonim) sifatida *fundament*, *devor*, *pol*, *tom*, *eshik*, *deraza* kabi qism nomlarini (*meronimlarni*) o‘z ichiga oladi. Demak, partonimik munosabatlar *xolonim* (*butunnom*) va *meronim* (*qismnom*)lar aloqasidan tashkil topadi.

Ma’lumki, borliq narsa-hodisalarining bir butunligi ularni tashkil qiluvchi uzviy qismlarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Tilda narsa-predmetlarning butunlik (narsa-predmetlar) holati ham, uning qismlari ham alohida-alohida lug‘aviy birliklar vositasida nomlanadi va ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, daraxt so‘zi atagan tushunchani – predmetni olsak, uning bir butunligi *ildiz*, *poya*, *tana*, *shox*, *shabba*, *butoq*, *kurtak*, *barg* kabi qismlardan tarkib topganligidadir. Daraxt qismlarini atagan so‘zlar – lug‘aviy birliklar daraxt so‘ziga nisbatan partonimlar hisoblanadi. Daraxt va uning qismlari bir necha

partonimik qatorlarni tashkil qiladi: *daraxt* va *ildiz*, *daraxt* va *poya*, *daraxt* va *tana*, *daraxt* va *shox*, *daraxt* va *shabba*, *daraxt* va *butoq*, *daraxt* va *kurtak*, *daraxt* va *barg* va sh.k. Lug‘aviy birliklararo partonimik munosabatlar bevosita va bilvosita amalga oshadi. Masalan, *ildiz* va *poya*, *shox* va *butoq*, *kurtak* va *barg* lug‘aviy birliklaridan iborat qatorlar partonimik munosabatlarning bevosita turiga kiradi. *Ildiz* va *barg*, *ildiz* va *shox*, *shox* va *tana* singari qatorlarda esa lug‘aviy birliklararo partonimik munosabatlarning bilvosita turi mavjuddir. Demak, partonimik munosabatlar deganda, lug‘aviy birliklarning butun va bo‘lak ma’nosini ifodalashi va ularning shu asosda bog‘lanishi, lug‘aviy-mazmuniy paradigma hosil qilishi tushuniladi.

Partonimik munosabatlar va ularning bir tushuncha doirasidagi lug‘aviy-mazmuniy birliklarida ham iyerarxiyalı (pog‘onali, silsilali) tuzilish qonuniyati amal qiladi. Masalan, qo‘l, oyoq ma’nolarini bildirgan lug‘aviy birliklar “*odam*” so‘ziga nisbatan partonimlardir. Tirnoq, panja, barmoq ma’nolarini bildiruvchi lug‘aviy birliklar esa, qo‘l va oyoq so‘zlariga nisbatan partonimlardir.

Seziladiki, qo‘l va oyoq so‘zlarida ham qism, ham butun ma’nosi mavjud. Ular ma’lum bir tushuncha (“*odam*”) doirasida oraliq zonani tashkil etuvchi qismlar nomi sifatida ularning ma’nosini ifodalaydi. Ayni shu hol partonimiya hodisasining ham leksik tizimga xos “tizim ichidagi tizim”, lug‘aviy-mazmuniy tagtizim ekanligini belgilaydi.

## Funksionimlar

So‘zlarning denotativ asosda farq qiluvchi lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalari tizimiga funksionimlar ham kiradi. Funksionimlar guruhini, ularning paradigmatic qatorlarini shunday so‘zlar tashkil qiladiki, ularning ma’nolaridan anglashilgan narsa-predmetlar va ularning belgi-xususiyatlari munosabatida vazifa o‘xhashligi bo‘ladi. Masalan, *stul*, *taburetka*, *kreslo*, *divan* va h.k. lug‘aviy birliklar anglatgan narsa-predmetlar, denotatlar, bir umumiyl vazifaga ega:

shaxslarning o‘tirishi uchun mo‘ljallangan moslama shu narsa-predmetlarning asosiy vazifasidir. Yoki *kamon*, *miltiq*, *to‘pponcha*, *avtomat* lug‘aviy birliklarini olaylik. Shu so‘zlar anglatgan ma’nolardan anglashilgan narsa-predmetlar hayvon yoki insonni jarohatlash, nobud qilish maqsadini ko‘zda tutgan umumiyl vazifaga ko‘ra birlashadi.

Lug‘aviy birliklar ma’nosidan anglashilgan narsa-predmetlarning vazifa o‘xshashligi *pichoq*, *xanjar*, *qilich*; *sham*, *mash’al*, *chiroq*, *lampochka* singari lug‘aviy birliklarga ham xos. Demak, *stul*, *taburetka*, *kreslo*, *divan*; *kamon*, *miltiq*, *to‘pponcha*, *avtomat*; *pichoq*, *xanjar*, *qilich*; *sham*, *mash’al*, *chiroq*, *lampochka* so‘zлари atagan denotatlarining vazifa umumiyligiga ko‘ra, alohida-alohida lug‘aviy-mazmuniy mikrotizimlarni, ya’ni paradigmalarni hosil qilgan.

Shuning uchun alohida-alohida mikroguruh (mikrotizim)larda birlashuvchi bunday lug‘aviy birliklarni funksionimlar, ularning munosabatlarini esa, *funksionimiya*, yoki *funksionimik munosabatlar* deyiladi. Funksionimlar va ularning paradigmatic qurshovlarini ma’no ko‘chishi va ko‘p ma’nolilikning funksionimiya (vazifadoshlik, vazifadoshlik munosabati) ko‘rinishidan farqlamoq kerak. Ular har xil lug‘aviy-mazmuniy hodisalardir.

Ma’no ko‘chishi bilan bog‘liq vazifadoshlik (funksiyadoshlik) lug‘aviy ko‘p ma’nolilik (lug‘aviy polisemiya) doirasida bo‘ladi, bir so‘z atrofida birlashuvchi lug‘aviy-mazmuniy variantlar (LMVlar) anglatgan denotatlarda vazifa jihatdan umumiylilik bo‘ladi. Funksionimlarda esa, ikki yoki undan ortiq lug‘aviy birlik (so‘z) atagan denotatlar bajaradigan vazifa umumiyligi nazarda tutiladi. Masalan, *ruchka* va *qalam* so‘zлари lisoniy jihatdan funksionimlardir, chunki bu ikki so‘z atagan denotatning har biri ham yozuv qurolidir, ya’ni yozish uchun xizmat qiladi.

Demak, ma’no ko‘chishiga aloqador funksioniyada so‘z, ya’ni lug‘aviy birlik bitta bo‘ladi. Lisoniy munosabat bir so‘zning har xil nominativ ma’nolari va ularning aloqasiga asoslanadi. Ularning

paradigmasi sememalardan, sememalar munosabatidan hosil bo‘ladi. Lug‘aviy birliklarning ifoda va mazmun jahbalarida nomutanosiblik (asimmetriya) amal qiladi (*qanot*, o‘q polisemantik leksemalariga xos lisoniy xususiyatlarni eslang).

Lug‘aviy-mazmuniy mikrotizimlarning funksionimlar deb ataluvchi hodisasida unday emas. Bularda lisoniy munosabatlar bir necha so‘zlar – leksemalar ma’nolaridagi “*vazifa*” semasining integral (o‘xshashlik) xususiyatiga asoslanadi. Funksionimiya paradigmasini hosil qiluvchi har bir so‘zda ham leksemalik, ham sememalik xususiyati mavjud bo‘ladi.

Lug‘aviy birliklarning ifoda va mazmun jahbalarida nomutanosiblik emas, balki mutanosiblik (simmetriya) kuzatiladi. Masalan, *stul*, *taburetka*, *kreslo*, *divan* lug‘aviy birliklaridan hosil bo‘lgan paradigmada (mikrotizimda) nechta so‘z ishtirok etgan bo‘lsa, o‘shancha *leksema* va o‘shancha *semema* bor: lug‘aviy birliklarning ifoda jabhasi uning mazmun jabhasiga mutanosib. Vazifadoshlik asosida hosil bo‘lgan ko‘p ma’nolilikda lug‘aviy birliklarning ifoda va mazmun jahhalari uchun bunday mutanosiblik xos emas.

## **LUG‘AVIY-MAZMUNIY MAKROQURILMALAR**

Lug‘aviy sathning murakkab sistema ekanligi yuqorida aytilgan edi. Bu tizimning murakkabligi shundaki, lug‘aviy sath leksik birliklarning lug‘aviy-mazmuniy mikroqurilmalaridan tortib lug‘aviy-mazmuniy makroqurilmalarigacha bo‘lgan tagtizimlarni o‘z ichiga oladi. Lug‘aviy-mazmuniy tagqurilmalarning oraliq zonasida medioqurilmalar tavsifidagi tagtizimlar ham mavjudki, bularning har uchalasi biri boshqasi bilan organik tarzdagi lisoniy bog‘liqlikka ega.

Yuqorida lug‘aviy sathning lug‘aviy-mazmuniy tizimlariga xos mikro va medioqurilmalari haqida ma’lumotga ega bo‘lgan edik. Endi bu tizimning lug‘aviy-mazmuniy jabhasiga xos makroqurilmalari haqida fikr yuritamiz.

Leksik birliklarning lug‘aviy-mazmuniy makroqurilmasi deganda, bir paradigmatic qurshovda miqdori mikro- va medioqurilmalarnikidan ko‘p lug‘aviy birliklarning o‘zaro lug‘aviy va mazmuniy munosabatdoshligi tushuniladi. Masalan, *tol*, *terak*, *qarag‘ay*, *archa*, *yantoq*, *saksovul* va h.k. so‘zlari ma’noviy jahada bir umumiyligi “***daraxt***” tushunchasi doirasida birlashadi. “*Daraxt*” umumiyligi ma’nosiga (arxisemasiga) ega bo‘lgan yana boshqa lug‘aviy birliklar hisobiga bu tizimni istagancha kengaytirish mumkin. Shu “*daraxt*” umumiyligi ma’nosini doirasida birlashgan so‘zlar qancha miqdorni tashkil qilsa, ularning jami (to‘dasi) lug‘at tarkibining mikro- va medioqurilmalaridan ancha yirik tagtizimini tashkil qiladi va bu mikrotizimni lug‘aviy-mazmuniy ***makroqurilma*** deb ataladi.

Leksik birliklar (so‘zlar)ning lug‘aviy-mazmuniy makroqurilmalari ham, lug‘aviy tizimning yuqorida o‘rganilgan boshqa tagtizimlarida bo‘lgani kabi, o‘z ichki tagtizimlariga, ichki turlariga ega. Bular odatda ikki guruhdan iborat: 1) lug‘aviy-mavzuiy guruh (LMG); 2) lug‘aviy-mazmuniy maydon (LMM).

### **Lug‘aviy-mavzuiy guruh (LMG)**

Lug‘aviy-mavzuiy guruh atamasi ikki ma’noda ishlataladi:  
1) so‘zlarni lug‘aviy guruhlarga ajratish usuli (metodi, moyasi);  
2) muayyan tasnif asosida ajratilgan leksik guruhlar. Qo‘lingizdagagi bu darslikda *lug‘aviy-mavzuiy guruh* atamasi ikkinchi ma’noda, ya’ni muayyan tasnif asosida ajratilishi lozim bo‘lgan leksik guruhlar ma’nosida qo‘llanadi. Chunki mazkur atama anglatgan birinchi ma’no tilshunoslik fanining nazariy masalalaridan biri hisoblanadi.

Lug‘aviy-mavzuiy guruhlar vositasida til jamoasi (xalq)ning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, madaniy va maishiy turmushi, diniy va ruhiy olami lisoniy jahaga olib chiqiladi. Leksika (lug‘at tarkibi)ni mavzuiy guruhlarga ajratish tilni shu til jamoasi (xalq)ning ijtimoiy hayoti va turmush tarzi bilan bog‘laydi.

Demak, lug‘aviy-mavzuiy guruhlar orqali obyektiv borliq narsahodisalari va ularning guruhi in’ikos etiladi. Lug‘aviy-mavzuiy guruhlar vositasida muayyan til jamoasining bilim va malakalari lisoniy jabhada in’ikosini topadi. Til jamoasi, ya’ni xalq hayoti qanchalik boy, serqirra va rang-barang bo‘lsa, tematik guruhlar ham shuncha ko‘p, serqirra va rang-barang bo‘ladi. Negaki xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy, ma’naviy va diniy olamiga oid ma’lumotlar mavzuiy (tematik) guruhlarda ravshan ifodalanadi. Mavzuiy guruhlarning majmuasi orqali leksikaning yaxlitligi, sistema ekanligi in’ikos etilsa, leksikaning bir butunligi orqali obyektiv borliqning yaxlit bir tizimligi in’ikos etiladi.

Lug‘aviy-mavzuiy guruhlar (LMG) so‘z turkumlaridan keyingi (so‘z turkumlari ichidagi), ularga qarashli, ya’ni tobelanuvchi makroqurilmalardir. Bu makroqurilmalar so‘zlarning lug‘aviy-mazmuniy guruhlar (leksik-semantik)iga nisbatan yuqori bosqichda turadi: lug‘aviy-mazmuniy guruhlar ana shu makroqurilmalardan tarkib topadi. Demak, lug‘aviy-mavzuiy guruhlar (leksik-tematik guruhlar) lug‘aviy birliklar ierarxiyasida oraliq zonani ishg‘ol qiladi. Bu makrotizimlar majmuasi tilning yaxlit leksikasini, ya’ni lug‘at tarkibini shakllantiradi.

Lug‘aviy-mavzuiy guruhlar lug‘at tarkibining turli qatlamlariga ko‘ra ajratilishi mumkin. Masalan, *leksikaning faol qatlamiga oid lug‘aviy-mavzuiy guruhlar; leksikaning nofaol qatlamiga oid lug‘aviy-mavzuiy guruhlar; leksikaning o‘z qatlamiga oid lug‘aviy-mavzuiy guruhlar; leksikaning o‘zlashgan qatlamiga oid lug‘aviy-mavzuiy guruhlar* va b.

Lug‘aviy birliklarni mavzuiy guruhlarga ajratishda so‘zlararo ma’no munosabatdoshligi, ularning borliq hodisalariga aloqasi kabi lisoniy va nolisoniy jihatlar hisobga olinadi.

Demak, lug‘aviy-mavzuiy guruh bir umumiyl tushunchaga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi, ularning o‘zaro lisoniy munosabatlaridan tarkib topadi. Bunday guruhlar leksikaning muayyan qatlamlari ichida, ularga qarashli bo‘ladi. Masalan,

“o‘simliklar” olamiga doir nomlar (*ismaloq, yo‘ng‘ichqa, o‘t, o‘t-o‘lan, yalpiz, yantoq, qamish, qiyooq* va b.); “uy-ro‘zg‘or buyumlari” nomlari (*alach, arqon, arqoq, beshik, idish, qozon, qoshiq, qop, kigiz, sachoq, tuvak, to‘rva, cho‘mich* va b.); “qarindoshlik” nomlari (*ota, ona, oyi, aya, opa, singil, aka, uka, amaki, tog‘a, amma, xola, bobo* va b.); “sport va unga qarashli mashg‘ulotlar” nomlari (*sakrash, yugurish, suzish, turnik, boks, kurash* va b.), “o‘quv qurollari” nomlari (*kitob, daftar, qalam, ruchka, sumka, chizg‘ich* va b.) va h.k. (bular haqida darslikning “o‘z va o‘zlashgan qatlam” bahsida atroflicha fikr yuritiladi).

### **Lug‘aviy-mazmuniy maydon (LMM)**

Bizni qurshab turgan tashqi olam inson ongida turli xil tushunchalar majmuasi sifatida tasavvur etiladi. Bu tasavvurlar til birliklari yordamida lisoniy jahaga olib chiqiladi. Ana shu mantiqiy jarayonning lisoniy olamga olib chiqilishi – bu tilning lug‘at tarkibi (leksikasi) zimmasidagi asosiy va yetakchi vazifadir. Zero bizni qurshab turgan tashqi olam leksika (lug‘at tarkibi) yordamida in’ikos etiladi.

“Maydon” nazariyasi bilan bog‘liq lisoniy-mantiqiy tushuncha fanga XIX asr oxirlarida ma’lum bo‘ldi. Unda fizikadagi “magnit maydoni” haqidagi qarashlar til hodisalariga ham tatbiq etila boshlandi. Bu nazariyaning asoschilarini nemis tilshunoslari Y.Trir, V.Portsig va rus tilshunosi M.M.Pokrovskiydir.

XXI asr boshlarida “maydon” muammolariga bag‘ishlangan ishlar o‘zbek tilshunosligida ham paydo bo‘ldi. “Maydon” atamasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda u har qanday lisoniy birliklar guruhibiga, masalan, “tematik guruh”, “sistema”, “struktura”, “sinonimiya” va “antonimiya” atamalari anglatadigan to‘da va qatorlarga nisbatan ham ishlatiladi.

“Maydon” atamasi tor ma’noda ishlatilganda, bir umumiyligi signifikativ ma’noga ega lisoniy birliklar guruhibini anglatadi.

“Maydon” leksik sathda odatda tor ma’noga ega bo‘ladi. Leksik sathga xos lug‘aviy-mazmuniy maydon so‘z mazmunining signifikativ ma’nosи asosida shakllanadi. Bunday jarayonda so‘z ma’nosining obyektiv borliqdagi muayyan narsa-hodisalar va ularning belgi-xususiyatlari bilan bog‘lanuvchi denotativ ma’nolari hisobga olinmaydi. Masalan, *ota, ona, aka, uka, opa, singil, jiyan, bobo, buvi, amaki, tog‘a, amma, xola; pochcha, boja, ovsin, qaynona, kelin, kuyov* singari so‘zlar ma’nosи orqali qarindoshlik darajasi har xil shaxslar anglashiladi. Lekin bu so‘zlar “*qarindosh*” degan umumiy ma’noga ega. Bu ma’no signifikativ ma’nodir. Yuqoridagi so‘zlar bu ma’no asosida bir guruhda birlashgan. Bu leksik guruh “*qarindosh*” ma’nosidagi lug‘aviy-mazmuniy maydonni hosil qilgan. Misollar xarakteridan seziladiki, lug‘aviy-mazmuniy maydon – bu lug‘aviy-mavzuiy guruhning ichki tagguruuhlaridir. Lug‘aviy-mavzuiy guruh ham “*maydon*”, lekin bu “*maydon*” tarkibida, lug‘aviy-mazmuniy maydondan farqli o‘laroq, tilning har xil sathiga xos lisoniy birlıklari birlashaveradi (*ot, tizgin, egar, uzangi, otboqar, kishnamoq, otxona; sigir, sut, qaymoq, molxona, sut sog‘uvchi kabi*).

Tashqi olam, garchand bir butunday tasavvur etilsa-da, shu butunlik o‘zaro mantiqiy va organik munosabatdagi har xil narsa-hodisalar, ularning belgi-xususiyatlaridan iboratdir. Biz qurshalgan tashqi olamning bunday organik “qism”lari tilda har xil, lekin o‘zaro lisoniy bog‘lanishdagi lug‘aviy guruhlar vositasida in’ikos etilib, shakliy tus oladi. Ana shu lug‘aviy guruhlar leksik birliklarning *lug‘aviy-mazmuniy maydonlari* (*LMM*)dir. Masalan, shaxs tushunchasi bilan bog‘liq bir qancha lug‘aviy-mazmuniy guruhlarni ko‘rish mumkin. Ya’ni: 1) shaxs intellektual qobiliyatiga doir: *dono, bilimdon, farosatli, kaltabin, dovdir* va b.; 2) jinsdagi farq belgisiga doir: *qiz, ayol, er, xotin, beka, malika, yigit, bek, erkak* va h.k. 3) yoshdagi farq belgisiga doir: *chiqaloq, go‘dak, buvak, o‘siprin, juvon, yigit, xotin, kampir, chol* va b.; 4) fe’l-atvordagi farq belgisiga oid: *yuvosh, mayin, andishali, mulohazali, bama’ni, qo‘pol* va b.;

5) kishini jalg qilish belgisiga oid: *go'zal, suluv, parivash, pari, badbashara, qo'pol, kelishgan* va b.

Lug‘aviy birliklarning lug‘aviy-mavzuiy guruhlari “*mazmuniy maydon*” tushunchasi bilan mutanosib hodisalardir: lug‘aviy-mavzuiy guruhga kiruvchi leksik birliklar ayni o‘rinda muayyan “*mazmuniy maydon*”ga ham qarashli bo‘ladi. Biroq lug‘aviy-mazmuniy tagtizimlarning bu ikki turi o‘zaro farq qiladi. Farqi shundaki, lug‘aviy-mazmuniy maydon “*maydon*” tushunchasining *vazifaviy-semantik* jabhasiga xos bo‘lsa, lug‘aviy-mavzuiy guruh uning *shakliy-leksik* jabhasiga xosdir. Chunonchi, “*chorvachilik*” lug‘aviy-mavzuiy guruh, chorva hayvonlari nomlaridan tashqari, garchi “*hayvon*” ma’nosiga aloqasi bo‘lmasa ham, xalq xo‘jaligining shu sohasiga qarashli boshqa so‘zlarni ham o‘z ichiga olaveradi: *otchilik, qo‘ychilik, echkichilik, otxona, otboqar; qo‘yxona, qo‘yboqar, yaylov, qishlov, chorva mudiri, chorva duxturi (zootexnik)* va b.

Yoki “ta’lim-tarbiya” mavzusi va unga qarashli lug‘aviy birliklarga e’tibor beraylik. U mavzu *ta’lim, tarbiya, fan, ilm, sinf, auditoriya, laboratoriya, o‘qituvchi, o‘quvchi, talaba, kursant, tinglovchi, tarbiyachi, murabbiy, maktab, kollej, gimnaziya, litsey, direktor, direktor o‘rinbosari, sinfboshi, sinf rahbari, institut, universitet, fakultet, bo‘lim; ona tili, adabiyot, tarix, rus tili, chet tili, algebra, ximiya, geografiya, astronomiya, tajriba, sinov, imtihon; mashg‘ulot, jismoniy tarbiya, uy vazifasi, sinf ishi, mashq, mashg‘ulot, kirish, chiqish, tanaffus, ochiq dars, ota-onalar qo‘mitasi, baho, baholash, savol, javob, suhbat, nazorat ishi, insho, diktant, bayon; a’lo, yaxshi, o‘rta, yomon; so‘rash, o‘zlashtirish, davomat, a’lochi, sinf jurnali, doska, parta, chizg‘ich, sinf burchagi; daftar, qalam, ruchka, o‘chirg‘ich, bo‘r* va b. yana o‘nlab lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi.

Lug‘aviy-mazmuniy maydon lug‘aviy-mavzuiy guruhlarning ichki, unga tobe tagtizimlaridir. Masalan, “ta’lim-tarbiya” mavzusiga qarashli yuqoridaqgi so‘zlarni ma’no umumiyligi asosida o‘nlab lug‘aviy-mazmuniy maydonlarga ajratish mumkin. Chunonchi:

1) shaxs ma’nosini bildiruvchi maydon: *o‘qituvchi, o‘quvchi, talaba, tinglovchi, direktor, direktor o‘rnbosari, sinf rahbari, sinfboshi* va h.k.; 2) konkret narsa-predmet ma’nosini bildiruvchi maydon: *kitob, daftар, sumka, chizg‘ich, qalam, o‘chirg‘ich, devoriy gazeta* va b.; 3) makon ma’nosini bildiruvchi lug‘aviy birliklar: *sinf, sinfxona, o‘qituvchilar xonasi, auditoriya, direksiya, o‘quv zali, majlislar zali, kutubxona, sport zali, mакtab oshxonasi* va b.; 4) o‘quv predmetlari (fan nomlari)ni bildiruvchi so‘zlar: *ona tili, adabiyot, tarix, geografiya, ximiya, matematika, chet tili, jismoniy tarbiya, astronomiya, chizmachilik* va b.; 5) ta’limiy va tarbiyaviy xarakterdagi tadbirlarga doir nomlar: *sinf majlisi, ota-onalar majlisi, amaliy mashg‘ulot, seminar, leksiya, to‘garak, ekskursiya, insho, diktant, bayon, uy ishi, sinf ishi, kollokvium, ekskursiya, veteranlar bilan, qahramonlar bilan, o‘qilgan asar mualliflari bilan uchrashuvlar* va b.; 6) ta’limiy bosqich nomlari: *bog‘cha, umumta‘lim mакtabi, boshlang‘ich mакtab, litsey, gimnaziya, oliygoh, institut, universitet* va b.; 7) bilimlarni tekshirish va baholash jarayoniga oid so‘zlar: *baho, baholash, so‘rash, savol, javob; a’lo, yaxshi, o‘rta, yomon; besh, to‘rt, uch, ikki* va b.

Bunday mavzuiy guruhlarga ajratishni hayvonot olamiga oid tagtizimda ham ko‘rsa bo‘ladi. Masalan, hayvonot olamiga oid tagtizim dastlab: 1) *uy hayvonlari* va 2) *yovvoyi hayvonlar* singari ikki tematik guruhga ajraladi.

O‘z navbatida bu tagtizimlar ham shu tagtizimlarga tobe boshqa ichki mikroguruhtizimlarga parchalanadi. Ular lug‘aviy tizimning giperonim, giponim, ekvonim va partonimlar xarakteridagi oxirgi, yakuniy bosqichi birliklariga borib yakun topadi. Aytilgan fikrlarni “uy hayvonlari” lug‘aviy-mavzuiy guruhiga mansub tagtizimlar misolida ham ko‘rish mumkin. Bu LMG “ulov vazifasiga xoslangan” (*ot, eshak, xachir, tuya*), “go‘shti iste’mol qilinadigan” (*ot, qo‘y, qoramol, echki, tuya*), “go‘shti iste’mol qilinmaydigan” (*eshak, xachir, it, mushuk* va b.), “suti ichiladigan” (*ot, tuya, sigir, qo‘y, echki*), “suti ichilmaydigan” (*eshak, xachir, mushuk, it, tuyoqli* (*ot,*

*eshak, qo'y, echki), tirnoq oyoqli (it, mushuk) va h.k. lug'aviy-mazmuniy maydonlarga bo'linadi. Ma'lum bo'ladiki, bir lug'aviy birlik bir necha lug'aviy-mazmuniy maydonda uni tashkil etuvchi vazifaviy-ma'noviy uzb-a'zo sifatida qatnasha olish imkoniyatiga ega.*

Keltirilgan mikroguruhlarda jins ma'nosini tashuvchi leksik birliklar (giperonimlar) tur ma'nosini anglatuvchi leksik birliklarni tobelantirib, yana boshqa mikroguruhlarga parchalanishi mumkin.

## **O'ZBEK TILINING LUG'AVIY TARKIBI (LEKSIKASI)**

Yuqorida ham aytilganidek, lug'at tarkibi, ya'ni leksika tildagi mavjud so'zlar yig'indisi, majmuasidir. Tilning boyligi lug'at tarkibining boyligi bilan belgilanadi. U – tilning boshqa tillar sirasidagi mavqeini belgilovchi xazina. Leksikologiya lug'at tarkibini uning bir necha jihatlariga ko'ra o'rganadi. Bu bilan leksikologiya tilshunoslikning murakkab va ko'p jabhali sohasi ekanligi belgilanadi. Lug'at tarkibi asosan quyidagi rejalarda o'rganiladi: 1) o'zbek tili leksikasining shakllanishi va rivojlanish manbalari; 2) iste'mol doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi; 3) zamonaviyligiga ko'ra o'zbek tili leksikasi; 4) nutq uslublariga ko'ra o'zbek tili leksikasi va b.

### **O'zbek tili leksikasining shakllanishi va rivojlanish manbalari**

Dunyoning boshqa tillarida bo'lganidek, o'zbek tili lug'at tarkibi (ya'ni leksikasi) ham qisqa bir vaqtda shakllanib, hozirgi holatiga kelgan lug'aviy-lisoniy sistema emas.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi o'zbek xalqining asrlar osha qo'lga kiritgan lisoniy boyligidir. Bu boylikda o'zbek xalqining boshqa qo'shni va qo'shni bo'lman etnik jamoalar bilan turli siyosiy, madaniy va maishiy sohalardagi hamkorligi va hamjihatligi o'z lisoniy ifodasini topgan. Ana shu qonuniy nolisoniy asosga ko'ra, har bir

tilning lug‘at tarkibida shu lug‘at tarkibi qarashli til jamoasining o‘z so‘zlaridan tashqari, boshqa xalqlar tiliga tegishli lug‘aviy birliklar ham mavjud bo‘ladi. Shu xususiyatga ko‘ra, har qanday tilning, shu jumladan, o‘zbek tilining ham lug‘at tarkibi, ya’ni leksikasi ikki katta guruhga ajraladi: **1) o‘z qatlam, 2) o‘zlashma qatlam.**

## O‘z qatlam

O‘z qatlam deganda, lug‘at tarkibidagi shu tilning o‘zigagina xos bo‘lgan hamda shu tilga qarindosh boshqa tillar lug‘at tarkibi uchun ham umumiyligi hisoblangan so‘zlar majmuasi kiradi. O‘zbek tili leksikasining bu qatlamini tub turkiy (umumturkiy) hamda o‘zbekcha so‘zlar tashkil qiladi.

*Umumturkiy so‘zlar.* Tub turkiy so‘zlar turkiy xalqlarning barchasi uchun mushtarak lisoniy mulkdır. Bu so‘zlar turkiy oilaga mansub barcha tillarda mavjud va ishlataladi. Ular turkiy tillar leksikasining eng qadimiy so‘zlari hisoblanadi. Turkiy oiladagi barcha tillar uchun mushtarak bo‘lgan bu so‘zlar guruhini *umumturkiy so‘zlar* deb yuritiladi.

O‘zbek tili leksikasidagi umumturkiy so‘zlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga xos tushunchalarni bildiradi. Bu xususiyatni ularning tematik guruhlari orqali ham sezish mumkin. Masalan, ot turkumiga oid umumturkiy so‘zlar tematik jihatdan quyidagicha guruhlanadi:

1) qarindoshlik va yaqinlik ma’nolarini bildiradi: *ota, ona, bola, o‘g‘il, qiz, og‘a, ini, er, kelin, quda, xotin, qaynota, uka, opa, singil* va b.;

2) odam gavdasi a’zolari: *bosh, ko‘z, qulog, tish, til, og‘iz, burun, qo‘l, oyoq, soch, yelka, bel, tiz, bo‘g‘iz, tirsak, barmoq, tirnoq, qosh, bo‘y, yuz, bo‘yin* va b.;

3) hayvon, parranda va mayda mavjudotlar: *ot, tuya, qo‘y, echki, sigir, buzoq, buqa, ho‘kiz, kiyik, xachir, ayiq, bo‘ri, it, tulki, qush,*

*tovuq, qarg'a, quzg'un, g'oz, o'rdak, lochin, turna, ari, chumoli, baqa, ilon, qumursqa, qurbaqa, toshbaqa* va b.;

4) dehqonchilik va bog'dorchilikka oid so'zlar: *bug'doy, arpa, tariq, tarvuz, uzum, o'rik, olma, tol, yong'oq, terak* va b.;

5) yer osti boyliklarini bildiruvchi so'zlar: *temir, oltin, kumush, olmos, cho yan, qalay, qo'rg'oshin* va b.;

6) uy-ro'zg'or buyumlari nomi: *o'roq, bolta, qozon, tovoq, qoshiq, cho'mich, pichoq* va b.

O'zbek tili leksikasining umumturkiy so'zlar qatlamida sifat, ravish, son, olmosh, fe'l, undov va taqlidiy so'zlar turkumiga mansub lug'aviy birliklar ham mavjud: *oq, qizil, qora, sariq, ko'k, yashil, quruq, ho'l, kichik, qalin, uzun, qisqa, yaxshi, yomon; oz, ortiq, erta, kech, yozin, qishin; bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming; men, sen, u, biz, siz, kim, nima, shu, kimdir, allaqanday, nimadir; bor, kel, ol, ber, yur, tur, o'tir, ayt, o'qi, ishla, eg, berkit; oh, uh, hayt, chuh, tu-tu, milt-milt, tisir-tisir* va b.

Shuni alohida qayd etish zarurki, umumturkiy qatlamga xos so'zlar hozirgi turkiy tillarda, ularning o'z lisoniy qonun-qoidalariga muvofiq, fonetik va semantik jihatlardan o'zaro farq qilishi ham mumkin. Masalan, o'zbek tilida *bosh, tish, bug'doy, temir, tog'* singari lug'aviy birliklar qozoq tilida *bas, tis, biday, temir, tau*; tatar tilida *bash, tesh, boday, timer, tau* shakllarida rasmiylashgan.

O'zbek tilida “*chopon*” ma'nosidagi *to'n, ochqich*” ma'nosidagi *kalit*, “*xizmatkor*” ma'nosidagi *malay*, “*sut beradigan qoramol*” ma'nosidagi *sigir*, “*olov tufayli hosil bo'ladigan gazsimon narsa*” ma'nosidagi *tutun*, “*nonning qum shaklidagi maydalangani*” ma'nosidagi *ushoq* so'zlari ozarbayjon tilida “*ko'ylak* (don), “*qulf*” (kilid), “*bola*” (malay), “*umuman shoxli mol*” (so'go'r), “*tomaki*” (tutun), “*yosh bola*” (ushag) ma'nolarini ifodalaydi.

**O'zbekcha so'zlar.** O'zbekcha so'zlar o'zbek tili leksikasining o'zigagina qarashli bo'lgan lug'aviy birliklardir. Bunday so'zlar o'zbek tilining umumiyl turkiy genezisdan mustaqil jamoa tili sifatida

ajrab chiqqandan keyin paydo bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishiga o‘zbek tili rivojlanishining ichki omillari sabab bo‘lgan. O‘zbekcha leksik qatlam o‘zbek tilining o‘z so‘zlaridan iborat bo‘ladi. U o‘zbek etnik jamoasining mustaqil elat bo‘lib shakllangandan hozirgacha paydo bo‘lgan lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi. Ularning tizimida boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar mavjud emas. Shu bilan bir qatorda, o‘zbekcha so‘zlar o‘zbek tili leksikasidagi umumturkiy qatlam lug‘aviy birliklariga qarama-qarshi turmaydi. O‘zbekcha so‘zlar ana shu umumiylug‘aviy lisoniy bazadan ajralib chiqqan.

O‘zbekcha so‘zlarning aksariyati o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida yasalgan lug‘aviy birliklardir. Bu jarayon bir qator ko‘rinishlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, o‘zbek tilining o‘ziga xos lug‘aviy birliklari tub turkiy so‘zlardan so‘z yasashning affiksatsiya (*yurtdosh, eldosh, qo‘ldosh, tildosh; qo‘schi, tilchi, terimchi; otalik, onalik, tiklik, zichlik; tutqich, ayirg‘ich, ushlagich, ko‘rsatkich; chidam, o‘lcham, o‘rim, yig‘im; kechik, kesik, bekik; suzma, o‘sma; tepki, turtki, sirtqi, tashqi; yoqimli, suyukli, o‘timli; uzluksiz, o‘timsiz; kuyinchak, erinchak; ishonch, yupanch, quvonch; yopiq, ochiq, tilik, yo‘rgak; otlan, uymalan; tiklash, belgilash; changimoq, qavimoq, alahsimoq* va b.), sintaktik va leksik-semantik (*ituzum, ichiqora, tilyog‘lama, o‘nboshi, yuzboshi, bodomgul, oshqozon* va b.) usullari yordamida hosil qilingan. Bulardan tashqari, boshqa tillardan o‘zlashgan lug‘aviy birliklarga o‘zbekcha; umumturkiy va o‘zbekcha so‘zlarga tojikcha-forscha affikslar hamda o‘zaklarni qo‘sish orqali ham o‘z qatlamning o‘zbekcha so‘zlar qatلامи hosil qilingan: *zamondosh, jondosh, ohangdosh; nodonlarcha, beburdlarcha; konchilik; taqdirdosh, taqdirlash; kirsovun, bo‘yintumor, insonsevar, havorang, sofdil, gulbozor, kosagul* va b.

O‘zbek tili lug‘at tarkibida arab va tojik-fors tillaridan o‘zlashgan ko‘plab lug‘aviy birliklar mavjudki, ular o‘zbek tiliga uning o‘z qatlam lug‘aviy birliklari darajasida singishib ketgan. Bunday lug‘aviy birliklarning o‘z qatlamga yoki o‘zlashgan qatlamga xos lisoniy belgilari xiralashib, sezilmas holga kelib qolgan.

Ayimlarining chetdan kirganlik belgisi mutlaqo unutilgan. Masalan, *bajarmoq* (tojik tilidagi “*ba jo ovardan*” birikmasi o‘zbek tilida shu shaklga kirib, ommalashgan) fe’lining forscha-tojikcha ekanligi hatto til ilmi mutaxassislarida ham shubha paydo qilishi aniq. Lekin, shunga qaramay, hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘z qatlam lug‘aviy birliklarini unga o‘zlashib singishib ketgan chet so‘zlar qatlamidan farqlash imkoniyati yo‘q emas. O‘z qatlamga xos lug‘aviy birliklar quyidagi lisoniy belgi va xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- 1) o‘z qatlam so‘zlar odatda konkret tushunchalarni ataydi, o‘zlashgan qatlam lug‘aviy birliklari esa ko‘proq mavhum tushunchalarni bildiradi;
- 2) o‘z qatlam lug‘aviy birliklari bir bo‘g‘inli, ayrim kam uchraydigan ko‘rinishlari esa ikki va uch bo‘g‘inli bo‘ladi: bir bo‘g‘inli lug‘aviy birliklar fonetik jihatdan “undosh/unli/undosh” (*ko‘z, qiz*), “unli/undosh” (*uch, uy, ur, ek, el, or*), “undosh/unli” (*ye,*) qurilishida uchraydi;
- 3) o‘z qatlam lug‘aviy birliklari *r*, *l*, *v*, *h* fonemalari bilan boshlanmaydi;
- 4) nominativ xarakterdagи lug‘aviy birliklar (undov va taqlid so‘zlar bundan mustasno) fonetik qurilishida *j* oraliq, *h* bo‘g‘iz undoshlari ishtirok etmaydi;
- 5) lug‘aviy birliklar *e*, *o‘* unlilari bilan tugamaydi (undov va taqlid so‘zlar bundan mustasno);
- 6) so‘z tarkibining o‘rta bo‘g‘inlari unli fonemalar bilan boshlanmaydi;
- 7) so‘zning bosh va oxirgi bo‘g‘inlarida undoshlar qator kelmaydi (*ost, ust* so‘zlar bundan mustasno);
- 8) o‘z qatlam lug‘aviy birliklarida urg‘u so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

Xullas, o‘zbek tili leksikasining o‘z qatlamga qarashli lug‘aviy birliklari ham, o‘zlashgan qatlamga qarashli lug‘aviy birliklari ham bir qator o‘ziga xos lisoniy xususiyatlariga ega bo‘ladi.

## So‘z o‘zlashtirish

So‘z o‘zlashtirish deganda, o‘zga til lug‘aviy birliklarining boshqa til leksikasiga o‘tish usullari va ularning xarakteri tushuniladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibida, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, boshqa tillardan o‘zlashgan lug‘aviy birliklar miqdori anchagina. Ular arab, tojik-fors, rus va boshqa tillardan o‘zbek tiliga o‘tgan.

O‘zga til lug‘aviy birliklarining boshqa bir til tomonidan qabul qilinishi *so‘z o‘zlashtirish* deyiladi. So‘z o‘zlashtirishning ikki asosiy usuli mavjud: 1) o‘zicha olish; 2) kalka usulida (kalkalab) olish.

***O‘zicha olish.*** So‘z o‘zlashtirishning ***o‘zicha olish usulida*** o‘zga tilning lug‘aviy birligi o‘z tilda qanday fonetik va morfem qiyofaga ega bo‘lsa, boshqa tilga ham, hech o‘zgarishsiz, o‘shanday yoki qisman fonetik o‘zgartish bilan qabul qilinadi. Masalan, davlat, hukumat, vazir, zulm, iste’fo, majlis, qaror, adib, adabiyot, falsafa, faylasuf va h.k. arabcha; devor, paxta, darvoza, shisha, pul, gavhar, vijdon, baho, sarmoya va h.k. tojikcha-forscha; diktatura, ekonomika, reforma, gazeta, jurnal, doska, ruchka, parta, kabinet, bank va h.k. ruscha so‘zlar o‘zbek tiliga so‘z o‘zlashtirishning ana shu usuli orqali qabul qilingan.

Boshqa tillardan lug‘aviy birliklarning o‘zicha o‘zlashuvi ikki ko‘rinishda amal qiladi: a) bevosita o‘zlashish; b) bilvosita o‘zlashish. Boshqa til lug‘aviy birliklari bevosita o‘zlashganda, bir tildan boshqa tilga uning so‘zları to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘taveradi. Bilvosita o‘zlashganda esa, chet so‘zlarning boshqa bir tilga o‘tishida uchinchi bir til vosita vazifasini o‘taydi: o‘zlashayotgan lug‘aviy birlik vosita bo‘lgan tilga tegishli bo‘lmaydi, u shu til lug‘at tarkibining o‘zlashgan qatlamiga mansub bo‘ladi. Bunga misol tariqasida o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi ko‘plab arab lug‘aviy o‘zlashmalarini keltirish mumkin. Ular o‘zbek tiliga tojik-fors tili orqali o‘zlashgan. Shuningdek, Yevropaning ko‘pgina xalqlari tillariga mansub lug‘aviy birliklar ham o‘zbek tiliga rus tili orqali bilvosita o‘zlashgan. Masalan, grekcha

*dalekt, kafedra, logika, grammatika, fonetika; lotincha avtor, ekzamen, student, auditoriya, rektor, dekan; polyakcha polkovnik, rota, metrika; nemischa vaxta, soldat, ofitser, shtab; fransuzcha drap, triko, kabinet, avans, repertuar; inglizcha vokzal, tramvay, klub, futbol, boks; italyancha balerina, opera, karnaval, balkon* va h.k. lug‘aviy birliklar o‘zbek tiliga rus tilidan bilvosita o‘tgan.

So‘zlarning boshqa tillardan o‘zicha o‘zlashishida til jamoasining siyosiy tuzumi va uning mafkurasi ham muhim rol o‘ynaydi. Chunonchi, sobiq sho‘rolar davrida o‘zbek tili leksikasida asrlar osha qo‘llanib, sayqal topgan va ommalashgan arab hamda forstojik lug‘aviy birliklari iste’moliga chek qo‘yilib, ular o‘sha davr siyosiy tuzumi va mafkurasiga mos keluvchi rus-baynalmilal lug‘aviy muqobilari bilan almashtirilgan edi. Masalan, *sho‘ro o‘rniga sovet, talaba o‘rniga student, shakl o‘rniga forma, g‘oya o‘rniga ideya, fuqaro o‘rniga grajdani(in), ijtimoiy o‘rniga sotsial, hujum o‘rniga ataka, vakil o‘rniga delegat, anjuman o‘rniga syezd // konferensiya, jamoa o‘rniga kollektiv* kabi so‘zlar tiklanib, ularning iste’moli uchun sharoit yaratish harakati bo‘lgandi. Sovetlar Ittifoqi barham topgach, uning mafkurasi ham yo‘qqa chiqdi, O‘rta Osiyo respublikalarida mustaqil davlatlar tashkil topdi. Endi qariyb chorak kam asr imtiyozli iste’molda bo‘lgan va “soviet-internatsional” lug‘aviy birliklar nomi bilan ajratilgan leksik qatlam birliklari iste’moliga yangi siyosiy tuzum, uning yangi va zamonaviy mafkurasi tomonidan chek qo‘yilmoqda. Muhimi shundaki, hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasida sho‘rolar davrida iste’moliga chek qo‘yilgan *talaba, g‘oya, vakil, anjuman, jamoat, ma’muriyat, ma’naviyat, tahririyat, tahrir, devon, devonboshi, matbaa, rayosat, muharrir, tuman, muammo, nafaqa, tavsiya* va h.k. so‘zlar iste’moliga yana keng va porloq yo‘l ochildi. Bular safini *tuman (rayon), muammo (problema), inqilob (revolyutsiya), qatag‘on (repressiya), dastur (programma), dastgoh (stanok), hudud (territoriya), bichim (format), ramz (simvol), bojaxona (tamojnya), iste’dod (talant), jadval (tablisa), bosqich (instansiya), axborot (informatsiya), zaxira (zapas), mijoz (klient), ta’til (otpuska)*,

*topshiriq* (*nakaz*), *madhiya* (*gimm*), *kafil* (*garant*), *peshlavha* (*viveska*), *me'mor* (*arxitektor*), *dorixona* (*apteka*) singari yana yuzlab qayta tiklangan so'z va atamalar to'ldirib borayotir.

Til taraqqiyotining muayyan bir davrlarida chetdan kirgan so'zlarning iste'moli va ularga til jamoasining munosabati "purizm", "puristik oqim" degan tushunchalar bilan bog'lanadi. "Purizm" (lotincha *purus* "sof" degan ma'noda) chet so'zlarning iste'moli (ishlatilishi) bilan bog'liq ijtimoiy-lisoniy jarayondir. Bu jarayon ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

Agar chetdan o'zlashgan so'zlar til va uning lug'at tarkibiga singishib, til jamoasining har bir a'zosi uchun mushtarak tarzda tushunarli bo'lib, ommalashsa, bu jarayon ijobiy purizm (yoki puristik harakat) hisoblanadi. Bordi-yu, ko'r-ko'rona qabul qilinib, uning iste'molini til jamoasi uchun majbur etilsa, u salbiy purizm sanaladi. Shuningdek, til va uning jamoasiga singishib, ommalashgan chet til lug'aviy birliklariga qarshi boshlangan harakat ham salbiy xarakterdagi purizm va puristik harakatdir.

**Kalkalab olish.** So'z o'zlashtirishning **kalka usulida** o'zga til lug'aviy birligi o'z tilga tarjima qilinadi. Bu jarayonda o'zlashayotgan lug'aviy birlikning morfem tarkibi yo to'laligicha, yo qisman shu morfem qismlarga muvofiq muqobillar bilan o'giriladi, almashtiriladi. O'zlashayotgan lug'aviy birlik morfemma-morfem tarjima qilinsa, ***to'liq kalka***; morfem qismlaridan biri aynan olinsa, ***qisman kalka*** deyiladi. Qisman kalkaga nisbatan ***yarim kalka***, ***to'liqsiz kalka*** atamalari ham ishlatiladi. Masalan, umumxalq (obshenarodniy), butunittifoq (vsesoyuzniy), urg'u (udareniye), otishma (strelka), qo'shilma (soedineniye), bo'linma (otdeleniye), shanbalik (subbotnik), to'garak (krujok), ish haqi (zarobotnaya plata), temir yo'l (jeleznaya doroga) – ***to'liq kalkalar***; kollektiv xo'jalik (kollektivnoe xozyaystvo), smenachi (smenshik), rekordchi (rekordsmen), zapravkachi (zapravshik), teleko'rsatuv (televizonnoye predstavleniye), tish cho'tka (zubnaya shetka), (fotolavha), go'sht kombinat

(*myasokombinat*), *taksichi* (*taksist*), *kursdosh* (*sokursnik*) va b. – ***qisman kalkalar***.

Kalkalash yo‘li bilan lug‘aviy birliklarning sodda, qo‘shma, birikmali turlari o‘zlashaveradi: *o‘simlik* (*rasteniye*), *avlod* (*pokoleniye*), *ko‘nikma* (*navik*), *urg‘u* (*udarenie*); *ish haqi* (*zarobotnaya plata*), *temir yo‘l* (*jeleznaya doroga*) va b.

Kalka va kalkalashning til sathlariga xos yana ikki ko‘rinishi mavjud: 1) lug‘aviy (yoki leksik) kalka; 2) ma’noviy (yoki semantik) kalka. Lug‘aviy (leksik) kalka orqali fonetik shakllangan so‘z – leksema o‘zlashadi. Yuqorida keltirilgan o‘zlashmalarning barchasi lug‘aviy (leksik) kalkaga misoldir. O‘zga til lug‘aviy materiali so‘z o‘zlashtirayotgan tilga qismma-qism (morfema-morfema) tarjima qilinganligi uchun, kalkaning bu ko‘rinishini *morfologik kalka* yoki *so‘z yasalishi kalkasi* deb ham ataladi.

Ma’noviy kalkada boshqa tilning fonetik shakllangan lug‘aviy birliklari emas, balki til mazmun jabhasiga xos ma’noviy birliklari o‘zlashadi, ***sememalar*** o‘tadi. Boshqa ta’bir bilan aytganda, leksik kalkada muayyan tushuncha va uni ifodalovchi so‘z o‘zlashadi; ma’noviy (semantik) kalkada lisoniy birlik qabul qilayotgan tilda mavjud bo‘lmagan tushuncha boshqa til jamoasidan o‘zlashadi. O‘zlashayotgan ma’no so‘z o‘tayotgan tilning biror-bir leksik birligi zimmasiga tushadi, natijada “*ma’no qabul qilgan*” lug‘aviy birlikning ma’no hajmida kengayish vujudga keladi, so‘zning semantik qurilishi yangi ma’noviy birlik hisobiga kengayadi. Masalan, “*yurmoq*” so‘zi o‘zbek tilida “*oldga qarab harakat yo‘nalishi*” ma’nosini bildirar edi. Rus millatiga mansub vakillar bilan yaqindan tanishish natijasida o‘zbek tiliga ruscha “*xodit*” so‘zining ikki jinsga mansub shaxslarning “*intim munosabati*” ma’nosini kirib keldi va shu ma’noni anglatish “*yurmoq*” so‘zining zimmasiga yuklandi: *Mish-mishlarga qaraganda, bizning uka qo‘sнимизнинг qizi – Mashhura bilan yurarmish* (V.Qodiriy). O‘zbek tilida rus tili ta’sirida *Yer yo‘ldoshi* (*sputnik Zemli*), *yo‘ldosh-kema* (*sputnik-korabl*) singari lug‘aviy birliklar paydo bo‘lganki, ularning “*yo‘ldosh*” qismi o‘zbek tilida oldin

mavjud bo‘lмаган yangi ma’нога ега bo‘лди. Bu rus tilidagi “*sputnik*” so‘zi ifodasidagi ma’нолардан бирини bo‘лб, у ма’новиyl kalka yo‘li bilan o‘zbek tiliga o‘zlashgan.

Kalka yo‘li bilan o‘zbek tiliga asosan rus tili lug‘aviy birliklari o‘zlashgan.

So‘z o‘zlashtirish nutqning yozma va og‘zaki shakllari orqali amalga oshadi. Nutqning yozma shakli orqali o‘zlashganda, chet so‘zlar badiiy va ommabop asarlarni tarjima qilish jarayonida qabul qilinadi.

Lug‘aviy birliklar bir tildan ikkinchi bir tilga nutqning og‘zaki shakli yordamida o‘zlashganda, turli tillarga mansub etnik jamoaning hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jabhalardagi yaqinligi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ayrim lug‘aviy birliklarning tojik tilidan o‘zbek tiliga (*tanur – tandır, ro ‘ba-ro ‘ – ro ‘para, kabutar – kaptar, darboza – darvoza* va b.) o‘zlashuvi ana shu yo‘l bilan amalga oshgan. O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi rus tiliga qarashli *karavot* (*krovat*), *patnis* (*podnos*), *kioska* (*kiosk*), *diska* (*disk*) so‘zlarining o‘zlashuvida ham nutqning og‘zaki shakli vosita bo‘lgan.

## O‘zlashma qatlam

Leksika, ya’ni lug‘at tarkibi til qurilishining asosiy va markaziy sathi hisoblanadi. Leksika va uning boyligi tilning ham boyligidir. Tillar biri boshqasidan o‘z leksikasi bilan farq qiladi. Biroq til leksikasi muayyan bir tilning sof o‘z lug‘aviy birliklaridan tashkil topmaydi. Faqat o‘z so‘zlaridan tarkib topgan leksika ham, til ham yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar majmuasi leksikaning alohida qatlampi tashkil qiladi. Ular o‘zlashma qatlam deyiladi.

Har qanday til leksikasining o‘zlashma qatlami boshqa tillarga xos lug‘aviy birliklarning o‘tib o‘zlashishi jarayonlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayon *so‘z o‘zlashtirish* deyiladi. So‘z o‘zlashtirish muayyan nolisoniy asoslarga tayanadi.

So‘z o‘zlashtirishning yetakchi nolisoniy asosi – bu bir til jamoasining boshqa bir til jamoasi bilan iqtisodiy, siyosiy aloqalaridir. Til, asosan, o‘z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanadi. Shu bilan birga, o‘zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar tufayli chetdan so‘z olish va o‘zlashtirish dunyodagi barcha tillarga xos xususiyatdir. Bu jarayon o‘zbek tili uchun ham begona emas.

O‘zbek tili lug‘at boyligini kuzatish shundan dalolat beradiki, uzoq asrlar davomida tilimizga juda ko‘plab arabcha-forscha so‘zlar kirib kelgan. Bularning katta qismi ilmiy termin darajasiga ham ko‘tarilgan. Bunday so‘z va terminlar o‘zbek tiliga shu darajada singishib ketganki, ularni faqat mutaxassislargina bu so‘z arabcha, bu so‘z forscha deb ajrata oladilar. Masalan, maktab, kitob, giyoh, pul, tandir kabi ko‘plab so‘zlarni oddiy o‘quvchi o‘zbekcha so‘z sifatida asrlar davomida qo‘llab kelmoqda.

O‘zbek tiliga yevropacha so‘zlar oqimining kirib kelishi o‘lkamizning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishidan keyin boshlandi va sobiq sho‘rolar hukmronligi davrida keng avj oldi. Bu hol, ayniqsa, tilimiz lug‘at tarkibidagi terminlar qatlamini kuzatganimizda yaqqol seziladi. Ularning asosiy qismi fan-texnika tili ehtiyojlari orqali kirib keldi. Ushbu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Chunki mustaqillik, istiqlol tufayli O‘zbekiston dunyo hamjamiyatiga qo‘sildi, natijada iqtisodiy va siyosiy aloqalar beqiyos darajada o‘sdi. Bunday aloqalar tufayli o‘zbek tiliga turli zamonaviy tushunchalar va ularning lisoniy ifodalari kirib kelishi tabiiy hol.

Odatda, yangi predmet va u haqidagi tushuncha hamda uni ifoda etuvchi so‘z (nom) biror-bir mamlakatda paydo bo‘ladi. Bu tushuncha va uni anglatuvchi so‘zni boshqa mamlakat fani va amaliyotida qo‘llash zarurati kelib chiqadi. Masalan, 1999-yil may oyi boshida o‘zbekcha kurash bo‘yicha jahon championati bo‘lib o‘tdi. Natijada milliy kurashimizga oid *kurash*, *yonbosh*, *chala*, *halol*, *g‘irrom* kabi tushunchalar va ularning nomi bo‘lmish – atamalar (terminlar) jahon sport terminologiyasiga kirdi. Hozirgi vaqtda turli mamlakatlarda

o‘zbekcha kurash bo‘yicha o‘tkazilayotgan musobaqalarda ana shu o‘zbekcha atamalar qo‘llanmoqda.

Demak, so‘z o‘zlashtirish o‘zaro qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida ham bo‘ladiki, bu so‘z qabul qilgan tilning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasining katta bir qatlamenti boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar tashkil qiladi. Professor M.Mirtojiyev va professor N.Mahmudovlarning yozishiga qaraganda, o‘tgan asr oxirlarida o‘zbek tili leksikasining qirq foizdan sal ortiqrog‘i o‘zlashmalar bo‘lgan. Ularning yigirma olti foizdan ortiqrog‘i rus tilidan o‘zlashgan bo‘lsa, qolgan qismi rus bo‘lmagan boshqa tillardan o‘zlashgan. Boshqa tillarga solishtirilganda, o‘zbek tilida o‘zlashmalar miqdorini ko‘p deb bo‘lmaydi. Masalan, rus va boshqa yevropa tillarida o‘zlashmalar miqdori oltmis foizdan kam emas ekan. (Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992, 39-b.)

Tashqi olam so‘z orqali “elakdan o‘tadi”. Tashqi olamning nomga ehtiyoj paydo qilgan narsa-hodisalari so‘z tomonidan “qidiriladi”, izlanadi. Zero so‘z – til egalarining kollektiv xotirasi, madaniy yodgorligi, ijtimoiy hayotining ko‘zgusi. O‘zlashtirilishi ehtiyojga aylangan lisoniy birliklar, xususan, so‘zlar, bu sifatlardan xoli emas. Ular shu til jamoasining turmush olamiga ochqich, barcha bilimlarga yo‘l ochuvchi kalit vazifasini o‘taydi. Chunki til lug‘at tarkibidagi chet so‘zlar orqali boshqa til jamoasining ijtimoiy hayotiga qarashli narsa-predmetlar, voqealarni ifodalananadi, bora-bora shu so‘zlar atagan tushunchalar ham so‘z o‘zlashgan til jamoasining o‘z ijtimoiy hodisasiga aylanadi. Masalan, “kompyuter” so‘zini olib ko‘raylik. Bu so‘z anglatgan predmet, uning nomi kabi, dastlab o‘zbek til jamoasida bo‘lmagan. Endilikda shu so‘z atagan zamonaviy “mo‘jiza” har bir o‘zbek xonadonida bor, shuningdek, “kompyuter” so‘zi o‘zbek tili lug‘at tarkibining zamonaviy qatlamidan munosib o‘rin olgan.

Bir tildan boshqa bir tilga so‘zlar o‘zicha, biror-bir nolisoniy sabablarsiz, o‘tmaydi va o‘zlashmaydi. Bir tildan boshqa bir tilga lisoniy birliklar o‘zlashishining ijtimoiy sabablari va shart-sharoitlari bo‘ladi, albatta.

Bir tildan boshqa bir tilga, eng avvalo, shu tilda mavjud bo‘lmagan so‘zlar o‘zlashadi. So‘z olayotgan tilda bu so‘zga lisoniy ehtiyoj tug‘iladi. Bu ehtiyoj ijtimoiy hayotda paydo bo‘lgan muayyan bir tushunchani nomlash zarurati tufayli vujudga keladi. Masalan, o‘zbek ijtimoiy hayotida bir vaqtlar *avtomobil*, *poyezd*, *samolyot*, *tramvay*, *trolleybus*, *radio*, *telefon*, *kompyuter* singari madaniy-maishiy turmush ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan zamonaviy naqliyot va axborot vositalari bo‘lmagan. Ana shu hayotiy ehtiyojlar uchun xizmat qiluvchi narsa-predmetlarning o‘zi ham, ularning tushunchasi ham taraqqiy etgan boshqa ijtimoiy jamoalardan o‘z lisoniy shakllari bilan kirib kelgan.

Boshqa tillardan kirib kelgan lug‘aviy birliklar so‘z qabul qilgan tilning fonetik, grammatik va uslubiy qonun-qoidalariga bo‘ysunadi va bora-bora bu tilning o‘z lisoniy boyligi sifatida rasmiylashadi. Aks holda, boshqa tildan o‘tgan so‘zlar so‘z qabul qilgan tilda muqim va mustahkam o‘rnasha olmaydi. Ular til lug‘at tarkibida “chet so‘zlar” guruhini tashkil qiladi.

Boshqa tildan o‘tib, boshqa bir tilning lug‘at tarkibiga singishgan so‘zlarnigina *lug‘aviy o‘zlashmalar* deyiladi. Ular nutqning yozma yoki og‘zaki shakllari orqali kirib keladi. Chin ma’noda o‘zlashgan lug‘aviy birliklar so‘z qabul qilgan tilning lisoniy mulkiga aylanadi, ular bu tilning lug‘atlarida ham qayd etiladi. Chin ma’noda o‘zlashmagan so‘zlar esa bunday lisoniy imkoniyat va imtiyozlarga ega bo‘lolmaydi. Masalan, o‘zbek tilida, to‘g‘rirog‘i, o‘zbek nutqida rus tiliga xos *dom* (*ko‘p qavatli uy*), *xozyain*, *xozyayka*, *semya* singari ayrim lug‘aviy birliklarni tez-tez uchratish mumkin. Lekin ular o‘zbek tiliga o‘zlashmagan va ular o‘zbek adabiy nutqini g‘alizlashtiradi, xolos.

Demak, o'zlashma qatlam o'zbek tili leksikasining boshqa tillardan o'tib, ommalashgan lug'aviy birliklaridan tashkil topadi, ularning umumiy bir majmuasini bildiradi.

O'zlashma qatlam bir til jamoasining boshqa til jamoasi bilan tarixiy-hududiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqa va munosabatlarini lisoniy jabhada in'ikos etuvchi imkoniyatdir.

O'zbek tili leksikasidagi boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar va ularning tizimi ham o'zbek xalqining o'zaro hududdosh va hududdosh bo'limgan boshqa xalqlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy aloqalari asosida paydo bo'lgan va shakllangan.

Tilda o'zlashma so'zlarning bo'lishi ijobiy hodisa. Bu til taraqqiyotini belgilaydi. Zero har qanday til ikki muhim omil asosida rivojlanadi: 1) ichki omil; 2) tashqi omil.

Tilning ichki omil ta'sirida rivojlanishi deyilganda, yangi lug'aviy birliklar shu tilning ichki lisoniy imkoniyatlari zaminida paydo bo'ladi. Bu imkoniyatlarga qo'shimchalar qo'shish, so'zlarni so'zlar bilan qo'shish orqali yangi so'zlarning paydo bo'lishi, so'z ma'nolari hajmining kengayishi, torayishi, so'z ma'no hajmida yangi ma'nolarning paydo bo'lishi singari bir qator lisoniy shart-sharoitlar kiradi.

Til rivojlanishining tashqi omili boshqa tillardan lug'aviy va boshqa lisoniy birliklarning o'zlashishi kabi jarayonlar bilan bog'landi. Til rivojlanishining ichki omili sof lisoniy jarayonlar bilan xarakterlansa, uning tashqi omiliga turli xil nolisoniy jarayonlar sabab bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi ana shu ikki manba – ikki omil asosida shakllangan. O'zbek tili leksikasining shakllanishi va rivojlanishida ichki omilga asoslangan manba yetakchi va hal qiluvchi hisoblansa-da, tashqi omilga asoslangan manbaning ham ta'siri va hissasi ichki omilnikidan kam emas.

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi taraqqiyotining tashqi omili deyilganda, uning boshqa tillardan o'zlashgan lug'aviy birliklar hisobiga boyishi tushuniladi. Boshqa tillardan o'zlashgan

so‘zlarning barchasi, ya’ni ularning majmuasi hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasining *o‘zlashma qatlam* deb ataluvchi qismini tashkil qiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasining o‘zlashma qatlami quyidagi guruhlardan tarkib topgan: 1) tojik-fors lug‘aviy o‘zlashmalar; 2) arab lug‘aviy o‘zlashmalar; 3) rus tili va rus tili vositasida o‘zlashgan lug‘aviy birliklar.

### **Tojik-fors lug‘aviy o‘zlashmalar**

O‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan lug‘aviy birliklar o‘ziga xos nolisoniy asoslarga ega. Bu nolisoniy asos asrlar osha bir hududda og‘a-inilarcha yashab kelayotgan o‘zbek va tojik xalqlarining mushtarak ijtimoiy taqdiri bilan bog‘lanadi. Bu ikki xalqning turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoiti, diniy va axloqiy e’tiqodi, madaniyati, ma’naviy va ruhiy olami biri boshqasidan farq qilmaydi. Bularning barchasi ularning tillarida ham o‘z ta’sir kuchiga ega. Shu bois o‘zbek tili lug‘at tarkibida forscha-tojikcha, tojik tili lug‘at tarkibida o‘zbekcha-turkcha lug‘aviy birliklar ko‘p miqdorda uchraydi. Zero til va uning markaziy birligi bo‘lmish so‘zlar orqali ijtimoiy va tabiiy hayotdagi barcha narsa-hodisalar va ularning o‘zaro munosabatlari in’ikos etiladi.

Hozirgi o‘zbek tili leksikasida tojik-fors lug‘aviy birliklarining ko‘plab miqdorda uchrashi o‘zbek va tojik til kontakti va uning amali bilan bog‘lanadi. Til kontakti atamasi “bevosita aloqa, bevosita bog‘lanish” ma’nolarini bildiradi. Bunday aloqa va bog‘lanishga ikki tillilik (bilingvism) vaziyati asos bo‘ladi. O‘zbek va tojik ikki tilliligida til kontaktlarining proksimal deb ataluvchi ko‘rinishi amal qilgan. Proksimal kontaktda ikki har xil til jamoasiga mansub shaxslar o‘zaro aloqadagi har ikki tilda bemalol so‘zlasha oladilar. Ana shunday til vaziyati o‘zbek tilida tojik-fors so‘zlarining, tojik tilida o‘zbek-turk so‘zlarining faol o‘zlashishi va ommalashishiga sabab bo‘lgan.

Ba'zi til donishmandlarining to'g'ri e'tirof etishlariga ko'ra, fors-tojik tillarining sharq xalqlari tiliga ta'siri fransuz tilining g'arb xalqlari tiliga bo'lgan ta'siridan kam emas. Shuningdek, fransuz tilining mavqeい G'arbda qanday e'tibor qozongan bo'lsa, fors tillarining Sharqdagi mavqeい ham o'shanday buyukdir.

Tojik-fors so'zлари, ayniqsa, o'zbek tili leksikasida alohida salmoqqa egaki, bu xususiyat boshqa turkiy xalqlar leksikasi uchun xarakterli emas. Shu sababdan bo'lsa kerak, o'zbek tili leksikasi va uning o'zlashma so'zлар qatlami tatar, qozoq, turkman, qoraqalpoq, boshqird, ozorbayjon, qirg'iz va boshqa turkiy tillar leksikasi va ularning o'zlashgan so'zлар qatlamidan miqdor va sifat jihatdan tubdan farq qiladi.

Tojik-fors lug'aviy birliklari o'zbek tiliga nutqning ham yozma, ham og'zaki shakllari orqali o'zlashgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasidagi tojik-fors lug'aviy birliklari turli xil mavzuiy (tematik) guruhlarga mansubdir. Bu tematik guruhlarga quyidagilar kiradi.

1. Binokorlik va maishiy turmushga oid so'z va atamalar: poydevor, devor, paxsa, darvoza; ganj, ship, ohak, mix, shisha, narvon, zina, palos, panjara; dasturxon, parda, xokandoz, yakandoz, borkash, obdasta, xum, chiroq, gugurt, poyondoz, g'alvir, kapkir, nondon va b.

2. Diniy-mifologik tushunchalarni bildiruvchi so'z va atamalar: bihisht, payg'ambar, xudo, parvardigor, ro'za, salla, par, pari, pokiza, bomdod, peshin, shom, xuftan, namoz, joynamoz.

3. Hayvonot va parrandalar olamiga oid so'zлар: sher, jonivor, fil, nor, bulbul, kaptar, zog'cha, bedana, pashsha, parvona va b.

4. O'simlik va uning qismlarini bildiruvchi so'zлар: daraxt, chinor, gilos, anjir, paxta, mosh, no'xat, tok, poliz, piyoz, sabzi, shalg'am, sholi, don, shox, buta, bodom, meva, shaftoli, olxo'ri, gul, barg, tarvuz, turp, murch, kanop, zig'ir va b.

5. Yil, fasl, oy, hafta nomlarini bildiruvchi so‘zlar: navro‘z, chilla, saraton, bahor, hafta, yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba va b.

6. Musiqa va san’at sohasiga oid so‘zlar: soz, g‘ijjak, karnay, nay, rubob, tor, dutor, sozanda, tarona, ohang, bastakor, shashmaqom, dugoh va b.

7. Gavda va uning a’zolari nomini bildiruvchi so‘zlar: tana, gardan, jigar, dil, lab, peshona, panja va b.

8. Gazlama va kiyim nomlari: adres, atlas, movut, shoyi, beqasam, doka, sarpo, yaktak, chok, paytava, dakana va b.

9. Qarindoshlik ma’nosini bildiruvchi so‘zlar: nabira, birodar, padar, farzand, amaki va b.

10. Mayhum hodisa va tushunchalarni bildiruvchi so‘zlar: obro‘, baho, gunoh, gumon, hunar, pushaymon, mehr, andisha, armon, orzu, shodon, xunob, xirad, xor, andaza va b.

11. Savdo-sotiq sohasiga oid so‘z va atamalar: savdo, pul, rasta, sarmoya, daromad, xarid, xaridor va b.

12. Shirinlik va taom nomlari: shira, talh, sho‘r, novvot, qand, non, shirgurunch, asal va b.

13. Shaxs ma’nosini bildiruvchi so‘zlar: do‘st, oshna, yor, g‘allakor, dushman, mardikor, sarkarda va b.

14. Qimmatbaho tosh va bezak ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar: gavhar, feruza, yoqut, tilla va b.

15. Narsa va o‘rin-joy nomlari: parda, ro‘znama, gumbaz, guzar, choh va b.

Keltirilgan mavzuiy guruhlardan ham sezilayaptiki, tojik-fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan lug‘aviy birliklarning aksariyati ot turkumiga mansubdir. Miqdori nisbatan kam bo‘lsa-da, o‘zbek tiliga tojik-fors tilidan sifat (*pok*, *pokiza*, *toza*, *vazmin*, *shod*, *xurram*, *xursand*, *yakka*, *mayda*, *sust*, *soxta*, *arzon*, *sof*, *mard*, *nodan*, *puxta*, *puch*, *xomush*, *xira*, *dag‘al* va b.), olmosh (*hamma*, *hech*, *kim* va b.), ravish (*kam*, *tez*, *hamon*, *asta*, *hanuz* va b.) turkumlariga xos lug‘aviy birliklar ham o‘zlashgan. Bunday lug‘aviy o‘zlashmalar yordamchi

so‘z turkumlari doirasida ham uchraydi. *Balki, zero, chunonchi, agar, garchi, magar, yoxud, na, toki* shular jumlasiga kiradi.

O‘zbek tili lug‘at tarkibiga mansub tojik-fors so‘zlarining ko‘pi o‘zbek tilining o‘z so‘zлari kabi singishib ketgan. Ayrimlari iste’molining faollashuvi natijasida ularning turkiy muqobillari o‘zbek tili lug‘at tarkibidan chetlashgan. Masalan, umumturkiy xarakterdagи *kirpitch, ayva, utyug, dudoq* singari lug‘aviy birliklar barham topib, ularning ommalashgan o‘rnini *g‘isht, behi, dazmol, lab* singari tojikcha-forscha so‘zlar egallagan.

O‘zbek tili leksikasidagi o‘z qatlamga xos *yaproq, og‘och, chechak, yemish, qopqa, og‘u, aqcha, et, manglay, qo‘noq, yov* singari lug‘aviy birliklar ularning tojik-fors tilidan o‘zlashgan *barg, daraxt, gul, meva, darvoza, zahar, pul, go‘sht, peshona, mehmon, dushman* muqobillari evaziga boshqa uslubiy qiymat kasb etgan, ishlatilishi badiiy uslubga moyillashgan. Masalan,

*Og‘ochlarda sadaf yaproqlar,*

Ko‘ngillarga nishta taqadi (Uyg‘un). Yoki:

Bahor kulib, *chechaklar* sochmish,

Qiz qalbi gul ekan, *yaproqlar* sochmish (Uyg‘un).

Tojik-fors lug‘aviy o‘zlashmalarining ayrimlari o‘zbek tilida ma’no torayishi, yoki ma’no o‘zgarishiga uchragan. Masalan, tojik tilida *sovuj, salqin, yoqimsiz* ma’nolarida ishlatiluvchi **xunuk** so‘zi o‘zbek tilida “chiroyi yo‘q”, “ko‘rimsiz” ma’nolarinigina bildiradi. Tojikcha-forscha ba’zi so‘zlar zid ma’nolar ham kasb etgan. Masalan, tojik tilida *pishgan, tayyor, toza pishgan* ma’nosida ommalashgan *dumbul* so‘zi o‘zbek tilida, aksinch, “*toza pishmagan, yetilmagan*” ma’nosini kasb etgan. Bundan tashqari, “aqli u qadar me’yorda bo‘lmagan” shaxslarga nisbatan ham ishlatiladi. Misollarga e’tibor bering: *Hali dumbul shaftolilarning shoxlari yerda (Oybek); Yusufbek hoji chala dumbul tabiatli xotinining fe’lini yaxshi bilgani uchun, kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishini lozim topdi* (A.Qodiriy).

Tojik-fors tili o‘zbek adabiy tilining morfem va so‘z yasalishi tizimining shakllanishi va rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Bu tildan o‘zbek tiliga bir necha minglab lug‘aviy birliklardan tashqari, yangi so‘zlar yasalishida yasovchi vosita vazifasini bajaruvchi affiksal birliklar ham o‘zlashgan. Ular o‘zbek tilining o‘z yasovchi vositalari hukmida affiksal va noaffiksal so‘z yasalishi jarayonlarida faol ishtirok etadi. O‘zbek tilining o‘z va o‘zlashgan qatlamiga qarashli lug‘aviy birliklarga qo‘silib, ulardan yangi lug‘aviy birliklar yasaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibini so‘z yasalishi jarayonlarida faol ishtirok etib, yangi lug‘aviy birliklar hosil qilgan bunday vositalarga -zor (*o‘tzor, o‘rikzor, to‘qayzor* va b.), -don (*suvdon, kuldon, tuzdon, takdon* va b.), -dor (*unumdor, chiqimdor, yerdor, puldor* va b.), -vor (*ulug‘vor, tantanavor*), -kor//gar-/-kar (*paxtakor, sholikor, sitamgar, o‘ymakor* va b.), -soz (*uysoz, yo‘lsoz, kemasoz* va b.), -boz (*qushboz, o‘yinboz*), -do‘z (*etikdo‘z, yo‘rmado‘z*), -kash (*tuyakash, chizmakash, dilkash*), -bop (*ishbop, oshbop, ko‘ylakbop*), -xo‘r (*oshxo‘r, yemxo‘r, tekinoxo‘r*), -paz (*oshpaz, somsapaz*), be- (*bebosh, beiz, beto‘xtov*), no- (*notekis, nosog‘, nojins*), ser- (*sersuv, sero‘t, serbutoq*), nim- (*nimjon, nimrang*), kam- (*kamunum, kamsuv, kamgap*), ham- (*hamyurt, hamtovoq, hamsuhbat*), xush- (*xushbichim, xushyoqar, xushqiliq*) kabi o‘nlab suffiks, prefiks, suffiksoid va prefiksoidlar kiradi.

### **Arab lug‘aviy o‘zlashmaları**

Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasining o‘zlashgan qatlamida arab tilidan o‘tgan lug‘aviy birliklarning salmog‘i fors-tojik tilinikidan kam emas. O‘zbek tili leksikasidagi arab lug‘aviy qatlamining paydo bo‘lishi va shakllanishi ham o‘z nolisoniy asoslariiga ega. Bu nolisoniy asos arablarning Markaziy Osiyoni zabit etishi hamda islom dinining keng yoyilishi bilan ko‘proq aloqadordir. Arablarning O‘rta Osiyoni zabit etishi VIII asrga borib taqaladi. Shu davrdan boshlab bu o‘lkalarga islom dini ham keng tarqala boshladi. Arab tili davlat tili

maqomida hukmronlik qildi: ilmiy va badiiy asarlar arab tilida yoziladigan bo'ldi. Ana shunday ijtimoiy sharoit o'zbek tili leksikasida ko'plab arab lug'aviy o'zlashmalarining paydo bo'lishi va amaliga sabab bo'ldi. Darhaqiqat, o'zbek tili leksikasida arab lug'aviy o'zlashmalaridan iborat o'ziga xos va alohida qatlama shakllandi.

O'zbek tiliga arab tili faqat din tili, islom tili sifatida emas, balki fan tili, rasmiy idoraviy uslub tili, badiiy adabiyot tili sifatida o'zlashgan. Shu bois ham arab lug'aviy o'zlashmalarini o'zbek ijtimoiy hayotiga daxldor deyarli barcha asosiy tushunchalarni ifodalashdek keng ko'lamga ega bo'ldi. Ularning bu ko'lamenti quyidagi tematik guruh va to'dalardan ham bilish mumkin.

1. Davlat boshqaruvi, siyosiy hayot va huquqqa oid lug'aviy birliklar: *davlat, hukumat, hokimiyat, amal, vakil, vakolat, inqilob, harakat, viloyat, islohot, ittifoq, vatan, millat, istibdod, tasnif, zulm, zolim, iste'fo, ma'muriyat, idora, istilo, majlis, qaror, rais, siyosat, huquq,adolat, hokim, mahkama, hukm, davo, nikoh, hayit, arafa* va b.

2. Harbiy hayot va unga daxldor lug'aviy birliklar: *xuruj, hujum, mudofaa, harbiy, istehkom, talofat, jous* va b.

3. Sanoat va kasb-hunarga oid lug'aviy birliklar: *sanoat, kasb, kosib, hunar* va b.

4. Adabiyot va san'atga doir lug'aviy birliklar: *adabiyot, badiiy, misra, hijo, uslub, xattot, xat, she'r, shoir, mushoira, mavlono, hikoya, qissa, maqol, maqola, nazm, nasr, ruboiy, masnaviy, g'azal, vazn, aruz, qofiya, xamsa, san'at, naqsh, naqqosh, rasm, raqs, raqqosa, surat, tasvir* va b.

5. Ilm-fanga doir lug'aviy birliklar: *fan, ilm, ta'limot, amaliyot, nazariya, ijtimoiyat, tabiiyat, kimyo, falsafa, hisob, shimol, janub, g'arb, sharq* va b.

6. Ta'lim va tarbiyaga doir lug'aviy birliklar: *maktab, kitob, qalam, muallim, alifbe, harf, dars, imlo, savod, insho, lug'at, imtihon, davomat, tarbiya, ta'lim, xulq, axloq, tartib, intizom* va b.

7. Nashr va shunga doir lug‘aviy birliklar: *matbaa*, *matbuot*, *nashr*, *nashriyot*, *matbuot*, *muharrir*, *muxbir*, *tahrir*, *xabar*, *axborot*, *taqriz*, *tarjima*, *tarjimon* va b.

8. Oila va qarindoshlik tushunchalariga oid lug‘aviy birliklar: *oila*, *ayol*, *amaki*, *amma*, *xola*, *volda*, *ajdod*, *avlod* va b.

Bulardan tashqari, kundalik hayotimizda faol ishlatiluvchi *havo*, *shart*, *sharoit*, *hol*, *ahvol*, *hurmat*, *savol*, *javob* kabi ot turkumiga; *oddiy*, *moddiy*, *sun’iy*, *tabiiy*, *sokin* kabi sifat turkumiga; *qariyb*, *va*, *ammo* singari yordamchi so‘zlar turkumiga mansub so‘zlar ham arab tilidan o‘zlashgan.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasidagi arab lug‘aviy o‘zlashmalarining ko‘pi arab tilining o‘zidan bevosita o‘zlashgan bo‘lsa, ularning ma’lum bir qismi tojik-fors tili orqali bavosita o‘zlashgan. Bunday lug‘aviy birliklarning morfem tarkibida tojik-fors tiliga qarashli unsurlar ham yo‘q emas: *darhaqiqat*, *darhol*, *baquvvat*, *badavlat*, *g‘amxo‘r*, *havaskor*, *mansabdor*, *mulkdor*, *nohaq* va b. Tojik-fors tili orqali o‘tgan ayrim arabcha so‘zlar o‘zbek tiliga tojik tilida hosil bo‘lgan ma’nosи bilan o‘zlashgan. Masalan, arab tilida “katta”, “qo‘pol”, “qattiq” ma’nolarini bildiruvchi *g‘aliz* so‘zi tojik tilida “qalin”, “zich”, “tushunilishi qiyin” ma’nolarini kasb etgan. Bu so‘z o‘zbek tiliga ham keyingi ma’nosи bilan o‘zlashgan: *g‘aliz tilda yozilgan asar*, *g‘aliz jumla*, *g‘aliz fikr* kabi.

## Rus va sovet-baynalmilal lug‘aviy o‘zlashmalari

Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibining o‘zlashma qatlamida rus tilidan va rus tili orqali boshqa ovrupo xalqlari tillaridan o‘zlashgan lug‘aviy birliklar ham kam emas. O‘zbek tili lug‘at tarkibiga rus tili so‘zlarining o‘zlashishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lsa, bu jarayon, ayniqsa, Oktabr inqilobidan so‘ng nihoyatda faollashgan. Milliy o‘lkalarda Sho‘rolar Ittifoqining o‘rnatalishi, sho‘rolar mafkurasining keng quloch yozgan tazyiqi, boshqa xalqlar tillarida aks etganidek, o‘zbek tilida ham o‘z in’ikosini

topdi. O‘zbek tili lug‘at tarkibida rus tiliga oid so‘zlar miqdori kun sayin osha boshladi. Natijada o‘zbek tili leksikasida rus tilidan va rus tili orqali boshqa ovrupo tillaridan o‘tgan so‘zlar qatlami shakllandi. Bu qatlamga qarashli lug‘aviy birliklarni quyidagi tematik guruhlarda ko‘rish mumkin.

1. Ijtimoiy-siyosiy hayotga doir atamalar: *kommunist, partiya, byuro, demokratiya, diktatura, internatsional, komitet, kommunizm, marksizm, leninizm, proletariat, progress, revolyutsiya, reforma, sovet, sotsializm, ekonomika, syezd, direktiva* va b.
2. Sanoatga doir atamalar: *industriya, metallurgiya, prokat, neft, elektr, energetika, stanok, sement, flot, transport, samolyot, tramvay* va b.
3. Qishloq xo‘jaligiga oid atamalar: *agronom, agrotexnika, kombayn, traktor, plug, seyalka, okuchnik, kolxoz, brigada, zveno, pravleniye, irrigatsiya, melioratsiya* va b.
4. Maktab-maorif va san’atga doir: *konsert, teatr, shashka, klub, populyar, gazeta, jurnal, orkestr, xor, kurort, sanatoriya, kino, pyesa, drama, opera, obraz, poeziya, muzika, kompozitor, film, kantata, royal, pianino* va b.
5. Fan va texnikaga doir: *akademiya, alfavit, anorganik, arxeologiya, arxitektura, biologiya, botanika, geologiya, grammatika, plyus, minus, gradus, dialektika, induksiya, institut, materializm, teorema, fizika, agregat, generator, konveyer* va b.
6. Harbiy soha, jismoniy tarbiya va sportga doir: *admiral, general, gvardiya, batalon, ofitser, leytenant, komandir, mayor, kapitan, granata, okop, shturm, sport, fizkultura, voleybol, futbol, basketbol, gimnastika, start* va b.
7. Savdo va moliya sohasiga doir: *magazin, gastronom, assortiment, bufet, latok, selpo, yarmarka, bank, kredit, vedomost, ssuda, rentabel* va b.
8. Qurilish va obodonchilikka doir: *park, shifer, trotuar, asfalt, kanal, vodoprovod, artezian* va b.

9. Oziq-ovqat, kiyim-kechak va ro‘zg‘or buyumlari: *bulka, konfet, morojenoye, konserva, pechene, pivo, vino, kostyum, palto, botinka, galstuk, tarelka, vilka, vaza, grafin, etajerka, shkaf* va b.

Bu keltirilgan lug‘aviy birliklardan tashqari, rus tilidan kalkalash yo‘li bilan ham *shanbalik* (*subbotnik*), *izchillik* (*posledovatelnost*), *beshyillik* (*pyatiletka*), *uchburchak* (*trexugolnik*), *temir yo‘l* (*jeleznaya doroga*), *ko‘rgazma* (*vistavka*), *so‘z boshi* (*predisloviye*), *to‘garak* (*krujok*) singari bir necha o‘nlab yangi lug‘aviy birliklar hosil qilindi.

O‘zbek tili lug‘at tarkibiga rus tili orqali o‘zlashgan so‘zlarining ko‘pi aslida Yevropaning turli xalqlari tillariga mansub lug‘aviy birliklardir. Masalan, *alfavit, dialekt, ironiya, kafedra, leksikon, magistr, metall, muzey, organ, magnit, sintaksis, xor, komediya, tragediya, fizika, logika, grammatika, gigant, fonar, lenta, filosofiya, psixologiya* va boshqalar **yunon**; *deputat, delegat, rektor, dekan, formula, respublika, laboratoriya* va boshqalar **lotin**; *orden, soldat, shtamp, shifer, kran, format, farsh, galstuk* va boshqalar **nemis**; *kostyum, palto, etaj, mebel, bufet, kabinet, abajur, kotlet, marmaled, kompot, krem, kapitan, general, leytenant, flot* va boshqalar **fransuz**; *vokzal, rels, tramvay, klub, miting, lider, byudjet, tort, finish, futbol, basketbol, voleybol, boks* va boshqalar **ingliz**; *bank, benzin, mandalina, ariya, kupol, opera* va boshqalar **italyan**; *tomat, limon, jasmin, karamel, banan* va boshqalar **ispak**; *kartina, kofta, bulka, metrika* va boshqalar **polyak**; *matros, rul, reys, reyd* va boshqalar **golland** tillariga qarashli lug‘aviy birliklar hisoblanadi.

Fors-tojik va arab tillari o‘zlashmalarida ko‘rganimizdek, rus tilidan o‘zbek tiliga asosan ot turkumiga qarashli so‘zlar o‘zlashgan. Fe’l turkumiga oid so‘zlar o‘tmagan. Bu mumkin ham emas. O‘zbek tiliga rus tilidan sifat va ravish turkumiga xos so‘zlar ham o‘zlashmagan. Biroq rus tilidan ot turkumiga oid o‘zlashgan ayrim so‘zlar o‘zbek tilida sifat vazifasida kela olishi kuzatiladi. Masalan, *olmos uzuk, alyumin qoshiq, brilliant ko‘z, desert vino, batist ko‘ylak, integral hisob, fizika asbobi, asfalt yo‘l, dom uy (jonli nutqda)* kabi.

O‘zbek tiliga rus tilidan hamda rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlarning ba’zilarining ma’no hajmida o‘zgarish yuz bergen, rus tiliga xos bo‘limgan ma’nolar kasb etgan. Bunga “simyog‘och” ma’nosini bildiruvchi *stolba*, “naqliyot (asosan, poyezd)ning to‘xtash joyi” ma’nosini bildirgan *stansiya* so‘zlarini misol keltirish mumkin. *Stolba* va *stansiya* so‘zları o‘zbek tilida “*oraliq masofa*” (*ikki stolba oralig‘idagi masofa, ikki stansiya oralig‘idagi masofa*) ma’nolarini ham kasb etgan. Rus tili va u orqali boshqa xalqlar tillaridan o‘zlashib, o‘zbek tilida ma’no hajmini kengaytirgan so‘zlarga *muskul, vagon, vistavka, duel, invalid, yarmarka, annotatsiya* kabilar ham kiradi.

Yevropa xalqlari tillaridan rus tili orqali o‘zlashgan ayrim so‘zlar o‘zbek tilida o‘z tilda mavjud bo‘limgan yangi ma’nolar ham kasb etgan. Masalan, aslida lotin tiliga qarashli *salat, tomat* so‘zları ham o‘zbek tiliga rus tili orqali yangi, boshqa ma’no bilan o‘tgan. *Salat* so‘zi rus tilida “*tuzlangan xom taom*” ma’nosida rasmiylashgan. U o‘zbek tilida esa, “*tuzlanganlik*” ma’nosini cheklab, “*pishirib tayyorlangan umuman yaxna ozuqa*” ma’nosini kasb etgan. *Tomat* so‘zi lotin, nemis, fransuz, ingliz tillarida faqat “*pomidor*” ma’nosida ishlatilgan. Rus tili orqali o‘zlashgan bu so‘z o‘zbek tilida “*pomidor bo‘tqasi (pastasi)*” ma’nosini bildiradi. Bunday ma’no o‘zgarishi *kupas (kupes)* so‘zi uchun ham xosdir. Bu so‘z rus tilida “*sotib oluvchi*”, “*xaridor*” ma’nosida ishlatilgan. O‘zbek tilida hozir arxaizmga aylangan bu so‘z esa, “*katta savdogar boy*” ma’nosи bilan rasmiylashgan edi.

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi rus tiliga qarashli ayrim so‘zlar o‘zbek tiliga nutqning og‘zaki shakli orqali o‘tgan. Bunday lug‘aviy birliklar o‘zbek milliy talaffuzi normalariga bo‘ysundirilgan. *Do‘g‘a (duga), xomut (xamut), sarjin (sarjen), so‘qa (soxa), patnis (podnos), cho‘t (schyot), cho‘tka (shyotka), kalish (galoshi), chit (sitets), cherkov (serkov)* va b. ana shunday xarakterga ega.

O‘zbek tilida rus tilidan o‘zlashgan *materialistik, aktual, real, fizik, lirik, genial* singari so‘zlar ham bo‘lganki, ular shu so‘zlarning

ruscha muqobillari tarkibidan ba’zi morfem unsurlarni tashlash orqali o‘zlashgan: bular rus tilida *materialisticheskiy*, *aktualniy*, *fizicheskiy*, *realniy*, *liricheskiy*, *genialniy* shakllarida ishlatiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida rus tilidan kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan bir qator so‘z va birikmalar xususida ma’lumot berilgan edi.

Yuqorida keltirilgan ayrim so‘zlarni hisobga olmaganda, rus tilidan o‘zbek tiliga asosan ilm-fan va texnikaga oid atamalar o‘zlashgan. Ayniqsa, XX asr o‘zbek ilmiy-texnikaviy terminologiyasining shakllanishida rus lug‘aviy o‘zlashmalari muhim rol o‘ynaydi.

O‘tgan asrning oxirlarida rus tilidan va rus tili orqali Yevropaning boshqa tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan ayrim lug‘aviy birliklarni milliylashtirish, ya’ni o‘zbekchalahtirishga urinish bo‘ldi. Masalan, *kontakt* o‘rniga *tutashuv* (elektr o‘tkazgichlarga nisbatan), *import* o‘rniga *kirituv*, *eksport* o‘rniga *chiqaruv*, *intensifikatsiya* o‘rniga *tezlatuv*, *kontrol* o‘rniga *tekshiruv*, *ekspansiya* o‘rniga *yoyuv*; *knopka* o‘rniga *qadama*, *skrepka* o‘rniga *qistirma*, *limit* o‘rniga *cheklama*, *instruktaj* o‘rniga *ko‘rsatma*, *silos* o‘rniga *ko‘k achitma*, *tort* o‘rniga *bolishma*; *prishepka* o‘rniga *qisqich*, *dirokol* o‘rniga *teshgich*, *myasorubka* o‘rniga *qiymalagich*, *sokovojimalka* o‘rniga *sharbatlagich*, *vklyuchatel* o‘rniga *tutashtirgich*, *komposter* o‘rniga *chakichlagich*, *kontrolyor* o‘rniga *tekshirgich*; *okuchnik* o‘rniga *kertki*, *impuls* o‘rniga *turtki*, *pedal* o‘rniga *tepki* va boshqalar ana shu urinish tufayli taklif etildi va ularning ayrimlari, vaqtincha bo‘lsa-da, nutqda ishlatildi.

Hozirgi davrda yaqin-yaqingacha *soyuz*, *soviet*, *pravleniye*, *ideologiya*, *kriteriy*, *plan*, *protsent*, *redaktor*, *rekomenratsiya*, *sekretariat*, *sostav*, *konkurs*, *tekst*, *tema* so‘z va atamalari tilimiz amaliyotida nufuzli mavqe bilan ishlatilgan bo‘lsa, endilikda ularning o‘rnini iste’molini qaytadan qo‘lga kiritgan *uyushma*, *kengash*, *boshqaruv*, *mafkura*, *mezon*, *reja*, *foiz*, *muharrir*, *tavsifnoma*, *kotibiyat*, *tarkib*, *tanlov*, *matn*, *mavzu* kabi so‘z va atamalar egallab bormoqda va ularning iste’moli faollashib, umumxalq mulki sifatida

rasmiylashmoqda. Bu guruhni *muxtoriyat* (*avtonomiya*), *ma'muriyat* (*administratsiya*), *faol* (*aktiv*), *tahlil* (*analiz*), *me'mor* (*arxitektor*), *munajjim* (*astronom*), *risola* (*broshyura*), *badal* (*vznos*), *ma'ruza* (*doklad*), *nogiron* (*invalid*), *bosqich* (*istansiya*), *yelim* (*kley*), *mijoz* (*klient*), *nazorat* (*kontrol*), *ombor* (*sklad*), *jadval* (*tablitsa*), *samara* (*effekt*) kabi so'z va atamalar hisobiga yana kengaytirish mumkin.

Rus tilidan yoki uning vositasida boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibidagi biror-bir so'z bilan sinonimiya yoki dublet xarakterida munosabatga kirishishi mumkin. Ular dublet xarakterida bo'lsa, qoidaga muvofiq, biri boshqasidan uslubiy jihatdan ham farq qilmay, nutqning barcha vazifaviy ko'rinishlarida bir xil ishlatilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq hamma vaqt ham bunday bir xillik bo'lavermaydi.

Masalan, rus tilidan asli lotincha bo'lgan *nerv* so'zi o'zbek tili leksikasiga kirib o'zlashgan. U, arab tilidan o'zlashgan bo'lsa-da, o'zbek tili lug'at tarkibiga singishib ketgan *asab* so'zi bilan dubletlik munosabatiga ega. Biroq *nerv* va *asab* so'zları hamma vaqt ham funksional-semantik tenglikka ega emas: ayrim hollarda *nerv* so'zi *asab* so'zining funksional-semantik imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olmaydi. Chunki bu ikki lug'aviy birlikning semantikasida umumiylilik bilan birga, bir qator farqlovchi xususiyatlar ham yo'q emas. Masalan, 1. "*Hammom qabul qilish odamning asab sistemasiga tinchlantiruvchi ta'sir etibgina qolmasdan, bir qator nerv kasalliklariga davolik qilishi ham mumkin*" (gazetadan). 2. "*Suvonjonga suyukli xotinidan... ma'lum bo'lmagan, asablarni qitiqlovchi nafis hid anqirdi*" (S.Anorboyev). Birinchi misol gazetadan olingan bo'lib, publitsistik nutqqa xos, unda *nerv* va *asab* so'zlarining vazifaviy-mazmuniy farqi sezilmaydi, ular o'zaro dubletlik xarakterida.

Ikkinci misol esa, badiiy asardan olingan, badiiy nutqqa xos. Bunda *asab* so'zi o'rniga *nerv* so'zini qo'yish mumkin emas. Aks holda, matnning badiyligiga putur yetadi, ya'ni u barham topadi. Bunday farqli xususiyat rus tilidan o'zlashgan *arxitektor* va o'zbek

tilining o‘zida mavjud bo‘lgan *me’mor* so‘zlari munosabatida ham ko‘zga tashlanadi.

Rus tilidan o‘zlashgan ayrim lug‘aviy birliklar ishtirokida o‘zbek tilida o‘nlab frazeologik iboralar ham hosil bo‘lgan. Masalan, shaxsga nisbatan salbiy ma’noda, ya’ni “aqli kamroq” ma’nosida ishlataladigan “*bir vintikam*”, “noqulay holatga tushmoq”, “biror-bir vaziyatdan chiqish ilojini topolmaslik” ma’nolaridagi “*tupikka tiqilmoq*”, “*tupikka kirib qolmoq*”, “sun’iy tarzda vujudga kelganlik” ma’nosidagi “*inkubatorдан chiqqanday*”, “o‘zini idora qila olmaslik” ma’nosidagi “*tormozи ishlamaydi*”, “kutilmaganda erishilgan katta muvaffaqiyat” ma’nosidagi “*lotareyasiga yutuq chiqdi*”, “niyati amalga oshmaslik”, “biror ishning bajarilishiga kechikmoq” ma’nosidagi “*poyezd jo‘nab ketdi*”, “fikrida qat’iylik yo‘q”, “va’dasining ustidan chiqmaydigan” ma’nosidagi “*gapining stansasi yo‘q*” kabi bir qator ko‘chma ma’noli frazem birliklar ham hosil qilingan.

Demak, hozirgi o‘zbek tili leksikasi o‘zlashma qatlaming shakllanishi va rivojlanishida rus tilining ham, arab va fors-tojik tillari kabi, sezilarli ijobiy o‘rni bo‘lgan.

## **ISTE’MOL DOIRASIGA KO‘RA O‘ZBEK TILI LEKSIKASI**

Oldin ham aytiganidek, hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasida sakson mingdan ortiq lug‘aviy birlik mavjud. Bular o‘zbek etnik guruhining har bir a’zosi uchun umumiy va mushtarak lisoniy boylikdir. Biroq shu miqdordagi lug‘aviy birliklar bir xil ishlataladimi, o‘zbek millatiga mansub shaxslarning har biri o‘z nutqiy faoliyatida ulardan to‘la foydalana oladimi, degan savol tug‘iladi. Bu o‘rinli savolga, albatta, yo‘q, ularning barchasidan hamma vaqt ham bir xil foydalanish imkoniyati yo‘q degan javob olinadi, xolos. Negaki lug‘at tarkibidagi so‘zlarning muayyan bir qismidangina hamma vaqt va hamma tomonidan bir xil foydalanish mumkin. Lug‘at tarkibining

miqdori ko‘p va katta qismi nutqda hamma vaqt ham ishlatilavermaydi, ular o‘zbek etnik jamoasining har bir a’zosi uchun bir xil ma’noda tushunilavermaydi. Ana shu xususiyat asosida hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibi ikki asosiy qatlam – guruhga bo‘linadi: 1) iste’mol (ishlatilish) doirasi chegaralanmagan lug‘aviy birliklar (qatlami); 2) iste’mol (ishlatilish) doirasi chegaralangan lug‘aviy birliklar (qatlami).

### **Iste’mol doirasi chegaralanmagan leksika**

Bu qatlamga tegishli lug‘aviy birliklar miqdori iste’mol doirasi chegaralangan qatlamnikidan ancha kam bo‘ladi. Lekin ularning har biri o‘zbek millatiga mansub shaxslar tomonidan, ularning jinsi, yoshi, kasb-kori, hududidagi farqlardan qat’iy nazar, bir xil me’yorda ishlatiladi: ma’nosi ham hammaga bir xil tushunarli bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasidagi *ota, ona, non, suv, uy; shirin, achchiq, oq, qizil; bir, ikki, uch, o’n; men, sen, u, ular; ishlamoq, yemoq, ichmoq, yozmoq, qurmoq; tez, sekin, birdan; uchun, balki, va, lekin, ammo, faqat, xuddi, albatta; voy, voh, uh; taq-tuq, ship-ship, shivir-shivir* va h.k. so‘zlar iste’mol doirasi chegaralanmagan qatlamga xos lug‘aviy birliklardir.

Iste’mol doirasi chegaralanmagan so‘zlar qatlamida shu til lug‘at tarkibining o‘z yoxud o‘zlashgan qatlamiga qarashli lug‘aviy birliklar bir xil lisoniy imtiyozga ega bo‘la oladi. Chunonchi, hozirgi o‘zbek tili leksikasida iste’mol doirasi chegaralanmagan *qalam, daftар, doska, ruchka, gul, lab, palto, non, bozor, daraxt, san’at, sanoat, madaniyat, stol, stul; va, lekin, hamma* singari bir necha o‘nlab lug‘aviy birliklar mavjudki, ular arab, tojik-fors, rus tillaridan o‘zlashgan, ya’ni o‘zbek tilining o‘zlashgan qatlamiga mansub so‘zlardir.

Iste’mol doirasi cheklanmagan qatlamga o‘zbek tilidagi son va olmoshlar, shuningdek, undov va taqlid so‘zlar ham kiradi. Negaki ularning miqdori ot, sifat, fe’l va ravishlarnikiga nisbatan ancha kam.

## Iste'mol doirasi chegaralangan leksika

Iste'mol doirasi chegaralangan qatlam lisoniy jihatdan iste'mol doirasi chegaralanmagan qatlamga nisbatan murakkabdir. Bu murakkablik, eng avvalo, ularning lisoniy rang-barangligida ko'zga tashlanadi. Bu qatlam lug'aviy birliklarini quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) til jamoasining muayyan hududga munosabatiga ko'ra; 2) til jamoasining muayyan kasb-hunarga aloqadorligiga ko'ra; 3) til jamoasining fan va texnikaning muayyan sohasiga munosabatiga ko'ra; 4) til jamoasining ayrim ijtimoiy qatlamga aloqasiga ko'ra.

### Dialektal leksika va uning tizimi

Til jamoasining muayyan hududga munosabatiga ko'ra ajratiluvchi lug'aviy qatlamni **dialektizmlar** deyiladi. Dialektizmlar o'zbek tilining ayrim lahja va shevalariga xos lug'aviy birliklardir. Demak, dialektizmlar umumtilga aloqasi bo'lмаган, ayrim hududdagina ishlatiladigan va shu hudud til jamoasi uchun mushtarak hisoblangan so'zlar va ularning tizimidir. Ayrim hollarda dialektizmlar umumtil mulkiga aylanishi, shu yo'l bilan adabiy til leksikasini rivojlantirishi mumkin. Bunday hududiy lug'aviy birliklar til rivojlanishi omillaridan biri sifatida ijobiy baholanadi. Ular *progressiv dialektizmlar* deb yuritiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasidagi *hordiq, darg'a, yelvizak, bekat, lak-lak, oqshom* singari so'zlar ana shunday xarakterga ega. Ular aslida o'zbek tilining turli shevalariga xos bo'lib, keyinchalik adabiy tilga ham o'tgan. O'zbek shevalarining ayrimlarida *buzov (buzoq), bovur (bag'ir), jilon (ilon), xamak/tugunak (sapcha)* singari shu sheva vakillari uchun faol ishlatiluvchi so'zlar ham uchraydiki, ularni ishlatish me'yoriy nutqni g'alizlashtiradi. Dialektizmlarning bunday turlarini *regressiv dialektizmlar* deb yuritiladi. Hududiy chegaralanish ma'nolarga ham xos bo'ladi. Bularni semantik, ya'ni **ma'noviy (semantik)**

*dialektizmlar* deyiladi. Masalan, *pashsha – chivin*, *chivin – pashsha*, *lagan – tovoq*, *tovoq – lagan* juftliklarini tashkil qilgan lug‘aviy birliklarda bu xususiyat mavjud: ayrim hududlarda “*pashsha*” deyilganda, “*chivin*”, “*chivin*” deyilganda esa “*qora pashsha*” tushuniladi. Ayrim lug‘aviy birliklarning ma’no hajmida hududlararo farq ham mavjud bo‘ladiki, bular ham dialektizmlarning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biridir. Chunonchi, ayrim dialektlarda mevaning ho‘li ham, qurug‘i ham bir so‘z – bir lug‘aviy birlik orqali atalaveradi. Masalan, *o‘rik* so‘zini olsak, u ayrim shevalarda shu so‘z atagan mevaning ham qurug‘i, ham ho‘li ma’nolarini bildiraveradi, boshqa ayrim shevalarda esa, uning qurug‘i “*qoq*”, “*turshak*” so‘zлari orqali nomlanadi. Demak, “*o‘rik*” orqali mevaning ham qurug‘i, ham ho‘li ma’nolari ifodalangan shevalarda bu so‘zning ma’no hajmi keng bo‘lsa, ho‘liga nisbatan “*o‘rik*”, qurug‘iga nisbatan “*qoq*”, “*turshak*” so‘zлari ishlatilgan shevalarda bu so‘zning ma’no hajmi tordir.

O‘zbek adabiy tilining rivojlanishida hududiy lug‘aviy qatlamning, ya’ni dialektizmlarning ham munosib hissasi bor. O‘z navbatida, adabiy til ham dialektal qatlamning boyishiga sabab bo‘ladi. Bunday aloqadorlik adabiy til leksikasi bilan dialektal leksikaning o‘zaro munosabatini ko‘rsatadi. Ayniqsa, dialektal lug‘aviy qatlamning boyishida badiiy adabiyot beqiyos ahamiyatga ega. Ayrim dialektlarga xos so‘zlar badiiy asarlarda ishlatila-ishlatila sayqal topadi, umumxalq tili mulkiga aylanadi. Shuningdek, adabiy tilda ham, shevalarda ham uchramaydigan ba’zi lug‘aviy birliklar badiiy ijod sohiblarining o‘zi tomonidan ijod qilinadi. Masalan, Abdulla Oripov she’rlaridan birida *bardavom* (*davomli*), *bo‘ltak* (*maydalangan*, *bo‘lak-bo‘lak*), *ochun* (*dunyo*) so‘zlarini ishlatganki, bular o‘zbek adabiy tilda ham, shoir qarashli bo‘lgan sheva (Qashqadaryo)da ham uchramaydi. Ayniqsa, badiiy adabiyot tilida o‘zbek shevalariga xos so‘zlarning ishlatilishi ma’lum ma’noda shevalarni shevalar bilan aralashtiradi, bir-biridan lug‘aviy oziqlanishlariga xizmat qiladi. Demak, badiiy adabiyot orqali shevalar shevalarga ta’sir etishi mumkin, shuningdek, badiiy adabiyotdan

ko‘plab so‘zlar shevalarga o‘tib o‘zlashadi, ularning lug‘at tarkibini kengaytiradi. Natijada shevalar adabiy til bilan yaqinlashib, adabiy tilning ustuvor va ommaviy amaliga madad bo‘ladi.

Leksikasining til jamoasining muayyan fan, uning sohasi va kasb-hunarga aloqadorligi asosida ajratiluvchi guruhi odatda ijtimoiy hayot va xalq xo‘jaligining turli sohalariga oid atamalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, *universam*, *xozmag*, *pavilon*, *selpo*, *kooperativ*, *gastronom*, *bazzoz*, *attor*, *paysa*, *botmon* va b. (*savdo-sotiqlqa oid*); *yugurish*, *suzish*, *sakrash*, *turnik*, *boks*, *og‘ir atletika* va b. (*sport va jismoniy tarbiyaga*); *adir*, *anhor*, *ko‘l*, *daryo*, *dengiz*, *okean*, *dovon*, *to‘qay* va b. (*geografiyaga oid*); *oy*, *quyosh*, *osmon*, *yulduz*, *Mars*, *Yupiter*, *Zuhra* va b. (*astronomiyaga oid*); *g‘isht*, *beton*, *sement*, *qorishma*, *suvoq*, *fundament*, *plita*, *ohak* va b. (*qurilish sohasiga*); *jarroh*, *xirurg*, *hamshira*, *terapevt*, *feldsher*, *palata*, *bemor*, *poliklinika*, *bemorxona* (*tibbiyatga*); *maktab*, *muallim*, *o‘quvchi*, *direktor*, *zavuch*, *dars*, *sinfxona* va b. (*maktab va maorifga oid*). Iste’mol doirasi chegaralangan lug‘aviy qatlarning bu guruhini **terminologik leksika** deb ham ataladi. Bu guruh ikki ichki tagguruhdan tarkib topadi: a) kasb-hunar leksikasi; b) ilmiy-texnikaviy leksika. Kasb-hunar leksikasi xalq terminlari (atamalari) deb ham yuritiladi. Bu qatlama tegishli lug‘aviy birliklar ma’lum bir kasb-hunar sohasiga daxldor shaxslar nutqida ishlataladi, shu kasb-hunar kishilari uchungina tushunarli bo‘ladi. Shu kasb-hunar kishilari qaysi hududda yashashlaridan qat’iy nazar, kasb-hunar so‘zlari ular uchun mushtarak bo‘ladi. Har bir kasb-hunarning o‘z atamalari tizimi bo‘ladi. Masalan, maktab-maorif sohasiga doir kasbning atamalar tizimini maktab-maorif terminologiyasi deyilsa (*maktab*, *kitob*, *qalam*, *o‘qish*, *yozish*; *savol*, *javob*, *baholash*, *sinf boshlig‘i*, *chorak bahosi*, *a‘lochi*, *uch*, *to‘rt*, *bog‘cha*, *tarbiyachi*, *ustoz* va b.), chorvachilik sohasiga doir atamalar tizimini chorvachilik terminologiyasi (*tuya*, *yilqi*, *ho‘kiz*, *buqa*, *sigir*; *erkak*, *urg‘ochi*, *nar*, *mocha*, *moda*, *bo‘taloq*, *qo‘zichoq*, *ferma*, *sut sog‘uvchi* va h.k.) deyiladi. Dialektizmlarda bo‘lganidek, kasb-hunar leksikasiga oid ayrim lug‘aviy birliklar shu

kasb-hunar doirasidan chiqib, umumtil mulkiga aylanishi mumkin. Bunday hollarda ularning iste'moli chegaralanmaydi, hamma tomonidan bir xil ishlatiladi, ma'nosи esa bir xil tushunarli bo'ladi. *Qonun, ustav, buyruq, shartnoma; yilqi, qo'y, echki, mudir, ferma, cho'chqa* va sh.k. bir qator lug'aviy birliklar ana shunday xarakterda. Bularning ayrimlari emotsional-ekspressiv bo'yoq kasb etib, ko'chma ma'nolarda shaxslarga nisbatan ham ishlatiladi (*eshak, ho'kiz, mol, cho'chqa, hayvon* va b.). Kasb-hunarga oid ko'pgina lug'aviy birliklar shu kasb, hunar doirasidagina ishlatilib, umumtil uchun begona bo'lib qolaveradi. Masalan, chorvachilik sohasida *tusoq, dagar, sangach, panji, chori, mangi, hangi, chibich, tuvcha, churpi, to'rpi* singari bir necha o'nlab lug'aviy birliklar mavjudki, ular faqat shu soha egalari uchungina umumiyligini va tushunarlidir. *To'l, to'la, choroyna, bo'chalamoq, pala, kelagay, suzgi, ko'nargi, tomizg'i, uyutma, oqliq, tulup, pishgak, qo'ton, qo'ra, enlamoq, to'xtamoq* singari bir necha o'nlab so'zlar faqat chorva bilan shug'ullanuvchi shaxslar (chorvadorlar) uchungina tushunarlidir. Ular umumtil lug'aviy birliklari bo'la olmaydi.

### Ilmiy leksika va uning tizimi

Leksikaning muayyan fan va texnika, san'at va madaniyat sohasiga qarashliligiga ko'ra guruhanishida asosan *ilmiy-texnikaviy atamalar (terminlar)* va ularning tizimi nazarda tutiladi. Shuning uchun bu tizimni ilmiy leksika deyilsa ham, xato bo'lmaydi. Shunday ekan, ilmiy leksika – bu ilmiy terminologiya demakdir. O'zbek tili ilmiy terminologiyasini yuzaga keltirish, shakllantirish va boyitishda o'zbek tilida dastlabki original asarlar yaratgan Behbudiy va Abdulla Avloniy, Nazir To'raqulov va Husaynxon Niyoziy, Otajon Hoshim va Qori Niyoziy, Fitrat va Ashurali Zohiriy, G'ozi Olim, Olim Sharafutdinov va Abdurahmon Sa'diy, Hodи Zarif va Ulug' Tursun, Sattor Jabborov va Akbar Asqarov, Sirojiddin Salohiddinov va Qodir Zokirov, G'afur Rahimov va Muhammadjon O'rozboyev, Yahyo

G‘ulomov va Ibrohim Mo‘minov singari olim va donishmandlarning xizmati beqiyos kattadir. Ilmiy leksikaga qarashli so‘zlar ham, kasbhunar terminologik tizimida bo‘lgani kabi, umumtil mulki sanalmaydi, fan va texnikaning muayyan sohalari bilan shug‘ullanuvchi til jamoalari uchungina mushtarak va tushunarli bo‘ladi. Masalan, tilshunoslik faniga oid *urg‘u*, *o‘zak*, *qo‘s Shimcha*, *ega*, *kesim*, *aniqlovchi*, *ergash gap*, *teng aloqa*, *tobe aloqa* singari atamalarni shu atamalar anglatgan ma’noda faqat til fani mutaxassislarigina tushunadi. Bu lug‘aviy birliklarni ayni shu ma’nolar ifodasi uchun faqat ulargina ishlatadi. Yoki leksikaning iste’moli chegaralangan qatlamida *past*, *tekislik*, *ko’rfaz*, *orol*, *qo’ltiq*, *sharq*, *g’arb*, *janub*; *son*, *kasr son*, *ayiruv*, *qo’shuv*, *plyus*, *minus*; *ong*, *tafakkur*, *tushuncha*, *subyekt*, *obyekt*, *hukm*; *roman*, *povest*, *hikoya*, *obraz* (*timsol*), *qahramon*, *asar g’oyasi*, *sujet* va h.k. so‘zlar uchraydiki, ularning ayrimlari geografiya, ayrimlari matematika, ayrimlari falsafa, ayrimlari adabiyotshunoslik fanlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslar nutqida faol ishlatiladi. Ularning ba’zilari, masalan, *o‘zak*, *qo‘s Shimcha*; *pastlik*, *qo’ltiq*; *ayiruv*, *qo’shuv*, *qahramon* va b. umumtilda ishlatilsa ham, ular o‘zlari tegishli sohaga xos ma’nolarni bildirmaydi, balki umumtil uchun rasmiylashgan ma’nolarni anglatadi. Terminologik leksikada baynalmilal xarakterdagи lug‘aviy birliklar ko‘p bo‘ladi. Negaki ularning aksariyati chetdan o‘tgan o‘zlashmalar sanaladi. Masalan, o‘zbek tilshunosligi sohasidagi *fonema*, *grafema*, *fonetika*, *grafika*, *morfema*, *affiks*, *konversiya*, *suffiks*, *prefiks*, *kompozitsiya*, *morfemika*, *grammatika*, *morfologiya*, *sintaksis*, *puntuatsiya* va h.k. atamalar o‘zbek tiliga lotin va grek tillaridan o‘zlashgan. Boshqa aniq, tabiiy va texnikaviy fanlarda ham ularga xos tushunchalarni bildiruvchi atamalar asosan baynalmilal o‘zlashmalar xarakterini kasb etadi. Ularning barchasi ilmiy nutq uchun xoslangan bo‘ladi, ya’ni ilmiy matnlarda ishlatiladi. Fan, texnika va uning ayrim-ayrim sohalariga qarashli lug‘aviy qatlam asosan ilmiy termin (atama)lardan iborat bo‘ladi. Ilmiy atama – bu ilmiy til (nutq), ilmiy matnlarning lug‘aviy boyligi, vositasidir. Ilmiy atama ilmiy

sohalarning talab va ehtiyojini qondirish uchun yaratiladi. Shu sababli haqiqiy ilmiy atama u yoki bu fan sohasiga aloqador ilmiy tushuncha va tasavvurlarni to‘la, aniq va ixcham ifodalashi lozim bo‘ladi. Har qanday ilmiy atama ilmiy matn yoki ilmiy nutqda paydo bo‘ladi va o‘sha lisoniy muhit, makonda yashaydi.

Xullas, ilmiy atamalarning mohiyatini, paydo bo‘lishi va yashash sharoitini belgilaydigan asosiy mezon bu – ilmiy lisoniy muhit va ilmiy nutqdir. Ammo ilmiy til (nutq)da uchraydigan barcha lisoniy vositalar ilmiy atama hisoblanavermaydi. Chunki ilmiy matnda ilmiy atamalardan tashqari, ilmiy terminologiyaga aloqasi bo‘lmagan umumiste’moldagi so‘zlar, so‘z va gaplarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiluvchi grammatik vositalar ham ishlataladi, ularsiz matn vujudga kelmaydi.

Kasb-hunar so‘zlari (xalq atamalari) ilmiy terminologiyaning boyishida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Xalq terminologiyasidan ilmiy terminologiyaga lisoniy birliklar oqib kirib turadi. Masalan, o‘zbek tilidagi texnikaviy atamalar tarkibida *qabirg‘a*, *og‘iz*, *tirnoq*, *bo‘yin*, *musht*, *qulqoq*, *panja*, *quti*, *kurakcha*, *pichoq*, *taroq*, *qozon*, *qoshiq* kabi ilmiy atamalar uchraydi va ular mashina, asbob-uskunalarning biror-bir detali, qismini anglatish uchun xoslantirilgan, maxsuslashtirilgan so‘zlardir. Tilshunoslik fanida ham bunday so‘zlarning miqdori kam emas: *qo‘sishimcha*, *ega*, *to‘ldiruvchi*, *aniqlovchi*, *so‘z*, *gap*, *bo‘lak* kabi bir qancha atamalar umumxalq tilidan olingan. Ular endi ilmiy matnda oddiy leksemalik ma’nosidan uzilgan, ilmiy atama sifatida ma’nosi aniq, lo‘nda va bir ma’nolidir.

Shuningdek, ilmiy atamalar oldiga qo‘yiladigan talablar ham yo‘q emas. Ular til lug‘at tarkibi (lug‘aviy boyligi)ning muhim uzvlaridan biri sanaladi. Shuning uchun ilmiy atamalar (terminlar) xalqona, xalqchil bo‘lishi kerak. Atamalarning xalqchil, xalqona bo‘lishi ularning shaklan ixcham, oddiy qurilmali, yaxlit va qisqa lug‘aviy birlik ekanligi bilan belgilanadi. Ma’lumki, odatdagagi so‘zlarning, ya’ni umumxalq leksikasiga qarashli lug‘aviy birlik (leksema)larning aksariyati sodda. Ular qo‘shma so‘z xarakterida

bo‘lsa ham, qisqa tuzilishga ega. Rus tili orqali o‘zlashtirilgan va qo‘llanishda bo‘lgan atamalarning aksariyati mana shu talabga to‘la javob beradi. Til tizimi doimo “lisoniy tejamlilik” qonuniyati ta’sirida qisqalik, lo‘ndalikka intiladi. Qisqartma so‘zlar ana shu talab asosida paydo qilinadi (*AQSH – Amerika Qo‘shma Shtatlari*, *BMT – Birlashgan Millatlar tashkiloti* va b.). Bu hol tillar taraqqiyotida muhim omil sanaladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida almashtirish uchun muqobil sifatida tavsiya etilgan bir qator so‘zlar bu talabga to‘liq javob bera olmaydi. Chunonchi: *fikr bildirish* (*votum*), *dehqonchilik ilmi* (*agronomiya*), *hujjatasrov* (*arkiv*), *chet pul/xorij pul* (*valyuta*), *xalq noibi* (*deputat*), *sug‘orish ilmi* (*irrigatsiya*), *xizmat safari* (*komandirovka*), *nutqiy matn* (*kontekst*), *xat tashuvchi* (*kuryer*), *chaqiruv qog‘izi* (*povestka*) va boshqalarning atamalar oldiga qo‘yiladigan talablarga javob berishi amri mahol. Shular qatoriga *tahsiltalab* (*abituriyent*), *tayyoragoh* // *qo‘nalg‘a* // *bandargoh* (*aeroport*), *tayyora* // *uchqoq* (*samolyot*), *tadbirgoh* (*klub*), *pultopar* (*biznes*), *kulliyot* (*fakultet*), *minbargoh* // *tahsilgoh* (*kafedra*), *majalla* // *oybitik* // *oynoma* (*jurnal*) singari soxta yasalma va noqulay olinmalar ham kiradi.

Atamalar matndan tashqarida ham o‘zlarining aniq ma’nolarini anglataveradi, ular uchun alohida matnlarning bo‘lishi shart emas. Bu xususiyatlar atamalarni umumxalq lisoniy mulkidan, ya’ni iste’mol doirasi chegaralanmagan lug‘aviy birliklardan farqlash uchun xizmat qiladi. Atamalarda ham shakl va mazmun nomutanosibligi mavjud. Ayrim atamalar ko‘p ma’nolilik xarakteriga ega. Masalan, tilshunoslikdagi *asos* atamasi “*so‘z yasovchi asos*”, “*shakl yasovchi asos*” birikmalari tarkibida har xil vazifa va har xil ma’noga ega. Yoki *morfologiya* atamasi tilshunoslikdan tashqari, botanika va zoologiya fanlarining ham asosiy tushunchalaridan birini bildiradi. Atamalarda ko‘pincha ideografik xarakterdagi sinonimiya ish ko‘radi: *qo‘shimcha va affiks*, *old qo‘shimcha va prefiks*, *gapning grammatik asosi va gapning predikativ markazi*, *ikki sostavli gap* va *ikki bosh bo‘lakli gap*, *bir sostavli gap* va *bir bosh bo‘lakli gap* atamalari munosabatida

sinonimiyaning ana shu turi mavjud. Atamalar tizimida antonimlik yana ham aniqroq va ravshanroq ko‘zga tashlanadi: *unli* va *undosh*, *jarangli* va *jarangsiz undoshlar*, *sodda* va *qo’shma gap*, *bosh bo’laklar* va *ikkinchi darajali bo’laklar* singari juftliklar shular jumlasidandir. Antonimiya tizimiga xos giponimik va giperonimik munosabatlar ham o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarga ega. Masalan, tilshunoslikka oid terminologik tizimda “*undosh*”lar giperonim bo‘lsa, “*jarangli*” va “*jarangsiz*” *undoshlar* uning giponimlaridir. Bu xususiyat til sathlarining barchasida mavjud. Masalan, “*ot*” atamasi gireronim sifatida “*atoqli ot*”, “*turdosh ot*”, “*yakka ot*”, “*jamlovchi ot*”, “*sanaladigan ot*”, “*sanalmaydigan ot*” singari birikma xarakteridagi bir qator giponimlariga ega. Giperonim, giponim xarakteridagi bunday munosabatdoshlik boshqa so‘z turkumlari tizimi uchun ham xosdir. Bulardan chiqadigan xulosa shuki, atamalar va ularning tizimida ham, umumtil lug‘aviy birliklarida bo‘lganidek, o‘ziga xos semantik munosabatdoshlik amal qiladi.

Atama va so‘zni o‘zaro farqlovchi “xitoy devori” yo‘q. Atama ham so‘z kabi lug‘at tarkibida yashaydi, u ham nominativ vazifaga xoslangan lisoniy birlik. Atamalarning ayrimlari mustaqil so‘zlar qo‘silmasidan tarkib topadi va turg‘un birikma xarakterini kasb etadi. Xullas, atamalar so‘zlarning vazifaviy ko‘rinishlaridan biridir.

Atamalar va umumtil lug‘aviy birliklari doimo o‘zaro munosabatda, ular biri boshqasiga o‘tib turadi. Natijada umumtil leksikasining rivojiga terminologik tizim, terminologik tizim rivojiga umumtil leksikasi munosib hissa qo‘shadi. Masalan, ma’nolari jabhasida o‘zgarish yuz berishi tufayli, umumtil mulki sanalgan *barmoq*, *bo‘yin*, *qanot*, *quloch*, *qadam* (*texnikaga doir*) singari lug‘aviy birliklar o‘zbek terminologik tizimi birligiga ham aylangan. Shuningdek, terminologik sistemadagi *kosmos*, *kosmonavt*, *kosmik kema*, *radio*, *telefon*, *mashina*, *ekskavator*, *traktor*, *mexanizatsiya*, *mexanizator*, *respublika*, *institut*, *universitet*, *kollej*, *gimnaziya*, *texnikum*, *televizor*, *kompyuter*, *vaznsizlik*, *sport* singari bir qancha so‘zlar hozirgi vaqtida o‘zbek umumtil mulkiga aylangan.

Tilning rivojlanish darajasi undagi umumtil lug‘aviy birliklarining ko‘pligi bilan o‘lchangani kabi, atamalarning ko‘pligi shu til jamoasining ijtimoiy hayotida turli sohalarga oid fanlar va texnikaning rivojlanganidan darak beradi. Atamalar (terminologik) tizimning shakllanishi murakkab jarayonlar bilan bog‘landi. Terminologik tizimning shakllanishi go‘yo bir shahar qurilishiga o‘xshaydi. U yagona reja asosida tarkib topsa-da, bordaniga shakllanmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi. Uni yaratishda har xil avlodga mansub bo‘lgan turli “me’mor”lar, “loyihachilar”, “kashfiyotchi”lar ishtirok etadi. Terminologik tizim ham ana shu tarzda vujudga keladi.

Terminologik tizim ham, umumtil lug‘aviy birliklari tizimi kabi, ichki va tashqi omillar yordamida boyiydi. Masalan, hozirgi o‘zbek tili terminologik tizimidagi bir qator atamalar umumxalq tilidagi lug‘aviy birliklarga kalka yo‘li bilan yangi ma’nolar yuklash (*moslama, tirkama, o‘lchagich, elektr-arra, tekislagich moslama, tirsaksimon val, texnik ko‘rik, simto‘r, to‘rxalta, porshenning barmog‘i, plugning tishi, kombaynning o‘rog‘i, ekskavatorning kuragi* va b.) orqali hosil qilingan. Bunday atamalarning paydo bo‘lishi o‘zbek tili terminologiyasining ichki manba – ichki omil bazasida, ya’ni so‘z yasash yo‘li bilan boyiganligiga dalildir. Rus tilidan va rus tili orqali *kartina, karta (xarita), abstrakt, piket, model, modus, adaptatsiya, agrotexnika, advokat, prokuratura, yustitsiya, avans, kino, plazma, tranzit, transport, chempion, shans, shablon, element, energiya, elita; fonema, grafema, fonetika, fonologiya, morfemika, derivat, derivatologiya, leksika, leksikologiya, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya* va hokazo – hokazo o‘zlashgan atamalar o‘zbek terminologiyasi rivojlanishidagi tashqi omil – tashqi manba asosida paydo bo‘lgan.

Terminologik tizimda ham ma’nodoshlik, ya’ni sinonimiya hodisasi amal qiladi. Bir terminologik qatorni tashkil qilgan ma’nodosh muqobillarni funksional-semantik sinonimiya, uning har bir a’zosini funksional-semantik sinonim deb yuritiladi. Funksional-

sinonimlar badiiy nutqda, ayniqsa, nazmiy matnlarda faol ishlataladi. Masalan, *bayroq – tug‘, yalov; bayroq dor – tug‘bardor, yalov bardor, yalov dor, yalov kash; gradus – daraja; astronom – munajjim, yulduz boz; kapitan – darg‘a; sanatori y – rohatxona; kosmonavt – fazokor, fazogir, parvozkor; lug‘at – so‘zlik; protivogaz – gazniqob; ximik – kimyogar; xirurg – jarroh, praktika – amaliyot* va boshqalar funksional-semantik muqobillardan tashkil topgan terminologik paradigmalardir. Shoir M.Shayxzoda ijodidan olingan quyidagi parchada ana shunday paradigmalardan birini ko‘rish mumkin:

*Ilmi hikmat, riyoziyot, falakiyotning,  
Tabobatning, jug‘rofiyaning hamma dasturi  
Insonlikka naf qilmasa, bu katta nuqson.*

G‘.G‘ulom ijodidan olingan  
“O‘rta Osiyoning sharq fakulteti  
*Lisonlar, zabonlar, tillar-la obod;*  
*Matluba arabcha bir she‘r o‘qib,*  
*Kecha hammamizni qila oldi shod”* she’riy matnida ***lisonlar, zabonlar, tillar*** bir paradigmatic qatorda birlashgan funksional-semantik sinonimlardir.

Shunisi muhimki, umumtil leksikasi bilan terminologik leksika hamma vaqt o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bu munosabatdoshlik zamirida ba’zan umumtil lug‘aviy tizimi (atamalarning odatdagi so‘z kabi ommalashuvi: *kontakt, orbita, kosmodrom, kosmik kema, vaznsizlik, finish, start* va b.), ba’zan terminologik tizim (umumtil lug‘aviy birliklarining atamalarga aylanishi: *suv, havo, yugurish, suzish, dengiz, shamol, ildiz, barmoq, bo‘yin, qanot, quloch, qo‘ltiq, qadam* va b.) boyiydi. Masalan, texnikaga oid ayrim atamalar jonli yoxud umumxalq tilidan olinganligi haqida ilmiy ma’lumot bor. Xususan, texnikada qurollarni tirkashda ilgak sifatida ishlataladigan predmetni “*changak*”, detallar sirtini sillqlash uchun qo‘llanadigan predmetni “*jilvirlash stanogi*”, sochiluvchan materiallar bir miqdorda tushadigan detal teshiklarni “*tuynuk*” deb nomlanadiki, ularning birinchisi umumxalq tilida (adabiy tilda) “*ilgak*”, ikkinchisi

“*silliqlaydigan stanok*”, uchinchisi “*teshik*”, “*tirqish*” deb ataladi. Natijada termin va umumxalq tiliga mansub lug‘aviy birliklar sinonimiyasi paydo bo‘ladi.

Terminologik tizimda, kam uchrasa-da, lug‘aviy parafraza hodisasi ham mavjud. Mavjud terminni qayta nomlash jarayonida paydo bo‘lgan bu hodisalar ham tilda muayyan funksional-semantik qiymat kasb etadi. Umumxalq tilida “*televizor*”ga nisbatan “*oinai jahon*”, “*zangori ekran*”; “*samolyot*”ga nisbatan “*po‘lat qush*”; “*paxta teradigan mashina*”ga nisbatan “*zangori kema*” atamalarining ishlatilishi buning yorqin misolidir. O‘zbek she’riyatida terminlardan poetik maqsadlarda ham maqsadga muvofiq foydalanilgan. Quyidagi misralar buning isbotidir:

*Dono mashinalar Beradi bilet,*  
*Kuchli mashinalar Qaziydi kanal,*  
*Zangori mashinalar Teradi paxta.*

Bu matnda ishlatilgan “*dono mashina*”, “*kuchli mashina*”, “*zangori mashina*” kabi birikmalar orqali xalq xo‘jaligida ishlatiluvchi texnika vositalarining ma’lum bir xususiyatlari bo‘rttirilgan, ularga alohida e’tibor qaratilgan. Bu ifodalar okkozional xarakter kasb etgan. Chunki bilet beradigan *avtomat*, kanal qaziydigan *ekskavator*, paxta terish (traktorlari) *mashinalari* “*dono mashina*”, “*kuchli mashina*”, “*zangori mashina*” singari epitetlar orqali ma’lum va mashhur qilinmoqda.

Atamalarning bu xil xususiyatlari tufayli, ularning *til sathiga* va *nutq sathiga* xos ko‘rinishlari farqlanadi (*tilga xos atamalar*, *nutqqa xos atamalar* kabi). Atamalarning til sathiga xos ko‘rinishlari maxsus sohaviy lug‘atlarda beriladi va ular anglatgan aniq tushunchalar sharhlanadi. Nutq sathiga xos atamalar esa, matniy (kontekstual) xarakter kasb etadi. Ular odatda tasviriy tavsifda bo‘ladi, so‘zlar birikuvidan tarkib topadi. Bunday atamalar, badiiy nutq matnlaridan tashqari, ilmiy nutq matnlarida ham ko‘p ishlatiladi. Masalan, tilshunoslikka oid matnlarda “*qaratqich kelishigi shaklining belgisiz (markersiz) ifodalanishi*”, “*tushum kelishigi shaklining belgisiz*

(markersiz) ko‘rinishi”, “eganing olmoshlar bilan ifodalanishi”, “kesim vazifasida keluvchi sifatlar yoki sonlar”, “bog‘langan qo‘shma gaplarni eslatuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar”, “ergash gapli qo‘shma gaplarni eslatuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar” kabi so‘z birikmalariga tez-tez duch kelamiz. Bular ham atamalardir. Lekin ular ilmiy nutqda faol ishlatilsa-da, maxsus lug‘atlarda shu shaklda qayd etilmaydi. Shu bois bunday atamalarni nutqqa, ya’ni ***nutq sathiga xos atamalar*** (*tilga, ya’ni til sathiga emas*) deyiladi.

Dialektizm, professionalizm va terminlar badiiy nutqda ham ishlatiladi. Ular badiiy asar bag‘ishlangan mavzuning xarakteriga ko‘ra, unda tasvirlangan voqeа-hodisa, ularning qahramonlari xarakterini yoritishda hududiy, kasbiy dalil vazifasini o‘taydi, asar voqeasining hayotiyligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

### **Jargon, argo va ularning tizimi**

Leksikaning til jamoasining ayrim ijtimoiy guruhlarga xos qatlamini ***jargon*** va ***argolar*** deb ataluvchi lug‘aviy birliklar tashkil qiladi. Bular til jamoasining ayrim ijtimoiy guruhlari nutqida ishlatiluvchi lisoniy birliklardir. Bunday ijtimoiy guruhlarga talabalar, harbiy xizmatchilar, qimorbozlar, otarchilar, sportchilar, o‘g‘rilar, kartabozlar, savdogarlar va h.k.lar kiradi. Ayrim ijtimoiy guruhlar nutqida uchrovchi lug‘aviy birliklarning bir ko‘rinishi ***jargonlar*** deb ataladi, ikkinchisini esa ***argolar*** deyiladi. Ularning bazasi sifatida umumxalq tilining o‘z so‘zlari, arab, tojik-fors va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar xizmat qiladi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi” dramasidan olingan quyidagi parchada ***malhuz emas, ne’mati jannat*** singari lug‘aviy birliklar uchraydiki, bunda so‘zlovchining maqsadi ommadan sir tutilganligi ma’nosи ifodalangan: “Mulloro‘zi. *Bizga ziyoфat malhuz emas. Ne’mati jannatni keltir*”. Bu parchada ***malhuz emas*** – “o‘ylab ko‘rilgan emas”, “***ne’mati jannat***” – “yor, mahbuba” ma’nolarida qo‘llangan. O‘zbek tili lug‘at tarkibining ***jargon*** deb ataluvchi

guruhiga *tanzil* (foyda), *shavqqu aylang* (*kuting*), *shoe qiling* (*bildiring*) kabilar ham mansubdir.

Argolar qiziqishlari, mashg‘ulotlari, yoshlari bir xil bo‘lgan judator doiraga mansub kishilar qo‘llaydigan, ma’nosи shu guruhlarning o‘zigagina tushunarli bo‘lib, ommaga notanish, tushunarli bo‘lmagan lug‘aviy birliklardir. Bunday lug‘aviy birliklar otarchilar, o‘g‘rilar, qimorbozlar, bezorilar, chayqovchilar nutqida ishlatiladi. Masalan, *galstuk* (*o‘qituvchi*), *xalat* (*tibbiyat xodimlari*), *loy* (*pul*), *kapara* (*bir ming*), *danap* (*o‘yinchi qiz*), *gigusi* (*kokili*), *domlajon* (*konyak*), *alkash* (*ichuvchi*), *najot* (*araq*), *harif* (*pul egasi yoki o‘g‘rilik manbai*), *sar* (*ming so‘m*), *ligavi* (*militsiya*), *hasut* (*non*), *deshevka* (*xabar yetkazuvchi*, *chaqimchi*) va b. argo guruhiga kiruvchi lisoniy vositalardir.

Jargon va argotik leksika umumxalq so‘zlaridan ayrimlarining ma’lum bir maqsadlarda ishlatilish uchun xoslangan buzilgan shakllaridir. Shuningdek, argolarning ayrimlari umumxalq tilidagi so‘zlarga boshqa ma’nolar yuklash orqali ham hosil qilinadi. Yuqorida “*o‘qituvchi*” ma’nosida keltirilgan “*galstuk*”, “*tabobat xodimlari*” ma’nosida keltirilgan “*xalat*”, “*pul*” ma’nosida keltirilgan “*loy*” so‘zлари bularga misol bo‘ladi. Bundan tashqari, jargon va argolar boshqa tillardan semantik kalka yo‘li bilan o‘zlashishi ham mumkin.

1941–1945-yil Ikkinci jahon urushida o‘zbek adabiy tilida, xususan, matbuot tilida “*asir*” ma’nosida “*til*”, “*asir tutish*” ma’nosida “*ov*”, “*razvedka qilish*” ma’nosida “*safar*” so‘zлари ishlatilganki, ular rus tilidan ayni shu ma’nolar ifodasi uchun qo‘llangan “*yazik*”, “*poymat yazika*”, “*razvedovat*” o‘sha davr sovet jangchilari nutqidagi argolar kalkasidir.

Aslida, jargon va argo atamalari “buzilgan til” ma’nosidagi bir tushunchani bildirsa-da, ular anglatgan konnotativ ma’nolariga ko‘ra, farq qiladi. Argolar anglatgan ma’nolarda shu so‘z atagan tushunchalarga nisbatan kamsitish, tahqirlash ottenkalari kuchsiz bo‘ladi, jargonlarda esa, bu ottenka kuchli bo‘ladi.

## **Zamonaviyligiga ko‘ra o‘zbek tili leksikasi**

Lug‘at tarkibi til taraqqiyotining barcha davrlarida o‘z holatini bir xil saqlab tura oladigan tizim emas. U hovuzga o‘xshaydi. Hovuzga bir tomondan muttasil suv kirib tursa, ikkinchi tomonidan u chiqib turadi. Aks holda, hovuzning holati, muvozanati buziladi. Til leksikasi, ya’ni lug‘at tarkibi ham ana shunday: u yangidan paydo bo‘layotgan so‘zlar hisobiga “yangilanib”, iste’moli barham topayotgan so‘zlar hisobiga “tozalanib” turadi. Bu jarayon tilning, uning lug‘at tarkibining rivojlanishi uchun muhim va zarur omillardan biri hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tili leksikasida bundan o‘ttiz yillar oldin *kolxozi*, *sovxozi*, *lesxozi*, *kommunist*, *kommunizm*, *sotsializm*, *leninizm*, *marksizm*, *komsomol*, *partkom*, *partseminar*, *delegat*, *partsyezd* singari bir necha o‘nlab lug‘aviy birliklar faol ishlatilar edi. Endilikda bu lug‘aviy birliklar eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lib, iste’moliga chek qo‘yilgan. Sababi – shu lug‘aviy birliklar anglatgan tushunchalar “eskirib”, ijtimoiy hayotdan o‘z o‘rnini yo‘qotgan, ularning o‘rnida istiqlol (mustaqillik) bilan bog‘liq yangi tushunchalar va ularning nomlari vujudga keldi.

Lug‘at tarkibidagi ayrim leksik birliklar iste’molining ijtimoiy tuzum va uning xarakteriga mos “tovlanib” turishi lug‘aviy birliklarning zamonaviyligiga ko‘ra guruhlanishiga asos bo‘luvchi xususiyatdir. Bu xususiyat asosida o‘zbek tili leksikasi ikki guruhga ajraladi: 1) zamonaviy qatlam; 2) zamondosh qatlam.

### **Zamonaviy qatlam**

Zamonaviy qatlam til taraqqiyotining ma’lum bir davrida til jamoasining har bir a’zosi uchun bir xil ishlatilib, bir xil tushuniladigan lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi.

Bunday qatlamga xos so‘zlar faqat zamonaviylik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Yangilik va eskilik bo‘yog‘iga ega lug‘aviy birliklar bu qatlam doirasidan chetda turadi. Zamonaviy qatlam ayrim kasb-hunar,

fan va texnika sohalariga oid lug‘aviy birliklarni, boshqa nom bilan ataganda, professionalizm va atamalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, zamonaviy qatlam har bir sheva va lajhaga xos lug‘aviy birliklarga ham tegishlidir. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, zamonaviy qatlam tushunchasi lug‘aviy birliklarning iste’mol doirasi chegaralangan-chegaralanmaganligi xususiyatiga befarq bo‘ladi. Masalan, tilshunoslik faniga doir *affiks*, *affiksatsiya*, *morfema*, *grafema*, *intonema*, *konversiya*, *substativatsiya*, *verbalizatsiya* va sh.k. bir qator lug‘aviy birliklar (atamalar)ning umumtil nuqtai nazaridan iste’moli chegaralangan. Shunga qaramay, ular tilshunoslik fanida uning asosiy va zamonaviy tushunchalarini nomlaydi, o‘zbek tili leksikasining zamonaviy qatlamiga mansub bo‘ladi. E’tibor berilsa, bu atamalar o‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan, ular o‘zbek tili leksikasining o‘zlashgan qatlamiga qarashli lug‘aviy birliklardir. Demak, zamonaviy qatlam til lug‘at tarkibidagi boshqa tillardan o‘zlashgan lisoniy birliklar uchun ham befarq ekan. Leksikaning zamondosh lug‘aviy birliklar qatlami til taraqqiyotining har bir bosqichida o‘ziga xos xususiyatlar bilan namoyon bo‘ladi. Shuning uchun til taraqqiyotining muayyan bosqichi uchun zamonaviy hisoblangan lug‘aviy birliklar uning boshqa bosqichi uchun zamonaviy bo‘lmasligi mumkin.

### **Zamondosh qatlam**

Bu qatlamga qarashli lug‘aviy birliklarning ayrimlari yangilik va ayrimlari eskilik bo‘yog‘iga ega ekanligi bilan zamonaviy qatlam lug‘aviy birliklaridan farq qiladi. Demak, yangilik yoki eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan so‘zlar majmuasi – tizimi leksikaning zamondosh qatlamini tashkil qiladi. Zamondosh qatlam ham, zamonaviy qatlamda bo‘lganidek, til taraqqiyotining har bir bosqichida o‘ziga xos lisoniy va nolisoniy xususiyatlar bilan mavjud bo‘ladi. Zamonaviy qatlam lug‘aviy birliklariga *yer*, *suv*, *o’t*, *osh*, *ish*, *uy*, *bola*, *ota*, *ona*, *oila*, *vatan*, *kasb*, *hunar*, *talaba*, *ishchi*, *oila*,

*yostiqdosh; oq, qora, yaxshi, yomon, issiq, sovuq, yumshoq, qattiq; ishlarimoq, o'qimoq, kelmoq, ketmoq, uxlamoq; tez, sekin, past, baland* singari son-sanoqsiz so‘zlarni ko‘rsatish mumkin. Zamondosh qatlam bo‘yog‘i jihatidan o‘zaro farq qiluvchi ikki tip lug‘aviy birliklarni o‘z ichiga oladi: 1) *yangilik bo‘yog‘i bor lug‘aviy birliklar (neologizmlar);* 2) *eskilik bo‘yog‘i bor lug‘aviy birliklar (arxaizm va istorizmlar).*

## **Neologizmlar**

Neologizmlar yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklardir. Ular tilda boshqa so‘zlarga nisbatan keyin paydo bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *tadbirkor, tadbirkorlik, pudrat, pudratchilik, tijorat, tijoratchilik, tadbirkorlik harakati, bankrot, barter* va h.k. so‘zlarning hozirgi ma’nosini bilan paydo bo‘lganligiga ko‘p vaqt bo‘lganicha yo‘q. Bu so‘z va birikmalar shu, keyingi davrda paydo bo‘lgan ma’nolariga ko‘ra, yangilik bo‘yog‘iga ega lug‘aviy birliklardir.

So‘zlarning yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lishi yoki zamonaviylik kasb etib yangilik bo‘yog‘ini “tark etishi” nisbiy xarakterga ega. Bir vaqtlar yangilik bo‘yog‘i kasb etib, neologizm sanalgan lug‘aviy birliklar tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida odatiy so‘zlar xarakteriga kirib, neologizmlikdan soqit bo‘lishi hollari bo‘lib turadi. Masalan, o‘tgan asrning o‘ttizinchi-qirqinchi yillarida o‘zbek tili leksikasining neologizmlar qatorida bo‘lib, uni to‘ldirgan *kanikul, ta’mir, pechat, sekretar, student, trener, biblioteka, agitatsiya, propaganda, konferensiya, ministr, programma, zapas, spravka, akt, kontakt, raport, aggressiv, alternativ, impuls, injener, kategoriya, meditsina, vrach//doktor, kollektiv* singari bir necha o‘nlab so‘zlar endilikda neologizm bo‘lmay qoldi. O‘scha davrda ularga xos bo‘lgan yangilik bo‘yog‘i endilikda *ta’til, ta’mir, muhr, kotib, talaba, ustoz, kutubxona, targ‘ibot, tashviqot, anjuman, vazir, dastur, zaxira, ma’lumotnama, dalolat, xabarnoma, bosqinchi, saylanma, turtki,*

*muhandis, toifa, tibbiyot, tabib* singari zamonaviy lug‘aviy muqobillariga ko‘chdi.

Neologizmlarning *lug‘aviy (leksik)* va *ma’noviy (semantik)* kabi ikki turi mavjud. Lug‘aviy neologizmlar tilning ifoda jabhasiga xos bo‘ladi. Bu xususiyatga fonetik shakllangan va ijtimoiy hayotda vujudga kelgan yangi tushunchalarni atash vazifasini bajarishga xoslangan odatdagi so‘z va birikmalar ega bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “*Mersedes*”, “*Samsung*”, “*Soni*”, *prezident, istiqlol, mustaqillik, rayosat, taqdimot, farmon, farmoyish, hamdo‘stlik mamlakatlari, hissadorlik jamiyati, katta biznes, kichik biznes, o‘rta biznes, tuman, ma’naviyat, ma’naviyat markazi, fuqaro, fuqarolik, barter, marketing, menejer, broker, dizayner, amaliyot* kabilar lug‘aviy neologizmlardir.

Ma’noviy (semantik) neologizmlar tilning mazmun jabhasidagi yangi lisoniy birlik bo‘lib, tilda oldindan mavjud bo‘lgan biror-bir lug‘aviy birlik ijtimoiy hayotda paydo bo‘lgan yangi, zamonaviy ma’no kasb etadi. Neologizmning bu turiga *rais, oqsoqol, hokim, qozi* so‘zlarining keyingi vaqtarda kasb etgan ma’nolarini kiritish mumkin.

Lug‘aviy neologizmlar lug‘aviy okkozionalizmlarga yaqin, ular bilan munosabatdosh hodisa. Biroq bu ikki hodisa orasida sezilarli farq ham yo‘q emas. Lug‘aviy neologizmlar tilda ommalashayotgan va unga (ommalashishga) moyil lisoniy birliklardir, shu bois ular til hodisasi sifatida baholanadi, bora-bora til lug‘at tarkibidan o‘z lisoniy o‘rnini topadi, lug‘atlarga kiritiladi.

Okkozionalizmlar esa nutqda muayyan bir ekspressivlikni ro‘yobga chiqarish maqsadida atayin paydo qilinadi, shu sababli nutqiy hodisa sanaladi. Ular umumtilda ommalashsagina, lug‘atlarga kiritiladi. Til lug‘atidan o‘rin olmagan har qanday lisoniy birlik okkozionalizmlardir. Ularni individual nutq neologizmlari deb ham ataladi. Bunda okkozionalizmlarning ana shu xususiyati nazarda tutiladi. O‘zbek badiiy adabiyotida ko‘zga tashlanuvchi *osmondosh, qirdosh, joydosh, cho‘ldosh, dumdosh, kulgidosh, kulgidrom, sezgidosh; kulgiskop, kulginika, paysalchilar* (*ishni paysalga solib*

*yuruvchilar), sukutchilar (sukut saqlab yuruvchilar), yomg‘irxat, qirovxat, shabnamxat, jalaxat va boshqalar lug‘aviy okkozionalizmlarga kiradi.* Ular so‘z yasashning okkozional (okkozional so‘z yasalishi) usuli yordamida hosil qilingan. Masalan, yozuvchi Said Ahmad ijodidan olingan “*Qorxat ziyofatiga o‘rganganlar yomg‘irxat, shabnamxat, qirovxat, jalaxat degan yangi-yangi odatlarni o‘ylab chiqarmasliklariga kim kafolat beradi?*” gapidagi *yomg‘irxat, shabnamxat, qirovxat, jalaxat* okkozionalizmlari ayrim muallif asaridagina uchragan individual nutq neologizmlari yoki lug‘aviy okkozionalizmlardir.

Neologizmlar yangi voqelikning yangi nomi (*konfliktsizlik* – adabiyotshunoslik atamasi, kosmodrom), nomga ega bo‘lgan voqelikning yangi nomi sifatida vujudga keladi. Keyingi tip neologizmga *fotokartochka* so‘zini misol keltirish mumkin. Bu so‘z neologizm sifatida *surat* so‘ziga ma’nodosh bo‘lgan. Natijada *surat* va *rasm* so‘zlarining ma’nolarida farqlanish vujudga keldi. Bu har ikki so‘z “*kartina*” ma’nosini ham, “*fotokartochka*” ma’nosini ham anglataverar edi. Hozir esa *surat* so‘zi asosan “*kartina*” ma’nosini, *rasm* so‘zi esa, asosan “*fotokartochka*” ma’nosini anglatadi. Neologizmlar badiiy nutqda ham qo‘llanadi, ta’sirchanlik, ekspressivlik ifodalovchi vositaga aylanadi. Masalan, shoir Odil Ikromning “Uchinchi dunyo” deb nomlangan she’ridan olingan quyidagi parchada “*vahdat*” so‘zi lug‘aviy neologizmdir:

*Vahdat sharobidan ko‘ngil bo‘lar mast,  
Diling bilan bitta bo‘lsa zaboning.*

## **Arxaizmlar**

Arxaizmlar zamondosh qatlamning eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklaridir. Bu atama grekcha so‘zidan olingan, “qadimgi” degan ma’noni bildiradi.

Arxaizmlar bir necha turli bo‘ladi: lug‘aviy arxaizmlar, fonetik arxaizmlar, grammatik arxaizmlar. Leksikologiyada lug‘aviy arxaizmlar o‘rganiladi.

Arxaizmlar tilning ifoda va mazmun jabha (plan)lariga ko‘ra farqlanadi. Tilning ifoda jabhasiga xos arxaizmlarni *lug‘aviy* (*yoki leksik*) *arxaizmlar*; mazmun jabhasiga xos arxaizmlar *ma’noviy* (*yoki semantik*) *arxaizmlar* deyiladi. Arxaizmning birinchi turi so‘z-arxaizm sanalsa, ikkinchi turi ma’no-arxaizm hisoblanadi.

Lug‘aviy arxaizmlar shaklan eskirgan lug‘aviy birlıklardir. Ularning ma’nosi fonetik qobig‘i tubdan farq qiluvchi boshqa lug‘aviy birliklar orqali ifodalananadi. Masalan, “inson boshining old qism a’zolaridan biri” ma’nosi oldingi davrlarda “dudoq” so‘zi orqali nomlangan. Hozir bu so‘z eskirgan, tarixiy lug‘aviy birlikka aylangan. Biroq shu so‘z nomlagan tushuncha va uning ma’nosi hozir tojik-fors tilidan o‘zlashgan “lab” leksemasi zimmasiga yuklangan.

Hozirgi o‘zbek tilida arxaizmga aylangan bunday so‘zlar anchagina. *O’tomoch* (*traktor*), *otasharava* (*poyezd*), *jinarava* (*velosiped*), *uchqich* (*samolyot*), *meng* (*xol*), *al* (*panja barmog‘i; hiyla, nayrang, firib*), *manglay* (*peshona*), *qopqa* (*darvoza*), *muguz* (*shox*), *omoch* (*plug*), *praktik* (*amaliyot*) va b. shular jumlasidan. Demak, lug‘aviy arxaizm sinonimiya bilan aloqador hodisa. Sinonimik qator a’zolaridan biri eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘lib, lug‘at tarkibining zamondosh qatlamiga tegishli bo‘lsa, uning boshqa a’zosi eskilik va yangilik bo‘yoqlaridan xolilashib, lug‘at tarkibining zamonaviy qatlamiga qarashli bo‘ladi.

Arxaizmga aylangan lug‘aviy birlıklarni til leksikasining barcha mavzuiy qatlamlarida uchratish mumkin: *pasport* (*ma’lumotnoma*), *dokument* (*guvohnoma*), *spravka* (*ma’lumotnoma*), *transport* (*naqliyot*), *garantiya* (*kafolat*), *prezidium* (*rayosat*), *kabinet* (*devon, mahkama*), *sostav* (*hay’at*), *oborot* (*o’ram*), *lashkarboshi* (*sarkarda*); *obiy* (*behi*), *amrud//murid* (*olmurut*), *rummon* (*anor*), *rutib* (*xurmo*), *seb* (*olma*), *sulh* (*yarashuv*), *yorg‘u* (*sud*), *ayg‘oqchi* (*guvoh*), *tuzuk* (*kodeks*) va b.

Arxaizmlar biror-bir lug‘aviy birlikning “eskirishi”, o‘z o‘rnini boshqa biror-bir lug‘aviy birlikka bo‘shatib berishi natijasida vujudga keladi. Bu jarayonda eskirgan so‘z o‘rniga “davogar” lug‘aviy birlikning iste’moli faollahadi, “eskirayotgan”iniki, aksincha, sustlashadi. Masalan, *pul – oqcha*, *xalq – ulus*, *kamchilik – qusur*, *rasm-rusum – udum*, *darvoza – qopqa*, *lab – dudoq*, *peshona – manglay*, *qilich – shamshir*, *buyruq – farmon*, *yordam – ko‘mak*, *qil//et – ayla*, *tayyor – hozir*, *bo‘yin – gardan*, *hadya – ehson*, *bajarmoq – ijro etmoq* va h.k. juftliklarning birinchi a’zolari umumtilda faollahgan, natijada ularning keyingi a’zo (juftlari) iste’moli sustlasha borgan va arxaik lug‘aviy birlikka aylangan.

Ma’noviy arxaizmga so‘z semantik qurilishidagi biror-bir ma’noviy birlik (semema)ning “eskirib”, barham topa borishi sabab bo‘ladi. Masalan, *rais*, *hokim*, *domla*, *afandi*, *tabib* so‘zlari hozirgi o‘zbek tilida yangi, zamona ruhiga mos ma’nolar kasb etib, ularning o‘tgan asrlar ijtimoiy hayoti bilan aloqador ma’nolari eskirgan, eskirgan o‘sha ma’nolari til mazmun jabhasining arxaik birligiga aylangan.

Arxaizmlar nutq uchun, ayniqsa, uning badiiy uslubi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi lisoniy-uslubiy vositalardir. Badiiy nutqda ulardan keng foydalaniladi, ular nutqning ko‘tarinkilagini ta’minlaydi. Masalan, *Bular ketgandan keyin*, *Said Jalolxon g‘ayratiga chidolmay shamshir sug‘urdi va havoda o‘ynatib, askarga farmon berdi* (A.Qahhor). *Yag‘rin tashlab jilmayib o‘tar ekan, Biz aminning “ehson”iga minnatdor* (G‘.G‘ulom).

Badiiy nutqda hozirgi til nuqtai nazaridan eskirib, arxaizmga aylangan lug‘aviy birliklarni ko‘chma ma’nolarda qo‘llab, ularga okkozional tus berish hollari ham yo‘q emas. Bunday jarayonlarda arxaizmlar poetik nutqqa xos ko‘tarinkilik, ekspressivlik, emotsionallik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Masalan, shoir Odil Ikrom ijodiga mansub quyidagi parchada *kamon*, *o‘q*, *nashtar*, *lashkar* singari lug‘aviy arxaizmlar ana shunday xususiyat kasb etgan:

*Nogahon uzilgan kamon o‘qiday,  
Bag ‘ringga sanchilar umid nashtari,  
O‘lmanan joningni jon achchig ‘ida  
Sug ‘urib ketganda g‘amning lashkari.*

## Istorizmlar

Istorizmlar ham eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Shu jihatdan ular arxaizmlarga yaqin lug‘aviy-ma’noviy birliklardir. Istorizmlarning arxaizmlardan farqi shundaki, ular hozirgi tilda ishlatiladigan ma’nodoshlariga – sinonimlariga ega bo‘lmaydi. Chunki istorizmlar nomlagan tushunchalar eskirib, ularning nomi til taraqqiyotining keyingi davrlarida barham topgan bo‘ladi. Masalan, *taxt*, *qarol*, *qo‘rboshi*, *zindon*, *qulqoq*, *bo‘nak*, *amin*, *to‘ra*, *xoqon*, *tunqotar*, *eshikog‘a*, *amin*, *saroy*, *mingboshi*, *yuzboshi*, *ellikboshi*, *o‘nboshi*, *mirshab*, *non kartochkasi*, *besh yillik plan*, *kolxoz*, *sovxozi*, *kommunist*, *komsomol*, *pioner*, *komsomol tashkiloti*, *partbyuro*, *partsyezd*, *partkom*, *komsorg* va boshqalar.

Demak, istorizmlar, arxaizmlardan farqli ravishda, ijtimoiy hayotda o‘rni yo‘qolgan tushunchalarni nomlaydi, shuning uchun ular sinonimik muqobilarga ega bo‘lmaydi. Masalan, *kolxoz*, *sovxozi*, *partkom*, *komsomol*, *pioner* singari so‘zlar nomlagan tushunchalar hozirgi ijtimoiy hayotda yo‘q, ular o‘tgan asrning oxirlarida barham topgan. Shu bois ularni atagan yuqoridagi lug‘aviy birliklar ham “tarix mulki”ga aylangan, *istorizmlar* xarakterini kasb etgan.

Lug‘aviy arxaizmlarda bo‘lganidek, istorizmlarning ham ikki turi mavjud: a) lug‘aviy (leksik) istorizmlar; b) ma’noviy (semantik) istorizmlar. Yuqorida keltirilgan lisoniy birliklarning barchasi lug‘aviy (leksik) istorizmlarga misol bo‘ladi. Ma’noviy istorizmlarga hozirgi nutqimizda ishlatilayotgan *hokim*, *rais*, *qozi*, *oqsoqol* so‘zlarining oldingi asrlarga xos ma’nolari kiradi.

Istorizmlar ham badiiy adabiyotda keng ishlatiladi; o‘tmish kaloritini berishda ulardan unumli foydalaniladi. Masalan, Odil

Ikromning “Dorparast” she’ridan olingan quyidagi parchada *dor*, *dorparast*, *dorboz* singari istorizmlar o‘rinli ishlatilgan:

*Bu dor do ‘koniga sig ‘adi, faqat  
Egilmagan boshlar – dorboz, dorparast,  
Yurak manziliga yetolmas loshim.*

### **Lug‘aviy birliklarning nutq uslublariga ko‘ra turlari**

Kishilararo o‘zaro fikr almashuv, uzatilayotgan har qanday xabar, ma’lumot va informatsiya nutq orqali ro‘yobga chiqadi. So‘zlovchi tomonidan uzatilayotgan axborot, ma’lumot jarayoni nutq jarayoni deb ataladi. Bu jarayonda tilga qarashli ayrim unsurlar harakatga keladi, nutq oldiga qo‘yilgan maqsadga muvofiq, berilayotgan informatsiyaga ma’lum miqdordagi lug‘aviy birliklar jalg etiladi. Ularning o‘zaro munosabatidan muayyan kommunikativ maqsadni ko‘zda tutgan nutq hosil bo‘ladi. Ma’lum bo‘ladiki, til va nutq o‘zaro munosabatdosh ikki hodisadir. Til va nutqning o‘zaro munosabatdoshligi shundaki, ularning birisiz ikkinchisini tasavvur etish mumkin emas. Bular biri ikkinchisiga tayanadi, biri boshqasining amali uchun shart-sharoit hozirlaydi. Boshqa ta’bir bilan aytganda, til nutqsiz, nutq tilsiz “yashamaydi”. XX asr, yangi davr tilshunosligining asoschisi F.de Sossyur til va nutqni qog‘oz varag‘ining ikki tomoniga o‘xshatadi. Varaqni ko‘ndalangiga kesib ikkiga ajratish mumkin bo‘limganidek, til va nutqni ham bir-biridan ajratish mumkin emas.

Nutq rang-barang ko‘rinishga ega. Uning har bir ko‘rinishi orqali har xil kommunikativ maqsad amalgalashadi. Tilga xos birliklar, xususan, lug‘aviy birliklar ham, nutqning ko‘rinishlariga muvofiq har xil taqsimlanadi. Har bir ko‘rinish uchun xoslangan lisoniy birliklar bo‘ladi. Leksika ham shu maqsadda nutq ko‘rinishlariga xoslangan turli xil qatlamlarga ajraladi.

Til tizimida uning shunday birliklari va ularning tagtizimi bo‘ladiki, ular nutqning barcha uslubiy ko‘rinishlarida bir xil lisoniy

maqomda ishlatilaveradi. Bunday til birliklari nutqning muayyan turiga, uslubiga, xoslanmagan *umumnutq* birliklari deyiladi. Lug‘at tarkibining ma’lum bir qatlamiciga xos lug‘aviy birliklar ana shunday xarakterda bo‘ladi.

Lug‘at tarkibining nutqning alohida-alohida ko‘rinishlariga xoslangan qatlamini nutq uslublariga xoslangan qatlam deb yuritiladi. Bu qatlam lug‘aviy birliklari *umumnutq* lug‘aviy qatlami va ularning birliklaridan farq qiladi. Demak, leksika, ya’ni lug‘at tarkibi, nutq ko‘rinishlari jihatidan ikki qatlamga ajraladi: 1) umumnutq qatlami; 2) nutq uslubi jihatidan xoslangan qatlam.

Umumnutq qatlamiciga qarashli lug‘aviy birliklar, yuqorida aytilganidek, nutqning barcha vazifaviy ko‘rinishlari (uslublari) uchun bir xil xizmat qilaveradi. Bunday lug‘aviy birliklar leksikaning faol qatlamiciga qarashli bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibining *suv*, *non*, *qish*, *kuz*, *yoz*, *dala*, *daryo*, *dengiz*, *ota*, *ona*, *katta*, *kichik*, *issiq*, *sovuq*, *yaxshi*, *yomon*, *ol*, *ber*, *ishla*, *kel*, *o‘qi*, *yoz*, *ich*, *tur*, *o‘tir* singari minglab lug‘aviy birliklari nutqning barcha vazifaviy uslublarida mushtarak lisoniy maqom bilan ishlatiladi. Bular nutq uslublariga xoslanmagan *umumnutq* lug‘aviy birliklari yoki uslublararo lug‘aviy birliklar deb yuritiladi.

Lug‘at tarkibining umumnutq va nutqning ma’lum bir vazifaviy uslubiga xoslangan qatlaming belgilanishida lug‘aviy birliklarning sinonimiyasi va uning qatoridagi a’zolarning farqlanishi muhim rol o‘ynaydi. Sinonimik qatorning *dominant* deb ataluvchi a’zosi hamma vaqt nutqning vazifaviy uslublari uchun bir xil xizmatda bo‘luvchi umumnutq lug‘aviy birlik hisoblanadi. Sinonimik qatorning boshqa a’zolari esa, nutq uslublariga ko‘ra xoslangan, ularning atigi birigagina qarashli lug‘aviy birlik xarakterini kasb etgan bo‘ladi.

Demak, umumnutq qatlamiciga xos lug‘aviy birliklar barcha nutq ko‘rinishlarida ishlatiladi, bularda nutqning ayrim-ayrim ko‘rinishlariga xoslanish bo‘lmaydi. Lug‘at tarkibining asosiy qismini shunday birliklar tashkil qiladi.

Darsligingizning bundan oldingi mavzusida lug‘at tarkibining *zamonaviy* va *zamondosh qatlam* kabi ikki guruhi haqida ma’lumot berilgan edi. Sezilayotgan bo‘lsa, zamonaviy qatlam (guruh) lug‘aviy birliklari ayni o‘rinda nutqning vazifaviy uslublariga befarq qarovchi *umumanutq* lug‘aviy qatlamida ham qatnashar ekan.

Nutqning muayyan vazifaviy uslublariga xoslangan lug‘aviy birliklar dastlab ikki guruhga bo‘linadi: a) adabiy nutqqa xoslangan lug‘aviy birliklar; b) so‘zlashuv nutqiga xoslangan lug‘aviy birliklar.

### **Adabiy nutqqa xoslangan lug‘aviy birliklar**

Bu guruhga kiruvchi lug‘aviy birliklar leksikaning (lug‘at tarkibining) asosini tashkil qiladi, miqdoran ko‘p bo‘ladi. Ular adabiy tilning orfografik va orfoepik me’yorlari talabiga ko‘ra iste’mol qilinadi. Shu jihatdan adabiy nutqqa xoslangan lug‘aviy birliklar til leksikasida kam miqdorni tashkil etuvchi so‘zlashuv nutqi lug‘aviy birliklaridan farq qiladi. Adabiy nutqqa xos lug‘aviy birliklar yozma manbalarning vujudga kelishi bilan bog‘lanadi, keng ma’nodagi matbuot tili va unda ishlatiluvchi lug‘aviy birliklar xarakterida bo‘ladi. Shu bois lug‘at tarkibining bu qatlami yozma nutq bilan uzviy aloqadadir.

“Adabiy nutq” keng ma’noda qaraluvchi nutqiy-lisoniy tushunchadir. Bu tushuncha chin ma’noda “adabiylik” belgisiga ega bo‘lgan nutjni ham, “adabiylik” belgisiga ega bo‘lmagan nutjni ham o‘z ichiga oladi. Ilmiy nutq ham, ommabop (publisistik) nutq ham, rasmiy-idoraviy nutq ham *adabiy nutq* doirasidagi alohida-alohida vazifaviy ko‘rinishlardir. Shular qatoriga nasriy va nazmiy asarlar matnini o‘z ichiga oluvchi chin ma’nodagi “badiiy” nutq ham qo‘shiladi. Ana shu xususiyatlar asosida ***adabiy nutq*** va unga qarashli lug‘aviy birliklar quyidagi ichki guruhlarga ajraladi: 1) publisistik nutqqa (uslubga) xos lug‘aviy birliklar; 2) ilmiy nutqqa (uslubga) xos lug‘aviy birliklar; 3) rasmiy-idoraviy nutqqa (uslubga) xos lug‘aviy birliklar; 4) badiiy nutqqa (uslubga) xos lug‘aviy birliklar.

**Publisistik nutq** ommabop nutq deb ham ataladi. Gazeta, jurnal va boshqa ommaviy axborot vositalari va shaxobchalariga (radio, televiedeniye) xos nutq publisistik nutq, shu nutqda faol ishlatiluvchi lug‘aviy birliklar publisistik nutqqa xos lug‘aviy birliklar deb yuritiladi: *qardoshlik, rubrika, sarlavha, ittifoq, xalqaro, viloyat, sohibkorlik, bosh maqola, maqola, xabar, ocherk, qahramon(imiz), manfaat, mamlakat, oila, nikoh, qonun, bosh qonun, jamoatchilik, xalq xo‘jaligi* va b. Publisistik nutqqa xos lug‘aviy birliklar ma’nosil til jamoasining hammasiga tushunarli bo‘lishi shart, shuningdek, ular leksikaning faol qatlamiga mansub bo‘lishi zarur.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasidan keltirilgan quyidagi parchaga va undagi lug‘aviy birliklarga e’tibor beraylik: “*Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o‘z hayotida his etishi kerak. Buning uchun barcha bo‘g‘indagi rahbarlar foizlar, raqamlar, qog‘ozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun, uning hayotiy manfaatlarini ta’minlash uchun ishlashi shart. Shunda nuroniy keksalarimiz, muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, hurmatli ayollarimiz, aziz farzandlarimiz, jazzi nabiralarimiz, ko‘p millatli butun xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi*”.

**Ilmiy nutqqa** xos lug‘aviy birliklar odatda fan, texnika va ularning muayyan soha va tarmoqlariga qarashli atamalar (terminlar) xarakterida bo‘ladi. Ularni faqat shu soha mutaxassislar tushunadi, xolos. Masalan, R.Shukurovning “Terminlar sinonimiysi xususida” maqolasidan keltirilgan quyidagi parchada til faniga oid *terminologiya, tilshunoslik, aktualizatsiya, korrelyatsiya, leksika, semantika* va sh.k. boshqa atamalardan tashqari, ayrim atamalarning ruscha shakllari ham ishlatilgan. “...terminologiyani tartibga solishda tilshunoslikning o‘zida aktualizatsiya, korrelyatsiya, leksika, semantika kabi terminlar uch, hatto to‘rt ma’noda qo‘llanadi. Uni abbreviatura – slojnosokrashyonnoye slovo, deetimologizatsiya – oproshenie, fonetika – fonologiya, affiks – affiksalmaya morfema –

formalnaya morfema – formant kabi sinonim terminlar mavjuddir” (O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. – Toshkent: Fan, 1986. 32 – 33-b.)

**Rasmiy-idoraviy nutqqa** xos lug‘aviy birliklarga *protokol, qaror, buyruq, farmon, farmoyish, tashkilot, majlis, yig‘ilish, ma’ruza, nutq, birinchidan, ikkinchidan, ariza, tilxat, bayonnoma, ma’lumotnama, ishonch qog‘ozi, tilxat, hujjat* singari bir necha o‘nlab leksemalar kiradi.

**Badiiy nutqqa** xos lug‘aviy birliklar nutqning ko‘rib o‘tgan boshqa barcha uslublari lug‘aviy birliklarinikidan farq qiladi. Negaki badiiy nutqda hayotiy voqealar, asar qahramonlari, ularning fe'l-atvori, ichki ruhiy olami, kasb-hunari, boshqa shaxslarga, narsa-hodisalarga munosabati va boshqalar o‘z lisoniy ifodasiga ega bo‘lishi zarur. Shu bois badiiy asar tilida asar g‘oyaviy mazmunini ochish uchun lug‘at tarkibining barcha qatlamlari lug‘aviy birliklariga tayaniлади; ularning barchasidan “vakillar” qatnashadi. Masalan, shoир Odil Ikrom ijodiga murojaat qilsak, uning she’rlari matnida shevaga xos, eskirgan qatlamga xos lug‘aviy birliklardan foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Uning “Ramaq” she’ri sarlavhasining o‘zi arxaik so‘z, bundan tashqari, matnda “*pir bo‘ldi*”, “*valangor*”, *kulba, tark etdi, hamla* singari lug‘aviy birliklar uchraydiki, she’riy parchaning badiyilagini ro‘yobga chiqarish ana shular zimmasiga tushgan.

*Taqdir hamlasiga topolmay tadbir,  
Pir bo‘ldi hafsal, eskirdi havas,  
Valangor kulbasin tark etdi bir-bir,  
Umidga ergashgan oxirgi nafas.*

Bunday xususiyat badiiy nutqning nasr (proza) janri uchun ham xosdir. Endi yozuvchi Otabek G‘oyibovning “Oq tuyalar qaytganda” asaridan olingan quyidagi parchaga e’tibor beraylik. “...*Haydovchi mashinani bir maromda boshqarib borardi. Shahardan chiqishda joylashgan militsiya xodimlari postiga yetganda, avtobus to‘xtadi. Militsiya xodimlari bilan birgalikda harbiylar yo‘lovchilarining hujjatlarini tekshirib bo‘lganlaridan so‘ng, haydovchi hujjatlarini oldi*

*va avtobus o‘z yo‘liga ravona bo‘ldi*”. (“Sharqnomalar”, 2. 2012 -y.). Bu badiiy nutq parchasida kasb-hunarga va o‘zlashgan qatlamga xos *haydovchi, militsiya, harbiylar, shahar, ravona, post, hujjat, avtobus*; leksikaning nofaol qatlamiga xos *so‘ng, bir maromda, boshqarmoq, yo‘lovchi* kabi lug‘aviy birliklar mavjud. Keltirilgan matnning badiiy nutqqa xosligi ana shu lisoniy birliklar tufayli anglashilayotir.

### **So‘zlashuv nutqiga xoslangan lug‘aviy birliklar**

Nutqning bu uslubiga xos lug‘aviy birliklar asosan lug‘at tarkibining faol qatlamiga mansub bo‘ladi. So‘zlashuv uslubining amal doirasi ancha keng bo‘lib, undan ommaviy jamoat joylaridan tashqari, ko‘cha-ko‘yda, uyda, har xil guruhlarda, sutkaning qaysi qismi bo‘lishidan qat’iy nazar, foydalaniaveradi. Nutqning bu uslubiga qarashli lug‘aviy qatlamni *non, osh, tuz, yer, osmon, quyosh, yulduz, kishi, bola, er, xotin, o‘rtoq, oyoq, qo‘l, ko‘z, ota, ona, kitob, qalam, xalq, olmoq, bermoq, kelmoq, uxlamoq, ishlarimoq, so‘zlamoq, sen, biz, u, ketvorgan, po‘rim, jinday, papalamoq, va, lekin, ammo, uchun* singari so‘zlar tashkil qiladi. So‘zlashuv uslubida turli kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutgan *akillamoq, g‘imirlamoq, bobillamoq, valdiramoq, ming‘illamoq, do‘ng‘illamoq, ting‘illamoq* kabi tasviriy-taqlidiy so‘zlar asosida hosil bo‘lgan lug‘aviy birliklar ham faol ishlatiladi.

So‘zlashuv uslubida ham sinonimiya va uning qatoridagi lug‘aviy birliklarning bo‘yoqdorligi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *bola, farzand, jujuq, churvaqa* so‘zlari bir umumiy ma’no atrofida birlashadi. Biroq bularning hammasini nutqning bir uslubiga xos deb bo‘lmaydi. Chunonchi, *bola* so‘zi nutqning barcha uslublarida befarq ishlatilsa, *farzand* so‘zi ko‘proq adabiy nutqning kitobiy uslubiga qarashli bo‘ladi. *Jujuq, churvaqa* so‘zlari jonli so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lsa-da, ishlatilishda farqlanadi: ularning birinchisi erkalash, suyish jilolariga (ottenkasiga) ega va ijobiy bo‘yoqli, ikkinchisi esa, mensimaslik, kansitish jilolari bilan salbiy bo‘yoqqa egadir.

## **Lug‘aviy birliklarning emotsional-ekspressivlikka ko‘ra guruhlanishi**

Nutqda so‘zlardan foydalanilganda, so‘zlovchining (subyektning) ular nomlagan tushunchalarga nisbatan muayyan bir maqsadni ko‘zda tutilgan munosabati ham ifodalangan bo‘ladi. So‘zlovchi-shaxsning so‘z anglatgan tushunchaga (u shaxsmi, narsa-predmetmi, voqeа-hodisami, bulardan qat’iy nazar) munosabati yo ijobjiy, yo salbiy, yo betaraf bo‘lishi mumkin. Shu asosda lug‘aviy birliklar ikki guruhga ajraladi: 1) emotsional-ekspressiv bo‘yoqsiz lug‘aviy birliklar (so‘zlar); 2) emotsional-ekspressiv bo‘yoqli lug‘aviy birliklar (so‘zlar).

**Emotsional-ekspressiv bo‘yoqsiz so‘zlar** umumtilning faol lug‘aviy qatlamiga xos bo‘ladi. Ular odatda sinonimiya qatorining dominanta deb ataluvchi muqobillari bilan teng keladi.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoq sinonimik qatorga kirmagan bir so‘zning turli xil morfologik shakllarida ham bo‘lishi mumkin. Masalan, *qush* va *qushcha* so‘zlarining leksik ma’nosи bir xil, ular o‘zaro sinonimlar ham emas. Lekin ularning uslubiy bo‘yoqqa munosabatida farq bor: *qush* so‘zining qo‘llanishida uslubiy bo‘yoq betaraf, so‘z nomlagan tushunchaga shaxsning ijobjiy yoxud salbiy munosabati ifodalanmagan. *Qushcha* so‘zida esa, lug‘aviy ma’noga ustama uslubiy ma’no ham mavjud.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoqsiz lug‘aviy birliklar nomlagan, ya’ni anglatgan tushunchalarga so‘zlovchining biror-bir subyektiv (pragmatik) munosabati qo‘srimcha tarzda ifodalanmaydi. Nutqda so‘z o‘z denotativ ma’nosи bilangina ishlataladi, xolos. Shuning uchun ham emotsional-ekspressiv bo‘yoqsiz lug‘aviy birliklar nutqning barcha vazifaviy uslublarida mushtarak qo‘llanaveradi. Bu lug‘aviy guruhga *ish*, *osh*, *kiyim*, *qush*, *odam*, *daraxt*, *katta*, *kichik*, *qattiq*, *yumshоq*, *olmoq*, *bermoq*, *bormoq* singari so‘zlar kiradi.

**Emotsional-ekspressiv bo‘yoqli so‘zlar** so‘zlovchi-shaxsning so‘z atagan tushunchaga munosabatiga ko‘ra ikki guruhga ajraladi:

a) ijobjiy bo‘yoqli lug‘aviy birliklar; b) salbiy bo‘yoqli so‘zlar. Emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa nisbatan uslubiy bo‘yoq atamasi ham ishlatiladi. Bu bo‘yoq so‘zning ma’no qamroviga (semantik qurilishiga) tegishli bo‘lib, uning lug‘aviy (nominativ, denotativ) ma’nosiga ustama tarzda “qoplanadi”. Demak, lug‘aviy birlikda, so‘zda, atash vazifasidagi nominativ ma’nodan tashqari, ifoda vazifasidagi uslubiy ma’no (jilo) ham bo‘ladiki, emotsional-ekspressiv bo‘yoq deyilganda, ana shu jilo tushuniladi.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan lug‘aviy birliklarni *emotsional-ekspressiv bo‘yoqli so‘zlar* deyiladi. Bunday so‘zlar (lug‘aviy birliklar) uch xil usul yordamida hosil qilinadi: 1) lug‘aviy (leksik) usul; 2) affiksal usul; 3) matniy (kontekstual) usul.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoq lug‘aviy (leksik) usul yordamida hosil bo‘lganda, so‘zning o‘zida yo salbiy, yo ijobjiy ma’nodagi jilo bo‘ladi. Ijobiy bo‘yoqli lug‘aviy birlik ham, salbiy bo‘yoqli lug‘aviy birlik ham bir umumiy lug‘aviy ma’noga ega bo‘ladi. Shu bois bunday lug‘aviy birliklar bir sinonimiya qatorini hosil qiladi: sinonim muqobillardan birida emotsional-ekspressivlikning ijobjiy xarakterdagi jilosi bo‘lsa, boshqa birida salbiy xarakterdagi jilosi bo‘ladi. Masalan, *yuz, bet, chehra, aft, bashara, turq* lug‘aviy birliklaridan tashkil topgan sinonimiya qatorida *yuz* uslubiy jihatdan betaraf muqobil sanaladi, u emotsional-ekspressiv bo‘yoqsiz lug‘aviy birlik. Shu qatordagi *bet* so‘zida uslubiy bo‘yoq aniq mavjud. Chunonchi, *yuzingni yuv, betingni yuv* mikromatnlarida fikr bir xil bo‘lsa-da, uslubiy bo‘yoq har xil: “*betingni yuv*” birikmasida ikki xil munosabat ifodalanadi. Birinchisi – yosh jihatdan katta shaxsning yoshi undan kichik shaxsga munosabati; ikkinchisi – nutq qaratilayotgan shaxsga nisbatan mensimaslik. Bu borada “*yuzingni yuv*” birikmasi betaraf. *Aft, bashara, turq* sinonimik muqobillarda emotsional-ekspressiv bo‘yoq nihoyatda kuchli va sezilarli. Ularning barchasi so‘zlovchi tomonidan kansitilayotgan, uning e’tiborini qozonolmagan shaxslarga nisbatan salbiy munosabatda ishlatiladi: *aftingni yuv, basharangni yuv, turqing qursin* kabi.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoq affiksatsiya usuli yordamida ifodalanganda, so‘z o‘zak-negiziga shaxsning ijobiy yoki salbiy munosabatini ro‘yobga chiqaruvchi turli xil qo‘sishimchalar qo‘shiladi. Bunday qo‘sishimchalarga -gina, -jon, -xon, -cha, -chak, -choq singari affiks morfemalar kiradi: *bolagina*, *singilgina*, *qizgina*, *opajon*, *akajon*, *o‘rtoqjon*, *opaxon*, *onaxon*, *otaxon*, *o‘g‘ilxon*, *yigitcha*, *qizcha*, *cholcha*, *kampircha*, *kelinchak*, *qo‘zichoq* va b.

Emotsional-ekspressiv bo‘yoq matn tarkibidagi ba’zi so‘zlarga okkozional tus berish yo‘li bilan ham hosil qilinadi. Masalan, hali uylanmagan yigitlarga nisbatan *kuyov* so‘zini, turmushga chiqmagan qizlarga nisbatan *kelin//kelinchak* so‘zlarini ishlatish orqali shaxsga nisbatan masxaralash munosabati ifodalanib, *kuyov* va *kelin//kelinchak* so‘zları salbiy munosabatdagi emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Yoki ilmiy ish, ilmiy mulohaza yuritishdan mutlaqo chetdagi shaxslarga nisbatan *olim* so‘zi ishlatilganda ham, bu so‘zda emotsional-ekspressiv bo‘yoq paydo bo‘ladi: *Bizning bu “olim”imiz o‘z chiqishi bilan hammaning og‘zini ochib qo‘ydi-ku*! Shu so‘zlar kuyovlik, kelinlik, olimlik darajasiga yetishgan shaxslarga nisbatan ishlatilganda, ular emotsional-ekspressiv bo‘yoqdan xoli bo‘ladi. Bu usul emotsional-ekspressiv bo‘yoq hosil qilishning matniy, ya’ni kontekstual usuli deb ham ataladi. Emotsional-ekspressiv bo‘yoq hosil qilinishidagi bu usulning yana boshqa ko‘rinishlariga e’tibor beraylik. Masalan, *bosh* so‘zi kishi, *kalla* so‘zi hayvon organizmi a’zolaridan birini nomlashga xoslangan. *Kalla* so‘zini odamga nisbatan ishlatilganda, bu so‘z (*kalla*) so‘zlovchi-shaxsning boshqa (tinglovchi yoki o‘zga) shaxsga bo‘lgan salbiy munosabatini ifodalovchi emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Misollarga e’tibor bering: *Kalla deb oshqovoqni ko‘tarib yurgan ekansan, og‘ayni* (jonli so‘zlashuvdan). *Bu oltin kallaning bahosi yuksak. Dushmanlar bunga xun to‘lashi kerak!* (*Yashin*). *Kalla* so‘zi hayvonga, *bosh* so‘zi insonga nisbatan ishlatilganda, ular emotsional-ekspressiv bo‘yoqsiz lug‘aviy birliklarga aylanadi.

## ETIMOLOGIYA

Etimologiya so‘zlarning kelib chiqishini o‘rganadi. U leksikologiyaning alohida bo‘limlaridan biri. Biroq bu bo‘lim uning boshqa bo‘limlari darajasida shakllanmagan.

Etimologiya atamasi grekcha unsurlaridan tarkib topgan; so‘zning kelib chiqishi haqida ilmiy tasavvur beradi. Demak, etimologiya so‘zlarning dastlabki paydo bo‘lish shakllari va ularning ilk ma’nolari haqida ilmiy ma’lumot beruvchi tarmoqdir. So‘zlarning paydo bo‘lishi, ilk shakllari va ma’nolari etimologik tahlil tufayli aniqlanadi. Etimologik tahlil til amalida eng mas’uliyatli va eng murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon tilshunos-mutaxassisdan chuqur va atroflicha lingvistik ma’lumotga ega bo‘lishni talab qiladi. Negaki, fonetik qonun-qoidalar va ularning amalini, so‘z tarkibining morfem qurilishi va u bilan bog‘liq qonun-qoidalarni bilmasdan turib, etimologik tahlilga kirishib bo‘lmaydi, aks holda, so‘zning kelib chiqishi haqida to‘g‘ri va ilmiy ma’lumotga ega bo‘lish mumkin emas. Shular bilan bir qatorda, etimologik tahlil o‘rganilayotgan so‘z mansub bo‘lgan tilga qardosh va qardosh bo‘lмаган boshqa tillardan ham xabardor bo‘lishni talab qiladi. Masalan, o‘zbek tilida “ona qo‘srig‘i” ma’nosida ishlatiluvchi “alla” so‘zi mavjud. U turkiy tillarning boshqalarida ham shu ma’noda uchraydi. Bu so‘zning o‘zak qismi “*al*” ekan. Qadimgi turkiy tilda u mustaqil so‘z maqomida ishlatilgan: “*hiyla, nayrang, firib*” ma’nolarini ifodalagan. Ana shu shakl va ana shu ma’noda bu so‘z ayrim turkiy tillarda, masalan, turk tilida, ozarbayjon tilining ba’zi shevalarida hozir ham ishlatiladi. “*Alla*” so‘zi tarkibidagi “-la” unsuri fe’l yasovchi (*ish-la, bosh-la, oq-la* va b.) qo‘sishimchadir.

“*Alla*” dastlab “*firib bermoq*”, “*nayrang ishlatmoq*” ma’nolarida vujudga kelgan. Shu ma’no hozirgi vaqtida bu so‘zning “*alda*” varianti zimmasiga yuklangan. “*Alda*” tarkibidagi “-da” “-la”ning fonetik variantlaridan biri sanaladi. “*Ishongan do ‘sting seni*

*aldab ketdi*" gapida bu ma'no aniq ifodalangan. Etimologik tahlil ana shu tartibda olib boriladi.

Etimologiya ikki xil bo'ladi: 1) ilmiy etimologiya; 2) soxta etimologiya yoki "xalq etimologiyasi". Ilmiy etimologiya so'zning kelib chiqishini to'g'ri aniqlaydi. Ilmiy etimologiya mutaxassisning tilning fonetika, morfemika, so'z yasalishi sohalari bo'yicha chuqur va mukammal bilimiga asoslanadi. Odatda, etimologik tahlil uchun shakli va ma'nosi xiralashgan so'zlar tortiladi. Bunday so'zlar ko'pincha joy nomlarida uchraydi. Masalan, "Qashqadaryo" viloyatlardan birining nomi. Uning kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasi xususida quyidagi ma'lumot mavjud. Bu ma'lumotga qaraganda, Qashqadaryo toponimi tarkibidagi "Qashqa", aslida, Qashko'h, ya'ni ("kash/ko'h") shaklini olgan bo'lib, oronimni, ya'ni Kashtog'i ma'nosini anglatgan. Kashtog'idan bosh olgan soy ni belgilash uchun ushbu nomga "rud" (daryo) so'zi biriktirilib, *Kashko'hrud* hosil qilingan. Talaffuzda u fonetik jihatdan o'zgarib, *Qashqarud* shakliga kelgan. Keyinchalik toponimning *rud* qismi *daryo* so'zi bilan almashtirilgan, natijada *Qashqarud* nomi hozirgi *Qashqadaryo* shakliga kelib to'xtagan. *Qo'qon* toponimi misolida ham ana shunday xulosaga kelish mumkin. *Qo'qon* xalq (soxta) etimologiyasiga ko'ra, *xuk* (*cho'chqa*) va *kent* (joy) unsurlaridan tarkib topgan va "*cho'chqalar yashagan joy*" deb sharhlangan. Aslida, unday emas. Toponimning "*qo'*" qismi shamol, sovuq ma'nolaridagi "*hu-hu*" taqlid so'zidan olingan, "*qon*" qismi esa, "*kent*" (joy, yer) so'zining mahalliy talaffuzga kirgan shaklidir. Demak, "***Qo'qon***" "*shamol joy*" ma'nosi bilan vujudga kelgan toponimdir. Bu ma'no shahar joylashgan hudud va uning atrofining sershamol ekanligi bilan ham dalillanadi.

Demak, etimolog-mutaxassis nolisoniy va lisoniy jarayonlardan, ayniqsa, so'z tarkibining morfonologik va semantik jarayonlaridan chuqur ma'lumotga ega bo'lmasa, ifoda va mazmun jabhalari o'zgargan so'zlarning kelib chiqishi haqida ilmiy xulosa chiqara

olmaydi. “Alla”, “Qashqadaryo”, “Qo‘qon” so‘zlari misolida siz ilmiy etimologiya taqozo etgan talab moyalari bilan tanishdingiz.

Soxta etimologiyada odatda chetdan o‘zlashgan so‘zlarning kelib chiqishi “bashorat qilinadi”. Bu jarayonda “etimoni aniqlanayotgan” so‘z va uning tarkibi o‘z tildagi biror-bir so‘z va uning tarkibiga o‘xshatiladi. Masalan, *univermag* so‘zi o‘zlashgan dastlabki davrda uni “*un bermak*” shaklida tasavvur etganlar. Negaki, *univermag* magazin bo‘lganligi uchun, unda oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan, *un* ham sotuvda bo‘lgan, sotilgan. *Univermag* talaffuzda ham “*un bermak*”ka o‘xhash. Demak, “*univermag*”ning “*un bermak*” tarzida sharhanishi soxta (yoki xalq etimologiyasi) uchun misoldir.

Tildagi hamma so‘zlar ham etimologik tahlilga muhtoj bo‘lavermaydi. Darslikning oldingi sahifalarida “ichki forma” tushunchasi haqida ma’lumot berilgan edi. “Ichki formasi” xiralashib unutilgan so‘zlar ko‘proq etimologik tahlilga muhtojdir. Bunday so‘zlarning dastlabki fonetik va morfem qurilishi, ular munosabatidagi chegara “yemirilgan” bo‘ladi. Odatda, etimologik tahlilga muhtoj so‘zlar ko‘proq o‘zlashma qatlamga, uning tub so‘zlar tarmog‘iga qarashli bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida etimologik tahlilga alohida e’tibor berilgan va berilayotgan bo‘lsa-da, uni hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

## **Ikkinchi qism**

### **FRAZEOLOGIYA**

#### **Frazeologiya haqida umumiylumot**

Frazeologiya – tilshunoslikning leksikologiya kabi mustaqil bo‘limlaridan biri. Frazeologiya til fanining mustaqil sohasi sifatida fonetika, leksikologiya va grammatikadan keyin shakllangan. Buning sababi shundaki, frazeologiya o‘rganadigan lisoniy birliklar, bu soha shakllanganligiga qadar, leksikologiyada, uning tarkibiy bo‘limlaridan biri sifatida qarab kelingan. Negaki, frazeologiya o‘rganadigan hodisalar ma’no jihatidan so‘zlarga tenglashtirilib, lug‘aviy birlik sifatida o‘rganilgan. Darhaqiqat, frazeologiyaga daxldor hodisalar, garchand birdan ortiq mustaqil leksik birliklardan tarkib topsa ham, ma’no jihatdan so‘zlarning ekvivalenti, semantik muqobili xarakterida amal qiladi. Masalan, *boshi osmonga yetdi, tomdan tarasha tushganday, ko‘zining oqu qorasi* kabi son-sanoqsiz iboralar alohida-alohida lug‘aviy birliklar bilan ma’nodoshlik munosabatiga ega: ular “sevindi” (*boshi osmonga yetdi*), “to‘satdan, kutilmaganda” (*tomdan tarasha tushganday*), “qadrli” (*ko‘zining oqu qorasi*) so‘zleri anglatgan ma’nolarga ega. Biroq bu o‘xshashliklar frazeologizmlarni so‘z hukmidagi lug‘aviy birliklardan farqlashga mantiqiy asos bo‘la olmaydi. Frazeologiya o‘rganadigan lisoniy birliklarning leksikologiya o‘rganadigan lisoniy birliklar bilan o‘xshash yana bir tomoni bor. Bu – ularning tildagi vazifasidir. Leksikologiya o‘rganadigan lisoniy birlik, ya’ni so‘z (leksema) ham, frazeologiya o‘rganadigan lisoniy birlik, ya’ni frazema (ibora) ham tilning

atamalilik (nominativlik) vazifasini bajaruvchi birliklari sirasiga kiradi: ya’ni so‘z ham – atama, frazema ham. Shuni qayd etish lozimki, so‘zlar odatdagи holda, ya’ni nutq ixtiyoriga o‘tmasdan, ekspressiv-emotsionallikka ega bo‘lmaydi, undan xoli “atama”lardir; frazemalar esa, odatdagи holda ham, ya’ni nutq ixtiyoriga o‘tmay turib ham, emotsional-ekspressivlikka ega bo‘ladi va u bilan qorishgan “atama”lar hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar emotsional-ekspressiv bo‘yoqli “atama”lar xarakterini kasb etadi.

Til ilmining boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, frazeologiya atamasi ham keng ma’noda ikki tushunchaga nisbatlanadi: 1) til fani sohasining nomi; 2) shu sohada o‘rganiladigan lisoniy birliklar va ularning tizimi.

Frazeologiya o‘rganadigan lisoniy birliklar tilning ifoda va mazmun jabhalari, ularning o‘zaro munosabatida ko‘zga tashlanadigan mutanosiblik va nomutanosiblik xususiyatiga ko‘ra, tilning boshqa sohalari (masalan, leksikologiya, morfemika) hodisalarida uchramaydigan o‘ziga xos xarakterga ega bo‘ladi. Frazeologiya sohasida o‘rganiladigan lisoniy birliklar tilning ifoda va mazmun jabhalari nomutanosibligiga asoslanadi: lisoniy birlikning – frazemaning ifoda jabhasi uning mazmun jabhasiga qaraganda bir necha bor murakkab bo‘ladi. Masalan, *buzoqning yugurgani somonxonagacha* lisoniy birligini olaylik. Bu – frazema, ya’ni frazeologik ibora. U grammatik shakllangan uch mustaqil leksemadan (*buzoqning*, *yugurgani*, *somonxonagacha*) tuzilgan. Biroq shu ibora tarkibida ulardan birortasi ham o‘z nominativ (lug‘aviy) ma’nosini saqlagan emas. Bu ibora “*behuda*” degan ma’noga ega. Grammatik jihatdan shakllangan bu uch leksema o‘zaro semantik bog‘lanishga mutlaqo ega bo‘lmagan “***behuda***” ma’nosidagi **bir sememaga tenglashgan**. Boshqacha aytganda, *uch leksema* o‘zaro birikib, umumtilda bir lug‘aviy ma’no ifodasi uchun rasmiylashgan: ***buzoqning yugurgani somonxonagacha*** (ya’ni *kimningdir yugurib – yelgani behuda, foydasiz*).

So‘z va uning shakliy jabhadagi lisoniy yaxlitligiga nisbatan *leksema* atamasi qo‘llaniladi. Frazeologik iboraga nisbatan *frazema* atamasidan foydalanish ma’qul va qulay. Bu atama so‘zning “*leksema*” deb nomlanishi asosida analogiya yo‘li bilan hosil qilingan. Chunki fanda frazeologiya tushunchasi goh *ibora*, goh *birikma*, goh *frazeologik ibora*, goh *frazeologik birikma*, goh *ko‘chma ma’noli ibora*, goh *turg‘un birikma*, goh *ko‘chma ma’noli turg‘un birikma* atamalari bilan har xil nomlanib keladi. *Frazema* atamasi bir necha muqobil shakllarda ishlatiluvchi ana shu atamalarning barchasini bir umumiy lisoniy mohiyat bilan birlashtiradi. Demak, frazeologiya tildagi frazemalar va ularning tizimini o‘rganadi. Tilshunoslik sohalarining har biri o‘z lisoniy birligiga ega bo‘lganidek (masalan, *fonetikada* – ***fonema***, *morfemikada* – ***morfema***, *sintaksisda* – ***sintaksema***, *grafikada* – ***grafema*** va h.k.), frazeologiyaning ham sohaviy birligi – bu ***frazemadir***.

Frazeologiyaning obyekti keng va tor doiralarda qaraladi. Keng doirada qaralganda, frazeologiya maqol, aforizm va matallarni ham o‘z ichiga oladi. Buning sababi shuki, maqol, matal va aforizmlar ham ikki va undan ortiq mustaqil ma’noli so‘zlardan tuziladi. Ularning o‘zaro munosabati “jonli” grammatik aloqalarga asoslanadi. Maqol, matal va aforizmlar ham tilda tayyor holga kelib qolgan nutqiy-lisoniy birliklardir. Keng doirada qaraladigan frazeologiyaning birliklarini (maqol, matal va aforizmlarni) tor ma’nodagi frazeologiya o‘rganadigan birliklardan farqlangan holda, *paremalar* deyiladi. Frazemalardan farqli ravishda, *paremalar* hamma vaqt gap tarzida shakllanadi; gap bir butun holicha ko‘chma ma’noga ega bo‘ladi. Paremalar ham, frazemalar kabi, umumtil mulki hisoblanadi, tayyor holda avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tadi. Masalan: *Yomonga yaqin yursang, qorasi yuqar*; *Yomondan hamma bezor*; *Bosh ketsa ham, obro‘ ketmasin*; *Dunyo ko‘rmay, dunyo kishisi bo‘lmas*; *Ko‘pdan ayrilganni bo‘ri yer*; *Tariq sochilsa, tovuq to‘yar* va boshqalar.

Ayrim hollarda frazema va maqollar (paremalar) o‘zaro o‘xshash va teng bo‘lib qolishi mumkin. Bu ko‘chma ma’nolar anglatgan

maqollarda uchraydi. *Qosh qo ‘yaman deb, ko ‘z chiqarma; ko ‘rpangga qarab oyoq uzat; Besh panjangni og ‘zingga tiqma; Temirni qizig ‘ida bos* singari hodisalar ayni shu shaklda maqollardir. Chunki bular gap shaklida ifodalangan, qolaversa, bir butun holda ko‘chma ma’nolar ham ifodalagan. Endi bu maqollar (paremalar)ning frazem xarakteridagi ko‘rinishlari ham yo‘q emas. Ular *qosh qo ‘yaman deb ko ‘z chiqarmoq; ko ‘rpaga qarab oyoq uzatmoq; besh panjasini og ‘ziga tiqmoq; temirni qizig ‘ida bosmoq* kabi so‘z birikmalari shaklida o‘zgartirilsa, frazem birliklar xarakterini kasb etadi. Shunisi ham borki, maqol (parema) va frazemalarning bu tarzda to‘qnashuvi faol emas, ayrim holatlardagina yuz beradi. Yana ta’kidlash joizki, maqol – bu gap shaklidagi tayyor qurilmalardir, frazemalar esa, so‘z birikmalari shaklida ham, gap shaklida ham (*yuragi sigildi; o‘takasi yorildi; ko ‘ngli aynidi; bosh aylandi; ko ‘zi to ‘rt bo ‘ldi; hovuri bosildi* va h.k.) uchrayveradi. Frazemalarga, maqollardan tashqari, aforizm va qanotli so‘zlar ham o‘xshaydi. Biroq ular, frazema va maqollardan farq qilgan holda, ayrim individlar tomonidan ijod qilinadi, ular nutqidan ko‘chirma tarzda olinadi, ya’ni ular xalq tomonidan yaratilmaydi.

Frazemalarga xos xususiyatlar tilning lug‘aviy sath hodisalarida ham uchraydi. Lug‘aviy sathga xos “frazema”lar odatda qo‘shma so‘zlar tavsifida bo‘ladi va bir leksema sifatida qaraladi. Masalan, *qizilishton, ko ‘richak, oshqozon, gultojixo ‘roz, tomorqa, bosvoldi* (*qovun navi*) va sh.k. bir qator leksemalar anglatgan ma’nolar shu so‘zlar tarkibidagi o‘zak qismlarining lug‘aviy ma’nolari bilan mutanosib emas, leksemalarning ma’nosi ularning o‘zak qismlari ma’nolari summasiga teng emas. Biroq keltirilgan bu kabi leksemalar bilan frazemalar o‘zaro farq qiladi: frazemalar grammatik shakllangan leksemalardan tuziladi; ma’nosi o‘zak qismlari ma’nosi summasiga asoslanmagan leksemalar esa, morfemalardan tashkil topadi. Chunonchi, “*oshqozon*” qo‘shma leksemasi anglatgan lug‘aviy ma’noning “*osh*” va “*qozon*” so‘zlari anglatgan lug‘aviy ma’nolarga aloqasi yo‘q. Bu o‘rinda “*osh*” va “*qozon*” morfemalari (so‘zlari

*emas!)* ko‘chma ma’nolar kasb etgan: *oshqozon* leksemasining lug‘aviy ma’nosи uning tarkibidagi morfemalari (*osh-*, *-qozon*)ning ko‘chma ma’nosи zaminida hosil bo‘lgan.

Frazemalarning ifoda jabhasi so‘z birikmalarining ifoda jabhasidan farq qilmaydi. Biroq so‘z birikmalari frazeologiyada emas, balki sintaksisda o‘rganiladi. Frazemalardan farqli ravishda, ular tilga emas nutqqa qarashli bo‘ladi, *nutqiy birliklar* hisoblanadi, nominativ vazifadagi sintaksemalar deb ham yuritiladi. Frazemalar *tilga* qarashli lisoniy birliklardir, ya’ni *til hodisalaridir*.

Frazeologiya tekshiradigan lisoniy hodisalar ham, leksikologiyada bo‘lganidek, o‘ziga xos murakkab tizimdir. Bu tizimni frazemalar tizimi deyiladi. Frazemalar lisoniy jihatdan ko‘p qirrali hodisalardir. Lug‘aviy sathda leksemalar qanday xususiyatlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, frazemalar ham o‘z sathida o‘sha xususiyatlarga egadir. Shu sababli frazem birliklar ham, shakl va ma’no munosabati, kelib chiqishi (tarixiy-etimologik jihat), iste’mol doirasi, nutq uslublariga munosabati, morfologik va sintaktik xususiyatlari kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi.

O‘zbek tili frazemalari tizimining ilmiy shakllanishi va rivojlanishida professor Sh.Rahmatullayevning xizmatlari beqiyos katta. Olim o‘zbek frazeologiyasi bo‘yicha o‘tgan asrning o‘rtalaridan ish boshlagan. Bu mavzuda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yozgan, bir necha o‘nlab kitoblar, yuzlab ilmiy maqolalar e’lon qilgan. Yana muhimi shundaki, “O‘zbek tili frazeologizmlarining izohli lug‘ati” ham shu olim tomonidan tayyorlanib, qayta-qayta nashr etilgan. XX asrning oxirlarida o‘zbek frazeologiyasi yana boshqa tadqiqtichilariga ega bo‘ldi. Bu borada B.Yo‘ldoshev va aka-uka Abdumurod va Abdug‘afur Mamatovlarning xizmatlari alohida tahsinga loyiqidir. B.Yo‘ldoshev frazem birliklarning konnotativ ma’nolari, tasviriy vosita sifatidagi xususiyatlarini keng monografik rejada yoritgan bo‘lsa, professor Abdumurod Mamatov frazeologik norma muammosini hal qilishga harakat qildi. Professor Abdug‘afur Mamatovning tadqiqtolarida esa, frazemalarning shakllanish

muammolari kun tartibiga ko‘tarildi, uning paydo bo‘lish omillari aniqlandi. Shunday qilib, professor Sh.Rahmatullayev asos solgan o‘zbek tili frazemalari o‘zbek tilshunosligining chuqur ilmiy asosga ega bo‘lgan mustaqil sohasi sifatida shakllandi.

## FRAZEOLOGIK SEMASIOLOGIYA

### **Frazemalarda bir ma’nolilik va ko‘p ma’nolilik**

Frazemalar ma’no tomoni bilan tilning mazmun jabhasiga qarashli bo‘ladi. Frazemalarning ma’nosи deganda, iboraga rasmiylashib, ommalashgan ko‘chma ma’no tushuniladi. Frazem ma’no ma’lum bir obraz asosida vujudga keladi. Masalan, *til tegizmoq* frazemasi “*sha’niga nomunosisib gap aytmoq*” ma’nosini bildiradi. Bu ma’no shu iborani tashkil etgan lug‘aviy birliklar ma’nosidan bevosita kelib chiqmagan. Unda “til” va “tegizmoq” so‘zlarining umumtil uchun rasmiylashgan ma’nolari yo‘q; frazema ma’nosи bilan uni tashkil etgan lug‘aviy birliklar ma’nolari munosabatida biror-bir aloqadorlik sezilmaydi. Frazem ma’nolar ayrim hollarda iboraning tarkibidagi leksemalardan birining ma’nosiga asoslansa, ba’zan iboraning to‘laligicha ko‘chma ma’nosiga asoslandi. Masalan, *boshini yemoq, ko‘zini bo‘yamoq, yeng shimarmoq, ko‘nglida kiri yo‘q, ko‘ngli toza, yo‘ldan urmoq, tili qichimoq, gap tegmoq* singari bir qator iboralarning frazem ma’nosи shu iboralar tarkibidagi leksemalardan birining (*bosh, ko‘z, yeng, ko‘ngil, yo‘l, til, gap*) ma’nosiga asoslangan. *Arpasini xom o‘rmoq, miyasi (boshi)da danak chaqmoq, soyasiga salom bermoq, bir cho‘qishda qochirmoq, qo‘ltig‘iga suv purkamoq, barmog‘ini tishlamoq, yoqasini ushiamoq* kabi iboralarning frazem ma’nolari shu iboralarning to‘laligicha ko‘chma ma’nolari asosida vujudga kelgan.

Frazeologik birliklarning ma’no tomoni bilan bog‘liq barcha xususiyatlari frazeologik semasiologiyada o‘rganiladi. Lug‘aviy sath birliklarida (leksemalarda) bo‘lganidek, frazem sath birliklari ham bir

ma'noli va ko'p ma'noli bo'ladi. Bir ma'noli frazem birliklar monosemantik, ko'p ma'nolilari polisemantik frazemalar deb ataladi. Masalan, *osmon bilan yercha*, *osmonni ko'tarmoq*, *ot bilan tuyacha*, *yoqasini ushlarimoq*, *boshiga qilich kelsa ham* kabilar bir ma'noli, ya'ni monosemantik frazemalar sanalsa, *ikki qo'lini burniga tiqib*, *xayoliga kelmoq*, *jonini olmoq*, *bo'yniga qo'ymoq*, *o'rtaga tushmoq* singari frazemalar ko'p ma'noli, ya'ni polisemantik lisoniy birliklardir.

Frazemalarda ham birdan ortiq ma'nolar ifodalanishi lisoniy odat hisoblanadi. Bunday odat ko'p ma'noli (polisemantik) frazemalarga xos. Ya'ni frazemalar birdan ortiq ma'nolar ifodalasa, ular polisemantik frazemalar sanaladi. Polisemantik frazemalarning oddiy ko'rinishi ikki ma'noli bo'ladi. Masalan, *aqli yetadi* frazemasi "idrok qilmoq" va "ishonch hosil qilmoq" kabi ikki ma'noga ega. *Bo'yniga qo'ymoq* frazemasi uch ma'nolidir: 1) "to'nkamoq, ag'darmoq", 2) "isbotlab, e'tirof qildirmoq", 3) "bajarishga rozi qilmoq". *Qo'lga olmoq* frazemasi esa to'rt ma'nolidir: 1) "o'z ixtiyoriga o'tkazmoq", 2) "qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq", 3) "hibs qilmoq", 4) "o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq". Frazemalar polisemiyasida ham, lug'aviy polisemiyada bo'lganidek, bosh (asos) va yasama (hosila) ma'no bo'ladi. Lug'aviy polisemiyadan farq qilgan holda, ko'p ma'noli frazem birlikning bosh (asos) ma'nosi ham ko'chma ma'no xarakterida bo'ladi. Bu frazemalarga xos umumiyl lisoniy xususiyatdir. Frazemalarda ham yasama (hosila) ma'nolar metafora yo'li bilan ko'chirish va tatbiq etish usullari bilan hosil qilinadi. Masalan, *ko'ngli ko'tarmaydi* frazemasining dastlabki ma'nosi iste'mol qilinadigan narsalarga nisbatan (yeb-icha olmaslikka) ishlatilgan bo'lsa, uning hosila ma'nolari ("yoqtirmaslik") "ovqatdan boshqa narsa"larni xushlamaslik holatlariga ham "ko'chirilgan".

Polisemantik frazemalarda keyingi (hosila) ma'nolar ko'pincha ularning oldingi (birinchi, ikkinchi va h.k.) ma'nolaridan o'sib chiqqan bo'ladi. Masalan, *belini bog'lamoq* frazemasi uch ma'noli bo'lib, uning birinchisi – "shaylanmoq, otlanmoq"; ikkinchisi –

“*astoydil kirishmoq*”; uchinchisi – “*ahd qilmoq*”dir. Bu ma’nolarning ikkinchisi birinchisidan, uchinchisi ikkinchisidan o’sib chiqqan.

Polisemantik frazemalar uslubiy jihatdan yaxlit xarakterga ega bo‘ladi. Chunki polisemantik iborada ko‘pincha to‘g‘ri, mantiqiy asosli nominativ ma’no bo‘lmaydi, uning barcha ma’nolari yaxlit ichki bir obrazga birlashadi. Masalan, “*qo‘lga tushmoq*” iborasi ikki ma’noga ega: a) *aybi oshkor bo‘lib tutilmoq*; b) “*qamoqqa // hibsga tushmoq*”. Bu ikki ma’no ham “*tutqunlik*” ichki obrazi atrofida yaxlitlanadi. Xuddi shuningdek, “*ikki qo‘lini burniga tiqib*” iborasi ham ikki ma’nolidir: a) “*quruq*”, “*hech narsasiz*”; b) “*quruq*”, “*benasiba*”. Bu ikki ma’no ham “*quruqdan-quruq*” degan yaxlit ichki obraz qamrovida birlashadi. Shunday qilib, frazem ko‘p ma’nolilik emotsiyal-ekspressiv bo‘yoqdorlik va obrazlilik bilan chambarchas bog‘liqlikdagi lisoniy voqelikdir.

### **Frazemalarning shakliy munosabatga ko‘ra turlari**

Lug‘aviy birliklar (leksemalar)da bo‘lgani kabi, frazem birliklar ham shakliy munosabatga ko‘ra ikki xildir: 1) *frazem omonimiya*; 2) *frazem paronimiya*. Frazem omonimiyada lug‘aviy tarkibi mushtarak iboralar talaffuzi va yozilishi jihatlaridan bir xil bo‘ladi; frazem ma’no qancha bo‘lsa, iboraning miqdori ham o‘shancha bo‘ladi.

**Frazem omonimiyaning** ikki ko‘rinishi mavjud. Ularning birida shakldosh iboralar tarkibida leksik omonim (shakldosh so‘z) bo‘ladi: *dam bermoq* (*havo haydash*) – *dam bermoq* (*hordiq uchun ruxsat*); *o‘ng kelmoq* (*to‘g‘ri kelmoq*, *qulay kelmoq*) – *o‘ng kelmoq* (*tushidagisini hayotida ham ko‘rmoq*). Ikkinci ko‘rinishida shakldosh iboralar bir xil lug‘aviy birliklardan tuzilgan bo‘ladi: *boshiga ko‘tarmoq* (*qattiq shovqin solmoq*) – *boshiga ko‘tarmoq* (*ortiq darajada hurmat qilmoq*; *ichagi uzildi* (*qattiq kulgidan ichaklarning harakatga kelishi*) – *ichagi uzildi* (*vaqtida ovqatlanmaslik tufayli ichaklarning ingichkalanishi*) va b.

**Frazem paronimiyada** iboralarning talaffuz yaqinligi nazarda tutiladi. Paronimik munosabatdagi iboralar uch xil ko‘rinishda voqelanadi: 1) tarkibidagi leksemalardan biriga ko‘ra farq qiladi: *yuragi tars yorildi* – *yuragi qoq yorildi*; *o‘zini qayerga qo‘yishni bilmaslik* – *o‘zini qayerga urishni bilmaslik* va b.; 2) ibora tarkibida har xil so‘zshakl (leksemashakl) ishtirok etadi: *jon kirdi* – *joni kirdi*; *xayol ketdi* – *xayoli ketdi*; *boshdan kechirmoq* – *boshidan kechirmoq* va b.; 3) iboralar biri boshqasidan ham leksema, ham so‘zshakl (leksemashakl)ga ko‘ra farq qiladi: *yetti u xlabel tushiga kirmaslik* – *yetti xlabel tushida ko‘rmaslik* va b.

### **Frazemalarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari**

Frazemalar ma’no munosabatiga ko‘ra, lug‘aviy sathda bo‘lganidek, *frazem sinonimiya*, *frazem antonimiya* kabi ikki guruhga ajraladi.

**Frazemalar sinonimiyasida** ikki yoki undan ortiq ibora bir mushtarak ko‘chma ma’no atrofida birlashadi, ya’ni umumiy bir ko‘chma ma’no bildiradi. Masalan, *yer bilan yakson bo‘lmoq* va *kulini ko‘kka sovurmoq* lug‘aviy tarkibi o‘zaro farq qiluvchi ikki ibora, ikki frazemadir; *bir og‘iz* – *bir shingil* – *bir chimdim*, *ipidan ignasigacha* – *miridan sirigacha* – *qilidan quyrug‘igacha*, *dardi pasaydi* – *qalbidagi yara bitdi* – *mehri jo‘sh urdi* qatorlari esa uch iboradan, uch frazemadan tarkib topgan. Biroq bu frazemalar anglatgan ko‘chma ma’nolar bir xil, o‘zaro o‘xhash. Shu sababli ular sinonim frazemalardir.

Fazem sinonimlar fazem variantlarga o‘xshaydi. Lekin ular har xil semantik hodisalar sifatida o‘zaro farqlanadi: sinonim fazemalar tarkibida biri boshqasiga o‘xshamagan har xil lug‘aviy birliklar ishtirok etadi (*ipidan ignasigacha* – *miridan sirigacha* – *qilidan quyrug‘igacha*); variantlilik munosabatidagi fazemlar tarkibida o‘zaro sinonimik munosabatdagi lug‘aviy birliklar qatnashadi (*ko‘ngliga tugmoq* – *yuragiga tugmoq* kabi). Agar lug‘aviy tarkibida

o‘zaro farqlanuvchi leksemalar sinonimik xarakterda bo‘lmasa, bunday iboralar ham sinonim frazemalarga tegishli bo‘ladi. Masalan, *jonini hovuchlab* – *yuragini hovuchlab* (*jon* va *yurak* so‘zlari munosabatida sinonimlik yo‘q, ular sinonim frazemalardir).

Frazemalarning sinonimik qatori, muqobil a’zolarning miqdoriga ko‘ra, har xil bo‘ladi. Bir sinonimiya qatorida ikki, uch va undan ortiq muqobil frazemalar birlashishi mumkin. Shulardan ikki va uch frazem muqobillarni birlashtiruvchi sinonimiya qatorlari miqdor jihatdan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan, *ta ’zirini yemoq – adabini yemoq*, *ko ‘zi ochiq – ko ‘zi tirik*, *jonini hovuchlamoq – yuragini hovuchlamoq* muqobillaridan tarkib topgan qatorda ikki frazema; *bir yostiqqa bosh qo ‘ymoq – turmush qurmoq – oila qurmoq, bahri-dili ochilmoq – dimog ‘i chog ‘ bo ‘lmoq – kayfi chog ‘ bo ‘lmoq* muqobillaridan tashkil topgan qatorda uch frazema; *esiga tushmoq – esiga solmoq – xayoliga kelmoq – yodiga tushmoq, achchig ‘i keldi – fe ‘li buzildi – qoni qaynadi – jig ‘i-biyroni chiqdi – to ‘nini teskari kiydi* muqobillaridan tashkil topgan qatorda besh frazema ma’nodoshdir, ya’ni sinonimlardir.

Ayrim frazemalarning ma’nodosh muqobili so‘zga – leksemaga to‘g‘ri keladi: *dunyonи suv bossa, to ‘pig ‘iga chiqmaydi – beg ‘am, tomdan tarasha tushganday – kutilmaganda, to ‘satdan, qo ‘ltig ‘idan tarvuzi tushmoq – umidsizlanmoq* va sh.k. Sinonimiyaning bu tip qatorini *lug ‘aviy-frazem* sinonimiya qatori deyiladi.

**Frazemalar antonimiyasida** o‘zaro muqobillashayotgan ikki yoki undan ortiq ibora zid ma’nolarga ega bo‘ladi: *ko ‘kka ko ‘tarmoq – yerga urmoq, savol bermoq – javob qaytarmoq, yuzi yorug ‘ – beti shuvut, ko ‘nglisovudi – ko ‘ngli ko ‘tarildi* va b. Ayrim hollarda frazemalar antonimligi iboralar tarkibida kelgan zid ma’noli so‘zlar (leksik antonimlar) evaziga vujudga keladi, ya’ni frazemalar tarkibidagi zid ma’noli lug‘aviy birliklarga asoslanadi: *yuragi keng – yuragi tor* (*keng-tor*), *ko ‘nglida kiri yo ‘q – ko ‘nglida kiri bor* (*yo ‘q-bor*), *oq ko ‘ngil – ko ‘ngli qora* (*oq-qora*), *noni yarimta bo ‘lmoq – noni butun bo ‘lmoq* (*yarim-butun*), *bag ‘ri tor – bag ‘ri keng* (*tor-*

*keng), tili achchiq – tili shirin (achchiq-shirin), ko‘ngli yumshoq – ko‘ngli qattiq (yumshoq-qattiq), ko‘ngli ko‘tarildi – ko‘ngli cho‘kdi (ko‘tarildi-cho‘kdi), obro‘yini yo‘qotmoq – obro‘yini topmoq (yo‘qotmoq-topmoq), dunyodan ketmoq – dunyoga kelmoq (ketmoq-kelmoq), qo‘lga olmoq – qo‘ldan bermoq (olmoq-bermoq) va b.* Frazem antonimlar vositalardan biri sifatida emotSIONAL-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Masalan, Sh.Xolmirzayevning “Bodom qishda gulladi” hikoyalar to‘plamidan olingan quyidagi parchada adibning frazem antonimlardan ustalik bilan foydalanganligini ko‘ramiz: *U ruhan va jisman harchand kuchli bo‘lmisin, g‘am uni eza boshladi, qishlog‘u maktabidan ham ko‘nglisovub bordi, o‘zi sezmagan holda, ko‘ngli ko‘tarilib, dardi pasayib qishlog‘iga qaytdi.* Bu parchada *ko‘nglisovub* va *ko‘ngli ko‘tarilib* zid ma’noli frazemalardir.

Frazem antonimlarning o‘ziga xos ma’no jilolalari badiiy nutqda aniq va ravshan namoyon bo‘ladi. Antonim frazemalar nutqqa kiritilganda, ma’lum bir uslubiy-pragmatik maqsad ko‘zda tutiladi. Shu maqsad nuqtai nazaridan, frazemalar munosabatidagi odatdagi zidlik barham topishi ham mumkin. Masalan, “*Esini tanibdiki, qo‘li qattiq, dili yumshoq otasi yil – o‘n ikki oy yuzboshinikida chorikor ishlardi* (Shuhrat). Bu matnda umumtil nuqtai nazaridan zid ma’noli bo‘lgan “*qo‘li qattiq*” va “*dili yumshoq*” frazemalari ishlatilgan. “*Qo‘li qattiq*” frazemasi “*mehnatkash*” ma’nosida qo‘llangan, u endi “*dili yumshoq*” bilan zid ma’noli emas. Bu ikki frazema munosabatidagi zidlik matn tarkibida barham topgan.

Ma’lumki, frazemalar tilning ***emotsional-ekspressivlik*** ifodalovchi muhim vositalari sanaladi. Frazemalar orqali ifodalananadigan ekspressivlik darajasi biri boshqasidan farq qiladi. Masalan, *ona suti og‘ziga kelmoq, oyog‘ini osmondan keltirmoq, oq bilan qorani tanimoq, obro‘yini tushirmoq, oldini olmoq, esiga kelmoq* kabi frazemalarga xos ekspressivlik bir xil emas. Ularning ayrimlarida bunday jilo (ma’no, ottenka) bo‘rtib tursa, ba’zilarida pastroq, boshqa birovlarida esa, u sezilmas darajada.

Ekspressivlikning bunday farqli darajalanishini bir frazemaning turli variantlarida ham ko'rsa bo'ladi. Masalan, *sochi tikka bo'ldi* frazemasida ekspressivlikni mo'tadil yoki quyi darajada deb qaraydigan bo'lsak, unga xos darajalanishning ortib borishini bu frazemaning quyidagi variantlarida bemalol sezish mumkin: *sochlari tikka bo'ldi – sochi tikka bo'lib ketdi – sochlari tippa-tik bo'lib ketdi*. Bu variantlar qiyosidan ma'lum bo'ladiki, frazemaning bir variantida ekspressivlik quyi, boshqasida kuchli, yana boshqasida o'ta kuchli darajaga ega. Bunday xususiyat *suyakdan o'tmoq – suyak-suyakdan o'tmoq; jonidan o'tmoq – jon-jonidan o'tmoq – jon-jonidan o'tib ketmoq; tinkani quritmoq – tinka-madorini quritmoq – tinka-madorini quritib yubormoq* singari frazem variantlar paradigmasining a'zolariaro ham mavjud.

## **O'zbek tili frazemalar tizimining shakllanish va rivojlanish manbalari**

Yuqorida ham ko'rganimizdek, lug'aviy birliklarga xos barcha lisoniy xususiyatlar frazem birliklar uchun ham xosdir. Shu jumladan, frazem sistema ham lug'aviy sistema kabi shakllanadi, rivojlanadi. Bu jarayon o'zbek tilining ichki va tashqi manbalari (omillari) asosida amalga oshgan. Ana shu xususiyat asosida o'zbek tili frazem tizimini ham ikki guruhga ajratish mumkin: 1) *o'z qatlam frazemalari*; 2) *o'zlashgan qatlam frazemalari*.

O'z qatlam frazem birliklarining tuzilishida, ya'ni "yasalishida" o'zga til unsurlari – lug'aviy birliklari ishtirok etmaydi. Ularga o'zbek tilining o'zida hosil bo'lgan iboralar kiradi. Masalan, *bag'ri keng, barmog'ini tishlamoq, ko'zi och, bel bog'lamoq, bo'yniga qo'ymoq, bo'yniga olmoq, beti qattiq, yuzi issiq, yulduzi sovuq, yulduzi issiq, so'z olmoq, og'zi ochilmoq, ko'ngli ketmoq, tili tutilmoq, og'ziga ilinmoq, beti kuygan, beti yo'q* va b.

O'zlashgan qatlamga oid frazem birliklar, xarakteriga ko'ra, ikki xil bo'ladi: ularning bir guruhi boshqa tillardan (ko'proq tojik-fors

tilidan) shakl o‘zgarishisiz o‘zlashib, umumxalq tilida ham ommalashgan bo‘lsa (*bajonu dil, dili siyoh, sukut alomati rizo* va sh.k.), ba’zilarining lug‘aviy tarkibida o‘zlashma qatlamga oid so‘zlar bo‘ladi (*buksirga olmoq, rangi o‘chmoq, baxti ochilmoq, baxti qora, boshi berk ko‘chaga kirmoq, jonini hovuchlamoq, jonini jabborga bermoq, tanini bag‘ishlamoq, nonini yarimta qilmoq, labini burmoq, pashsha qo‘rimoq, tanasidan judo bo‘lmoq, holi-joniga qo‘ymaslik* va sh.k.).

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, frazemalarning o‘zlashishi lug‘aviy birliklar o‘zlashishi kabi faol emas. Lekin o‘zbek tili frazem birliklarining yasalishini, tuzilishini va tizim maqomida shakllanishini boshqa tillardan (asosan, arab va tojik-fors tillaridan) o‘zlashgan lug‘aviy birliklarsiz tasavvur etish qiyin. Masalan, tojik-fors tiliga mansub birgina **jon** so‘zi ishtirokida yetmishdan ortiq o‘zbek frazemalari vujudga kelgan: *jon achchig‘ida, jon bermaslik, jon demoq, joni achidi, jonidan to‘ymoq, jon fido qilmoq, jon talashmoq, joni chiqmoq, jonini jabborga bermoq* va boshqalar.

Hozirgi o‘zbek tili frazemalar tizimida ko‘plab shu tizimga oid lisoniy birliklar uchraydiki, ular tojik tilidan kalka yo‘li bilan o‘zlashtirilganga o‘xshaydi: *ko‘zingga qarab yur – ba chashmi xud nigoh karda roh gard, biror kishidan ko‘ngli qolmoq – az kasse ranjidan, dimog‘i kuymoq – dimog‘ash so‘xtan, taqdirga tan bermoq – ba taqdir tan dodan, to‘rt kishi ko‘rgudek – chor kas medidagi, pashshadan fil yasamoq – az pashsha fil soxtan* va boshqalar.

O‘zbek tili frazemalar tizimida, miqdori kam bo‘lsa-da, rus tilidan ham kalka yo‘li bilan o‘zlashtirilgan bir qator frazemalar mavjud. Masalan, *arxivga topshirmoq* (*sdat v arxiv*), *o‘z gazi bilan o‘lchamoq* (*merit na svoy arshin*), *rol o‘ynamoq* (*igrat rol*), *xitoy devori* (*kitayskaya stena*), *tupikka kirib qolmoq* (*okazatsya v tupike*), *boshi berk ko‘chaga kirmoq* (*zayti v tupik*), *kalishga o‘tirmoq* (*sest v galoshi*), *yangi Amerika ochmoq* (*otkrit novuyu Ameriku*), *tarix g‘ildiragini orqaga surmoq* (*povernut koleso istorii vspyat*); *bir hovuch aristokratlar* (*gorst aristokratov*), *na tangriga chiroq, na*

*shaytonga kosov (ni bogu svechka, ni chertu kocherga); na shaharga, na qishloqqa (ni k gorodu, ni k selu); hechdan kech yaxshi (luchshe pozdno, chem nikogda), ichagi ingichkalik qiladi (kishka tonka), keyingi chislo bilan (zadnim chislom), zangori kema kapitani (kapitan golubogo korablya), dala malikasi (koroleva poley), urush olovini yoquvchilar (podjigateli voyni), qurollanish poygasi (gonka voorujeniy) va boshqalar ana shunday frazem birliklardir.*

Bu frazem birliklarning ba'zilari o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida, ba'zilari undan keyin paydo bo'lgan. Ularning ko'pi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham o'z iste'molini to'la saqlab qolgan.

### **O'zbek tili frazemalarining iste'moliga ko'ra guruhanishi**

Frazemalar ham nutqda ishlatilishi jihatidan, lug'aviy birliklar kabi, ikki guruhga bo'linadi: 1) *iste'mol doirasi chegaralanmagan frazemalar; 2) iste'mol doirasi chegaralangan frazemalar.*

Iste'mol doirasi chegaralanmagan frazemalarga nutqda faol ishlatiluvchi umumtil lisoniy birliklari kiradi. Ular til jamoasining barcha ijtimoiy guruhlari nutqida qo'llanadi. Shuningdek, bu tip frazemalar nutq uslublariga ko'ra befarq, ya'ni betaraf (neytral) bo'ladi. *Bosh ko'tarmoq, qo'l ko'tarmoq, ko'z qismoq, og'zi qulog'iga yetmoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, og'zi ochilmoq, ko'zi yumilmoq, adabini yemoq, ko'ngliga tugmoq, hafsalasi pir bo'lmoq* singari bir necha o'nlab iboralar ana shu guruhga mansub.

Iste'mol doirasi chegaralangan frazemalar guruhini umumxalq tilida kam uchraydigan va nutqda hamma vaqt ham ishlatilavermaydigan iboralar tashkil qiladi. Ular til jamoasining ayrim-ayrim guruhlari nutqida faol qo'llanadi, shuningdek, nutqning vazifaviy uslublariga befarq bo'lmaydi, balki ulardan biriga xoslanadi. Bu guruh frazemalarning ba'zilari hududiy xarakter kasb etadi, ayrimlari kasb-hunarda farqlanuvchi kishilar nutqida uchraydi. Bu xususiyat asosida o'zbek tili frazemalari ikki guruhga ajraladi:

1) hududiy (lahjaviy), ya’ni dialektal frazemalar; 2) ma’lum bir kasb-hunarga oid frazemalar.

Hududiy (lahjaviy), ya’ni dialektal frazemalarga *asht desa, dasht demoq ushlovi yo‘q; bog‘dan kelsa, tog‘dan keladi; men na deyman, qo‘bizim na deydi; moshxo‘rdaga qatiq bo‘lmoq; kosadan chora chiqarmoq, chillaki chillakini ko‘rib chumak uradi; olma olmani ko‘rib rang oladi; ko‘ngilga zig‘ir yog‘idek urmoq; ko‘nligiga dumba yog‘idek urmoq* va boshqalar kiradi.

Hududiy yoki dialektal frazemalar adabiy tildagi muqobillaridan fonetik, orfoepik va, nihoyat, ayrim lug‘aviy jihatlardan farq qiladi. Dialektal frazemalarning adabiy tildagi muqobillaridan lug‘aviy jihatdan farqi shundaki, dialektal frazema tarkibidagi leksemalardan biri adabiy tildagi muqobilinikidan farq qiladi. Masalan, **buzovdi haqi bor deb, moldi sutini ichmaydi** (*buzoqning haqi bor deb, sigir sutini ichmaydi*); **shalg‘ami chiqib ketdi** (*lavlagisi chiqib ketdi*); **oshig‘i ortiq** (*oshig‘i olchi*); **tovuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin** (*chumchuq so‘ysa ham, qassob so‘ysin*); **ahmoqqa makkayam bir qadam** (*ahmoqqa To‘yepa nima yo‘l?*); **talqon yeb suvga jo‘namoq** (*talqon yeb suvga yubormoq*); **ichi g‘ash odam** (*ko‘ngli qora odam*); **aravani bo‘s obqochmoq** (*aravani quruq obqochmoq*); **ichini chichqan kemiradi** (*ichini it tirnamoq*) va boshqalar.

Kasb-hunarga xoslangan frazemalarning doirasi hududiy frazemalarnikiga nisbatan bir oz kengroq. Ular kasb-hunarning bir necha turlariga tegishli bo‘ladi. Chunonchi: 1) dehqonchilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik bilan aloqador frazemalar: *olma pish, og‘zimga tush; shap-shap demay, shaftoli demoq; hash-pash deguncha, kampir shaftolini yeguncha; olmani olib o‘rikka ulamoq; unisi shoxida yursa, bunisi bargida yurmoq; yetti qovun pishig‘i; otshan tushsa ham, egardan tushmaslik; tuyaning bo‘yniday; tuyaning dumiday; ho‘kiz tuqqanda; molning qorni yerga tekkanda; arpasini xom o‘rmoq* va boshqalar; 2) qassobchilik bilan bog‘liq frazemalar: *pichoq qayraldi, yaloq qazildi, pichoq tortildi, jon tomiri uzildi, bo‘yni qibлага burildi* va boshqalar; 3) kosiblik, tikuvchilik,

to‘quvchilik va duradgorlik kasblari bilan bog‘liq frazemalar: *avrastarini ag‘darmoq; ipidan-ignasigacha; ignadayni tuyaday qilmoq; kalavaning uchini yo‘qotmoq; bo‘zchining mokisiday; taxi buzilmagan (gap); ip esha olmaslik; mum tishlamoq; og‘ziga suv olmoq; tesha tegmagan (gap); qirovi to‘kilmagan (yigit); boltani tagdan urmoq; ildiziga bolta urmoq* va b.; 4) pazandalik bilan bog‘liq frazemalar: *qirq qozonning qulog‘ini tishlamoq; kulni o‘z ko‘machiga tortmoq* va b.; 5) tibbiyat va tabiblik bilan bog‘liq frazemalar: *sog‘tishini sug‘urib olmoq; doriga topilmaydi; kimga dori, kimga zahar kabilar;* 6) mакtab va maorif bilan bog‘liq frazemalar: *alifni kaltak deyolmaslik; boshida alif yo‘q; harf tanimaydi; lom-mim demaslik; “a” desa, “b” demoq kabilar;* 7) huquqshunoslik sohasiga oid frazemalar: *atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, mehnat qobiliyatini yo‘qotmoq, jazoni yengillashtirmoq, jazoni og‘irlashtirmoq, aybini bo‘yniga olmoq, jinoiy ish qo‘zg‘atmoq, sessiyani ochmoq, ishni ochiq ko‘rmoq, ovoz bermoq* va boshqalar.

Iste’mol doirasi chegaralangan iboralarning bir ko‘rinishini **evfemistik** frazemalar tashkil qiladi. Ular tabu ostiga olingan biror-bir so‘zning ma’nosini ro‘yobga chiqarish uchun ishlatiladi. Masalan, “o‘g‘ri” tushunchasi *qo‘li egri, qo‘li qalb, qo‘li qaltis;* “o‘g‘irlangan” tushunchasi *suv bo‘lgan, egali bo‘lgan, gumdon bo‘lgan, umidni uzavering, fotihasini beravering, afsalosofinga ketgan, qidirish befoyda kabi evfemistik frazemalar yordamida ifodalangan.* *Qo‘li kalta, qo‘ri-quti yo‘q, indiniga yo‘q singari frazemalar orqali “kambag‘allik” tushunchasi evfemalashtirilgan.* Evfemik frazemalar ko‘pincha hududiy, kasbiy xarakterda bo‘ladi. Masalan, *biri ikki bo‘lmagan, oyog‘i mahsi ko‘rmagan, oyog‘i uzangiga yetmagan, ota-bobosi ilik yemagan, qo‘toni qurib qolgan, qo‘li qamchi ushlamagan* singari bir qator evfemistik frazemalar chorva bilan shug‘ullanuvchi hududlarda va ularning lahjalarida ishlatiladi. Evfemistik frazemalar emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikka ega bo‘ladi.

## O‘zbek tili frazemalarining nutq uslublariga ko‘ra guruhlanishi

Frazemalar nutqning vazifaviy uslublariga ko‘ra ham guruhlanadi. Bu xususiyat asosida avvalo ular ikkiga ajraladi: 1) umumuslub frazemalari (uslublararo frazemalar); 2) uslubiy xoslangan frazemalar.

Umumuslub frazemalari nutqning barcha vazifaviy uslublarida qo‘llanila oladi, ular umumtil frazemalari xarakterida bo‘ladi. Bu guruhga *ko‘ngli to‘q; aqlini yemoq; ko‘zi tinmoq; og‘zi ochilmoq; yo‘ldan urmoq; esini yemoq; gapiga uchmoq* singari iboralar kiradi.

Uslubiy xoslangan frazemalar eng avvalo ikki ko‘rinishga ega: a) adabiy nutq uchun xoslangan frazemalar; b) so‘zlashuv nutqi uchun xoslangan frazemalar. Adabiy nutq uchun xoslangan frazemalar o‘z ichida yana ikkiga ajraladi: a) ommabop va rasmiy uslubga xos frazemalar; b) badiiy uslubga xos frazemalar.

Adabiy nutq uchun xoslangan uslubning **ommabop (publisistik) va rasmiy** ko‘rinishiga *boshi berk ko‘chaga kirib qolmoq, kalavaning uchini yo‘qotmoq, yer bilan osmoncha, amalga oshirmoq, sur’atni tezlashtirmoq, imkoniyatni qo‘ldan bermaslik, imkoniyatlarni ishga solish, reja tuzish, muvaffaqiyatlarga erishish, yutuqlar oldida esankiramoq, g‘oliblikni qo‘lga kiritish, kamchiliklardan ko‘z yummaslik* singari frazemalar kiradi. Ommabop (publisistik) va rasmiy uslubda frazemalar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo‘lib, ular badiiy, siyosiy va publisistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Vaqtli matbuotdan olingan quyidagi misollarga e’tibor beraylik: 1. *Kimning beli baquvvat bo‘lsa, qo‘li ham uzun bo‘ladi, deyishadi.* 2. *Darhaqiqat, uyushma bo‘g‘zigacha qarzga botgan edi.* 3. *Nihoyat, kechasi pravlenie raisi Muhammadi G‘aniyev idoraga kirib keldi-yu, kalavaning uchi topilganday bo‘ldi.* 4. *Sohibqironga o‘rnatilgan bu muhtasham haykal mustaqillik poydevoriga qo‘yilgan oltin g‘isht bo‘ldi* va boshqalar.

**Badiiy uslubga** nasriy va nazmiy janrlarda yozilgan asarlar tilida faol ishlatiluvchi frazemalar kiradi. Masalan, *barq urmoq, nurafshon bo'lmoq, bahra topmoq, hordiq chiqarmoq, rangiga rang qo'shilmoq, gul-gul yashnamoq* shular jumlasidandir.

Badiiy nutqda umumtilga xos bo'lmagan ko'chma ma'noli iboralarga ham duch kelamizki, ular muallif tomonidan ijod qilinadi. Masalan, yozuvchi Shuhratning "Oltin zanglamas" asarida "Atlas ko'yakli, kulgisi yoqimli o'sha qiz Qodir uchun oltin uzukning suvga tushib ketgan ko'zi bo'ldi" jumlesi berilgan. Bu jumla tarkibidagi "oltin uzukning suvga tushib ketgan zumrad ko'zi" frazemadir, "nihoyatda qimmatli" ma'nosini ifodalash vazifasida. Biroq bu frazema umumtilda uchramaydi, u adib (yozuvchi) tomonidan umumtildagi "yo'qolgan pichoqning sopi oltin" iborasiga taqlidan ijod qilingan. Bunday misollar nazmiy janrda yozilgan asarlarda ham ko'p uchraydi. Masalan, shoir Odil Ikromning "Odam" sarlavhali she'rida quyidagi misralarni o'qiymiz:

*Ishg'ol etdi o'sha qadimiya da'vo,  
Yutoqqan yurakning tor yo'lagini.*

Bu she'riy parchada "yurakning tor yo'lagi" frazemasi umumtilda uchramaydi. U shoir tomonidan "tashna ko'ngil" ma'nosida ijod qilingan. Frazemalarning bu turi ham nutqning badiiy uslubiga xos va ular "individual nutq frazemasi" deb ataladi. Ular ishlatila-ishlatila, ommalashib, keyinchalik umumtil frazemasi maqomida rasmiylashishi mumkin. Yoki yana shu shoirning "Yo'qolgan hassa" she'rida ham adib tomonidan ijod etilgan va individual nutqqa xos bo'lgan "har xil holatlarga soldi" ma'nosidagi "hassalar yo'ndi" iborasi ham mavjud:

*Mehnatkash qismatim erinmay bir-bir,  
Menga turli-tuman hassalar yo'ndi.*

**Nutqning oddiy so'zlashuv** uslubiga xos frazemalar jonli nutqda faol ishlatiladi. Bularga asti qo'yavering, qovoq solmoq, yuzini burishtirmoq, eti uvishmoq, o'z soyasidan ham qo'rmoq, gapida

*tuturug ‘i yo ‘q, og ‘zi ko ‘pirmoq, qosh uchirmoq, yelkasi tirishmoq, ishi o ‘ngidan kelmaslik, pachavasi chiqmoq, rangini sarg ‘aytirmoq, ishi boshidan oshmoq, ko ‘nglingning ko ‘chasiga qara, boshingdan qolsin, oti(ng) o ‘chsin, baloga yo ‘liqmoq, o ‘zini eploimaslik, o ‘zini uddalamoq singari ko ‘plab iboralar kiradi.*

## **O‘zbek tili frazemalarining grammatik xususiyatga ko‘ra guruhlanishi**

Frazemalarning lug‘aviy birliklar, ya’ni leksemalarga o‘xshashligi, lug‘aviy birliklarga qanday lisoniy xususiyatlar xos bo‘lsa, ularning frazemalar uchun ham xos bo‘lishi haqida yuqorida ham gapirilgan edi. Shu jumladan, til lug‘at tarkibidagi birliklar – so‘z (leksemalar) so‘z turkumlarining qaysi bir turiga albatta qarashli bo‘lishi haqida ham fikr aytilgan edi. Frazemalar ham bunday xususiyatdan chetda emas, albatta. Ular ham, leksemalar kabi grammatika qonun-qoidalalariga bo‘ysunadi, o‘ziga xos morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan biri boshqasidan farq qiladi.

Frazemalar mustaqil so‘z turkumlaridan ot, sifat, fe’l, ravish lug‘aviy-grammatik kategoriyalardan biriga mansub bo‘ladi. Frazemalarning undovlarga xos ko‘rinishi ham bor. Shu xususiyat asosida ular: a) ot frazemalar; b) sifat frazemalar; d) fe’l frazemalar; e) ravish frazemalar; f) undov frazemalar singari guruhlarga ajraladi.

**Ot frazemalarga** zamona zayli, bir pul, dala malikasi, aql chirog ‘i, ko ‘ngil ko ‘chasi, umid bahori kabi lisoniy birliklar kiradi; o ‘pkasi to ‘lmoq, hushi uchmoq, dimog ‘i kuymoq, boshi osmonga yetmoq, barmog ‘ini tishlamoq, yerga qaramoq, ichiga olmoq, qovog ‘ini solmoq, pichog ‘ini qayramoq, to ‘nini teskari kiymoq, bo ‘ynini egmoq singari iboralar **fe’l frazemalarga** kiradi.

**Sifat va ravish frazemalar** miqdori ot va fe’l frazemalarinikiga nisbatan kamroqdir. Masalan, terisi qalin, oq ko ‘ngil, qattiqqo ‘l, yuki og ‘ir, bag ‘ri tosh, qo ‘nimi yo ‘q, jahli tez kabilar sifat frazemalarga kirsa; yerdan osmongacha, boshdan-oyoqqacha, bosh ko ‘tarmay, ko ‘z

*ochirmay, pinagi buzilmay* singari iboralar ravish frazemalarga qarashlidir.

**Undov frazemalar** miqdori ham nisbatan kam. Ularga “*mana, ol-a*”, “*ana ko ‘rdingmi?*”, “*qandingni ur*”, “*baraka top*”, “*otangga rahmat*” kabilar kiradi.

Ot frazemalar otga xos, fe'l frazemalar fe'lga xos barcha grammatik shakllarda kela oladi: *terisi qalin, terisi qalining, terisi qalinni, terisi qalinga, terisi qalinda, terisi qalindan; qovog‘ini soldi, qovog‘ini soladi, qovog‘ini solayotir* va h.k.

Frazemalar sintaktik jihatdan ikki guruhgaga ajraladi: 1) so‘z birikmalari xarakteridagi frazemalar; 2) gap xarakteridagi frazemalar. So‘z birikmasi xarakteridagi frazemalar: a) “ot/ot” (*ammamning buzog‘i, bosh og‘rig‘i*); b) “sifat/ot” (*katta og‘iz, yengil tabiat, mayda gap, ochiq qo‘l*); d) “ot/sifatdosh” (*doqqiyunusdan qolgan, ilonning yog‘ini yalagan, pixini yorgan, ko‘z ilg‘amas*); e) “ot/numerativ so‘zli son”(*tili bir qarich*) andazalariga egadir.

Gap xarakteridagi frazemalar sodda va qo‘shma gap ko‘rinishlarida bo‘ladi. Masalan, *afzoyi buzuq, afti sovuq, bag‘ri tosh, bag‘ri qon, boshi ko‘kda, vaqt chog‘, dumি xurjunda* (sodda gapga teng frazemalar); *yog‘ tushsa, yalaguday; bog‘ desa, tog‘ deydi; ichini yorsa, alif chiqmaydi* (qo‘shma gapga teng frazemalar). Frazemalar, qanday tarkibga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, gapda bir gap bo‘lagi vazifasida keladi.

Ot frazemalar gapda ot bajaradigan, fe'l frazemalar fe'l bajaradigan gap bo‘laklari vazifalarida kelsa, sifat frazemalar sifatlovchi aniqlovchi, ravish frazemalar ravish hollari vazifalarini bajaradi. Undov frazemalarning o‘zi alohida gapga teng keladi. Masalan,

“*Vafo qo‘shiqlari yolg‘on kuylangay*

*Xiyonat botqog‘in xush ko‘rsa ko‘ngil*” (Y.Ochilboyev) gapida uchta frazema ishtirok etgan: *vafo qo‘shiqlari, xiyonat botqog‘i, ko‘ngil xush ko‘rsa*. “*Vafo qo‘shiqlari*” iborasi bosh kelishikdagi ot frazema, u gapda ega mavqeida kelgan; “*xiyonat botqog‘i*” ham

tushum kelishigi shaklidagi ot frazemadir, gapdagi vazifasi – vositasiz to‘ldiruvchi; “*xush ko ‘rsa ko ‘ngil*” esa, fe’l frazema, u shart ergash gapning kesimi vazifasida. Yoqubjon Ochilboyev ijodiga mansub “*Yuragimni olib qo ‘limga Oshiqaman suyukligimga*” misralarida “*yuragimni qo ‘limga olib*” ravish frazema, u gapda ravish holi vazifasini bajargan.

Sifat, fe’l (sifatdosh va harakat nomi shakllari) frazemalar, otdan boshqa turkum leksemalar otlashgani kabi, otlashish xususiyatiga ega, bunday hollarda ham ular gapda otlar bajargan vazifani bajaradi. Quyida keltirilayotgan gapda fe’lning sifatdosh shaklidagi frazema (*bag ‘rini ochmagan*) otlashgan va gapda ega vazifasida kelgan:

*Go ‘zal, g ‘amgin xotiralarga*

**O‘z bag‘rin ochmagan – nomard** (Davlat Yor).

Xullas, frazemalarning grammatik xususiyati lug‘aviy sath birliklarining, ya’ni so‘zlarning grammatik xususiyatlaridan farq qilmaydi. Lug‘aviy sath birliklari grammatika qonun-qoidalariga qanday bo‘ysunsa, frazemalar ham grammatika qonun-qoidalariga o‘shanday bo‘ysunadi.

## **Uchinchi qism**

### **LEKSIKOGRAFIYA**

#### **Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot**

Leksikografiya atamasi grekcha “leksikos” va “grapho” unsurlaridan tarkib topgan, “so‘z yozmoq” ma’nosini bildirgan.

Leksikografiya tilshunoslikning lug‘at va lug‘atchilik haqida so‘z yurituvchi sohasidir. Bu lingvistik tarmoqning asosiy birligi lug‘atdir. “Lug‘at” atamasi arab tilidan olingan. U ko‘p ma’noli bo‘lib, til, lahja, sheva: so‘z, ibora ma’nolarini bildiradi. Hozirgi vaqtida bu so‘z lingvistik atama sifatida ikki ma’noda ishlataladi: 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo‘lgan, shuningdek, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so‘zlar yig‘indisi, ya’ni leksika; 2) so‘zlar (yoki morfemalar, frazemalar, so‘z birikmalarini va sh.k.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma’nolari yozilishi (imlosi), talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasi haqida ma’lumotlar jamlangan kitob.

Leksikografiyaning ish ko‘rish doirasi lug‘aviy birliklar doirasidan ancha tashqariga chiqqan bo‘lishiga qaramay, leksikologiyaning bo‘limlaridan biri sifatida qarab kelinadi.

Xullas, leksikografiya *lug‘atchilik* demakdir. Bu atama ham, tilshunoslikning boshqa sohalarida bo‘lganidek, keng doirada qaraladi: 1) lug‘at va uning turlari ma’nosini bildiradi; 2) lug‘at va ularning turlarini ilmiy o‘rganuvchi soha ma’nosida ishlataladi.

Tilning ijtimoiy mavqeini belgilashda shu tilda yaratilgan lug‘atlarning ahamiyati cheksiz katta. Lug‘atlarga nisbatan “millatning, xalqning alfavit tartibida qayd etilgan bilimi” deb bejiz aytilmagan (R.A.Budagov). Lug‘atlarda til jamoasining dunyoqarashi aks etadi, ma’naviy olami, madaniy boyligi o‘z ifodasini topadi.

Turkiy tilshunoslik, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligining poydevori lug‘atchilikdan boshlangan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, ya’ni “Turkiy so‘zlar devoni” (XI asr), Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimatul-adab”, ya’ni “Adab ilmi muqaddimasi” (XII asr) asarlari buning yorqin guvohidir. Lug‘atlar orqali ijtimoiy hayotning turli sohalari bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi, ular avloddan avlodga ma’naviy boylik sifatida meros bo‘lib o‘tadi.

O‘zbek tilshunosligi lug‘atchilik sohasida juda boy tarixga ega ekanligi quvonarli holdir. O‘rta asr leksikografiyasida asosiy e’tibor ko‘proq izohli va tarjima lug‘atlariga qaratilgan bo‘lsa-da, keyinchalik, ayniqsa, o‘tgan asrning 40-yillaridan boshlab o‘zbek tilshunosligining leksikografik yo‘nalishi ancha kengaydi. Lug‘atning ensiklopedik, imlo, orfoepik, morfem, chastotali, ters, dialektal, etimologik va h.k. turlariga poydevor qo‘yildi va bu sohada ibratli ishlar amalga oshirildi.

### **Lug‘atlarning turi va ularning tavsifi**

O‘z qamrovi, maqsadi, vazifasi va xarakteriga ko‘ra, lug‘atlar bir necha turli bo‘ladi. Dastlab ularning ikki turi ajratiladi:

- 1) ensiklopedik lug‘atlar;
- 2) lingvistik (yoki filologik) lug‘atlar.

Ensiklopedik va lingvistik lug‘atlar, eng avvalo, obyektiga ko‘ra farq qiladi. Lingvistik lug‘atlarning obyekti tilning lug‘aviy va frazemalar tizimidir. Shuningdek, lingvistikaning so‘z va frazemalardan boshqa birliklari ham, masalan, morfema, so‘z birikmalari va b. ham lingvistik lug‘atlarga obyekt bo‘laveradi.

Shuning uchun lingvistik lug‘atlarning obyekti keng va tilning ma’lum bir sathi bilan cheklanmaydi.

Ensiklopedik lug‘atlarda so‘z yoki frazemalar emas, balki tushunchalar sharhlanadi. Shuning uchun bunday lug‘atlarda so‘z va iboralarning o‘zi emas, balki ular orqali bildiriladigan voqeа, shaxs, predmet va hodisalar izohlanadi. Narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar so‘z va so‘z birikmali orqali ifodalananadi. Ana shu narsa-hodisalar haqidagi tushunchalar ensiklopedik lug‘atlarning asosiy birligi hisoblanadi. Bulardan tashqari, ensiklopedik lug‘atlarda asosan ot turkumiga oid lug‘aviy birliklar sharhlanadi. Ularning ichida atoqli otlar, masalan, tarixiy voqealar va ularning ishtirokchilari, joy nomlari bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ensiklopedik lug‘atlarda son, olmosh va yordamchi so‘zlar haqida ma’lumot berilmaydi.

### **Lingvistik (filologik) lug‘at va uning turlari**

Lingvistik lug‘atlarning asosiy maqsadi tilning barcha sath birliklarining lisoniy xususiyatlarini sharhlashga qaratilgan bo‘ladi. Ular lisoniy hodisalarning qaysi jihatи sharhlanishiga ko‘ra, bir necha xil bo‘ladi. Lingvistik lug‘atlar, eng avvalo, *o‘z til lug‘atlari* va *tarjima lug‘atlari* kabi ikki guruhga ajraladi.

*Tarjima lug‘atlari* bir tilga xos lisoniy birliklarni ikkinchi tilga o‘giradi: unda bir tilning lug‘aviy birliklariga boshqa tilning ularga ma’no va vazifada mushtarak variantlari beriladi. Bunday lug‘atlar ham ikki xil bo‘ladi: a) *o‘z tilga tarjima lug‘atlari*; b) *o‘zga tilga tarjima lug‘atlari*.

O‘z tilga tarjima lug‘atlarining namunalari sifatida “Nemischa-o‘zbekcha lug‘at” (Y.R.Benyaminov, T.Z.Mirsoatov. Toshkent, 1964), “Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at” (J.B.Bo‘ronov, X.R.Rahmonberdiyev, S.X.Barnoxo‘jayeva, E.A.Anisimov. Toshkent, 1968), “Arabcha-o‘zbekcha lug‘at” (1986), “Fransuzcha-o‘zbekcha lug‘at” (T.Aliqulov, D.Bozorova. Toshkent, 1973), “Ispancha-o‘zbekcha lug‘at” (1977), “Hindcha-o‘zbekcha lug‘at” (1987),

“O‘zbekcha-forscha o‘quv lug‘ati” (1975), “Ruscha-o‘zbekcha mukammal lug‘at” (A.Zohiriy, 1927), bir jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (1954), besh jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (1951-1955), ikki jildli “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (1983-1984) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek tilida o‘z tilga tarjima lug‘atlarining turkiy tillararo turi ham mavjud. Bu A.Mashrabov, B.Nishonov va R.Abdullayevlar hammuallifligida tuzilib, 2002-yili Bishkekda nashr etilgan “Qirg‘izcha-o‘zbekcha lug‘at” (“Kirgizcha-ozbekche sozduk”)dir. Lug‘at hajman uncha katta bo‘lmay, umumta’lim maktablari o‘quvchilari hamda oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

O‘zga tilga tarjima lug‘atlari ham anchagina. Ularga Xoksorning “Muntaxabul-lug‘at”i (forscha-o‘zbekcha, XVIII asr, Xiva); Mirzo Mahdiyxonning “Sangloh” (o‘zbekcha-forscha, XVIII asr, Eron); “O‘zbekcha-nemischa lug‘at” (1967); “Uzbeksko-russkiy slovar” (V.V.Reshetov. Toshkent, 1957), “O‘zbekcha-inglizcha lug‘at” (1969); “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha lug‘at” (K.Yudaxin, 1927); bir jildli “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (1959, 1988) kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Tarjima lug‘atlari, obyektiga ko‘ra ham ikki guruhga ajraladi: a) *ikki tilli tarjima lug‘atlari*; b) *ko‘p tilli tarjima lug‘atlari*. Yuqorida siz bunday lug‘atlarning ikki tilli turlariga keltirilgan namunalar bilan tanishdingiz.

Ko‘p tilli tarjima lug‘atlarida bir tilning lug‘aviy birliklari ikki va undan ortiq boshqa tillarning unga mos muqobillari bilan sharhlanadi. Bulardan tashqari, tarjima lug‘atlarining frazemalar sathiga xos turlari ham mavjud.

Masalan, M.Sodiqovaning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1972)da rus tilining frazeologik iboralari o‘zbek tiliga ularning ma’nodosh muqobillari bilan o‘girilgan.

O‘z til lug‘atlari ham o‘z navbatida: a) *umumiyl o‘z lug‘atlari* va b) *maxsus o‘z til lug‘atlari* kabi ikki guruhga bo‘linadi.

## **Umumiy o‘z til lug‘atlari**

Bunday lug‘atlar til leksikasining barcha qatlam so‘zlarini qamrab oladi. Umumiy lug‘atlar ham bir necha xildir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. *Izohli lug‘atlar*. Lug‘atning bunday turlarida so‘zlarning ma’nolari, qo‘llanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyatlari ko‘rsatib beriladi.

O‘zbek tilshunosligida izohli lug‘atning dastlabki namunasi sifatida 1981-yili Moskvada nashr etilgan ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni ko‘rsatish mumkin. Bu lug‘atda o‘zbek adabiy tilidagi 60 mingdan ortiq lug‘aviy birliklar sharhlangan. Keyinchalik bu lug‘at “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”) besh jildda Toshkentda nashr etildi (2006–2008-yillar). Unga hozirgi o‘zbek adabiy tili iste’molida bo‘lgan 80 mingdan ortiq lug‘aviy birliklar kiritilgan.

2. *Xorijiy so‘zlar lug‘ati*. Bu tip lug‘atda boshqa tildan o‘zlashgan so‘z va terminlar beriladi. Rus tilshunosligida xorijiy tillar lug‘ati katta hajmda nashr etilgan. Ularga 2004-yili Moskvada nashr ettirilgan “Bolshoy illyustrativniy slovar inostrannix slov”; 2003-yili Minskda nashr qilingan “Noveyshiy slovar inostrannix slov i virajeniy” kabi lug‘atlar misol bo‘ladi. Xorijiy so‘zlar lug‘ati o‘zbek tilshunosligida O.Usmon va R.Doniyorovlar tomonidan “Ruscha internatsional so‘zlar izohli lug‘ati” nomi bilan 1965- (birinchi nashri) va 1975-(ikkinchi nashri) yillarda nashr etilgan. Shu lug‘atning “V” harfidan olingan ayrim misollarga e’tibor bering:

Vagon. Temir yo‘llarda odam va yuk tashish uchun ishlataladigan berk arava. rus. ingl. – arava.

Vagonetka. Katta qurilishlarda, ishlab chiqarish korxonalarida, konlarda yuk tashiydigan ustti ochiq vagoncha. rus.: q. vagon.

Vagonovojatiy. Tramvay haydovchi. rus. Vagonovojatiy: q. Vagon/vojatiy vodit – yurgizish.

Vagonozlik. *Transport mashinasozligining vagonlar yasaydigan tarmog'i*, mas., *vagonozlik zavodi*. rus., vagonostroenie; q. *vagon*.

Vagranka. tex. *Cho 'yan eritadigan shaxtasimon pech.*

Vagrankachi. *Vagranksada ishlovchi ishchi, mutaxassis.* rus. *vagranskik* va boshqalar.

3. *Imlo lug'ati.* Imlo lug'atida so'z va atamalarning adabiy til me'yoriga muvofiq to'g'ri yozilishi beriladi. O'zbek tilshunosligida lug'atning bu turini yaratishga o'tgan asrning qirqinchi yillaridan kirishilgan.

O'zbek tili imlo lug'atlarining yaratilishida O.Usmon, S.Ibrohimov, M.Rahmonov kabi tilshunoslarning xizmati katta. Masalan, O.Usmon 1940-yili "O'zbek tilining orfografik lug'ati" (178 sahifa)ni nashr ettirgan bo'lsa, 1941-yilga kelib bunday lug'at ("O'zbek adabiy tilining orfografik lug'ati") 360 sahifa hajmida S.Ibrohimov va M.Rahmonovlar tomonidan yaratildi.

1949-ysi esa O.Usmonning "O'zbek tilining orfografik lug'ati" kengaytirilib (320 sahifa), qaytadan nashr qilindi. 1972-yilga kelib "O'zbek tilining imlo lug'ati" S.Ibrohimov, E.Begmatov va A.Ahmedovlar tomonidan yana mukammallashtirilgan holda nashr ettirildi.

4. *Orfoepik lug'at.* Orfoepik lug'atda til lug'aviy birliklarining adabiy tilga muvofiq talaffuzi beriladi. O'zbek tilshunoslida bunday lug'atning ikki namunasi mavjud. Ularning biri M.Sodiqova va O'.Usmonovalar tomonidan 1977-yili "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" nomi bilan nashr ettirilgan. Ikkinchisi esa, 1984-yili professor E.Begmatov tomonidan "O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati" nomi bilan chop ettirilgan.

5. *Morfem lug'at.* Bunday lug'atda tildagi so'zlarning morfem tizilishi beriladi. O'zbek tilshunoslida bunday lug'at ("O'zbek tilining morfem lug'ati") A.G'ulomov, A.N.Tixonov va R.Qo'ng'urovlar tomonidan 1977-yili nashr ettirilgan. Lug'atning bu turi, tuzilishi va xarakteriga ko'ra, o'z til lug'atlarining boshqa

turlaridan farq qilganligi uchun, e'tiboringizga ayrim namunalar havola qilamiz:

Yirik / la / moq	yir / il / moq
Yirik / la / sh / moq	yiri / ng
Yirik / la / sh / tir / ish	yiri / ng / la / moq
Yirik / la / sh / tir / moq	yiri / ng / la / sh

6. *Chastotali lug‘at.* Chastotali lug‘atlar so‘zlarning qo‘llanishi va foizi haqida ma’lumot beradi. O‘zbek tilshunosligida bu tip lug‘atlarga quyidagilar kiradi: I.A.Kissen. “Slovar naibolee upotrebitevnix slov sovremennoogo uzbekskogo literaturnogo yazika”. Tashkent, 1972; S.Rizayev. “O‘zbek bolalar adabiyoti tili leksikasining chastotali lug‘ati”. Toshkent, 1980; S.Rizayev, N.Bo‘ronov. “Sinchalak” povesti tili leksikasining chastotali lug‘ati”, Toshkent, 1980-yil va b.

7. *Ters lug‘at.* Lug‘atning bu turida so‘zlar teskari (orqa) tomondan o‘qilishi bo‘yicha alfavit tartibida beriladi. Shuning uchun bunday lug‘at chappa lug‘at deb ham ataladi. O‘zbek tilshunosligida ters (chappa) lug‘at R.Qo‘ng‘urov va A.Tixonovlar tomonidan tuzilib, 1969-yili Samarqandda nashr ettirilgan. U “O‘zbek tilining chappa lug‘ati” deb ataladi. Bu lug‘atdan olingan namunaga e’tibor bering:

muddat	toat-ibodat	serxarajat
bemuddat	valodat	hujjat
kandidat	shahodat	xat-hujjat
soldat	vahdat	behujjat
mandat	laureat	munojat
odat	jat	hojat
ibodat	xarajat	muhofazat
riyozat	belazzat	ijozat
lazzat	boizzat	beijozat

## **Maxsus o‘z til lug‘atlari**

Lug‘atning bunday turlarida leksikaning barcha qatlam lug‘aviy birliklari emas, balki uning (leksikaning) ayrim qatamlari yoki sathlariga oid lisoniy hodisa va birliklar alfavit tartibida beriladi. Bunday lug‘atlar ham, unga kiritilayotgan lisoniy hodisalarning turi va xarakteriga ko‘ra, bir necha xil bo‘ladi. Chunonchi:

1. ***Sinonimlar lug‘ati.*** O‘zbek tilshunosligida sinonim so‘zlar lug‘ati akademik A.Hojiyev tomonidan tuzilgan va u 1974-yili “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” nomi bilan nashr qilingan.

2. ***Antonimlar lug‘ati:*** Sh.Rahmatullayev, R.Shukurov “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”. Toshkent, 1980.

3. ***Omonimlar lug‘ati:*** Sh.Rahmatullayev. “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”. Toshkent, 1984.

4. ***Paronimlar lug‘ati:*** “Paronimlar lug‘ati” A.Ma’rufov tomonidan tuzilgan va u 1974-yili Toshkentda nashr etilgan. Unda ohangdosh so‘zlar alfavit tartibida sharhi bilan berilgan, 234 qatorni tashkil etuvchi paronimlar izohlangan. Undan ayrim namunalar keltiramiz:

### **Borlik – Borliq**

*B o r l i k – bor bo‘lish, mavjudlik.*

*Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi borligini birinchi bilar edi (A.Qodiriy).*

*B o r l i q – olam, dunyo.*

*Borliq uzra tushganda oqshom,*

*Zaynab qo‘ydi dalaga qadam (H.Olimjon).*

### **Milk – Mulk**

*M i l k – tishni tutib turadigan qism, tish o‘rni.*

*Doktorning ...kaftlarida xuddi yigirma yashar yigitning og‘zidan milklari bilan ko‘chirib olinganday bir tekis sadaf tishlar halqasi yaltirab yotar edi (gazetadan).*

*M u l k – boylik, yer-suv, ko‘p miqdordagi mablag‘.*

*Bosmachilik yo‘qolsa, boylar mol-mulkidan judo bo‘lishdan qo‘rqadi* (A.Qahhor) va boshqalar.

5. **Frazeologik lug‘at.** O‘zbek tilshunosligida frazeologik lug‘atning bir necha turlari yaratilgan. Masalan, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” (1978; 1992-yillar) o‘zbek tili frazemalari qomusiga bag‘ishlangan o‘z til lug‘ati xarakterida bo‘lsa, M.Sodiqovaning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1972), M.Abdurahimovning “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1980); M.Umarxo‘jayev va N.Nazarovlarning “Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati” (Toshkent, 1994) ikki va ko‘p tilli frazeologik tarjima lug‘atlarining namunasidir. E.Umarov tomonidan 1971-yili nashr ettirilgan “Frazeologicheskiy slovar “Xazoyinul-maoniy” Alishera Navoi” lug‘ati o‘zbek lug‘atchiligining ayrim ijodkorlar tili frazemalari tizimiga bag‘ishlangan namunasiga kiradi.

6. **Tasviriylifodalar lug‘ati.** Bunday lug‘atning ilk namunasi R.Rasulov va I.Umirovlar tomonidan tayyorlanib, 2005-yili Toshkentda nashr etilgan. U “O‘zbek tili tasviriylifodalarining izohli lug‘ati” deb ataladi. Bu lug‘atda badiiylik va emotsiyal-ekspressivlikni ro‘yobga chiqaradigan lisoniy vositalar alfavit tartibida berilgan.

7. **Evfemik lug‘at.** Lug‘atning bu turi lingvistik lug‘atlar sirasidagi eng yangilaridan biri bo‘lib, unda tabu ostiga olingan narsa-hodisalarning parafrastik ekvivalentlari alfavit tartibida beriladi. O‘zbek tilshunosligida evfemistik lug‘atning ilk namunasi sifatida A.Omonturdiyev tomonidan tayyorlanib, 2006-yili nashr ettirilgan “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”ni ko‘rsatish mumkin.

8. **Dialektal lug‘at.** Lug‘atning bu turida adabiy tilda uchramaydigan va o‘zbek tilining turli lahja va shevalari uchungina xos bo‘lgan mahalliy so‘zlar transkripsiya shaklida, alfavit tartibida beriladi. Dialektal lug‘atlarning namunalari sifatida F.Abdullayevning “Xorazm shevalari. 1-qism. Lug‘at” (Toshkent, 1971); mualliflar hamkorligida 1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”

kabilarni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, S.Ibrohimov tomonidan 1956 va 1959-yillarda ikki kitob shaklida tayyorlanib, nashr etilgan "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi" asari ham dialektal lug'atning bir ko'rinishidir.

9. **Etimologik lug'at.** Etimologik lug'atlar so'zlarning kelib chiqishi, ularning anglatgan dastlabki ma'nolari xususida ma'lumot beruvchi ilmiy manbadir.

O'tgan asrning yigirmanchi yillari boshlarida professor E.D.Polivanov tomonidan o'zbek tilining ilk etimologik lug'ati yaratilgan edi. Keyinchalik turkiy tilshunoslikda lug'atning bu turiga E.V.Sevortyan tomonidan qo'l urildi. U 1974–1984-yillar orasida to'rt jildli "Turkiy tillarning etimologik lug'ati" ("Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov")ni Moskvada chop ettirdi. 2000–2003-yillar orasida professor Sh.Raxmatullayev tomonidan "O'zbek tilining etimologik lug'ati" ikki kitob shaklida Toshkentda nashr ettirildi. Kitobning birinchesida o'zbekcha so'zlar, ikkinchesida esa, arabcha so'zlarning kelib chiqishi haqida ma'lumot berilgan.

10. **Toponimik lug'at.** Bunday lug'atda joy nomlari va ularning lisoniy va nolisoniy asoslari yoritiladi. O'zbek leksikografiyasini ham bunday lug'atlarga ega. S.Qorayev qalamiga mansub "Geografik nomlar ma'nosini bilasizmi?" (Toshkent, 1970); Z.Do'simov va X.Egamovlar tomonidan nashr qilingan "Joy nomlarining izohli lug'ati" (Toshkent, 1977); T.Nafasov tomonidan "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati" joy nomlari lug'atining ibratli namunalaridir. B.O'rino boyev tomonidan tuzilgan "Asrlardek barhayot nomlar" (Toshkent, 2003) lug'ati ham joy nomlariga bag'ishlangan bo'lib, unda Samarqand viloyati toponimlari izohlangan.

11. **Antroponimik lug'atlar.** Kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslari jamlangan va sharhlangan lug'atlar antroponimik lug'atlardir. Antroponimik lug'atlar o'zbek leksikografiyasida birinchi marta professor E.Begmatov tomonidan tuzilgan va nashr ettirilgan. Uning 14600 nomni o'z ichiga olgan va 1998 hamda 2006-yillari e'lon qilingan "O'zbek ismlari ma'nosi" lug'ati buning dalilidir. Shu

muallifning 1994-yil “Fan” nashriyoti tomonidan chop qilingan “Ismlar chiroyi” kitobining asosiy qismida ham o‘zbek ismlari izohlangan va antroponimik lug‘at xarakterini kasb etgan.

12. **Paremiologik lug‘at.** Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodining maqol, matal va aforizm xarakteridagi hodisalari ham ko‘chma ma’noli sintaktik qurilmalar ekanligi bilan frazemalarga o‘xshaydi. Bunday lisoniy-nutqiy hodisalarning to‘planib, alfavit tartibida izohlanishi ham lug‘atlar xarakterini kasb etadi va ular paremiologik lug‘at deyiladi. H.Berdiyorov va R.Rasulovlar hammuallifligida 1984-yili “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan chop qilingan “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” buning yorqin namunasidir. Bu lug‘atdan namuna sifatida “A” harfiga oid quyidagi parchani keltirish mumkin:

*Avval o ‘yla, keyin so ‘yla.*

*Avval o ‘rgan, keyin o ‘rgat.*

*Avval o ‘sgan qulqidan keyin chiqqan mo ‘g ‘iz o ‘zib ketar.*

*Avob tabib – ofati jon.*

*Adashgan aqldan ozar.*

*Adashgan yo ‘lini topsa, ayb emas.*

*Adashganni barcha kechirar.*

*Adashganni yo ‘lga sol va boshqalar.*

13. **Atamalar (terminologik) lug‘ati.** Bunday lug‘atda ma’lum bir fan va texnika, uning sohalari hamda xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga oid so‘z va atamalar izohlanadi. O‘zbek leksikografiyasida bunday lug‘atlar nihoyatda ko‘p. O‘tgan asrning 20-yillaridan 70-yillariga qadar 130 ga yaqin terminologik lug‘atlar chop qilingan. Ularning ilk namunalari sifatida N.To‘raqulov tomonidan 1922-yili nashr ettirilgan “Rus-o‘zbek tillarining ijtimoiy-siyosiy atamalari lug‘ati”, M.Mirboboyev va boshqalar tomonidan 1941-yili nashr etilgan “Qisqacha geologiya-razvedka terminlari so‘zligi”, N.V.Kimberg va M.Bahodirovlar tomonidan 1940-yili chop etilgan “Ruscha-o‘zbekcha agrotuproqshunoslik terminlari so‘zligi”, B.Mashrabov va Sh.Qosimovlar tomonidan 1970-yili nashr ettirilgan

“Qurilish terminlari lug‘ati” kabi va boshqa yana bir qator ishlarni keltirish mumkin.

Hozirga qadar o‘zbek tilshunosligida fan va texnikaning turli sohalariga bag‘ishlangan atamalar lug‘atining miqdori uch yuzga yaqinlashadi. Ular ilm-fanning turli sohalarini o‘z ichiga olgan. Xususan, “Ruscha-o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati” (M.Sobirov, 1952), “Ruscha-o‘zbekcha fizik terminlar lug‘ati” (M.D.Yagudayev, R.Mallin, 1952), “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha geografiya terminlari lug‘ati” (N.Dolimov va b., 1953), “Ximiyadan ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” (Z.Saidnosirova, T.V.Derkunskaya, 1954), “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha botanika terminlari lug‘ati” (S.Sahobiddinov, 1954), “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha tuproqshunoslik terminlari lug‘ati” (M.Bahodirov va b., 1956), “Ruscha-o‘zbekcha meteorologik lug‘at” (M.Orifxonova, 1956), “Qisqacha izohli zoologiya terminlari lug‘ati” (T.Zohidov, 1938), “Geologiyadan ruscha - o‘zbekcha terminologik lug‘at” (O.Sodiqov, 1958), “Yuridik terminlar lug‘ati” (F.Bakirov, 1959), “Ruscha-o‘zbekcha meditsina lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1962, 1971), “Ruscha-o‘zbekcha fizkultura va sport terminlarining izohli lug‘ati” (R.Ismoilov, M.Norkin, 1961), “Ruscha-o‘zbekcha pedagogika terminlari lug‘ati” (Sh.Bayburov, N.Takanayev, 1963), “Ruscha-o‘zbekcha yarim o‘tkazgich terminlarining izohli lug‘ati” (M.Azizov, 1966), “Ruscha-o‘zbekcha gidrotexnika terminlari lug‘ati” (Z.Husanxo‘jayev, 1969), “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at” (N.Hatamov, 1969), “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati” (A.Homidiy va b., 1967, 1971), “Ruscha-o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug‘ati” (N.Mamatov, 1964), “Elektr mashinalari va avtomatlashtirilgan elektrik yuritma terminlarining izohli lug‘ati” (S.Majidov, 1971) va boshqa nashr etilgan bir qator lug‘atlar shular jumlasidandir.

Bunday lug‘atlar safi mustaqillik yillari va uning arafasida yana kengaydi. Masalan, akademik A.Hojiyevning “Tilshunoslik

terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 2002), A.H.Yunusovning “Fiziologik terminlarning izohli lug‘ati” (Toshkent, 1984), H.Y.Bekmuhammedovning “Tarix terminlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, 1990), J.Umarov tomonidan tuzilib, Qo‘qonda nashr etilgan “Atamalar lug‘ati”, H.Bektemirov va E.Begmatovlar hammuallifligida nashrdan chiqqan “Mustaqillik davri atamalari” (Toshkent: Fan, 2002) kitobchasiga ilova qilingan lug‘at ana shu davrda yaratilgan.

Shuni alohida e’tirof etish zarurki, J.Umarov tomonidan tuzilgan “Atamalar lug‘ati”da umumxalq tiliga singishmaydigan tavsija variantlari ham ko‘p uchraydi. Masalan, *bosma tugma* (*knopka*), *ochmaxat // oynaxat* (*otkritka*), *qirg‘inbarot* (*terrorizm*), *oshig‘ich* (*ekstern*), *xobdori* (*tabletka*), *voqeot* (*syujet*), *ustxat* (*grif*), *toshxona* (*vanna*), *qarshidosh* (*antonim*), *mungsado // xushsado* (*melodiya*) va boshqalar shunday tavsifda.

Shunisi muhimki, terminologik lug‘atlarning aksariyati ikki va ko‘p tilli tarjima lug‘atlari xarakterida bo‘lgan. Masalan, “Qurilish terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminlari lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1970), “Atmosfera fizikasidan ruscha-o‘zbekcha lug‘ati” (A.A’zamov, E.Nazirov, 1972), “Ruscha-o‘zbekcha muzika terminlari lug‘ati” (Mualliflar jamoasi, 1970), “Astronomiyadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at” (1974), “Mashinasozlik texnologiyasi bo‘yicha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” (1973), “Ish yuritish atamalarining ruscha-o‘zbekcha qisqacha lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1994), “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha ish yuritish lug‘ati” (mualliflar jamoasi, 1995) va boshqalar o‘zbek leksikografiyasiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ldi.

O‘zbek leksikografiyasida spravochnik xarakteridagi izohli lug‘atlar bo‘yicha ham ancha ishlar qilingan. Masalan, “Mexanizatsiyalashga oid spravochnik-lug‘at” (A.Hamidov. Toshkent, 1970), “Chizmachilikdan terminologik lug‘at-spravochnik” (1977), “Tarixdan qisqacha izohli lug‘at” (1977), “Qishloq xo‘jalik texnikasiga oid lug‘at-spravochnik” (1981), “Ishlab chiqarish

texnologiyasiga doir qisqacha izohli lug‘at” (1981), “Madaniy oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug‘at” (1983) va sh.k. buning yorqin dalilidir.

**14. *Badiiy asar tilida qo‘llangan so‘zlar izohiga bag‘ishlangan lug‘atlar*.** Bunday lug‘atlar tuzish o‘zbek tilshunosligida XVI asrdan boshlangan.

Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan lug‘atlarning o‘zi o‘ntadan ortadi. 1972-yili mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan o‘n besh jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”, 1983–1984-yillari nashr etilgan to‘rt jilddan iborat “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” ularning eng yiriklari sanaladi.

Bundan tashqari, “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”ning o‘n besh jildligiga ilova qilingan lug‘at ham mavjud. Professor P.Shamsiyev va professor S.Ibrohimovlar tomonidan tuzilgan bu lug‘at ham “Navoiy asarlari lug‘ati” deb ataladi. U 1972-yili Toshkentda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida chop etilgan.

Badiiy asarlar tili bo‘yicha lug‘atlar tuzishda professor A.K.Borovkovning xizmatlari beqiyos katta. Uning xizmatlari o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida alohida qadrlanadi. Olim O‘rta Osiyo lug‘atchiligi tarixini “Abushqa”, “Sangloh”, “Xulosa-i-Abbosiy”, “Badoeul-lug‘at”, “Kelurnoma” singari asarlar tahlilida ko‘rsatishga erishdi.

A.K.Borovkov Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Badoeul-lug‘at” asarini chuqur o‘rgandi, uni nashr etilgan shu tipdagi boshqa bir qator lug‘atlar bilan qiyosladi.

Lingvistik lug‘atlarning turi bu aytilganlar bilan cheklanmaydi. Lug‘atlar ichida hali to‘la shakllantirilib, amalga oshirilmagan yana boshqa turlar ham borki, ularga *qisqartma so‘zlar lug‘ati*, *tarixiy va arxaik so‘zlar lug‘ati*, *badiiy asar nomlari lug‘ati*, *laqab va taxalluslar lug‘ati* va h.k. kabilar mansubdir.

## **Ensiklopedik lug‘atlar**

O‘tgan asrning 70-yillarida o‘zbek ensiklopediyasi (“O‘zbek sovet ensiklopediyasi”)ning yaratilishi o‘zbek tilshunosligining lug‘atchilik sohasidagi katta yutuqlaridan biri edi. Bu lug‘at o‘zbek leksikografiyasida ilk qomusiy lug‘at ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, unda sobiq sovet voqeligi, sho‘rolar siyosati, mafkurasi aks ettirilgan bo‘lib, o‘z tariximiz, milliy an’analarimiz, ma’naviy merosimiz parda ostida ko‘rsatilgan edi. Shuning uchun mustaqillik davrida milliy ensiklopediyani yaratish ehtiyoji kun tartibidagi eng dolzarb vazifaga aylangandi. Ana shu ehtiyoj mustaqillik davri o‘zbek milliy ensiklopediyasining 1-jildi yaratilishi bilan, ma’lum darajada qondirilgandek bo‘ldi. Ensiklopedik lug‘atlar ikki asosiy guruhga bo‘linadi: 1) universal, ya’ni umumiyligi ensiklopedik lug‘atlar; 2) sohaviy, ya’ni xususiy ensiklopedik lug‘atlar.

O‘zbek leksikografiyasida universal ensiklopedik lug‘at, yuqorida aytilganidek, o‘tgan asrning 70-yillarida paydo bo‘ldi (“O‘zbek sovet ensiklopediyasi”). Sohaviy ensiklopedik lug‘atlar nashr etilishi ancha avval boshlangan (bu haqda yuqorida, darslikning “*Atamalar lug‘ati*” sarlavhasi ostida ma’lumot berildi).

### **Ideografik (mavzuiy) lug‘atlar**

Lug‘atshunoslikda ideografik, ya’ni mavzuiy lug‘atlarning ahamiyati ham nazariy, ham amaliy jihatlardan cheksiz kattadir. Bunday lug‘atlar vositasida obyektiv borliq narsa-hodisalari va ularning o‘zaro munosabatlari o‘ziga xos alohida-alohida mikrotizimlar tarzida izohlanadi. Ideografik lug‘atlar tuzilishining o‘ziga xos tamoyili bor. Bu tamoyil “borliq/borliqning ongda aks etishi/nom” tartibida amal qiladi. Bu tamoyil “tushuncha”dan “so‘z”ga, “konsept”dan “belgi, ya’ni ramz”ga o‘tish jarayonini o‘z ichiga oladi.

Ideografik lug‘atlarning ilk namunalari sifatida Boburning “Voqeanoma”, Muhammad Chingiyning “Kelurnoma” lug‘atlarini keltirish mumkin. Seziladiki, ideografik lug‘atchilikda o‘zbek tilshunosligi o‘rnak bo‘larli tarixiy tajribaga ega. Muhammad Chingiy lug‘ati 15 bob, 332 fasldan iborat bo‘lib, uning oxirgi – o‘n beshinchi bobi ideografik xarakterga ega. 1300 so‘z va 6000 dan ortiq so‘z shakllarini o‘z ichiga olgan bu bob 9 mavzuga bo‘linadi: 1) osmon va u bilan bog‘liq tushunchalar; 2) yer va u bilan bog‘liq tushunchalar; 3) ot va egarlanadigan hayvonlar; 4) burgutlar va yovvoyi qushlar; 5) odam jismi a’zolari nomlari; 6) qarindoshlik nomlari; 7) qurol-yarog‘ nomlari; 8) sanoq nomlari; 9) olmosh, ravish va qo‘s Shimchalar. Masalan, mazkur bobning 1-faslida *ko‘k*, *ay*, *aydun*, *yulduz*, *hulkar*, *yaruq*, *yaruqluq*, *bulut*, *yag‘mur*, *qar*, *muz*, *chapqun* (*sovuj shamol*), *yel*, *suv*, *o‘t*, *chang*, *shudring*, *tong*, *kun*, *kunduz*, *kecha*, *erta*, *kech*, *axsham*, *qarang‘u*, *alav*, *qo‘s*, *yaz*, *savuq* va boshqa bir qancha so‘zlar ularning tojikcha-forscha tarjimasi bilan berilgan.

Professor B.Vafoyev tomonidan nashr etilgan “Ko‘hna so‘zlar tarixi” (Toshkent: Fan, 1991) ham ideografik lug‘at xarakteriga ega. Bu kitobda eski o‘zbek tili yozma manbalarida qo‘llangan ko‘pgina qadimgi turkiy (o‘zbekcha), forscha-tojikcha va arabcha so‘zlar tarixiy-etimologik jihatdan tekshirilgan. Mazkur kitobning ideografik lug‘at xarakterini kasb etishi shundaki, unda o‘rganilayotgan so‘zlar uch yirik guruhga ajratilgan: 1) o‘simliklarga mansub so‘zlar; 2) hayvonot dunyosiga mansub so‘zlar; 3) uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik buyumlarini bildiruvchi so‘zlar. Har bir guruh o‘z ichida yana boshqa mayda-mayda tagguruuhlarga bo‘lingan. Masalan, “o‘simliklar olamiga mansub so‘zlar” guruhi *meva nomlari*, *sabzavot nomlari*, *don nomlari*, *o‘simliklar nomlari*, *dehqonchilikka doir so‘zlar* singari ichki to‘dalarga ajratilgan. “Hayvonot dunyosiga mansub so‘zlar” nomi bilan ajratilgan guruhda *chorva mollari nomlari*, *vahshiy hayvonlar nomlari*, *sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari*, *qushlar nomlari* haqida ma’lumot berilgan. Uchinchi yirik guruh esa *kiyim*, *bezak*, *xo‘jalikka doir nomlar*; *ovqat* va *suyuqliklar nomlari*; *hajm*, *o‘lchov*,

*sathga aloqador nomlar; rang nomlari; idish-tovoqlar nomlari* kabi tagguruhlarga bo‘lingan.

Ideografik lug‘atning tarjima turi ham mavjud. Ideografik lug‘atning bu turiga A.N.Tixonov, N.T.Xatamov, S.A.Yemelyanova va M.Y.Tixonovalar hammuallifligida nashr etilgan “Russko-uzbeksiy tematicheskiy slovar” (Toshkent: O‘qituvchi, 1979-yil) misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, V.I.Krasnix va S.I.Gayupovlar hammuallifligida 1989-yili Moskvaning “Russkiy yazik” nashriyotida chop qilingan “O‘zbekcha-ruscha va ruscha-o‘zbekcha so‘zlashuv kitobi” (“Uzbeksko-russkiy i russko-uzbeksiy razgovornik”) ham lug‘atning ana shu turiga mansubdir. A.N.Tixonov va boshqalar hammuallifligidagi lug‘at “Tabiat” (“Priroda”), “Inson hayoti va faoliyati” (“Jizn i deyatelnost cheloveka”), “Fazo. Vaqt. Miqdor. Hisob” (“Prostranstvo. Vremya. Kolichestvo. Schyot”) kabi bo‘limlardan iborat. Har bir bo‘lim bir necha ichki mavzuiy guruhlarga ajratiladi. Sizga aniq va tushunarli bo‘lishi uchun shu lug‘atning “*Hayvon*” (“*Jivotniye*”) mavzusiga bag‘ishlangan qismidan namuna keltiramiz:

### ***Jivotnoe – hayvon***

*domashniye jivotniye – uy hayvonlari*  
*dikie jivotniye – yovvoyi hayvonlar*  
*xishniye jivotniye – yirtqich hayvonlar*  
*morskie jivotniye – dengiz hayvonlari*  
*razniye jivotniye – har xil hayvonlar*  
*vrednoe jivotnoe – zararli hayvon*  
*strashnoe jivotnoye – qo‘rqinchli hayvon*  
*bolnoye jivotnoye – kasal hayvon*  
*zdorovoye jivotnoye – sog‘lom hayvon*  
*golodnoye jivotnoye – och hayvon*  
*znakomoye jivotnoye – tanish hayvon*  
*miroyubimoye jivotnoye – yuvosh hayvon*  
*zloye jivotnoye – yovuz hayvon*  
*ogromnoye jivotnoye – g‘oyat katta hayvon*

*melkoye jivotnoye – mayda hayvon*

*opasnoye jivotnoye – xavfli hayvon*

*poleznoye jivotnoye – foydali hayvon ... va boshqalar (47- bet).*

V.I.Krasnix va S.I.Gayupovlar lug‘atida o‘n yetti mavzuiy guruh lug‘aviy birliklari haqida so‘z yuritiladi, ularning o‘zbekcha shakliga ruscha ma’nodosh ekvivalentlari berilgan. Masalan, yirik mavzuning birinchisi “*Kundalik muomala*” deb atalgan. Bu mavzu o‘z ichiga *biografiya, til, murojaat, diqqatni jalb qilish, uchrashuv, xayrlashuv, tanishuv, iltimos, maslahat, ogoh qilish, istak // xohish // niyat, taklif, rozilik, ma’qullash, uzr // kechirim so‘rash, afsuslanish, achinish, minnatdorchilik, tabriklar, tilaklar, hayrat, ajablanish, norozilik, g‘azablanish* singari tobe mavzuiy tagguruhlarga ajratilgan. Kitobning boshqa yirik mavzulari ham ularga tobe bir qator ichki tagguruhlarga bo‘lingan. Masalan, *ism // ot – imya, otasining ismi – otchestvo, ota-onalar – roditeli, bolalar // farzandlar – deti, qarindosh – rodstvennik (rodstvennitsa), ota – otets, ona – mat, aka – brat (starshiy), uka – brat (mladshiy), opa – sestra (starshaya), singil – sestra (mladshaya)* va boshqalar.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdurahmonov G‘. Milliy tillarning taraqqiyoti masalalari. – Toshkent, 1962.
2. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. Dokt. diss.... avtoref. – T., 2005.
3. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi? – T.: Fan, 1972.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969.
5. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Т.: Fan, 1985.
6. Berdialiyev A. So‘zlar olamiga sayohat. – Xujand: Nuri ma’rifat, 2012.
7. Berdialiyev A., Xidirov R. O‘zbek va tojik lisoniy aloqalari. – Dushanbe: Irfon, 2011.
8. Bektemirov X., Begmatov E. Mustaqillik davri atamalari. – Т.: Fan, 2002.
9. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке.– Т.: Fan, 1985.
10. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высш.школа, 1987.
11. Jumaniyozov O. O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari. – Т.: Fan, 1987.
12. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni). Dokt. diss.... avtoref. – Toshkent, 1999.
13. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondoshuv. – Т.: Fan, 2007.
14. Inoyatov S. Tojikcha-o‘zbekcha-ruscha tilshunoslik atamalarining qisqacha lug‘ati. – Xujand, 2010.
15. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Dokt. diss.... avtoref. – Т., 1993.

16. Kamol Faxri. Hozirgi zamon o‘zbek tili. – T., 1953.
17. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
18. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Dokt. diss.... avtoref. – T., 1991.
19. Madvaliyev A. Lug‘at va lug‘at turlari xususida // O‘zbek tili va adabiyoti, 2008. 1-son.
20. Mirtojiyev M., Tohirov Z. So‘z ma’nosining bo‘yog‘i. – T.: O‘zbekiston, 1980.
21. Mirtojiyev M. O‘zlashgan so‘z – payvand kurtagi. – T.: O‘zbekiston, 1988.
22. Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – T.: O‘zbekiston, 1992.
23. Muxammadjonova G. O‘zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba’zi masalalari. – T.: Fan, 1982.
24. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2002.
25. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995.
26. Omonturdiyev A.J. Professional nutq evfemikasi. Dokt. diss.... avtoref. – Toshkent, 2009.
27. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. – T.: Fan, 1989.
28. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. – T.: Universitet, 2002.
29. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – T., 1992.
30. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. – T.: Fan, 1970.
31. Розентал Д.А., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М., 1976.
32. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – T.: O‘qituvchi, 1996.

33. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi, 1975.
34. Usmonov S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojik-forscha va arabcha so‘zlar // Navoiyga arg‘umon. – T., 1968.
35. Usmonov S., Rasulov I., Mirzayev M. O‘zbek tili. – T., 1978.
36. Usmonov S. O‘zbek terminologiyasining ba’zi masalalari. – T.: O‘qituvchi, 1968.
37. Хидиров Р. Лексика таджикского и узбекского языков конца XX – начала XXI веков: изменения инновация. – Душанбе: Ирфон, 2010.
38. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism. Pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1980.
39. Shukurov R. O‘zbek tilida antonimlar. – T.: Fan, 1977.
40. O‘zbek shevalari leksikasi. – T.: Fan, 1991.
41. O‘zbek terminologiyasida leksik variantlar. – T.: Fan, 1986.
42. O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. – T.: Fan, 1986.
43. Qosimov N. O‘zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasi masalalari. – T.: Fan, 1985.
44. Qorayev S. Etnonimika. – T.: O‘zbekiston, 1979.
45. Hozirgi zamon o‘zbek tili. – T.: Fan, 1957.
46. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I. Fonetika, Leksikologiya, Morfologiya. – T.: Fan, 1966.

## **Mundarija**

So‘zboshi.....	3
Kirish.....	5

### **Birinchi qism LEKSIKOLOGIYA**

Leksikologiyaning obyekti va predmeti haqida.....	11
So‘z – tilning asosiy, leksikaning markaziy birligi sifatida.....	14
Leksikaning sistemalilik xarakteri haqida.....	19
Paradigmatika (paradigmatik muosabatlar).....	20
Sintagmatika (sintagmatik munosabatlar).....	23
Iyerarxiyalı munosabat.....	24
Lug‘aviy semasiologiya.....	25
So‘z va uning ma’nosи.....	25
So‘z ma’nosining semiotikaga aloqasi.....	25
Lug‘aviy ma’no va uning xususiyatlari.....	27
Lug‘aviy ma’no va tushuncha munosabati.....	29
Lug‘aviy ma’no va lug‘aviy vazifa munosabati.....	30
Lug‘aviy ma’noning ikki jabhasi.....	31
Onomastika.....	33
Lug‘aviy sathni tizim (sistema) tarzida xarakterlovchi lug‘aviy-mazmuniy qurilmalar.....	40
Lug‘aviy ko‘p ma’nolilik va uning o‘ziga xos mikroqurilma ekanligi.....	41
Lug‘aviy ko‘p ma’nolilikka yo‘l ochuvchi lisoniy va nolisoniy omillar.....	46

So‘z ma’nosining bo‘yog‘i.....	58
Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar.....	63
Shakldosh so‘zlar guruhi (lug‘aviy omonimiya).....	63
Ohangdosh so‘zlar guruhi.....	65
Ma’nodosh so‘zlar guruhi.....	66
Zid ma’noli so‘zlar guruhi.....	67
Antonimlar.....	67
Enantiosemiya.....	70
Zid ma’noli bo‘lmagan leksik birliklar va ularning lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalari.....	72
Sinonimlar.....	72
Dubletlar.....	75
Tabu.....	77
Evfemizmlar.....	78
Graduonimlar.....	80
Leksik birliklarning denotativ asosda farq qiluvchi lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalari.....	81
Giponimlar.....	82
Ekvonimlar.....	83
Partonimlar.....	85
Funksionimlar.....	86
Lug‘aviy-mazmuniy makroqurilmalar.....	88
Lug‘aviy-mavzuiy guruh (LMG).....	89
Lug‘aviy-mazmuniy maydon (LMM) .....	91
O‘zbek tilining lug‘aviy tarkibi (Leksikasi).....	95
O‘zbek tili leksikasining shakllanish va rivojlanish manbalari..	95
O‘z qatlam.....	96
So‘z o‘zlashtirish.....	100
O‘zlashma qatlam.....	104
Tojik-fors lug‘aviy o‘zlashmalari.....	109
Arab lug‘aviy o‘zlashmalari.....	113
Rus va sovet-baynalmilal lug‘aviy o‘zlashmalari.....	115
Iste’mol doirasiga ko‘ra o‘zbek tili leksikasi.....	121

Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika.....	122
Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.....	123
Dialektal leksika va uning tizimi.....	123
Ilmiy leksika va uning tizimi.....	126
Jargon, argo va ularning tizimi.....	134
Zamonaviyligiga ko'ra o'zbek tili leksikasi.....	136
Zamonaviy qatlam.....	136
Zamondosh qatlam.....	137
Neologizmlar.....	138
Arxaizmlar.....	140
Istorizmlar.....	143
Lug'aviy birliklarning nutq uslublariga ko'ra turlari.....	144
Adabiy nutqqa xoslangan lug'aviy birliklar.....	146
So'zlashuv nutqiga xoslangan lug'aviy birliklar.....	149
Lug'aviy birliklarning emotsional-ekspressivlikka ko'ra guruhlanishi.....	150
Etimologiya.....	153

## **Ikkinci qism FRAZEOLOGIYA**

Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot.....	156
Frazeologik semasiologiya.....	161
Frazemalarda bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik.....	161
Frazemalarning shakliy munosabatga ko'ra turlari.....	163
Frazemalarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari.....	164
O'zbek tili frazemalar tizimining shakllanish va rivojlanish manbalari.....	167
O'zbek tili frazemalarining iste'moliga ko'ra guruhlanishi.....	169
O'zbek tili frazemalarining nutq uslublariga ko'ra guruhlanishi.....	172
O'zbek tili frazemalarining grammatik xususiyatga ko'ra guruhlanishi.....	174

**Uchinchi qism**  
**LEKSIKOGRAFIYA**

Leksikografiya haqida umumiy ma'lumot.....	177
Lug'atlarning turlari va ularning tavsifi.....	178
Lingvistik (filologik) lug'at va uning turlari.....	179
Umumiyl o'z til lug'atlari.....	181
Maxsus o'z til lug'atlari.....	184
Ensiklopedik lug'atlar.....	191
Ideografik (mavzuiy) lug'atlar.....	191
Foydalanilgan adabiyotlar.....	195

**ABDUVALI BERDIALIYEV  
IXTIYOR ERMATOV**

**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI**

**LEKSIKOLOGIYA, FRAZELOGIYA,  
LEKSIKOGRAFIYA**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug‘iga asosan 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi bakalavri talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan (Guvohnom raqami – 237-320).*

*Muharrir: H. Zokirova  
Musahhih: S. Alimboyeva  
Dizayner: T. Shonazarov*

Nashriyot litsenziyasi AI № 223, 16.11.2012.  
Bosishga 27.08.2021 da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^1/_{16}$ .  
«Times» garniturasi. Offset usulida bosildi.  
Shartli b.t. 40,8. Nashr taboq 40,5. Adadi 1000 nusxa.  
70-raqamli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ da chop etildi.  
Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 2-uy.